O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN MUHANDISLIK-PEDAGOGIKA INSTITUTI

SOLIQLAR VA SOLIQQA TORTISH

fanidan

MA`RUZALAR MATNI

NAMANGAN 2015

Ma`ruzalar matnida soliq va soliqqa tortishning eng muhim masalalari: funksiyalari, umumdavlat soliqlari, mahalliy soliqlar va yig`imlar hamda xorijiy mamlakatlarning soliq tizimi kabilar yoritilgan.

Ma`ruzalar matni oliy o`quv yurtlarining noiqtisodiy bakalavriat talabalariga mo`ljallangan. Undan amaliyotchilar va mustaqil o`iganuvchilar ham foydalanishlari mumkin.

Tuzuvchilar: dots.A.Yuldashev
dots.M.Xusainov

Taqrizchilar: prof.Sh.Saidboyev
dots.N.Sotvoldiyev

«Kasb ta`limi» fakultetining 2015 yil 29 iyudagi kengashida muhokama qilingan va ma`qullangan. Bayonnoma 12 - son

Kasb ta`limi «Iqtisodiyot» kafedrasining 2015 yil 27 iyundagi yig`ilishida muhokama qilingan va foydalanishga tavsiya etilgan. Bayonnoma № 12. Kafedra mudiri_____dots.D.Eshonxo`jaev

M U N D A R I J A

KIRISH **3**

I bo'lim. SOLIQLARNING IQTISODIY MOHIYATI, SOLIQ TIZIMI VA SIYOSATI..... **6**

I bob. «Soliqlar va soliqqa tortish» fanining predmeti, mazmuni va uni o'rganish usullari..... **6**

1.1. «Soliqlar va soliqqa tortish» fani alohida iqtisodiy fan sifatida..... **6**

1.2. Fanni o'rganishdagi mavjud usullar..... **7**

1.3. «Soliqlar va soliqqa tortish» fanining boshqa iqtisodiy fanlar bilan o'zaro aloqasi..... **8**

Qisqacha xulosalar..... **8**

Nazorat va muhokama uchun savollar..... **9**

Asosiy adabiyotlar..... **9**

II bob. Soliqlarning iqtisodiy mohiyati va soliqqa tortish tamoyillari..... **10**

2.1. Soliqlarning ob'ektiv zarurligi va o'ziga xos xususiyatlari..... **10**

2.2. Soliqlarning umumiy belgilari va boshqa iqtisodiy kategoriyalar bilan o'zaro munosabati..... **15**

2.3. Soliqlarning funktsiyalari va vazifalari..... **16**

2.4. Soliqlarning mavjud va amaldagi tamoyillari..... **22**

Qisqacha xulosalar..... **28**

Nazorat va muhokama uchun savollar..... **29**

Asosiy adabiyotlar..... **29**

III bob. Soliq siyosati va uning asosiy yo'nalishlari..... **31**

3.1. Soliq siyosati tushunchasi va huquqiy nazariy asoslari..... **31**

3.2. Hozirgi davrda soliq siyosatini ishlab chiqish va unda davlatning roli..... **33**

3.3. Soliq siyosatining o'ziga xos xususiyatlari va rivojlantirish yo'nalishlari..... **36**

Qisqacha xulosalar..... **39**

Nazorat va muhokama uchun savollar..... **40**

Asosiy adabiyotlar..... **40**

IY bob. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimi va uning shakllanishining nazariy asoslari..... **41**

4.1. Soliq tizimi haqida tushuncha va uning mohiyati..... **41**

4.2. Soliq tizimini guruhlashning o'ziga xos jihatlari..... **41**

4.3. Soliqlarning iqtisodiy mohiyatiga ko'ra bo'linishi..... **43**

4.4. Soliqlarning byudjetga tushishiga ko'ra bo'linishi..... **46**

4.5. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimining shakllanish va rivojlanish bosqichlari..... **51**

Qisqacha xulosalar..... **55**

Nazorat va muhokama uchun savollar..... **56**

Asosiy adabiyotlar..... **56**

II bo'lim. YURIDIK SHAXSLARNI SOLIQQA TORTISH..... **57**

V bob. YUridik shaxslardan undiriladigan daromad (foyda) solig'i **57**

5.1. YUridik shaxs tushunchasi va yuridik shaxslarning turlari..... **57**

5.2. YUridik shaxslardan undiriladigan daromad (foyda) solig'ini to'lovchilar va soliq solish ob'ekti..... **59**

5.3. Jami daromad tarkibi va jami daromaddan chegirmalar..... **60**

5.4. YUridik shaxslarning daromadiga (foydasiga) solinadigan soliq **65**

stavkalari.....
5.5. YUridik shaxslardan undiriladigan daromad (foyda) solig'i bo'yicha belgilangan imtiyozlar..... 67
5.6. Norezidentlar hamda chet ellik yuridik shaxslarning daromadlariga (foydasiga) soliq solish xususiyatlari..... 69
5.7. YUridik shaxslardan undiriladigan daromad (foyda) solig'ini hisobga olish tartibi..... 70
5.8. YUridik shaxslardan undiriladigan daromad (foyda) solig'ini hisoblash mexanizmi va to'lash tartibi..... 72
Qisqacha xulosalar..... 73
Nazorat va muhokama uchun savollar..... 73
Asosiy adabiyotlar..... 74
VI bob. Qo'shilgan qiymat solig'i..... 75
6.1. Qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchilar..... 75
6.2. Qo'shilgan qiymat solig'ining soliq solish ob'ekti..... 76
6.3. Soliq solinadigan aylanmani aniqlash va soliq solinadigan aylanmaning o'zgartirilishi..... 77
6.4. Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha belgilangan soliq imtiyozlari. 81
6.5. Qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi va hisoblash tartibi..... 91
6.6. Qo'shilgan qiymat solig'ini to'lash tartibi va muddatlari..... 99
6.7. Qo'shilgan qiymat solig'ini Respublika byudjetiga o'tkazish tartibi..... 101
6.8. Hisobvaraq-fakturani to'ldirish tartibi..... 102
6.9. Bojxona yuk deklaratsiyasida qo'shilgan qiymat solig'ini aks ettirish tartibi..... 105
Qisqacha xulosalar..... 106
Nazorat va muhokama uchun savollar..... 106
Asosiy adabiyotlar..... 106
VII bob. Aktsiz solig'i..... 108
7.1. Aktsiz solig'ini to'lovchilar..... 108
7.2. Aktsiz solig'ining soliq solish ob'ekti..... 108
7.3. Aktsiz solig'i bo'yicha belgilangan soliq imtiyozlari..... 109
7.4. Aktsiz solig'i stavkalari va hisoblash tartibi..... 110
7.5. Alohida tovarlar bo'yicha byudjetga to'lanadigan aktsiz solig'ini hisoblab chiqishning xususiyatlari..... 118
Qisqacha xulosalar..... 120
Nazorat va muhokama uchun savollar..... 121
Asosiy adabiyotlar..... 121
VIII bob. YUridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i..... 123
8.1. YUridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ini to'lovchilar 123
8.2. YUridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ining soliq solish ob'ekti..... 123
8.3. YUridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i stavkalari..... 125
8.4. YUridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i bo'yicha belgilangan imtiyozlar..... 126
8.5. YUridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ini to'lash tartibi..... 129
Qisqacha xulosalar..... 132
Nazorat va muhokama uchun savollar..... 132
Asosiy adabiyotlar..... 133
IX bob. YUridik shaxslardan undiriladigan er solig'i..... 134
9.1. YUridik shaxslardan undiriladigan er solig'ini to'lovchilar va soliq solish 134

ob'ekti.....
9.2. YUridik shaxslardan undiriladigan er solig'i stavkalari..... 134
9.3. YUridik shaxslardan undiriladigan er solig'i bo'yicha belgilangan imtiyozlar..... 136
9.4. YUridik shaxslardan undiriladigan er solig'ini hisoblash va to'lash tartibi..... 141
Qisqacha xulosalar..... 144
Nazorat va muhokama uchun savollar..... 144
Asosiy adabiyotlar..... 144
X bob. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i..... 146
10.1. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini to'lovchilar..... 146
10.2. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ining soliq solish ob'ekti va soliq stavkalari..... 146
10.3. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini hisoblash tartibi..... 147
10.4. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini to'lash muddatlari..... 148
Qisqacha xulosalar..... 149
Nazorat va muhokama uchun savollar..... 149
Asosiy adabiyotlar..... 149
XI bob. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq..... 151
11.1. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lovchilar..... 151
11.2. Suv resurslaridan foydalanganlik solig'ining soliq solish ob'ekti va soliq stavkalari..... 151
11.3. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha belgilangan imtiyozlar..... 152
11.4. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblash tartibi va to'lash muddatlari..... 153
Qisqacha xulosalar..... 156
Nazorat va muhokama uchun savollar..... 156
Asosiy adabiyotlar..... 156
XII bob. Er osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq..... 158
12.1. Er osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lovchilar va soliqqa tortish ob'ektlari..... 158
12.2. Er osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari.. 159
12.3. Er osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliqdan belgilangan imtiyozlar..... 159
12.4. Er osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblash va to'lash tartibi..... 160
Qisqacha xulosalar..... 161
Nazorat va muhokama uchun savollar..... 161
Asosiy adabiyotlar..... 162
III bo'lim. JISMONIY SHAXSLARNI SOLIQQA TORTISH..... 163

XIII bob. Jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig'i..... 163
13.1. Jismoniy shaxslar daromad solig'ining iqtisodiy mohiyati, mazmuni va ob'ektiv zarurligi..... 163
13.2. Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishning huquqiy asoslari..... 165
13.3. Jismoniy shaxslarning daromadidan olinadigan soliqni to'lovchilar tarkibi va 168

soliqqa tortish ob'ekti..
13.4. Jismoniy shaxslar daromadlaridan olinadigan soliq stavkalari va soliqni hisoblash mexanizmi..... 173
13.5. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha belgilangan imtiyozlar tizimi..... 184
Qisqacha xulosalar..... 192
Nazorat va muhokama uchun savollar..... 192
Asosiy adabiyotlar..... 193
XIV bob. Jismoniy shaxslarning tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlarini soliqqa tortish..... 194
14.1. Tadbirkor jismoniy shaxslarni soliqqa tortish zarurati va xususiyatlari..... 194
14.2. YUridik shaxs tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar uchun qat'iy belgilangan soliq..... 195
14.3. Qat'iy belgilangan soliq stavkalari, to'lash tartibi va muddatlari..... 197
14.4. Alohida turdagi tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchilar uchun qat'iy soliq, uni to'lovchilari va soliqqa tortish ob'ekti..... 200
14.5. Tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq stavkalari, hisoblash tartibi va to'lash muddatlari..... 201
Qisqacha xulosalar..... 202
Nazorat va muhokama uchun savollar..... 203
Asosiy adabiyotlar..... 203
XV bob. Jismoniy shaxslar daromadlarini deklaratsiyalash tartibi 205
15.1. Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadlarini deklaratsiyalashning mohiyati va tartibi..... 205
15.2. Jismoniy shaxslarni jami yillik daromadlarini deklaratsiyalash mexanizmi..... 207
15.3. Jami daromadni deklaratsiyalash tartibini buzganlik uchun jazo choralari..... 217
Qisqacha xulosalar..... 217
Nazorat va muhokama uchun savollar..... 218
Asosiy adabiyotlar..... 218
XVI bob. Jismoniy shaxslardan undiriladigan mol-mulk solig'i..... 219
16.1. Jismoniy shaxslar mol-mulk solig'ining iqtisodiy mohiyati, me'yoriy-huquqiy asoslari va davlat byudjeti daromadlaridagi salmog'i..... 219
16.2. Jismoniy shaxslar mol-mulk solig'ining to'lovchilari, soliqqa tortish ob'ekti va soliq stavkalari..... 225
16.3. Jismoniy shaxslardan undiriladigan mol-mulk solig'i bo'yicha belgilangan imtiyozlar..... 231
16.4. Jismoniy shaxslar mol-mulk solig'ini hisoblab chiqarish hamda to'lash tartibi..... 233
Qisqacha xulosalar..... 234
Nazorat va muhokama uchun savollar..... 235
Asosiy adabiyotlar..... 235

XVII bob. Jismoniy shaxslardan undiriladigan er solig'i..... 236
17.1. Jismoniy shaxslardan undiriladigan er solig'ining iqtisodiy mohiyati, ahamiyati, soliq 236

solish ob'ekti va to'lovchilari.....
17.2. O'zbekistonda er solig'ining rivojlanish bosqichlari va me'yoriy-huquqiy asoslari..... **240**
17.3. Jismoniy shaxslardan undiriladigan er solig'ining stavkalari..... **244**
17.4. Jismoniy shaxslardan undiriladigan er solig'i bo'yicha belgilangan imtiyozlar..... **248**
17.5. Jismoniy shaxslardan undiriladigan er solig'ini hisoblash va to'lash tartibi..... **251**
Qisqacha xulosalar..... **253**
Nazorat va muhokama uchun savollar..... **253**
Asosiy adabiyotlar..... **254**
Ilovalar **255**
Izohli lug'at..... **294**
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati..... **298**
Mundarija..... **304**

KIRISH

Amaldagi soliq tizimini bozor iqtisodiyoti tamoyillari asosida isloh qilish sharoitida ta'lim tizimida soliq sohasidagi bilimlarni o'rganish, tahlil qilish va ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish muhim ahamiyatga ega bo'lish eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston mustaqillikka erishib, iqtisodiy islohotlar yo'lini tanlaganidan so'ng, oldimizda mamlakatimizning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, boshqa bozor iqtisodiyotiga o'tishdek murakkab jarayonni boshidan kechirgan rivojlangan va rivojlanayotgan xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalaridan kelib chiqqan holda mohiyatan yangi soliq tizimini vujudga keltirish vazifasi turar edi.

Bozor munosabatlari, xo'jalik yuritishning yangi shakllari rivojlanishi bilan soliq qonunchiligiga zikr etilgan tamoyillardan kelib chiqadigan hamda islohotlarning tegishli bosqichi sharoitiga mos keladigan jiddiy o'zgarishlar amalga oshirildi.

Prezidentimiz I.A. Karimov 2007 yilning 12 fevralida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2007 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan majlisidagi ma'ruzasida iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy ustuvor yo'nalishlari belgilab berilib, avvalo mamlakatni modernizatsiya qilish va demokratik yangilash, jamiyatni erkinlashtirish, aholi turmush darajasini yuksaltirish borasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarni yanada chuqurlashtirish zaruratidan kelib chiqqan holda ish olib borilishi ta'kidlandi va birinchi ustuvor yo'nalish sifatida «Iqtisodiyotning barqaror va mutanosib sur'atlarda o'sishi hamda tarkibiy o'zgarishlar va modernizatsiyalashni ta'minlash, uning eng muhim tarmoqlarini texnik va texnologik jihatdan yangilash, soliq siyosatini yanada erkinlashtirishdan iborat»[1] deb e'tirof etildi.

O'tgan davr mobaynida davlat soliq xizmati organlari tarkibini malakali kadrlar bilan ta'minlashga katta e'tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda davlat soliq xizmati xodimlarini tayyorlashda o'quv qo'llanma va darsliklar tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. «Soliqlar va soliqqa tortish» fani «Soliqlar va soliqqa tortish» ta'lim yo'nalishi talabalari uchun asosiy mutaxassislik fani hisoblanib, talabalarda o'z tanlagan mutaxassisliklari bo'yicha bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

V.G. Panskovning "Nalogi i nalogooblojenie v RF" darsligida asosan bugungi kunda Rossiya Federatsiyasi soliq tizimi, soliq siyosatining strategiyasi, soliq qonunchiligi va amalda bo'lgan soliqlar va soliqsiz to'lovlar tizimining tahlili bayon etilgan. Mazkur darslikda kitobxonlarga soliq turlari, soliqlarni hisoblash va byudjetga undirish mexanizmi kabi amaliy materiallar keltirilgan bo'lib, soliqqa tortish amaliyotida foydalanish uchun mo'ljallangan. T.F. YUtkinaning "Nalogi i nalogooblojenie" darsligida soliqqa tortishning nazariy va huquqiy asoslari haqida fikr yuritilgan. Darslikda soliqlar va soliq munosabatlarining shakllanish hamda

[1] Karimov I.A. YAngilanish va barqaror taraqqiyot yo'lidan yanada izchil harakat qilish, xalqimiz uchun farovon turmush sharoiti yaratish – asosiy vazifamizdir. "Xalq so'zi" gazetasi, 13 fevral 2007 yil. 2-5 betlar.

rivojlanish bosqichlariga katta ahamiyat berilgan. A. Evstigneevning 2003 yilda nashr qilingan “Nalogi – kak ekonomicheskaya kategoriya” nomli qo’llanmasida esa soliqlarning mohiyati, funktsiyalari, o’ziga xos belgilari alohida-alohida yoritilgan bo’lib, soliqlarning iqtisodiyotni boshqarishdagi roliga kamroq e’tibor qaratilgan.

I.M. Aleksandrovning “Nalogi i nalogooblojenie” darsligida Rossiya Federatsiyasida soliq tizimi va siyosatining o’ziga xos xususiyatlari hamda asosiy yo’nalishlariga katta e’tibor berilgan bo’lib, soliqlarni hisoblash va byudjetga undirish mexanizmining amaldagi uslubiyoti etarli darajada yoritib berilmagan.

Bugungi kunda soliqlar va soliq munosabatlari respublikamiz iqtisodchi olimlari tomonidan ham bir necha ilmiy adabiyotlarda o’rganilib nazariy va amaliy tadqiqotlar olib borilgan. Professor Q.A. YAhyoevning “Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti” darsligida soliqlar va soliqqa tortishning nazariy va amaliy masalalari ko’rib o’tilgan bo’lib mazkur adabiyotda asosan soliq tizimini rivojlantirishning birinchi va ikkinchi bosqichlaridagi soliq islohotlari natijalari keltirilgan.

I.A. Zavalishinaning “Soliqlar: nazariya va amaliyot” kitobida soliqlarni uch bo’limga bo’lgan holda o’rganadi. Muallif kitobning birinchi bo’limida soliqqa tortishning nazariy asoslarini ko’rib chiqqan. Ikkinchi bo’lim soliq qonunchiligiga bag’ishlangan. Mazkur adabiyotning uchinchi bo’limida soliq tizimidagi soliqlar va yig’imlar, ularni hisoblash, byudjetga o’tkazish tartibi, norezidentlarni soliqqa tortish, maxsus soliq rejimlari, bojxona to’lovlari hamda byudjetdan tashqari majburiy to’lovlarni undirish mexanizmi batafsil yoritilgan.

Mazkur o’quv qo’llanma yuqorida qayd etilgan adabiyotlardan shunisi bilan farq qiladiki, unda soliqlarning iqtisodiy mohiyati, ahamiyati, ob’ektiv zarurligi, soliq tizimida va davlat byudjeti daromadlaridagi salmog’i, soliq tizimining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari, soliq siyosatining asosiy yo’nalishlari, yuridik shaxslarni soliqqa tortish tartibi, ular to’laydigan soliqlar va soliqqa tenglashtirilgan to’lovlarni undirish mexanizmi, shuningdek jismoniy shaxslarni soliqqa tortish uslubiyotining amaldagi holati batafsil yoritilgan.

Soliq tushunchasi paydo bo’lganidan boshlab, uni joriy qilish va soliq munosabatlarini rivojlantirish bilan muntazam shug’ullanib kelingan. Soliqlar bo’yicha klassik iqtisodchi olimlardan A. Smit, D. Rikardo, U. Petti, N. Turgenov, D. YUm, A. Laffer hamda hozirgi zamon iqtisodchi olimlaridan R. Kempbell, K. Makkonel, V. Tverdoxlebov, S. Fisher, A. Voznesenskiy, V. Gluxov, E. Teyt, E. Glazova, D. CHerniklarning asarlarida batafsil yoritilgan. Bundan tashqari respublikamiz iqtisodchi olimlaridan I.A. Karimov, M. SHarifxo’jaev, S.S. G’ulomov, H. Sobirov, Q. YAhyoev, T. Malikov, N. Haydarov, E. Gadoev, O. Olimjonov, M. Alimardonov, B. Toshmurodova, SH. Gataulin, D. SHaulov kabilarning ilmiy asarlarida soliqlar va soliq munosabatlari to’g’risida fikr yuritilgan. Mazkur qo’llanmani yaratish jarayonida yuqorida nomlari zikr etilgan iqtisodchi olimlarning soliqlar bo’yicha olib borgan ilmiy ishlaridan keng foydalanildi. SHu bilan birgalikda O’zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi, Prezident Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining Qarorlari, O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Davlat soliq qo’mitasi tomonidan tasdiqlangan

me'yoriy hujjatlar va Internet tarmog'i ma'lumotlaridan hamda Davlat soliq qo'mitasi hisobot materiallaridan keng foydalanildi.

I bo'lim. SOLIQLARNING IQTISODIY MOHIYATI, SOLIQ TIZIMI VA SIYOSATI

I bob. "SOLIQLAR VA SOLIQQA TORTISH" FANINING PREDMETI, MAZMUNI VA UNI O'RGANISH USULLARI

1.1. «Soliqlar va soliqqa tortish» fani alohida iqtisodiy fan sifatida

«Soliqlar va soliqqa tortish» fani soliqlarning iqtisodiy mohiyati, ahamiyati, funktsiyalari, soliqlarni hisoblash va byudjetga undirish mexanizmini o'rganishdagi asosiy fan hisoblanadi. Fanning predmetiga to'xtalishdan oldin «Soliq» kategoriyasiga qisqacha to'xtalib o'tadigan bo'lsak, «Soliq» kategoriyasi — bu muhim iqtisodiy jarayon bo'lib, uning paydo bo'lishi va amal qilishi kishilik jamiyatining mavjudligi bilan chambarchas bog'liqdir. Soliqlar har bir davlat faoliyatining moddiy jihatlarini ta'minlaydi. Jahon iqtisodiyoti taraqqiyotida soliqlar iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning muhim vositasi hisoblanadi.

Amaliyotda va umuman iqtisodiy fanda soliqlarning mohiyatiga nisbatan turlicha qarashlar mavjud. SHu sababli ushbu kategoriyadan har bir davlat tomonidan o'ziga xos tarzda foydalaniladi.

Davlat asta sekin rivojlanib borishi bilan, uning funktsiyalari ham muvofiq ravishda kengayib boradi. Bu esa soliqlarga nisbatan qo'yiladigan talabning kuchayishiga olib keladi. SHu sababli soliq tizimi tobora murakkab va ko'p qirrali bo'lib boradi. Kishilik jamiyati rivojlanishi tarixi shuni ko'rsatadiki, davlat ma'muriy boshqaruv bilan shug'ullangan hollarda uning ehtiyojlari ma'lum darajada saqlanib qoladi, davlatning iqtisodiyotni boshqarish majburiyati paydo bo'lsa, uning xarajatlari va aholidan olinadigan tushumlari ko'payadi. Bunday holatda soliqlarning shakllari pang-baranglashib boradi.

Hozirgi kunda har bir fanni o'rganishda uni talabalarga to'liq etkazish, talabalarni fikrlashga undash va jalb etish, shu orqali etuk mutaxassislarni tayyorlash maqsadi yotadi. Fanni o'rganishda hozirgi davrning ilg'or uslublaridan va o'qitishning ilg'or pedagogik texnologiyalaridan keng foydalaniladi.

«Soliqlar va soliqqa tortish» fanining predmeti – bu soliq to'lovchilarning soliqlar va ularga tenglashtirilgan to'lovlarning iqtisodiy mohiyati, davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishdagi ahamiyati, soliq tizimi va siyosati, soliq turlarlari bo'yicha belgilangan imiyozlar tizimi, soliqlarni hisoblash mexanizmining amaldagi holatini o'rganishdan iborat. Jumladan, soliq to'lovchilar va uni o'zlashtiruvchi, davlat byudjeti, majburiy to'lovlar, moliyaviy munosabatlar kabi elementlarning o'zaro iqtisodiy munosabatlarga kirishish jarayonlarining uslubiy jihatlari, qirralari keng ko'lamda o'rganiladi.

1.2. Fanni o’rganishdagi mavjud usullar

Har bir fanning shakllanishi fan predmeti shakllanishi bilan birgalikda, uning ilmiy bilish usullari qaror topishi bilan ham bog’liq. Har qanday fanni o’rganishdagi usullar umumiy tavsifga ega, lekin har bir fan o’z predmetidan kelib chiqib, o’zining ilmiy bilish usullariga ega. SHuning uchun fanni o’rganishdagi usullar umumiy va alohida usullarga bo’linadi.

Tabiat, jamiyat va tafakkurning rivojlanish qonunlarini o’rganishning birdan-bir to’g’ri ilmiy usuli dialektik usuldir. SHuning uchun ham ushbu ilmiy bilish usuli barcha fanlarning, shu jumladan soliq nazariyasi fanining ham nazariy va metodologik asosini tashkil etadi. Dialektik usul shuni ko’rsatadiki, rivojlanish quyidan yuqoriga qarab sodir bo’ladi. Bilish esa oddiydan murakkabga tomon rivoj topib boradi. SHuning uchun ushbu usul tadqiqotning induktsiya va deduktsiya usullarini o’z ichiga oladi.

Xususiy, yakka fakt olinib, uning asosida umumiy qoida hosil qilinadigan bo’lsa – induktsiya hisoblanadi. Avval boshdanoq barcha xususiy hollarni o’z ichiga olgan umumiy qoida hosil qilinsa – deduktsiya hisoblanadi.

SHu bilan birga barcha iqtisodiy fanlar kabi «Soliqlar va soliqqa tortish» fanining ham o’ziga xos ilmiy bilish usullari mavjud. Ulardan biri ilmiy abstraktsiya usulidir. Ilmiy abstraktsiya usulining mohiyati shundan iboratki, bunda tahlil paytida ob’ektning faqat bir tomoniga, o’rganilayotgan jarayonning asl mohiyatiga e’tibor qaratiladi va halal berishi mumkin bo’lgan ikkinchi darajali unsurlarning ta’siri e’tiborga olinmaydi.

“Soliqlar va soliqqa tortish” fani shuningdek, o’z predmetini o’rganishda nazariy tahlil va sintez usulidan ham foydalanadi. Tahlil - o’rganilayotgan butun ob’ektni qismlarga ajratish va ularni izchillik bilan tahlil qilish bo’lsa, sintez esa o’rganilgan qismlardan olingan xulosa va natijalarni bir butun yaxlit jarayon deb qarab, umumiy xulosa chiqarishdir. Soliq turlarini hisoblash va byudjetga undirish tartiblarining amaliy masalalari mazkur yo’l bilan o’rganiladi.

Fanni o’rganishda makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy holda tahlilni qo’shib olib borish muhim o’rin tutadi. Soliqlarni hisoblash va byudjetga to’lashning amaldagi masalalarini mikroiqtisodiy jihatdan o’rganishda iqtisodiyotning boshlang’ich bo’g’ini bo’lgan xo’jalik yurituvchi sub’ektlar nuqtai nazaridan, ular bilan davlat byudjeti o’rtasidagi munosabatlar tadqiq etilsa, makroiqtisodiy jihatdan tahlil etishda esa, davlat miqyosida, ya’ni soliqlar va soliq munosabatlariga doir masalalar makroiqtisodiy darajada o’rganiladi.

SHuningdek, fanni o’rganishda taqqoslash, statistik, grafik usullardan ham foydalaniladi. Jumladan soliqlarni davrlar bo’yicha taqqoslash, ulardan tushumlarni jadvallar orqali ifodalash, o’zgarishlarni aniqlash, ularga nazariy jihatdan baho berish, soliqlarning boshqa iqtisodiy kategoriyalarga ta’sirini grafik usulda tasvirlash va shu kabilardir. Masalan, soliqlar o’zgarishini yalpi talab va yalpi taklifga ta’sirini mana shu usul bilan ifodalash mumkin.

Fanni o’rganishda taqqoslash, statistik va grafik usullardan keng foydalanilgan holda ularning har biri o’ziga xos yo’nalishlarni aks ettirib, biri soliq tushumlarini jadval orqali, biri davrlar bo’yicha taqqoslash, biri esa o’zgarishlarni

grafik usulda o'rganishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Biz bu fanni o'rganishda bu usullardan keng ko'lamda foydalanishimiz uchun eng ahamiyatlisini tanlab olishimiz lozim bo'ladi.

1.3. «Soliqlar va soliqqa tortish» fanining boshqa iqtisodiy fanlar bilan o'zaro aloqasi

Soliqlar va soliq munosabatlariga doir bilimlarni o'rganishda bir qator iqtisodiy fanlarni ham o'rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Barcha iqtisodiy fanlar bir-birini to'ldirib boradi va o'rganish uslublarini osonlashtiradi. Biz "Soliqlar va soliqqa tortish" fanini o'rganishda "Soliq nazariyasi", «Iqtisodiyot nazariyasi», «Moliya» va «Pul kredit va banklar» kabi iqtisodiy fanlar bilan birgalikda o'rganamiz.

«Soliqlar va soliqqa tortish» fani «Iqtisodiyot nazariyasi» fani bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uning maxsus kengaytirilgan bo'limidir. CHunki soliqlar va soliq munosabatlarining qonuniyatlari umumiqtisodiy nazariya qonuniyatlaridan chetga chiqmasdan, ularga asoslanadi.

«Soliqlar va soliqqa tortish» fani «Soliq nazariyasi» fani bilan ham o'zaro aloqadorlikda o'rganiladi. «Soliq nazariyasi» fani soliqlar va soliq munosabatlarining nazariy asoslarini o'rgansa, «Soliqlar va soliqqa tortish» fanida esa soliqlarni hisoblash va byudjetga to'lash mexanizmidagi amaliy va uslubiy asoslar o'rganiladi.

Qisqacha xulosalar

Davlat asta - sekin rivojlanib borishi bilan, uning funktsiyalari ham muvofiq ravishda kengayib boradi. Bu esa soliqlarga nisbatan qo'yiladigan talabning kuchayishiga olib keladi. SHu sababli soliq tizimi tobora murakkab va ko'p qirrali bo'lib boradi. Kishilik jamiyati rivojlanishi tarixi shuni ko'rsatadiki, davlat ma'muriy boshqaruv bilan shug'ullangan hollarda uning ehtiyojlari ma'lum darajada saqlanib qoladi, davlatning iqtisodiyotni boshqarish majburiyati paydo bo'lsa, uning xarajatlari va aholidan olinadigan tushumlari ko'payadi. Bunday holatda soliqlarning shakllari pang-baranglashib boradi.

«Soliqlar va soliqqa tortish» fanining predmeti –soliq to'lovchilarning soliqlar va ularga tenglashtirilgan to'lovlarning iqtisodiy mohiyati, davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishdagi ahamiyati, soliq tizimi va siyosati, soliq turlarlari bo'yicha belgilangan imiyozlar tizimi, soliqlarni hisoblash mexanizmining amaldagi holatini o'rganishdan iborat. Jumladan, soliq to'lovchilar va uni o'zlashtiruvchi, davlat byudjeti, majburiy to'lovlar, moliyaviy munosabatlar kabi elementlarning o'zaro iqtisodiy munosabatlarga kirishish jarayonlarining uslubiy jihatlari, qirralari keng ko'lamda o'rganiladi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. «Soliqlar va soliqqa tortish» fanini o'qitishning maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
2. «Soliqlar va soliqqa tortish» fanini o'qitish nima uchun kerak?

3. Fanni o'rganishdagi alohida usullar haqida tushuncha bering?
4. «Soliqlar va soliqqa tortish» fani qaysi iqtisodiy fanlar bilan aloqadorlikda o'rganiladi?
5. Fanni o'rganishdagi umumiy usullar haqida tushuncha bering?
6. «Soliqlar va soliqqa tortish» fani soliq munosabatlarining qaysi jihatlarini o'rgatadi?
7. «Soliqlar va soliqqa tortish» fanining soliq xizmati xodimlarini tayyorlashdagi roli qanday?
8. «Soliqlar va soliqqa tortish» fanini o'rganishning qanday usullari mavjud?

Asosiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. –T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2006. -152 bet.
2. O'zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi Qonuni. - T.:// Xalq so'zi, 1997 yil, 29 avgust. 1-2 bet.
3. Karimov I.A. YAngilanish va barqaror taraqqiyot yo'lidan yanada izchil harakat qilish, xalqimiz uchun farovon turmush sharoiti yaratish – asosiy vazifamizdir. // Xalq so'zi, 2007 yil 13 fevral.
4. Alimardonov M.I., To'xsanov Q.N. Soliq nazariyasi. – T.: O'zbekiston YOzuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005.
5. YAhyoev Q.A. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti: Darslik (qayta ishlangan) - T.: Fan va texnologiyalar markazi, 2003. -247 bet.
6. YUtkina G.F. Nalogi i nalogooblojeniya: Uchebnik – M.: INFRA-M, 2001. - 429 s.
7. http://www.nalog.ru (Rossiya Federatsiyasi Davlat soliq xizmati sayti).
8. http://www.soliq.uz (O'z R Davlat Soliq Qo'mitasi sayti).

II bob. SOLIQLARNING IQTISODIY MOHIYATI VA SOLIQQA TORTISH TAMOYILLARI

2.1. Soliqlarning ob'ektiv zarurligi va o'ziga xos xususiyatlari

Soliqlarning amal qilishi bu ob'ektivlikdir, chunki jamiyatni tashkil etuvchi individlarning hammasi ham real sektorda (ishlab chiqarish sohasida) faoliyat ko'rsatmaydi. Jamiyatda boshqalar tomonidan rad etilgan yoki shug'ullanish iqtisodiy samarasiz bo'lgan sohalar ham mavjudki, bular soliqlarni ob'ektiv amal qilishini talab etadi. Aniqroq qilib aytganda jamiyatni norentabel (mudofaa, meditsina, fan, maorif, madaniyat va boshq.) va rentabel sohaga ajralishi hamda norentabel sohani moliyalashtirishning tabiiy zarurati soliqlarni ob'ektiv amal qilishini zarur qilib qo'yadi, norentabel sohaning ijtimoiy xizmatlari asosan davlat tomonidan amalga oshiriladiki, ularni moliyalashtirish usuli sifatida yuzaga chiquvchi soliqlar ham shu tufayli bevosita davlatga tegishli bo'ladi.

Soliqlarning ob'ektiv zarurligini bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida ikki holat: birinchidan, davlatning qator vazifalarini mablag' bilan ta'minlash zarurligi, ikkinchidan, bozor iqtisodiyoti qonun-qoidalari bilan ifodalash mumkin.

Davlatning bajaradigan funktsiyalari va vazifalari ko'p bo'lib, bozor iqtisodiyoti rivojlana borishi bilan ba'zi ijtimoiy himoyalangan bozor munosabatlariga mos kelmaydigan vazifalar yo'qola borsa, yangi vazifalar paydo bo'la boshlaydi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida davlatning yangi vazifalari paydo bo'ladi. Bularga respublikamizda kam ta'minlanganlarga ijtimoiy yordam ko'rsatish, bozor iqtisodiyoti infratuzilmasini (sanoatda, qishloq xo'jaligida, moliya tizimida) tashkil qilish kiradi. SHu erda davlat kuchli ijtimoiy - siyosiy tadbirlarni amalga oshirish uchun pensionerlar, nafaqaxo'rlar, talabalar, ko'p bolali onalar va boshqalarni ko'proq mablag' bilan ta'minlash zarurligini anglab cheklangan tovarlar bahosidagi farqni byudjet hisobidan qoplaydi va ularga boshqa xarajatlarni davlat hisobidan amalga oshiradi, mahallalarda kam ta'minlanganlarga moddiy yordamlar tashkil etadi. SHu bilan birga, O'zbekiston davlati jamiyat a'zolari osoyishtaligini saqlash maqsadida o'zining mudofaa qobiliyatini saqlab va mustahkamlab turishga, texnika va o'q-dorilarga ham mablag'lar sarflaydi, qolaversa, davlat fuqarolar xavfsizligini saqlash, mamlakatda tartib intizom o'rnatish, uni boshqarish funktsiyalarini bajarish uchun ham ko'plab mablag' yo'naltirishga majbur. Bunday xarajatlarni amalga oshirishning majburiyligi ular uchun manba bo'lgan soliqlarni ham ob'ektiv zarur qilib qo'yadi.

Qayd etish lozimki, hozirga qadar davlatning funktsiyalarini bajarish uchun lozim bo'lgan moliyaviy mablag'larni shakllantirishning soliqlardan boshqa usuli jahon amaliyotida qo'llanilgan emas. Demak, hukmron kuch sifatida davlat mavjud ekan, moliyalashtirish usuli sifatida soliqlar ham amal qiladi. Ma'lumki, jamiyat iqtisodiy hayoti juda murakkab iqtisodiy hodisalardan iborat. Ana shu murakkablik bevosita soliqlarga ham tegishliki, bu holat soliqlarning iqtisodiy mohiyatini teran anglashni taqozo etadi.

Soliqlar majburiy to'lovlarni ifoda etuvchi pul munosabatlarini bildiradi. Bu munosabatlar soliq to'lovchilar (huquqiy va jismoniy shaxslar) bilan ularni o'z mulkiga aylantiruvchi davlat o'rtasida bo'ladi. Korxona va tashkilotlar aholiga xizmat ko'rsatganda, ishlar bajargan yoki bozorlarda oldi-sotdi qilish jarayonida pul munosabatlarini hosil qiladi. Lekin ular soliq bo'la olmaydi, soliq munosabati bo'lishi uchun davlat mamlakatda yaratilgan mahsulot qiymatini taqsimlash yo'li bilan davlat byudjetiga majburiy tartibda to'lanishi yoki undirilishi lozim. Davlat uchun byudjetning asosiy manbai hisoblangan soliqlar katta ahamiyatga ega.

Soliqlar, yig'imlar, bojlar va boshqa to'lovlar hisobiga davlat moliyaviy resurslari tashkil topadi. Davlat faoliyatining barcha yo'nalishlarini mablag' bilan ta'minlashning asosiy manbalaridan biri va davlat ustuvorligini amalga oshirishning iqtisodiy vositasi soliqlardir. Soliq tizimini tartibga solish va mukammallashtirish samarali davlat iqtisodiy siyosatini olib borishga, xususan, moliyaviy tizimni rivojlantirishga yordam beradi. Iqtisodiyotni davlat tomonidan soliqlar orqali tartibga solish, davlat byudjetini shakllantirish, soliq solish vositasida jamiyatdagi u yoki bu jarayonlarning rivojlanishiga ta'sir etuvchi usuli hisoblanadi. SHunday qilib, davlatning mavjudligi soliqlar bilan uzviy bog'liq,

chunki soliqdan tushadigan tushumlar davlat iqtisodiy mustaqilligining bosh manbaidir.

Soliqlar qadimgi davrlardan e'tiboran olingan, ammo u vaqtlarda soliqlar ozod va erkin bo'lmagan kishining belgisi bo'lib xizmat qilgan. Adam Smit (shotland faylasufi va iqtisodchisi, 1723-1790) o'zining «Xalqlar boyligining sabablari va tabiatlari» nomli kitobida (1776) ilk bor soliq tamoyillarini asoslab berdi, soliqlarning ahamiyatini yoritib, ularni davlatga to'lash qullik emas, balki erkinlik alomati ekanligini asoslab berdi.

N.I. Turgenev o'zining «Soliq nazariyasi tajribasi» nomli kitobida (1818 yil) shuni ta'kidlaydiki, «Bilimli bo'lishning muvaffaqiyatlari ularning xalqlar urf odatlariga foydali ta'siri darajasiga qarab soliqlar tizimining takomillashuviga ham ta'sir etgan», «…soliqlar bilimga ega bo'lish bilan birga paydo bo'lib, uning belgisi bo'lib qoldi. ….Soliqlarning tayinlanishi, taqsimlanishi va yig'ilish usuliga qarab xalq orasida tarqalgan ma'lumotlar to'g'risida; yig'iladigan soliqlar miqdoriga qarab uning boyligi haqida fikr yuritish mumkin, bu bilimlilik va ma'rifatni anglatadigan ikki eng asosiy xususiyatdir» bu so'zlardan yana bir bor amin bo'lish mumkinki, soliqlar qadimiy moliyaviy institutlar hisoblanib, davlatning paydo bo'lishi bilan yuzaga kelgan. Soliqlar davlat organlarini ta'minlash va ular oldidagi vazifalarning bajarilishini moddiy ta'minlash manbai sifatida xizmat qilgan. Davlatning rivojlanishi bilan uning vazifa va funktsiyalari yangicha xususiyatlarga ega bo'ldi. Lekin soliqlarning davlatni va uning organlarini moliyalashtirishda manba sifatidagi roli o'zgarmay qoldi.

SHu o'rinda soliqlarga turli iqtisodchilar tomonidan berilgan ta'riflarni keltirib o'tish o'rinlidir. «Soliqlar, - deb yozadi D. Rikardo, - hokimiyat ixtiyoriga kelib tushadigan er resursi va mamlakat mehnatining bir qismini tashkil etadi va oxir oqibatda ular kapital hisobidan yoki mamlakat daromadi hisobidan to'lanadi».[2] SHuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, D. Rikardo soliqlar mohiyatini yoritib, o'z navbatida A. Smit tomonidan yaratilgan soliqlar nazariyasini ma'lum darajada rivojlanishiga o'zining hissasini qo'shgan.

Soliqlar bo'yicha yana bir ta'rif S.G. Pepelyaev tomonidan berilgan: «Soliq - ommaviy hokimiyat sub'ektlarining to'lov qobiliyatini ta'minlash maqsadida jismoniy va yuridik shaxslar mulklarini begonalashtirishning majburiylik, yakka tarzda holisona, qaytarmaslik, davlatning majburlashi bilan ta'minlanganlik asoslarida va jazo yoki kontributsiya xarakteriga ega bo'lmagan qonunda belgilangan yagona shaklidir».[3]

Hozirgi paytda iqtisodiy adabiyotlarda soliqlarning iqtisodiy mohiyatini o'rganishga bag'ishlangan qator ilmiy ishlar chop etilgan. Masalan, «Siyosiy iqtisod» izohli lug'atida soliqlar «… korxona, tashkilot va aholini, mamlakat moliyaviy resurslarini tashkil etishdagi ishtirokini xarakterlovchi majburiy to'lovlar tizimi» deb izohlanadi.

---

[2] Rikkardo D. Nachalo politicheskoy ekonomiki i nalogovogo oblojeniya. Sochineniya./ t. 1. /Per. s angl. - M.: Gospolitizdat, s.380.

[3] Pepelyaev S.G. Osnovы nalogovogo prava. -M., 1995. s.24.

Professor D.G. CHernikning fikricha «Soliqlar - davlat tomonidan xo'jalik sub'ektlari va fuqarolardan qonuniy tartibda o'rnatilgan stavkalarda undirib olinadigan majburiy yig'imlarni o'zida aks ettiradi».[4]

Professor B.G. Boldыrev boshchiligida yozilgan «Kapitalizm moliyasi» o'quv qo'llanmasida soliqlarga quyidagicha ta'rif berilgan: «Soliqlar — davlat tomonidan undirib olinadigan, jismoniy va huquqiy shaxslarning majburiy to'lovlari»[5] haqiqatan ham yuqorida keltirilgan ta'riflar eng sodda va keng omma uchun qulay va tushunarli bo'lishi mumkin. Lekin bu ta'riflar o'zida soliqlarning tashkiliy-huquqiy tomonlarini to'laligicha aks ettira olmaydi. Bundan tashqari, ushbu to'lovlar nima maqsadda undirib olinishi hamda qachon undirib olinishi to'g'risida etarli ma'lumotlar bera olmaydi.

Soliqlar davlat byudjeti daromadlarini tashkil etuvchi asosiy manba va iqtisodiyotni boshqaruvchi muhim qurol hisoblanadi. Biroq bu ta'rif soliqlarning mohiyatini to'laligicha yorita olmaydi hamda soliqlarning tashkiliy-huquqiy tomonlarini o'zida aks ettira olmaydi. Bundan tashqari iqtisodiy munosabat sifatida, bu munosabatlar ob'ekti bo'lib nima hisoblanadi? degan savollarga javob bera olmaydi.

SHuni ta'kidlash kerakki, prof. O. Olimjonovning fikriga ko'ra, soliqlar quyidagicha ta'riflansa, soliqlarning mohiyati kengroq yoritiladi va maqsadga muvofiq bo'ladi: «Soliqlar - davlat va jamiyatning pul mablag'lariga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida qonun tomonidan belgilab qo'yilgan hajmda va o'rnatilgan muddatda jismoniy va huquqiy shaxslardan davlat ixtiyoriga majburiy ravishda undirib olinadigan to'lovlardir».[6]

Bizningcha soliqlarga berilgan mana shu ta'rif eng maqbul ta'rif bo'lib, soliqlarning mohiyati, ularning iqtisodiyotdagi o'rni va rolini, soliqlarning xarakat jarayonini nazariy jihatdan chuqurroq yoritib, soliqlar haqida aniqroq tasavvur hosil qilishga yordam beradi. Soliqlarga olimlar tomonidan berilgan bir qancha ta'riflarni o'rganib chiqdik. SHu o'rinda bu ta'riflar ma'lum ma'noda bir-birini takrorlab, to'ldirib va boyitib kelmoqda. YUqoridagi ta'riflar soliqlarni to'liq va aniq yoritish, ularning barcha jihatlarini batafsil qamrab olmaydi. SHuning uchun soliq toifasini har tomonlama, kengroq va batafsilroq, uning mohiyati va ahamiyatini, iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli va o'rnini, soliqlarni nazariy jihatlarini aniqroq yorita oladigan ta'rifni keltirish muammosi mavjuddir.

Tarixan soliqlar, davlatni saqlab turish uchun zarur bo'lgan majburiy to'lovlar sifatida, davlat paydo bo'lishi bilan vujudga kelgan. Soliqlar, davlat faoliyat ko'rsatishining moddiy asosini tashkil etadi, ularning iqtisodiy tabiati xuddi shu erdan kelib chiqadi.

Biz soliqlarning iqtisodiy mohiyatini to'liq tushunishimiz uchun, dastavval soliq so'zining tarixan mavjud bo'lgan iqtisodiy ma'nosini to'g'ri tushunib tahlil qilib olishimiz lozim.

---

[4] CHernik D.G. Nalogi v гыnochnoy ekonomike. –M.: Finansы, 1992. №3 s.19.
[5] Boldыrev B.G. Finansы kapitalizma. - M.: Finansы, 1987. 21.
[6] Olimjonov O. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida soliq siyosati. Hayot va iqtisod. 1992.

Soliq tushunchasi - iqtisodiy munosabatlarda asosiy o'rinni egallaydi. Uning xarakterli tomoni shundaki - u tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadigan yuridik va jismoniy shaxslardan ularga mulkchilik, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruv huquqida tegishli bo'lgan pul mablag'larini davlat va munitsipal tuzilmalarni moliyaviy ta'minlash maqsadida begonalashtirish shaklida undiriladigan majburiy, yakka tartibdagi qaytarib berilmaydigan to'lovlarni aks ettiradi, ya'ni soliq - davlat tomonidan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va fuqarolardan majburiy qonuniy tartibda belgilangan stavkalar bo'yicha, soliq to'lovchining bundan biron bir muayyan manfaat ko'rishi bilan bevosita bog'lanmagan tarzda undiriladigan pul yig'imi.

Hozirgi vaqtda soliqlar vositasida davlat daromadlarining asosiy qismi shakllantiriladi. Bozor munosabatlarining shakllanishi davrida soliqlar korxonalarning iqtisodiy faoliyatini tartibga solishning bilvosita quroli hisoblanadi.

YUqoridagi ta'riflarni tahlil qilgan holda quyidagilarni ifodalash mumkin:

a) soliqlarni belgilash huquqi faqat davlatning qonun chiqaruvchi oliy organi - parlamentga beriladi;

b) soliqni fuqaro emas, mulkdor to'laydi;

v) soliq davlat byudjetiga daromad olish uchun belgilanadi;

g) soliq to'lash majburiy xususiyatga ega.

Demak, soliqlar - byudjetga tushadigan pul va qonunda belgilangan majburiy munosabatlardir. Soliqlarning majburiyligi Oliy majlis bilan tasdiqlangan huquqiy va me'yoriy qonunlar bilan ta'minlanadi. SHunday ekan, soliqlarni to'lamaslikka, soliq ob'ektini yashirishga, soliq summasini kamaytirib ko'rsatishga na huquqiy va na jismoniy shaxslarning haqqi yo'q.

Soliq to'lash xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va fuqarolar bilan davlat o'rtasida yangidan yaratilgan qiymatni taqsimlashning asosiy vositasi hisoblanadi. Biror bir jamiyatni soliq tizimisiz tasavvur qilish mumkin emas. CHunki soliqlar byudjet daromadlari (pul fondi)ni tashkil etishning asosiy vositasi bo'libgina qolmay:

- mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirishga;
- ishlab chiqarishni rag'batlantirishda investitsiyalarni ko'paytirishga;
- raqobatbardosh mahsulot hissasini ko'paytirishga;
- kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga;
- xususiy korxonalar ochish bilan bog'liq bo'lgan bozor infratuzilmasini barpo qilishga;
- umumdavlat ehtiyojlarini qondirishga va boshqalarga xizmat qiladi.

Jamiyat rivojlanishi tarixida hali birorta davlat soliqlarsiz mavjud bo'lgan emas. Bozor iqtisodiyotida ham davlat o'zining ichki va tashqi vazifalarini, har xil ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan mablag'larning asosiy qismini soliqlar orqali to'playdi. Jumladan, soliqlar respublika va mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantiradi, davlat ijtimoiy dasturlari uchun moliyaviy negiz yaratadi, soliq to'lovchi shaxslarning tadbirkorlik faoliyatini boshqaradi, ularning tabiiy resurslardan unumli foydalanishga bo'lgan intilishini rag'batlantiradi, narx belgilashga ta'sir ko'rsatadi, aholining turmush darajasini tartibga solib turadi. Imtiyozlar yordamida aholining kam ta'minlangan qatlamlarini ijtimoiy himoya qilishni tashkil etishga yordam beradi va hokazo.

SHuning uchun soliqlar orqali shakllangan mablag'larning eng kam miqdori davlat vazifasi bajarilishiga taalluqli eng kam xarajat hajmi bilan bog'liq bo'ladi va shu hajm bilan chegaralanadi.

Soliqlar rivojlangan tovar ishlab chiqarishning muhim kategoriyasi bo'lib, albatta yanada kengroq kategoriya - davlat byudjeti bilan chambarchas bog'langan. CHunki soliqlar byudjetning shakllanishida ishtirok etadi.[7]

Soliqlar moliyaviy resurslarni davlat ixtiyorida to'planib borishini ta'minlaydi, bu resurslardan iqtisodiy rivojlanishning umumdavlat, mintaqaviy vazifalarni hal qilish, ishning samaradorligi va sifatini rag'batlantirish, ijtimoiy adolat tamoyillaridan kelib chiqib daromadlarni tartibga solish uchun foydalaniladi.

Davlat soliqlarni davlat byudjetini shakllantirish uchun amalga kiritadi, soliqlar birorta aniq xarajatlarni qoplash maqsadiga ega emas, bu ayrim turdagi daromadlardan tushadigan tushumlardan amalga oshiriladigan xarajatlar ularga bog'liq bo'lib qolishining oldini olish zarurati bilan asoslangan. Biroq bir qancha hollarda umumiy soliqlar bilan birga maqsadli soliqlar ham belgilanadi, ularning amalga kiritilishi iqtisodiy faoliyatda ijobiy rol o'ynashi mumkin.

2.2. Soliqlarning umumiy belgilari va boshqa iqtisodiy kategoriyalar bilan o'zaro munosabati

U yoki bu iqtisodiy kategoriyaning mohiyatini chuqurroq anglash uchun unga xos umumiy belgilarni aniqlash lozim bo'ladi. Masalan, kredit iqtisodiy kategoriya sifatida muddatlilik, qaytarishlik, muayyan miqdorda ustama haq (foiz) to'lash kabi umumiy belgilarga egaki, ushbu belgilar kredit kategoriyasi mohiyatini kengroq yoritish uchun xizmat qiladi. Xuddi shu kabi soliq kategoriyasi ham bir qator o'ziga xos belgilarga egaki, ushbu belgilar soliqlarni boshqa to'lovlardan farqlash uchun xizmat qiladi.

Rus iqtisodchisi A. Medvedev o'zining «Soliqlarni qanday rejalashtirmoq kerak?» nomli kitobida soliqlarga xos bo'lgan ikki belgini, ya'ni majburiylik va ekvivalentsizlik kabi belgilarni qayd etadi.

YUqoridagilardan kelib chiqib, bizningcha soliqlarning umumiy belgilarini quyidagicha ifodalash mumkin:

1. Soliq to'lovchi pulning u yoki bu summasini davlatga to'lap ekan, buning evaziga bevosita biron-bir tovar yoxud xizmat olmaydi. Alohida olingan soliq to'lovchi tomonidan to'langan soliq miqdori bilan u iste'mol qiladigan ijtimoiy ne'matlar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik mavjud bo'lmaydi. Xuddi ana shu xususiyatga ko'ra soliq narxdan, (tovar yoki xizmatlarni ixtiyoriy iste'mol qilganligi uchun to'lanadigan haq sifatida) ruxsatnoma (litsenziya)lar va vositachilik yig'imlaridan farq qiladi, chunki bular majburiy yoki ixtiyoriy to'lovlar hisoblansada, biroq hamma vaqt hukumat tomonidan ko'rsatilgan xizmatdan muayyan foyda (naf) ko'rilishi bilan bog'liqdir.

---

[7] Vaxobov A., Srojiddinova Z. O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti. –T.: TMI, 2002. 36 – bet.

Davlatga to'lanadigan soliqlar bilan uning evaziga olinadigan iqtisodiy va ijtimoiy ne'matlar o'rtasida bevosita, har bir kishining ko'zi ilg'aydigan bog'liqlikning yo'qligi soliq to'lovchilar soliqqa tortishni yuk sifatida baholashlari uchun sabab bo'ladi, ular soliqlar hisobidan qilinadigan davlat xarajatlarining yo'nalishini ma'qullashlari ham mumkin.

Alohida olingan soliq to'lovchi odatda jamiyat va o'zining ko'rgan foydasi yoki manfaatini to'lagan soliqlari bilan solishtirib o'tirmaydi. Bu shunga olib keladiki, oqibatda fuqarolarning bir qismi soliqlar to'lashdan bo'yin tovlashga, o'z daromadlarini yashirishga urinadi. Davlat o'z fuqarolaridan yig'ib olgan soliqlarni samarali va oshkora tarzda ishlatsa hamda fuqarolarning aksariyat qismi davlatning ijtimoiy - iqtisodiy va boshqa dasturlarini o'z mablag'lari hisobidan pul bilan ta'minlashga rozi bo'lgandagina yuksak soliq axloqi tamoyillari yuzaga keladi.

2. Soliqlar majburiy to'lovlar hisoblanadi. Soliqlarning to'liq miqdorda va o'z vaqtida to'lanishi uchun javobgarlik soliq to'lovchilar zimmasiga yuklangan bo'lsa-da, ular ixtiyoriy emas, majburiy ravishda to'laydilar, davlat soliq to'lashdan bo'yin tovlaganlarni qattiq jazolaydi.

3. Davlat foydasiga soliq to'lash orqali daromadning avvaldan belgilab qo'yilgan, eng muhimi, qonuniy tartibda ko'zda tutilgan qismi undirib olinadi. Ko'pgina davlatlarning, shu jumladan, O'zbekistonning ham qonunlarida soliqlarni belgilash va ularning hajmlarini aniqlashga faqat Oliy qonun chiqaruvchi hokimiyat yoki uning tomonidan vakolat berilgan organlar haqlidirlar, deb mustahkamlab qo'yilgan. O'zining xohish-istagiga qarab yangi soliqlar belgilash yoki ularning hajmlarini aniqlashga hech kimning haqqi yo'q. To'lovlarning qonuniy, ochiq-oydin xususiyatga ega bo'lishi soliqlarning bosh tavsifi hisoblanadi.

4. Soliqlarning yana bir belgisi ularning davlat yoki mahalliy byudjetga kelib tushishidir, ya'ni soliqlar byudjetdan tashqari fondlar yoki turli xil boshqa fondlarga kelib tushmaydi.

5. Soliqlarga xos bo'lgan umumiy belgilardan biri sifatida davlat hamda yuridik va jismoniy shaxslar o'rtasida mulkchilikni qayta taqsimlash jarayonining yuzaga kelishidir. Soddaroq qilib aytganda korxonalar va aholidan olinadigan soliqlar, aslida ular mulkining ma'lum bir qismini davlat hisobiga o'tkazilishini bildiradi. Bu bilan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga tegishli bo'lgan mulk daromad shaklida majburiy to'lov bo'lib, davlat mulkiga aylanadi.

Hozirda soliqlarning umumiy belgilarini chuqurroq o'rganish talab etilmoqda. SHu o'rinda soliqlarning umumiy belgilarini to'liqroq va aniqroq, batafsil yoritishi mumkin bo'lgan har qanday iqtisodiy vaziyatlarda o'zgarmaydigan va doimiy mavjud, ahamiyatli optimal umumiy belgilarini yaratish muammosi hal etilishi lozimdir.

Soliq kategoriyasi boshqa iqtisodiy kategoriyalar: moliya, kredit, sug'urta, investitsiya kabilar bilan umumiy o'xshashlikka ega, ya'ni ularning barchasi pulli munosabatlarni ifodalaydi. Lekin soliqlarning o'ziga xos yuqorida qayd etilgan belgilari mavjudki, ushbu belgilar soliqlarni boshqa iqtisodiy kategoriyalardan farqlash uchun xizmat qiladi.

2.3. Soliqlarning funktsiyalari va vazifalari

Soliqlarning iqtisodiy mohiyati davlat bilan huquqiy va jismoniy shaxslar o'rtasida vujudga keluvchi ob'ektiv majburiy to'lovlarga asoslangan moliyaviy munosabatlar orqali xarakterlanadi. Bu moliyaviy munosabatlar maxsus ijtimoiy xarakterga ega bo'lib, milliy daromadning bir qismi bo'lgan pul mablag'larini davlat ixtiyoriga safarbar qilishga xizmat qiladi.

Soliqlarning mohiyati ularning bajaradigan funktsiyalaridan kelib chiqadi. Har bir iqtisodiy kategoriyaning o'z funktsiyasi mavjud. Soliq ham mustaqil kategoriya sifatida o'zi bajaradigan funktsiyalarga ega bo'lib, bu funktsiyalar soliq kategoriyasining amaldagi harakatini ifodalaydi. Funktsiya deganda, odatda kategoriyaning hayotda ko'p qaytariladigan, takrorlanadigan doimiy xarakatlarini tushunish lozim.

Soliqlarning funktsiyalari to'g'risida turli xil qarashlar mavjud. Sobiq sotsialistik mamlakatlar iqtisodchilari o'rtasida soliqlar ikki funktsiyani bajaradi, degan qarash keng tarqalgan edi. Bu ikki funktsiya sifatida fiskal va nazorat funktsiyalari tan olinardi. Ularning fikriga ko'ra eng asosiy funktsiya bu soliqlarning fiskal funktsiyasidir, chunki busiz nazorat funktsiyasining mavjud bo'lishi mumkin emas.

G'arb iqtisodchilari ko'pchiligining nazariyalari angliyalik iqtisodchi J.M. Keynsning kontseptsiyasiga asoslanadi. By kontseptsiyaga ko'ra, soliqlar fiskal funktsiyasidan tashqari iqtisodiyotni tartibga solish, rag'batlantirish va daromadlarni boshqarish vositasi funktsiyalariga ega, soliqning bu funktsiyalari uni iqtisodiyotni tartibga solish va iqtisodiy barqaror o'sishni ta'minlash vositasi sifatida foydalanish zarurligidan kelib chiqadi.

Neokeynschilik yo'nalishi vakillari bo'lgan L. Xarrot, N. Kaldor, A. Xansen va P. Samuelsonlarning fikriga ko'ra, soliqlar iqtisodiyotni tartibga solish funktsiyasiga ega. Ular soliq stavkalarini o'zgartirish va turli imtiyozlar berish yo'li bilan bu funktsiyani bajarish mumkin deb hisoblaydilar.

Soliqlarning daromadlarni boshqarish funktsiyasi yuzaga kelishiga frantsuz iqtisodchisi E. De Jirardenning nazariyasi asos bo'lgan. Bu nazariyaga ko'ra, soliqlar yordamida soliqqa tortishning progressiv shkalasini qo'llash yo'li bilan jamiyat a'zolari o'rtasidagi mulkiy tengsizlikka barham berish mumkin. Hozirgi kunda bu nazariyaning davomchilari bo'lib, amerikalik iqtisodchilar A. Ilersik, G. Koul, frantsuz iqtisodchilari M. Klyudo, J. Furaste hisoblanishadi. Ularning fikriga ko'ra, davlat soliqlardan va transfert to'lovlaridan foydalanish yo'li bilan jamiyat milliy daromadini kambag'allar foydasiga qayta taqsimlaydi. Bu nazariyalar soliqlarning daromadlarni tartibga solish funktsiyasi mavjud degan xulosa kelib chiqishiga sabab bo'ldi.

I. Malmiginning fikriga ko'ra, soliqlar uch funktsiyani bajaradi, ya'ni fiskal, taqsimlash va rag'batlantirish. Uning fikriga ko'ra birinchi funktsiya davlat daromadlari manbalarining tashkil topishi bilan bog'liq, ikkinchisi huquqiy va

jismoniy shaxslarning daromadlarini taqsimlashni nazarda tutadi. Rag'batlantirish funktsiyasi turli imtiyozlar va engilliklar berish yo'li bilan amalga oshiriladi.[8]

O'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, g'arb iqtisodiy adabiyotlaridagi daromadlarni boshqarish funktsiyasi I. Malmiginda taqsimlash funktsiyasi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Soliqlarning funktsiyalari ularning mohiyatini amaliyotda harakat qilayotganligini ko'rsatadi. SHunday ekan, funktsiya doimo yashab, soliq mohiyatini ko'rsatib turishi zarur. Bugun paydo bo'lib ertaga yo'q bo'lib ketadigan holatlar soliq funktsiyasi bo'la olmaydi. Demak, funktsiya kategoriyasi doimiy, qat'iy takrorlanib turadigan voqelikni ifodalaydi. SHunday uslubiy yondashishdan kelib chiqib soliqlar funktsiyasini aniqlash kerak.

Soliqlarning funktsiyalari masalasida katta bahslashuvlar mavjud, lekin yagona bir fikrga kelingan emas. Ko'pchilik iqtisodchilar soliqlarga fiskal, boshqaruvchi, rag'batlantiruvchi, nazorat funktsiyalari xos deb ta'rif berishadi.

Fikrimizcha, soliqlarning quyidagi asosiy funktsiyalarini ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiqdir:

1. Soliqning fiskal funktsiyasi.
2. Tartibga solish funktsiyasi.
3. Rag'batlantirish funktsiyasi
4. Soliqning nazorat funktsiyasi.
5. Soliqni hisoblash jarayonini axborot bilan ta'minlash funktsiyasi.

1. Soliqlarning asosiy funktsiyasi - fiskal funktsiya hisoblanib (lotincha fiscus so'zidan olingan bo'lib, xazina degan ma'noni anglatadi), bu funktsiyaning mohiyati shundan iboratki, soliqlar yordamida davlatning moliya resurslari hosil qilinadi hamda davlat faoliyat ko'rsatishi uchun moddiy sharoit yaratiladi. Soliqlar orqali korxonalar va fuqarolar daromadining bir bo'lagini davlat apparati, mamlakat mudofaasi, noishlab chiqarish sohasining umuman o'z daromadlari manbaiga ega bo'lmagan qismini (ko'pgina madaniyat muassasalari, jumladan, kutubxonalar, arxivlar va boshqalar) yoki lozim darajada rivojlanishini ta'minlash uchun o'zining mablag'i etishmaydigan tarmoqlarni (fundamental opgan, teatrlar, muzeylar, ko'plab o'quv yurtlari va hokazo) saqlab turish maqsadida undirib olish yo'li bilan davlat byudjetining daromad qismini shakllantirish soliqlar fiskal funktsiyasining eng muhim elementi hisoblanadi.

Ishlab chiqarishning rivojlanishi bilan fiskal funktsiyaning ahamiyati oshib boradi. Ishlab chiqarish ijtimoiy tusdaligining chuqurlashishi fan-texnika taraqqiyotining rivojlanish munosabati bilan asosan soliqlar hisobiga shakllantiriladigan moliyaviy resurslar oqimini ko'paytirishning real zarurati yuzaga keladi. Davlat iqtisodiy va ijtimoiy tadbirlarga ko'proq e'tibor bergan sari ko'p moliyaviy resurslarni sarflamoqda, lekin soliq tizimi o'zining fiskal funktsiyasi va vazifalarini bajarishi jarayonida ishlab chiqarish o'sishiga, jamg'arish jarayoniga halal bermasligi, ijtimoiy adolatni buzmasligi hamda xalq xo'jaligining umumiy tuzilmasida buzilishlar va chetga chiqishlar sodir bo'lishiga yo'l qo'ymasligi, bozor jarayoniga putur etkazmasligi kerak.

---

[8] Malьmigin I. Nalogi kak elementы finansa. Per. s ang. - M.:, 1997 . str. 69

Soliqlarning ushbu funktsiyasi orqali hosil bo'ladigan pul resurslari davlat fondi (davlat byudjeti) orqali qayta taksimlanadi, ular ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishga, ustuvor tarmoqlarni investitsiyalashga yo'naltiriladi.

Jahon amaliyotida ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan shaxslar uchun soliq imtiyozlari va yuqori daromad oluvchi shaxslar uchun progressiv stavkalar belgilash ham qo'llanadi, ya'ni aholining kam daromad oladigan qismini ijtimoiy himoya qilish maqsadida daromadlarning bir qismi qayta taqsimlanadi. Bunday yondashuvlar soliqqa tortiladigan daromad aniqlanayotganida soliqqa tortilmaydigan minimum miqdoridagi daromad qo'shilmaydi, ayni paytda ortiqcha daromadlar soliqqa yuqori progressiv stavkalar bo'yicha tortiladi.

Soliqlarning ko'pchiligi ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilarni yuzaga kelgan vaziyatni hisobga olgan holda joylarda korxonalar faoliyatining iqtisodiy shart-sharoitlarini o'zgartirishga majbur etib, moliyaviy resurslarni makrodarajada qayta taqsimlashga olib keladi.

2. Bozor munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishi sharoitida soliqlarning ikkinchi muhim funktsiyasi ularning iqtisodiyotdagi tartibga soluvchilik roli hisoblanadi, ya'ni davlat soliqlar orqali tovarlar, xizmatlarni ishlab chiqarish va sotishning iqtisodiy shart-sharoitini tartibga soladi va bu bilan xalq xo'jaligi tarmoqlarining iqtisodiy faoliyatini amalga oshirish uchun muayyan «soliq muhiti»ni yaratadi. Ushbu funktsiya orqali soliq tizimiga ta'sir ko'rsatadi, ya'ni muayyan tarmoqda ishlab chiqarish sur'atlarini rag'batlantiradi yoki jilovlab turadi, sarmoyaning bir tarmoqdan soliq muhiti eng ma'qul bo'lgan boshqa tarmoqqa qo'yilishini kuchaytiradi yoki pasaytiradi, shuningdek aholining to'lovga qobil talabini kengaytiradi yoki kamaytiradi.

Soliqlarning tartibga soluvchi sifatidagi funktsiyasining ahamiyati bozor sharoitida o'sib boradi, bu davrda tadbirkorlarni ma'muriy qaram qilish usullari yo'q bo'lib ketadi yoki juda oz holda qoladi, korxonalar faoliyatini farmoyishlar, ko'rsatmalar va buyruqlar yordamida idora qilish huquqiga ega bo'lgan «yuqori tashkilot» tushunchasining o'zi asta-sekin yo'qola boradi. Biroq iqtisodiy faollikni izga solib turish, uning rivojlanishini jamiyat uchun maqbul bo'lgan yo'nalishda rag'batlantirish zarurati saqlanib qoladi.

3. Rag'batlantirish funktsiyasi soliq tizimining eng muhim funktsiyalaridan biri bo'lib, ishlab chiqarishni rivojlantirishga, moddiy xom-ashyo resurslari, shuningdek moliyaviy va mehnat resurslari, jamg'arilgan mol-mulkdan samarali foydalanishga rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi, ya'ni soliq yukini kamaytirish orqali ishlab chiqarishni rivojlantirishga, moliyaviy ahvolni mustahkamlashga va investitsiya faoliyatini jonlantirishga rag'batlantiradi. Soliqlarning rag'batlantirish funktsiyasi orqali davlat xalq xo'jaligi taraqqiyotini rag'batlantiradi, bu bilan fiskal funktsiyani bajarish uchun bazani kengaytiradi, ishlab chiqarishni soliqlarning rag'batlantirish funktsiyasi orqali rag'batlantirib, davlat oqilona soliq siyosatini olib borish bilan soliq yukini kuchaytirmasdan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning erkin faoliyat ko'rsatishi ta'minlanadi.

4. Soliqlarning nazorat funktsiyasi soliq to'lovchi tomonidan taqdim etilgan, soliqqa tortish ob'ekti, soliqqa tortiladigan baza, imtiyozlar singari va hokazo

tegishli soliq ko'rsatkichlarining hisob-kitoblarini tekshirishdek ancha murakkab jarayondan iborat. Soliq hisobi soliq idoralariga belgilangan soliq hisobi shakllari orqali soliq to'lovchilar o'zlarining soliq majburiyatlarini qanday bajarayotganliklarini yanada samarali nazorat qilish imkonini beradi.

5. Soliqlarni hisoblash jarayonini axborot bilan ta'minlash funktsiyasi ham muhim ahamiyat kasb etib, bu funktsiya orqali xarajatlar hajmi va konkret soliqlar davlatning qanday ijtimoiy-iqtisodiy funktsiyalarini bajarishga sarflanganligi to'g'risida axborot berib turilishi juda zarur. SHunday qilinsa, soliqlarning byudjetga tushishi to'liq, o'z vaqtida va oson kechadi.

Biz soliq funktsiyalarini qisqacha ko'rib chiqishimiz soliqlar moliya resurslarini tiklash, xo'jalik faoliyatini tartibga solish va daromadlarni ijtimoiy jihatdan ahamiyatli maqsadlar uchun qayta taqsimlash bo'yicha muhim vazifalarni bajaradi deb xulosa chiqarishimiz uchun imkon beradi.

Soliqlarning iqtisodiyotdagi yuqorida ta'kidlangan muhim o'rnini belgilovchi bir qancha funktsiyalari mavjud. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining hozirgi rivojlanish bosqichida soliqlarning o'rnini belgilovchi quyidagi asosiy omillarni ko'rsatib o'tish mumkin.

1) Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida aholini ijtimoiy himoya qilish zarurati.

Bizga ma'lumki, respublikamizda iqtisodiyotni isloh qilish va davlat qurilishini amalga oshirish Respublika Prezidenti I.A. Karimov tomonidan ilgari surilgan besh asosiy tamoyilga asoslanadi. Bu qoidalardan biri kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirishdir. Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida aholi, ayniqsa uning kam ta'minlangan qatlamlari etarli darajada ijtimoiy himoyalangan bo'lishi kerak.

2) Agrar sektordagi islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishning zarur omili.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida eng asosiy tarmoq agrar sektor hisoblanadi. Masalan, ikkinchi jahon urushidan keyin tiklanayotgan YAponiya iqtisodiyoti uchun mashinasozlik etakchi tarmoq sifatida rivojlantirilgan edi. Bu tarmoq YAponiya iqtisodiyotini rivojlantirishga ulkan hissa qo'shdi. Bu eng avvalo, uning mamlakatga chet el valyuta tushumlarini olib kelishda namoyon bo'ldi. O'zbekistan Respublikasida qishloq xo'jaligi ana shunday asosiy tarmoq vazifasini o'tamoqda.

YUqoridagilardan ko'rinadiki, qishloq xo'jaligida soliq, kredit vositalari yordamida iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biridir. SHu sababli, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 10 oktyabrdagi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 26 dekabrdagi 539-sonli qaroriga muvofiq qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun umumiy belgilangan tartibdagi soliq va yig'imlar o'rniga byudjetga 1999 yilning 1 yanvaridan boshlab yagona er solig'i to'lash tartibi joriy qilindi.

3) O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida soliqlarning o'rnini belgilovchi asosiy omillardan yana biri - hozirgi kunda ko'payib borayotgan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy va huquqiy shaxslarning daromadlarini

jalb qiluvchi mukammal soliq to'lovini yuzaga keltirish.

Bozor munosabatlarining rivojlanib borishi xususiy tadbirkorlik faoliyati keng quloch yoyishi va xususiylashtirish jarayonlarining chuqurlashuvi, tadbirkorlar daromadini hisobga olishni qiyinlashtiradi. Xususiylashtirilgan bitta korxona o'rnida o'nlab kichik, xususiy va jamoa mulkiga asoslangan korxonalar paydo bo'ladi. Mukammal soliq mexanizmi yaratilmaganligi uchun daromadlar summasini aniqlashda jiddiy xatoliklarga yo'l qo'yilishi mumkin.

O'zbekistan Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 15 apreldagi 159-sonli qaroriga muvofiq kichik korxonalar uchun umumiy belgilangan tartibdagi soliqlar o'rniga byudjetga ixchamlashtirilgan soliq to'lash imkoniyati vujudga keldi. O'zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirishda ixchamlashtirilgan soliq tizimining joriy qilinishi bu tadbirkorlar uchun davlat tomonidan ko'rsatilgan katta yordam bo'ldi.

YUqorida tilga olingan omillar soliqlarning respublika iqtisodiyotida o'ziga xos o'rni borligidan dalolat beradi.

Soliqlar iqtisodiyotning tarixiy rivojlanishi bosqichlarida ushbu rivojlanish jarayonlarini ta'minlash maqsadiga bo'ysunuvchi vazifalarni bajaradi. Soliqlarning funktsiyalari esa ana shu vazifalarni bajarishga xizmat qiladi. Demak, soliqlarning funktsiyalari, vazifalari bajarilishidan kelib chiqadimi yoki soliqlarning vazifalari funktsiyalarining mavjudligidan kelib chiqib bajariladimi kabi aniqlash lozim bo'lgan muammolar mavjud. SHunday ekan soliqlarning funktsiyalari va vazifalari o'rtasidagi aniq farqli jihatlarni o'rganish va soliq munosabatlarini tashkil etish mobaynida bu chegaralarni asoslash muammosi mavjudligini qayd etib o'tish lozim.

Soliqlar bajaradigan vazifalar ko'pchilik mamlakatlarning soliq qonunchiligida umumiy o'xshashliklarga ega. Ana shunday an'anaviy soliq vazifalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Umumdavlat vazifalarini hal qilish uchun davlatga zaruriy moliyaviy resurslar ta'minlab berish. Soliqlarning fiskallik funktsiyasi ushbu vazifani hal qilish maqsadlariga xizmat qiladi. Bu vazifani hal qilish davlatning iqtisodiyotga qay darajada aralashuviga ko'p jihatdan bog'liq. Bu ko'rsatkich qanchalik yuqori bo'lsa, soliqlarning fiskallik funktsiyasi shunchalik faol bo'ladi. Ammo soliqlarning ushbu vazifasi faqat iqtisodiy jarayonlarni qamrab olmaydi, balki davlatning noishlab chiqarish xarajatlari ko'payishi ham davlatning ortiqcha moliyaviy resurslarga muhtojligini keltirib chiqaradi.

2. Mamlakat iqtisodiyotida qulay investitsiya muhitini yaratishga ko'maklashish. O'zbekiston Respublikasida soliqlarning ushbu vazifasini bajarishi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Asosiy xususiyatlaridan biri shundaki, hozirgi kunda sarmoyalarning asosiy qismi savdo va xizmatlar sohasiga yo'naltirilayotganligi tashvishli holdir. Buning asosiy sababi foyda normasining bu sohalarda kattaligidir. Soliqlar sarmoyalarni bevosita mahsulot ishlab chiqarish sohasiga yo'naltirishning qudratli vositasi bo'lishi kerak.

3. Aholining mehnat faolligini rag'batlantirish. Soliqlar deyarli barcha mamlakatlarda ushbu vazifani bajaradi. CHunki ular aholi daromadlarini tartibga solishning muhim vositasi hisoblanadi. Daromadlardan olinadigan soliq

stavkalarining eng yuqori chegarasini sezilarli darajada pasaytirish ishchi kuchining taklifi bilan bog'liq salbiy oqibatlarning oldini olishi mumkin. 70-80 yillarda SHvetsiyada soliq stavkalarini aholi daromadlariga progressiv ravishda qo'llash malakali ishchilarning boshqa mamlakatlar tomon migratsiyasiga olib kelgan.

4. Iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish maqsadida daromadlarni taqsimlashning samaradorlik va adolat printsiplari o'rtasidagi muvofiqlikka erishish. Amaldagi soliqlarga barqarorlik va moslanuvchan soliq stavkalarining xosligi soliqlarning uzoq muddatli vazifalarini amalga oshirishga zamin yaratadi. Milliy va xorijiy investorlar kapital qo'yilmalarini amalga oshirar ekan, ular o'zlarining soliq majburiyatlarini aniq bilishi kerak. Soliq turlari va stavkalari barqaror va tez-tez o'zgarmaydigan bo'lishi kerak. Soliq tizimiga mustahkam ishonch bo'lmagan taqdirda uzoq muddatli investitsiyalarning harakati susayadi.

YUqorida aytib o'tganimizdek, soliqlarning byudjetga ijobiy ta'siridan tashqari, muhim iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish sohasida ham ulardan faol foydalanish mumkin. Narx-navoning isloh qilinishi, tashqi savdoning erkinlashtirilishi, mehnat bozorining isloh qilinishi va hokazolar yangi paydo bo'lgan tijorat tuzilmalarini moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash zaruratini yuzaga keltiradi. Bu vazifani soliq stavkalarini tabaqalashtirish yo'li orqali hal etish mumkin.

SHunday qilib, soliqlarning vazifalari ularni amalga oshirish muddatiga qarab, qisqa muddatli, o'rta va uzoq muddatli vazifalarga bo'linadi. Bu vazifalar mazmuniga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Soliqlar nafaqat davlat byudjetining tushumlariga bo'lgan ehtiyojlarni qondirishga balki davlat daromadlarini byudjetning o'rta muddatli rejada hayotiyligini yaxshilash maqsadida moslashuvchanligini amalga oshirishga ham xizmat qilishi mumkin.

2.4. Soliqlarning mavjud va amaldagi tamoyillari

Soliqlarning funktsiyasini o'rganish ularning iqtisodiyotdagi rolini ko'rsatib bersa, soliqqa tortish tamoyillari soliq munosabatlarini amaliyotda tashkil etish, soliqqa tortish, uni undirish amaliyotining mazmunini ochib beradi. Ko'plab iqtisodchilar soliqqa tortish iqtisodiyotning ravnaqiga olib kelishi mumkin bo'lgan tamoyillarni qayd etishgan.

Soliqqa tortish tamoyillarini A. Smit o'zining «Xalqlar boyligining sabablari va tabiatlari» nomli kitobida (1776) ilk bor soliq tamoyillarini asoslab bergan:

1) Davlat fuqarolari davlat xarajatlarini qoplashda o'zlari hukumat muhofazasida foydalanayotgan daromadlariga muvofiq tarzda qatnashishlari lozim.

2) Har bir odam to'laydigan soliq aniq belgilab qo'yilgan bo'lishi kerak, bunda o'zboshimchalik ketmaydi. Soliq miqdori, to'lanadigan vaqti va tartibi uni to'lovchiga ham, boshqa har qanday odamga ham birday aniq va ma'lum bo'lishi zarur.

3) Har bir soliq to'lovchiga har jihatdan qulay bo'lgan vaqtda va tartibda undirilishi kerak.

4) Har bir soliq shunday tarzda tuzilishi kerakki, bunda soliq to'lovchining hamyonidan ketadigan pul davlat byudjetiga kelib tushadigan mablag'ga nisbatan ortiq bo'lishiga mumkin qadar yo'l qo'yilmasin.

Hozirgi sharoitga tatbiqan olganda, soliqqa tortish samarali tizimning quyidagi tamoyillarini ta'riflab o'tish mumkin:

1. Etarlilik tamoyili. Mazkur tamoyilga muvofiq soliqqa tortish darajasi shunday bo'lishi lozimki, u davlat intilayotgan xalq xo'jaligi samaradorligiga erishishni kafolatlay olsin. Soliqqa tortish tizimi iqtisodiyot, ijtimoiy himoya, mudofaa qobiliyati va boshqa sohalardagi davlat siyosatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan moliya resurslari to'planishini ta'minlasin. SHuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, soliq stavkalari (o'zicha olganda) soliq yuki ko'rsatkichi hisoblanmaydi, chunki soliq to'lovchi soliq to'lar ekan, davlat tomonidan bepul xizmatlardan bahramand bo'lgani holda ayni choqda o'zining ba'zi xarajatlarini qisqartiradi. Masalan, davlat umumiy foydalanish yo'llarining holati yaxshi saqlanishini ta'minlash bilan soliq to'lovchining transport xarajatlarini kamaytiradi, bepul maorif, sog'liqni saqlashni ta'minlash bilan yollanma xodimlarning xarajatlarini qisqartiradi, demak, ish haqi xarajatlarini ham kamaytirgan bo'ladi. SHunday qilib, to'langan soliqlarning faqat xizmatlar ko'rinishidagi talab etilmagan bir qismigina soliq yuki ko'rsatkichi hisoblanadi. Xulosa qilib aytish mumkinki, etarlilik tamoyili soliq siyosatini belgilayotganda uni davlatning qabul qilingan ijtimoiy-iqtisodiy siyosati bilan qat'iy ravishda uyg'unlashtirishni taqozo etadi.

2. Tadbirkorlik va investitsiyalarni rag'batlantirish. Soliq tizimi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni, jumladan, chet el sub'ektlarini, ishlab chiqarishni rivojlantirish, uskunalar va zamonaviy texnologiyalar sotib olish uchun mablag' yo'naltirishni, ya'ni kapital jamg'arish va shu yo'l bilan texnologiyalarni takomillashtirish, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirishi lozim.

Soliq tizimi resurslarning samarali taqsimlanishiga to'sqinlik qilmasligi hamda xo'jalikni mustaqil yuritish omillarini cheklab qo'ymasligi lozim. Agar soliqlar katta bo'lgani uchun tadbirkorlarning ishlab chiqarishni kengaytirishdan, boshqa turdagi iqtisodiy faoliyat ko'rsatishdan manfaatdorligiga putur etkazsa, mamlakat iqtisodiyoti pastga qarab ketishi xavfi tug'iladi. Soliqlar miqdori haddan tashqari katta qilib belgilansa, ishlab chiqarish hajmlari kamayib ketadi, bu jarayon zahiralar, banklardagi pul mablag'larining barakasi uchishiga, ilgari to'plangan mablag'larning eyilib ketishiga olib keladi.

Soliqqa tortish, agar u, birinchidan, ishchi kuchini ishlab chiqarish uchun talab qilinadigan darajada saqlab turishga zarur bo'lgan iste'molning minimal hajmlariga salbiy ta'sir etsa, ikkinchidan, mehnatga nisbatan iqtisodiy va moddiy rag'batlarning harakat doirasini toraytirib qo'ysa, uchinchidan, jamg'arma miqdorini kamaytirsa va mablag'ning to'planish jarayonini sekinlashtirsa, ishlab chiqarish imkoniyatlarini yomonlashtirib yuborishi mumkin.

Soliqqa tortishning keyingi ikki salbiy omilini batafsil ko'rib chiqaylik. Moddiy rag'batlantirishlarga nisbatan soliqqa tortishning noxush ta'sir etishi ish haqi tizimida salbiy alomatlar paydo bo'lishida ko'zga tashlanadi.

YUqori darajada tabaqalashtirilgan soliq stavkalarining qo'llanilishi natijasida xodim tomonidan ana shu moddiy rag'batni qabul qilishdagi oddiylik va maqbullik ko'lami torayib qoladi.

Soliqqa tortish bazasi va uning hajmlarini noto'g'ri belgilash xodimning malaka oshirishiga, ratsionalizatorlik va ixtirochilik faoliyati bilan shug'ullanishiga va boshqa sohalarga bo'lgan intilishiga salbiy ta'sir etadi, boisi - mehnatga to'lanadigan haq miqdori, haqiqiy mehnat xarajatlarining murakkabligi va xususiyati o'zgarishiga befarq bo'lib qoladi.

Soliqqa tortishning iqtisodiy omillarga ta'siri ikki xil ko'rinishda bo'ladi hamda qiyosiy oqibat va daromad oqibati shaklida ifodalanadi. Qiyosiy oqibat mehnat natijalari, jamg'arish, investitsiyalash, yangi g'oyalarni joriy etish va ishlab chiqarish faoliyatining boshqa xil ko'rinishlari bilan shug'ullanish uchun nisbatan kamroq darajada rag'batlantirishda namoyon bo'ladi. Ayniqsa progressiv (oshib boruvchi) soliqqa tortishda bunday oqibatning rag'batlantirishga zid ta'siri yaqqol ifodalanadi.

Dunyodagi bir qator mamlakatlarda kapitaldan kelgan daromad va iste'molga qarab soliqqa tortishni ko'zda tutgan soliq islohoti o'tkazilmoqda. Soliqqa tortishning salbiy ta'sirini silliqlash maqsadida ishchi kuchini taklif etish sohasida ish haqi ko'rinishidagi daromadlardan olinadigan soliqlarning eng yuqori qilib belgilangan stavkalari pasaytirilmoqda. Jamg'arish va investitsiyalashga soliqlarning ta'sir etishi borasida ham muayyan yutuqlarga erishildi.

Soliqlarning ta'siri investitsiyalar tarkibida ham yaqqol seziladi. Turli ko'rinishdagi aktivlar uchun joriy etilgan har xil soliq tartiblari investitsiya imkoniyatlari va sarmoyadorlarning portfeli tarkibida sezilib qoladi. Soliq tizimidagi kamchilik va nuqsonlar iqtisodiy o'sish sur'atlarining pasayib ketishiga olib kelishi mumkin, bu hol pirovard natijada davlat byudjeti daromadlarining o'zgarishiga ham ta'sir etmay qolmaydi.

Soliqqa tortishdagi ogirlikni kapitaldan shaxsiy jamg'arishga o'tkazishning umumiy ta'sirini bir xil ma'noda baholash qiyin, jamg'armaning umumiy hajmi uchun kelib chiqadigan oqibatlar soliq tushumlarining hukumat tomonidan ishlatilish xususiyatiga bog'liq bo'ladi.

Agar yopiq iqtisodiyot sharoitida soliq tizimi uy xo'jaliklaridagi jamg'armalar darajasining pasayib ketishiga olib kelgan bo'lsa, u holda bir tekis foiz stavkasi oshgan, bu esa investitsiya kapitaliga talabning kamayishi ta'sir ko'rsatgan bo'ladi. Ochiq iqtisodiyotda esa jamg'armalardan olinadigan daromad soliqlari investitsiyalarga cheklangan darajada ta'sir qiladi, chunki bunda chet eldan kapitalning ko'proq oqib kelish imkoniyati bor, binobarin, xorijlik sarmoyador jahon bozorida ustun hisoblangan stavkani mo'ljallaydi. Biroq bunday holatda kapitalga bo'lgan mulkchilik harakatga keladi. Bunga misol tariqasida YAponiyadan kapitalning AQSHga oqib o'tganligini ko'rsatish mumkin, AQSHda kapitaldan foydalanganlik uchun foiz stavkasi past bo'lgan. Ayni paytda AQSHda rezidentlar jamg'armalarini soliqqa tortish stavkasi YAponiyadagiga qaraganda yuqori edi.

Binobarin, soliq siyosati o'z-o'zidan, agar u davlatning moliya-pul siyosati boshqa unsurlardan ayri holda amalga oshirilsa, takror ishlab chiqarish jarayonlariga rag'batlantiruvchi ta'sir o'tkazmasligi ham mumkin.

3. Soliqqa tortishning adolatlilik tamoyili. Adolat tamoyillariga muvofiq, soliqlar jamiyat tomonidan oqilona va adolatli deb tan olingan umumiy ob'ektiv qoidalarga binoan belgilanishi lozim. Adolatlilik tamoyilining bir qancha asosiy guruhdagi soliqka tortish tamoyillariga bo'linadi. Bularni ikki guruhga bo'lgan holda o'rganish maqsadga muvofiqdir. Bunda gorizontal va vertikal adolatni bir-biridan farqlash lozim. Gorizontal adolat tamoyili daromad olishning turli sharoitlarida soliq to'lovchilarga nisbatan soliqqa tortishning taxminan teng shartlarini qo'llashni ko'zda tutadi.

Vertikal adolat deganda, xo'jalik yuritishning bir muncha ogir sharoitlarida ishlayotgan sub'ektlar uchun soliqqa tortishning bir qadar yumshoqroq shartlarini, engil daromad olish imkoniyatiga ega bo'lgan sub'ektlar uchun esa ogirroq shartlarni qo'llash tushuniladi. Soliqlarning rag'batlantirish funktsiyasini bajarish doirasida ikkinchi tamoyil buzilishi mumkin. Masalan, xalq iste'moli tovarlari ishlab chiqarishni rag'batlantirish maqsadida ularni ishlab chiqarish bo'yicha soliqqa tortishda bir qadar imtiyozli shartlar yoki buning aksicha vino-aroq va tamaki mahsulotlarini iste'mol qilishni cheklash uchun ulardan olinadigan egri soliqlarning yuqori stavkalari belgilangan hollar ham bo'ladi.

Ijtimoiy adolat tamoyilini amalga oshirishga turlicha yondashuvlar bo'lishi mumkin. Agar soliqlarni to'plangan soliqlar hisobidan ro'yobga chiqariladigan davlat dasturlaridan keyinchalik foyda ko'radigan shaxslar to'lasa, u holda adolatli deb hisoblanadi. Aytaylik, transport vositalariga soliqlardan tushadigan mablag'ni davlat katta yo'llarni ta'mirlashga yoki qurishga sarflasa, bundan soliq to'lovchilarning o'zlari - avtomobil egalari naf ko'radi. Biroq bunday yondashuvni keng miqyosda amalga oshirishning iloji bo'lmaydi. Huquq-tartibotni mustahkamlash, maorifni rivojlantirish, atrof-muhitni qo'riqlashdan aniq ravishda kim ko'proq foyda ko'rishini qanday qilib hisoblab chiqish mumkin? Hatto bepul sog'liqni saqlash dasturlaridan asosan ko'p bolali oilalar, keksa va nochor fuqarolar foydalanishlari aniqlab chiqilgan taqdirda ham ana shu maqsadlar uchun maxsus soliqlarni aynan ularning o'zidan undirishni talab qilish adolatdan bo'ladimi?

Amaliyotda boshqacha yondashuv birmuncha kengroq qo'llaniladi, unga ko'ra to'lov qobiliyati tamoyili asos qilib olinadi: soliq to'lovchining daromadi qanchalik yuqori bo'lsa, undan shuncha ko'p miqdorda soliq undiriladi. Bu gapning ma'nosi shuki, badavlat odamlar bepul maktab maorifi, milliy mudofaa, sog'liqni saqlash va boshqa sohalar uchun bir qadar yuksak iqtisodiy mas'uliyatni his etishlari lozim, chunki ular kambag'allarga nisbatan ko'proq to'lashga qodirdirlar. Boy odamlar bepul davlat dasturlaridan foydalanadilarmi? Agar foydalansalar, bu qay darajada ahamiyatsiz? Aslini olganda, o'ziga to'q kishilar ta'lim berish va xizmat ko'rsatish yaxshiroq yo'lga qo'yilgan maktab va shifoxonalarni tanlaydilar. Bunday to'lov qobiliyati kontseptsiyasi AQSH soliq siyosatida keng tarqalgan.

Biroq amaliyotda soliqqa tortishning mazkur kontseptsiyasi tez-tez jiddiy qiyinchiliklarga duch kelib turadi. Yiliga 100 ming dollar daromad oladigan kishi yiliga 10 ming dollar daromad oladigan kishiga nisbatan ko'proq soliq to'lashga qodir, degan fikrga qo'shilish mumkin. Biroq bunda birinchi kishi ikkinchisiga qaraganda aynan necha barobar ko'p soliq to'lash imkoniyatiga ega, degan masala noaniqdir. Badavlat odam o'zining daromadidan o'sha hissani va mutlaq katta summani to'laydimi yoki soliq sifatida umuman ko'proq hissani to'laydimi? Afsuski, aniq bir kishining soliq to'lash imkoniyatlarini o'lchash uchun ilmiy asoslangan qandaydir usullar yo'q. Amaliyotda bunga javob, takliflar va taxminlar empirik yo'l bilan yoki hukumatning daromadlarga bo'lgan joriy ehtiyojlari, siyosiy qarashi asosida paydo bo'ladi.

Soliqqa tortishdagi adolat tamoyili ba'zi hollarda taqsimotdagi ijtimoiy adolat tamoyili ko'rinishida namoyon bo'ladi. SHuni ta'kidlab o'tish o'rinliki, bu tamoyilni daromadlarni teng ravishda taqsimlash, baravarlashtirish deb tushunmaslik kerak. Qonun oldida tenglikka rioya etilishi, ijtimoiy mumtozlikka, irq va dinga munosiblikka asoslangan imtiyozlarning bekor qilinishi, inson asosiy huquqlarga birday ega bo'lishi kabi tenglik tamoyillari bo'lib, ular O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlab qo'yilgan va bu tamoyillarga qadriyatlarning ijtimoiy tizimiga qat'iy amal qilmoq lozim. Moddiy tenglik, ya'ni daromadlar, mulk, iste'mol sohasidagi tenglik haqida gap ketadigan bo'lsa, aytish kerakki, bunday tenglikka erishib bo'lmaydi. Davlat va jamiyat barcha fuqarolar yaxshi hayot kechirishlari uchun zarur shart-sharoit yaratib berishlari kerak, albatta, soliqqa tortish tizimi esa istiqbolga mo'ljallangan rejada aholining farovonligini umumiy tarzda amalga oshirish orqali jamiyat quyi qatlamlarining ahvoli izchil ravishda yaxshilanib borishiga ko'maklashmog'i zarur.

4. Oddiylik va xolislik. Bu tamoyil soliqqa tortish bazasini aniqlashda, soliqlarni hisoblab chiqishda oddiylik bo'lishini, taqdim etiladigan hisobotlarning mazmunini soddalashtirishni, shuningdek soliqlarning eng muhim turlari bo'yicha yagona stavkalar belgilashni, beriladigan imtiyozlarni iloji boricha kamaytirishni ko'zda tutadi. Bu o'rinda nazarda tutilayotgan narsa shuki, soliqlarning rag'batlantirish funktsiyasi doirasida beriladigan imtiyozlar yakka tartibdagi xususiyatga ega bo'lmasligi, balki muayyan faoliyat turlarini rag'batlantirishga, soliq to'lovchilarning mulkchilik shakli va qaysi idoraga mansubligidan qat'i nazar, ma'lum turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishni ko'paytirishga qaratilmog'i lozim. Ba'zi sohalarda paydo bo'ladigan davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga ehtiyojni qondirishni byudjet-kredit siyosati orqali amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Buning sababi shuki, soliq imtiyozlarining haddan tashqari ko'pligi qonunlarni murakkablashtirib yuboradi, tushunishni qiyinlashtiradi hamda turlicha talqin qilinishiga olib keladi, bu hol pirovard natijada soliq to'lovchilarning soliqlarga nisbatan munosabatlariga salbiy ta'sir qiladi. SHu bilan birga aniq qilib belgilangan imtiyozlar soliq yukini boshqa soliq to'lovchilar zimmasiga o'tkazib, ijtimoiy adolatsizlik ro'y berishiga olib keladi.

5. Boshqarishga qulaylik. Samarali soliq tizimiga qo'yiladigan muhim talablardan biri boshqaruvga qulay bo'lishidir. Soliqlarni undirib olishda

samaradorlikka erishish ko'p hollarda soliqlarning soliq to'lovchilarga yaxshi tushunarli bo'lishiga bog'liq.

Ayrim mamlakatlarda soliqqa tortishning nihoyatda murakkab tartibi amal qiladi, aytaylik, shkala va stavkalar turi, soliqlar tarkibi, ularni to'lash qoidalari va tartiblari haddan tashqari ko'p. Buning ustiga ular soliq tushumlarining ko'payishiga hech qanday yordam bermaydi hamda soliqlarning rag'batlantiruvchi funktsiyasi bajarilishida rol o'ynamaydi.

Ma'muriy boshqaruvchilik bilan soliqqa tortish tamoyillarini ro'yobga chiqarishga qaratilgan maqsadga erishish o'rtasida muvozanat saqlanib qolishi nihoyatda muhimdir. Murakkab tuzilgan choralarning samarasi kam bo'ladi, ularni amalga oshirishdagi muvaffaqiyat ko'pdan-ko'p axborot to'plash va undan foydalanishga bog'liq. Soliq xizmati va soliq madaniyatining rivojlanganlik darajasini ham hisobga olish kerak.

6. Soliqlarni yig'ish jarayonini imkon qadar arzonlashtirish. Mazkur tamoyil davlat va soliq to'lovchilar tomonidan soliqlarni yig'ish uchun ketadigan xarajatlarni mumkin qadar kamaytirishni ko'zda tutadi. Buning uchun respublikamizda soliqqa tortish tartibini takomillashtirish bilan bir qatorda soliqlarni maqbullashtirish, kompyuter texnologiyalari, soliq axborotlarining to'g'riligini bevosita nazorat qilish usullarini qo'llash orqali soliq to'lovchilarning xarajatlarini kamaytirish maqsadida davlat hisobidan saqlanadigan servis-markazlar, soliqqa tortish masalalari xususida soliq organlari tomonidan bepul maslahatxonalar tashkil etilgan.

7. Soliq stavkalarini qiyoslash. Soliq stavkalari boshqa davlatlardagi xuddi shunday soliqlarning stavkalari bilan qiyoslanishi, ya'ni mintaqaning o'ziga xos xususiyatlari hisobga olingan holda boshqa mamlakatlar bilan teng bo'lgan xo'jalik faoliyati shart-sharoitlari vujudga keltirilishi lozim. Agar qattiq shartlar belgilab qo'yilgudek bo'lsa, bu hol respublika iqtisodiyotiga investitsiyalarni jalb qilishni mushkullashtirib yuboradi, aksincha, engil sharoit yaratilsa, mamlakat byudjetiga salbiy ta'sir qiladi.

Soliqqa tortish tamoyillari va soliq qonunchiligi tamoyillari muayyan o'xshashlikka ega va ularni to'liq hayotga tatbiq etish iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim vazifalaridan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksida esa soliqqa tortish tomoyillari soliq qonunchiligi tamoyillari deb atalib, uning besh tamoyili (4-modda) belgilab berilgan.

- Har bir shaxs Kodeksda belgilangan soliq va to'lovlarni to'lashga majburdir, ya'ni soliq to'lash qonun bilan majbur qilib qo'yiladi. Aslida majburiylik soliqlarning iqtisodiy mohiyatidan kelib chiqadi.
- Huquqiy shaxslarni soliqqa tortish mulkchilik shaklidan qat'i nazar, jismoniy shaxslar esa jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy ahvolidan qat'iy nazardan qonun oldida tengdirlar.
- Belgilangan soliqlar va yig'imlar O'zbekiston hududida tovarlar (ishlar, xizmatlar) yoki pul mablag'larining erkin harakatini bevosita yoki bilvosita cheklamaydi yoki soliq to'lovchilarning iqtisodiy faoliyatini cheklashga yoki to'sqinlik qilishga yo'l qo'ymaydi.

- Manbalaridan qat'iy nazar, hamma daromadlar majburiy ravishda soliqqa tortiladi.
- Belgilangan soliq imtiyozlari ijtimoiy adolat tamoyiliga mos kelishi shart.

Soliqqa tortish tamoyillari va soliq qonunchiligi tamoyillari muayyan o'xshashlikka ega va ularni to'liq hayotga tatbiq etish iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim vazifalaridan biridir.

Soliqqa tortish tamoyillari to'g'risida turlicha yondashishlar mavjudligini yuqorida ko'rib o'tdik. A. Smit tomonidan ishlab chiqilgan soliqqa tortishning 4 tamoyili, mamlakatimiz soliq kodeksida esa soliq qonunchiligining 5 tamoyili va boshqa iqtisodiy adabiyotlarda ham turlicha soliqqa tortish tamoyillari mavjudligi e'tirof etilgan. YUqorida keltirilgan soliqqa tortish tamoyillarini chuqurroq o'rganish ularni umumlashtirish orqali eng maqbul, barcha jihatlarni to'liq qamrab oladigan optimal soliqqa tortish tamoyillarini yaratish muammosining echimini topish hozirgi davr talabi bo'lib qolmoqdi.

Qisqacha xulosalar

Soliqlar majburiy to'lovlarni ifoda etuvchi pul munosabatlarini bildiradi. Bu munosabatlar soliq to'lovchilar (huquqiy va jismoniy shaxslar) bilan ularni o'z mulkiga aylantiruvchi davlat o'rtasida bo'ladi. Korxona va tashkilotlar aholiga xizmat ko'rsatganda, ishlar bajargan yoki bozorlarda oldi-sotdi qilish jarayonida pul munosabatlarini hosil qiladi. Lekin ular soliq bo'la olmaydi, soliq munosabati bo'lishi uchun davlat mamlakatda yaratilgan mahsulot qiymatini taqsimlash yo'li bilan davlat byudjetiga majburiy tartibda to'lanishi yoki undirilishi lozim. Davlat uchun byudjetning asosiy manbai hisoblangan soliqlar katta ahamiyatga ega.

Fikrimizcha, soliqlarning quyidagi asosiy funktsiyalarini ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiqdir: Soliqning fiskal funktsiyasi; Tartibga solish funktsiyasi; Rag'batlantirish funktsiyasi; Soliqning nazorat funktsiyasi; Soliqni hisoblash jarayonini axborot bilan ta'minlash funktsiyalari.

Soliqqa tortish tamoyillarini A. Smit o'zining «Xalqlar boyligining sabablari va tabiatlari» nomli kitobida (1776) ilk bor soliq tamoyillarini asoslab bergan:

1. Davlat fuqarolari davlat xarajatlarini qoplashda o'zlari hukumat muhofazasida foydalanayotgan daromadlariga muvofiq tarzda qatnashishlari lozim.

2. Har bir kishi to'laydigan soliq aniq belgilab qo'yilgan bo'lishi kerak, bunda o'zboshimchalik ketmaydi. Soliq miqdori, to'lanadigan vaqti va tartibi uni to'lovchiga ham, boshqa har qanday odamga ham birday aniq va ma'lum bo'lishi zarur.

3. Har bir soliq to'lovchiga har jihatdan qulay bo'lgan vaqtda va tartibda undirilishi kerak.

4. Har bir soliq shunday tarzda tuzilishi kerakki, bunda soliq to'lovchining hamyonidan ketadigan pul davlat byudjetiga kelib tushadigan mablag'ga nisbatan ortiq bo'lishiga mumkin qadar yo'l qo'yilmasin.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Soliqlarning yig'imlar va boshqa to'lovlardan farqli jihatlarini aytib bering?
2. Soliqlar iqtisodiy kategoriya sifatida ahamiyati qanday?

3. Soliqlarning ob'ektiv zarurligi nimalarda namoyon bo'ladi?
4. Soliqlarning o'ziga xos belgilari nimalardan iborat?
5. Soliqlarning fiskal funktsiyasini tushuntirib bering?
6. Soliqlarning rag'batlantiruvchilik funktsiyasining makroiqtisodiy barqarorlikka ta'siri qanday?
7. Soliqlarning funktsiyalari va vazifalarini farqlab bering?
8. Soliqqa tortish tamoyillari haqida tushuncha bering?
9. Soliqlarning boshqa iqtisodiy kategoriyalardan farqi nimalarda o'z ifodasini topadi?

Asosiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. –T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2006. -152 bet.
2. O'zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi Qonuni. - T.: // Xalq so'zi, 1997 yil, 29 avgust. 1-2 bet.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 18 dekabrdagi «O'zbekiston Respublikasining 2007 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida» gi 532-sonli Qarori.
4. Karimov I.A. YAngilanish va barqaror taraqqiyot yo'lidan yanada izchil harakat qilish, xalqimiz uchun farovon turmush sharoiti yaratish – asosiy vazifamizdir. // Xalq so'zi, 2007 yil 13 fevral.
5. Alimardonov M.I., To'xsanov Q.N. Soliq nazariyasi. – T.: O'zbekiston YOzuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005.
6. YAhyoev Q.A. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti: Darslik (qayta ishlangan). - T.: Fan va texnologiyalar markazi, 2003. -247 bet.
7. Kochergov D.S., Ustinova E.E. Упрощennaya sistema nalogooblojeniya. -M.: Omega, 2006. - 317 s.
8. YUtkina G.F. Nalogi i nalogooblojeniya. Uchebnik. -M: INFRA-M, 2001. - 429 s.
9. Toshmuradova B. Soliq munosabatlarini optimallashtirish: O'quv qo'llanma. - T.: TMI, 2005. –158 b.
10. http://www.nalog.ru (Rossiya Federatsiyasi Davlat soliq xizmati sayti).

III bob. SOLIQ SIYOSATI VA UNING ASOSIY YO'NALISHLARI

3.1. Soliq siyosati tushunchasi va huquqiy nazariy asoslari

Jamiyat iqtisodiy taraqqiyoti bir tomondan uning ichki mexanizmiga bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan boshqaruvning xarakteriga, ijtimoiy-siyosiy holatga, muvozanatga bog'liq bo'ladi. Oddiy qilib aytganda ustqurmaga ham bevosita bog'liqdir. Mazkur jarayonda ijtimoiy siyosat alohida rol o'ynaydi. Ijtimoiy siyosat o'z navbatida ichki va tashqi madaniy-ma'rifiy, siyosiy, iqtisodiy siyosat kabilarga bo'linadi. Iqtisodiy siyosat ham o'z navbatida moliya, pul-kredit, byudjet, soliq siyosati kabi turlarda amal qilib, ularni yaxlitligi makroiqtisodiy darajada qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlari faoliyatlarining asosiy ajralmas

qismiga aylanadi. SHu o'rinda soliq siyosatining mazmuniga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, yuqorida qayd etilganidek, soliq siyosati iqtisodiy siyosatning ajralmas bir bo'lagi bo'lib, davlatning muayyan davrda aniq maqsadlarga qaratilgan soliq sohasidagi faoliyatidir. U tarkiban soliqlarni joriy etish, soliqqa oid huquqiy baza yaratish, joriy etilgan soliqlar va soliqsiz to'lovlarni amaliyotda ishlash mexanizmini shakllantirish va samaradorligini oshirishga qaratilgan davlatning tegishli vakolatli organlari tomonidan kompleks tarzda olib boriladigan chora-tadbirlar yig'indisidir. Mamlakat soliq tizimi xususiyatlari, yo'nalishlari, qanday soliqlarning joriy etilishi, ular o'rtasidagi nisbatni ta'minlash kabi masalalarni soliq siyosati belgilab beradi.

Prezidentimiz I.A. Karimov «Soliq siyosatining vazifasi - bir tomondan, davlat byudjeti daromadining barqaror safarbarligini ta'minlashdan, ikkinchidan, korxonalarni respublika uchun zarur bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirishga rag'batlantirishdan iborat»,[9] deb alohida ta'kidlab o'tgan.

Soliq siyosatining huquqiy asoslari sifatida mustaqillikning dastlabki yillarida O'zbekiston Respublikasining 1991 yil 31 avgustdagi «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risida»gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining «Korxonalar, tashkilotlar, birlashmalardan olinadigan soliqlar to'g'risida»gi (1991 yil 15 fevral), «O'zbekiston Respublikasining fuqarolari, ajnabiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmaganlarning daromad solig'i to'g'risida»gi (1991 yil 15 fevral), «Mahalliy soliqlar va yig'imlar to'g'risida»gi (1993 yil 7 may) Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Kengashi va Vazirlar Mahkamasining Qarorlari kabi me'yoriy hujjatlardan iborat bo'lgan bo'lsa, 1997 yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi va O'zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to'g'risida» gi Qonuni yuqoridagi hujjatlarning ayrimlarini o'z kuchini yo'qotishiga olib kelgan bo'lsa, ayrimlarining huquqiy bazasi kengayishiga, kuchayishiga xizmat qilib kelmoqda. «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risida»gi Qonunga muvofiq, shu kundan e'tiboran O'zbekiston Respublikasi o'zining mustaqil soliq siyosatini olib boradi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida fuqarolarning burchlariga soliqlarni to'lash majburiyati ham kiritilgan: «Fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va yig'imlarni to'lashga majburdirlar»[10]. SHuningdek respublikamiz hududida yagona soliq tizimi amal qilishi va uni belgilash vakolati haqidagi jumlalar keltirilgan: «O'zbekiston Respublikasi hududida yagona soliq tizimi amal qiladi. Soliqlarni joriy qilishga faqat Oliy Majlis haqlidir».[11]

Bugungi kunda respublikamiz soliq siyosatining huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi, «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi Qonuni, hukumatning boshqa soliqqa

---

[9] Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. –T.: O'zbekiston, 1998. 52-b
[10] O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: O'zbekiston, 1992. 51-modda.
[11] O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: O'zbekiston, 1992. 132-modda.

oid qonun, qarorlari, Prezident Farmonlari va boshqa me'yoriy hujjatlar bilan izohlanadi.

Hozirgi paytda respublikamiz soliq siyosatining asosi Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan va muvaffaqiyatli tarzda amaliyotda o'z aksini topayotgan iqtisodiy rivojlanishning besh tamoyilidir. Soliq siyosati ana shu tamoyillar asosida tashkil etilgan bo'lib, soliq sohasidagi samarali chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Soliq kontseptsiyasi - soliqlarning yo'nalishlarini aniq ilmiy asoslangan holda amalga oshirish goyalarining yaxlitligidir. Mamlakatimizda soliq kontseptsiyasi Prezidentimiz I.A. Karimov tomonidan chuqur ilmiy asosda ishlab chiqilgan bozor iqtisodiyotiga o'tish kontseptsiyasiga asoslanadi. Agar soliq kontseptsiyasi qanchalik chuqur ilmiy asosga ega bo'lsa, soliq siyosatining barqarorligi shunchalik mustahkam ta'minlanadi. O'z navbatida soliq kontseptsiyasi esa soliqlar sohasidagi chuqur ilmiy tadqiqot ishlari hamda soliq amaliyotida orttirilgan boy tajribalarning o'zaro uyg'unligiga asoslangan g'oyalar samaradorligiga bog'liq bo'ladi.

SHuningdek, soliq siyosati barqarorligini ta'minlashda uning strategiyasi va taktikasi ishlab chiqilishi lozim. Amalga oshirilishi lozim bo'lgan tadbirlar xususiyati va muddatini e'tiborga olib soliq siyosati: soliq siyosati strategiyasi va soliq siyosati taktikasiga bo'linadi.

Soliq siyosati strategiyasida muayyan uzoqroq muddatga mo'ljallangan soliqqa oid iqtisodiy munosabatlarni asosiy yo'nalishlari va chora-tadbirlari ifodalanadi. Bu esa o'z navbatida ilmiy asoslangan soliq kontseptsiyasi bilan bevosita bog'liqdir. Masalan, respublikamizda jamiyat taraqqiyotining asosiy strategiyasi qilib erkin, ochiq bozor iqtisodiyotiga, erkin fuqarolik jamiyatiga asoslangan huquqiy, demokratik jamiyat qurish belgilangan. Soliq borasidagi ustuvor strategik vazifa esa davlat byudjeti va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni soliqqa oid iqtisodiy munosabatlarida muayyan uyg'unlikni ta'minlovchi soliq tizimini shakllantirish va shunga mos ravishda takomillashtirib borishdan iboratdir yoki boshqacha qilib aytganda, soliq siyosati strategiyasi - soliq siyosatining uzoq muddatli yo'nalishi bo'lib, ijtimoiy va iqtisodiy strategiya belgilab bergan ulkan ko'lamli vazifalarni kelajakda bajarilishini ta'minlash ko'zda tutilgan moliyaviy tadbirlar yig'indisidir.

Soliq siyosati taktikasi esa belgilangan soliq siyosati strategiyasi ijrosini ta'minlovchi, tez-tez o'zgarib turuvchi say'i-harakatlarni bildiradi, ya'ni qisqa muddatli va kichik ko'lamli moliyaviy chora-tadbirlarni hal qilishga qaratilgan yo'nalishlar majmuasi - soliq siyosati taktikasi sifatida qaraladi.

Soliq siyosati kontseptsiyasi soliq siyosati strategiyasiga nisbatan, soliq siyosati strategiyasi esa soliq siyosati taktikasiga nisbatan barqaror, ya'ni kam o'zgaruvchan bo'lib, ularning barchasi bir-biriga bog'liq holda, bir-birini to'ldirib turadi hamda yaxlit holda soliq siyosatinining mohiyatini tashkil qiladi.

Soliq siyosati tarkibiy jihatdan quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

- mamlakat miqyosida amal qiluvchi soliqlar va soliqsiz to'lovlarni qonuniy joriy etish;

- amal qilayotgan soliqlarni samarali ishlashini ta’minlovchi mexanizm shakllantirish va takomillashtirish, soliqqa oid qonunlar va boshqa me’yoriy hujjatlarni takomillashtirib borish;

- soliq siyosatini amalga oshiruvchi tegishli vakolatli organlarni tashkil etish va ularni ushbu sohadagi vazifalarini belgilash;

- soliqqa tortish tizimini shakllantirishga qaratilgan chuqur ilmiy tadqiqotni amalga oshirish va ularni joriy etishni tashkil etish.

3.2. Hozirgi davrda soliq siyosatini ishlab chiqish va unda davlatning roli

YUqorida qayd qilinganidek, soliq siyosati davlat, ya’ni uning vakolatli organlari tomonidan olib boriladi. Agar ushbu vakolatli organlar hokimiyat turi nuqtai-nazaridan olib qaraladigan bo’lsa, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlariga bo’linadi. Ayrim hollarda davlatning soliq siyosati Davlat soliq qo’mitasi tomonidan olib boriladi, degan fikrlar uchraydi. Amalda esa soliq siyosati davlat hokimiyatining barcha bo’g’inlari: Qonun chiqaruvchi, Ijro etuvchi va sud hokimiyatlari faoliyatlarining ajralmas qismi sifatida kompleks tarzda amalga oshiriladi.

Bu hokimiyatlar tomonidan soliq siyosati quyidagi tartibda ishlab chiqiladi va uning ijrosi ta’minlanadi. Qonun chiqaruvchi hokimiyat hisoblangan Oliy Majlis tomonidan soliqqa oid va unga bevosita tegishli bo’lgan qonunlar qabul qilinadi, o’zgartirish va qo’shimchalar kiritiladi yoki ayrimlari bekor qilinadi. Demak, soliq siyosatining huquqiy negizlari mazkur hokimiyat faoliyati bilan bog’liqdir. Ijro hokimiyati bo’lgan Vazirlar Mahkamasi va uning bo’linmalari, Davlat Soliq Qo’mitasi, Moliya Vazirligi, Adliya Vazirligi, Iqtisodiyot Vazirligi, mahalliy hokimiyatlar va boshqa tegishli organlar tomonidan Oliy Majlis tomonidan qonun yo’li bilan joriy etilgan soliqlar va soliqlarga tenglashtirilgan majburiy to’lovlarning ishlash mexanizmini ta’minlashga xizmat qiluvchi huquqiy-me’yoriy hujjatlar orqali ularning ijrosi ta’minlanadi. Bunda albatta ijro hokimiyatining bir bo’g’ini hisoblangan Davlat soliq qo’mitasining soliq siyosati ijrosini ta’minlashdagi alohida o’ringa ega ekanligini qayd etish lozim. Bundan tashqari, har yilning oxirida kelgusi yil uchun amal qiladigan soliqlar va soliqlarga tenglashtirilgan majburiy to’lovlar bo’yicha soliq stavkalarini tasdiqlash, o’zgartirishlar kiritish vakolati Vazirlar Mahkamasiga berilgan. Soliq siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlar bo’g’inlari bilan birga sud hokimiyatining bo’g’inlari ham alohida ahamiyatga ega. Sud hokimiyati tomonidan qonuniy amal qilayotgan soliqlar va soliqlarga tenglashtirilgan majburiy to’lovlarning o’z vaqtida byudjetga kelib tushishi ustidan nazorat o’rnatilib, soliq qonunchiligi buzilishlarini oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar qo’llanadi.

Soliq siyosatini ishlab chiqishda nafaqat alohida olingan muassasalar bevosita qatnashadi, shuningdek uni ishlab chiqishda soliq xizmati bilan shug’ullanmaydigan sub’ektlar, aniqrog’i soliq to’lovchilar qatnashishi mumkin, ya’ni bunda soliq to’lovchilarning o’zlarida soliqlarni takomillashtirishga

qaratilgan takliflar, soliqlarni hisoblashni oson va samarali ishlash kabilar taklif sifatida berilishi mumkin.

Soliq solish sohasidagi davlat boshqaruvining samaradorligi ko'p jihatdan davlat apparatining turli bo'g'inlari faoliyatidagi moslashuvchanlikka bog'liq. Vakolat har bir organning o'ziga xos rolini belgilaydi va bir vaqtning o'zida uning boshqa organlar faoliyati bilan moslashuvini ta'minlaydi. Davlatning asosiy vazifalaridan birini hal etilishi - byudjetni to'ldirish, soliq to'lovchilarning iqtisodiy va yuridik xatti-harakatlariga ta'sir etishning u yoki bu dastagiga ega bo'lgan barcha davlat hokimiyati organlar faoliyatining muvofiqlashtiruvisiz mumkin emas. Ko'pgina adabiyotlarda ta'kidlanganidek, kontseptual soliq tamoyillaridan biri davlat organlarining soliq siyosatini ishlab chiqishda va amalga oshirishda birgalikdagi ishtiroki hisoblanadi.

Soliq siyosatini ishlab chiqish va uni amalda qo'llash jarayonida bir qancha o'z vakolati doirasida faoliyat yuritadigan organlar birgalikda bahamjihat ishni tashkil etishlari shart. Bu organlar faoliyat turi, ularni tashkil etish asoslari, maqsad va vazifalarining farqlanishi soliq munosabatlarini tashkil etishda ayrim muammolarni keltirib chiqaradi. Bu jarayonda aktiv ishtirok etishni ta'minlash maqsadida ular faoliyatini muvofiqlashtirish va bir-biriga moslashuvchanligini ta'minlash kabi qator muammolarni hal etish zarur.

SHuni alohida qayd etish lozimki, asosiy iqtisodiy huquqlar va soliq to'lovchilarning erkinligini ta'minlash qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatning doimiy nazorati ostida turadi. Prezident tomonidan ularning faoliyatiga nisbatan bildiriladigan asosiy talablar bevosita soliq sohasidagi ishlarning umumiy ahvoli, uni boshqarish, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va boshqalar bilan belgilanadi. Davlat soliq qo'mitasi va boshqa soliqlar bo'yicha bevosita va bilvosita vakolatga ega bo'lgan organlar ishini muvofiqlashtirgan holda hokimiyatning ushbu sohalari soliq solish bilan bog'liq shaxs huquqlarini ta'minlash uchun yuqori darajali javobgarlikni o'z zimmasiga oladi hamda ularning manfaatlari yo'lida muammoli vaziyatlarni oldini olish maqsadida o'zaro hamkorlikning barcha jihatlarini mukammal tartibga soladi.

Qonun chiqaruvchi organ (Oliy Majlis) Konstitutsiyaning 78-moddasi 8-bandi va «O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi to'g'risida»gi qonunning 4-moddasiga muvofiq hukumatning taqdimiga muvofiq soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni belgilaydi. Davlat soliq qo'mitasining vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha qonunchilikni qo'llash amaliyotini umumlashtirish asosida soliq qonunchiligini takomillashtirishga doir takliflarni ishlab chiqish va ularni hukumatga kiritish huquqi uning Oliy Majlis bilan o'zaro munosabatlari hukumatning ishtiroki bilan qurilishiga yaqqol misol bo'la oladi. Ma'lumki, Vazirlar Mahkamasi Davlat Soliq Qo'mitasiga nisbatan vakolatlari bo'yicha rahbar organ hisoblanadi. Soliq qonunchiligini qo'llash amaliyotini doimiy ravishda umumlashtirish, davlat hokimiyati va boshqaruvining yuqori organlarini mazkur sohaning xususiyatli jarayonlari haqida muntazam xabardor qilib borishi lozim.

Davlat Soliq Qo'mitasini boshqa hokimiyat organlari, tashkilotlar bilan turli yo'nalishlarda amalga oshiriladigan o'zaro hamkorligini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Ushbu o'zaro hamkorlik o'zining yuridik tabiatiga ko'ra huquqiy bo'lgani holda, munosabatlar predmetining o'ziga xosligi bilan tavsiflanadi. Mahalliy hokimiyat organlari va davlat soliq organlarining o'zaro hamkorligini tartibga soluvchi me'yorlar turli yuridik kuchga ega bo'lgan qator me'yoriy hujjatlarga tayanadi. Umumiy xususiyatlarga ko'ra, o'zaro hamkorlik Konstitutsiya me'yorlarida, boshqa qonunchilik hujjatlarida aks ettirilgan, o'zaro hamkorlikning yanada aniq yuzaga kelishi ko'pincha soliq sohasidagi huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi boshqa me'yoriy hujjatlarda o'z aksini topgan. Mazkur davlat tuzilmalarining o'zaro munosabatlari xususiyatiga ta'sir etuvchi ob'ektiv omil mahalliy vakillik va ijro hokimiyati organlarining hududning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishi, mahalliy byudjetlarni shakllantirish va ijro etish, mahalliy soliqlarni belgilash, byudjetdan tashqari fondlarni shakllantirish masalalarini hal etish uchun konstitutsiyaviy belgilanishi hisoblanadi. Bu bilan davlat hokimiyatini tashkil etishning tegishli darajalarida hal etiladigan boshqaruvning barcha masalalarida, shu jumladan, moliyaviy sohada ham yuridik vakolatlilik mustahkamlanadi.

Soliq organlari va mahalliy hokimiyat organlari o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlarga nisbatan o'zaro hamkorlik respublikada olib boriladigan yagona soliq siyosatini olib borishda, soliqlar va boshqa soliqlarga tenglashtirilgan majburiy to'lovlarning hudud byudjetiga kelib tushishini ta'minlash bo'yicha vazifalarning bajarilishi natijalarini tahlil qilishda ishtirok etish orqali namoyon bo'ladi.

SHu o'rinda mahalliy hokimiyat organlarining soliqlar bo'yicha vakolatlariga qisqacha to'xtalib o'tadigan bo'lsak, mahalliy hokimiyat organlari mamlakatimiz soliq qonunchiligiga muvofiq bir qancha vakolatlarga ega bo'lib, ular o'zlarining hududida joylashgan soliq to'lovchilarga mahalliy soliqlar va yig'imlar bo'yicha qo'shimcha soliq imtiyozlarini belgilash, soliq stavkalarining miqdorini Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilab qo'yilgan eng yuqori stavkalar doirasida belgilash kabi vakolatlarini sanab o'tishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, respublikamizda soliq siyosati davlatning maxsus vakolatli organlari tomonidan ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi. Soliqlar bo'yicha har bir hokimiyat organi maxsus vakolatlarga ega bo'lib, ularning har biri o'z faoliyatlarini samarali olib borishda ushbu vakolatlardan foydalanadi. Bunda vakolatli organlar sifatida barcha hokimiyat organlari, jumladan, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlari birgalikda faoliyat ko'rsatadi va unda Davlat soliq qo'mitasi soliq siyosatini amaliyotga joriy etishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan vazifalarni bajaradi.

3.3. Soliq siyosatining o'ziga xos xususiyatlari va rivojlantirish yo'nalishlari

Respublikamizning mustaqillikka erishishi, o'zining mustaqil soliq tizimini shakllantirishni ham taqozo etadi. SHundan kelib chiqib, mustaqillikning dastlabki yillaridan e'tiboran mustaqil soliq tizimini shakllantirishga qaratilgan islohotlar

izchillik bilan amalga oshirila boshlandi va ushbu islohotlarning samarasi o'laroq hozirgi paytga kelib respublikamizda bir qadar o'ziga xos bo'lgan soliq tizimi shakllantirildi. O'ziga xos bo'lgan soliq tizimining shaklantirilishini soliq siyosatining samarasi sifatida e'tirof etish mumkin. Respublikamiz davlatchilik shaklidan kelib chiqib respublikamizda respublika byudjeti daromadlarini shakllantirishga qaratilgan umumdavlat soliqlari va mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirishga qaratilgan mahalliy soliqlar va yig'imlar amal qiladi. Soliqlarning byudjetlar o'rtasida taqsimlanishi O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi bilan mustahkamlangan bo'lib, unga muvofiq respublikamiz soliq tizimida amal qiladigan har bir soliq turi u yoki bu byudjetga tushishi qat'iy belgilab qo'yilgan. SHuningdek, Vazirlar Mahkamasining qaroriga muvofiq ayrim umumdavlat soliqlari mahalliy byudjetlarga to'liqligicha biriktirilishi yoki ulardan tushumlar respublika va mahalliy byudjetlar o'rtasida taqsimlanishi mumkin. Ushbu tizim bir necha yillardan buyon mahalliy byudjetlar kamomadini bartaraf etish maqsadida amaliyotda samarali qo'llanilib kelinmoqda.

SHu o'rinda yuridik shaxslarni soliqqa tortishning muhim tartiblariga alohida to'xtalib o'tish zarur. Respublikamiz soliq qonunchiligida hozirgi vaqtda soliqqa tortishning umumbelgilangan tizimi bilan bir qatorda, amaldagi barcha soliqlar o'rniga yagona soliqni to'lashni ko'zda tutuvchi soliqqa tortishning alohida tartiblari ham mavjud. Bu tartib quyidagilar uchun ko'zda tutilgan:

- savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari;
- soddalashtirilgan soliqqa tortish tizimidan foydalanayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlari;
- qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchi korxonalari;
- lotoreyalar, totalizatorlar va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarni o'tkazishga ixtisoslashgan yuridik shaxslar;
- tadbirkorlik faoliyatining alohida turlari bilangina shug'ullanuvchi yuridik shaxslar (bilyardxonalar, qisqa muddatli avtomobil saqlash joylari, bolalar o'yin avtomatlari).

YUridik shaxslarni soliqqa tortish tartibidagi o'ziga xoslikni mamlakatimiz soliq tizimining muhim xususiyati sifatida e'tirof etish lozim. CHunki respublikamiz soliq qonunchiligiga muvofiq bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotida muhim bo'lgan sohalar alohida tartib bo'yicha soliqqa tortilib kelinmoqda.

SHuningdek, mamlakatimiz soliq tizimining muhim xususiyatlari sifatida soliq to'lovchilarga nisbatan ko'zda tutilgan imtiyozlarni ham qayd etish mumkin. Jumladan, eksport faoliyatini rag'batlantirishga, xorijiy investitsiyalar kirib kelishini rag'batlantirishga qaratilgan, aholining ijtimoiy shart-sharoitini hisobga olgan holdagi imtiyozlarni ularning ifodasi sifatida keltirib o'tish mumkin.

Iqtisodiy adabiyotlarda soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari sifatida ikki yo'nalish: korxona va tashkilotlarga nisbatan soliq siyosati va aholining turli ijtimoiy guruhlari uchun soliq siyosati kabi yo'nalishlarga bo'lib o'rganiladi.

Respublikamiz mustaqilligining dastlabki yillarida davlat soliq siyosatining asosiy yo'nalishi bozor munosabatlarini qaror toptirishga qaratilgan qator ilmiy asoslangan soliqlarni joriy etish va shu orqali mavjud soliq tizimini tubdan qayta

tashkil etishdan iborat bo'ldi. Soliq siyosatining keyingi yo'nalishi esa joriy etilgan soliqlarning samarali amal qilishini ta'minlash maqsadida soliq munosabatlarini amalga oshiruvchi tegishli muassasalarni tashkil etishga qaratildi. Xususan, dastlab Vazirlar Mahkamasi qoshida Soliq bosh boshqarmasi tashkil etilgan bo'lsa, 1994 yilga kelib bu boshqarma Davlat Soliq Qo'mitasiga aylantirildi va uning hududiy bo'linmalari tashkil etildi. Bundan ko'rinadiki, bozor iqtisodiyotiga o'tishning birinchi bosqichida soliq siyosatida asosan tashkiliy jihatlarga e'tibor qaratildi, ya'ni soliqlarni joriy etish va soliq siyosatini bevosita amalga oshiruvchi tegishli muassasalar shakllantirildi.

Bu davrdagi soliq siyosatining asosiy xususiyatlaridan biri soliqlarning ko'proq fiskal ahamiyat kasb etishida, ya'ni ko'proq e'tibor davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishga qaratildi.

Jahon soliq siyosati tajribasida soliqqa tortishning quyidagi yo'nalishlariga katta e'tibor beriladi:

1) har xil mulk shakllariga moslangan korxona va tashkilotlarning xo'jalik yuritishiga mumkin qadar iqtisodiy sharoit yaratish, ularni bozor munosabatlariga kirib borishiga har tomonlama ko'maklashish;

2) ijtimoiy-zaruriy umumdavlat vazifalarini bajarish uchun davlatni kerak bo'lgan moliyaviy manbalar bilan ta'minlash;

3) bozor iqtisodiyoti sharoitida yangi ijtimoiy-iqtisodiy omillarni tashkil qilishda qatnashish, ishsizlarni ish bilan ta'minlash, iqtisodiy nochorlarga yordam berish;

4) aholi turmush darajasini zaruriy me'yorda saqlab turish imkonini izlash va ta'minlash, soliqqa tortilmaydigan daromad minimumini vaqti-vaqti bilan oshirib borish. Bunda «iste'mol savatchasi» ma'lumotlarini e'tiborga olish.

Bugungi kunda respublikamiz soliq siyosatining muhim yo'nalishlari sifatida yuridik va jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishni takomillashtirish, bilvosita soliqqa tortish samaradorligini ta'minlash, resurs soliqlariga ko'proq e'tibor qaratish, soliq tizimining soddaligiga erishish, davlat xarajatlarini optimallashtirish kabilarni qayd etish mumkin.

Respublikamizda soliq tizimini takomillashtirish jarayonida xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga nisbatan soliq yukini izchil kamaytirishga alohida e'tibor qaratish lozimligi ko'p bora ta'kidlanmoqda. Bunda birinchi navbatda ularning daromadlaridan undiriladigan bevosita soliqlarning salmog'ini kamaytirish lozimligi alohida ahamiyatga ega. Buning natijasida korxonalar ixtiyorida qoladigan mablag'lar ulushining ko'payishi evaziga uning aylanma mablag'lari miqdorini ko'paytirib borish va optimal darajasini saqlash, ishlab chiqarishni zamonaviylashtirish, uning samaradorligini oshirish maqsadida ko'proq investitsiya kiritish, xodimlar mehnatini yanada rag'batlantirish imkonini beradi.

Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortilishini takomillashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan soliq stavkalarini kamaytirish va aholi daromadlarini soliqqa tortishning uch bosqichli tizimidan ikki bosqichli tizimiga asta - sekin o'tish kontseptsiyasini davom ettirish vazifasi turibdi.

Bevosita soliqlar bo'yicha soliq yukini izchil kamaytirish soliq siyosatining samaradorligini YAIM ga nisbatan ular tushumining barqaror kamayishi

tendentsiyasi ham isbotlaydi. Soliq tizimini takomillashtirishda ustuvor ahamiyat bilvosita soliqqa tortishga qaratilgan. Bilvosita soliqlar tovarlarga nisbatan qo'shimcha bo'lgani holda, pirovard natijada ishlab chiqaruvchining moliyaviy holatiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatmaydi hamda ishlab chiqarishni rivojlantirishga to'sqinlik qilmaydi.

Resurs soliqlari er, suv va boshqa tabiiy boyliklardan samarali foydalanishni ta'minlovchi amaliy vosita bo'lgani holda bozor iqtisodiyotida tabiiy resurslardan foydalanish va kelajak avlodlar uchun saqlash borasida muhim rol o'ynaydi.

Soliqqa tortish tizimini takomillashtirishning muhim yo'nalishlaridan biri soliq tizimini tartibga solish, soliq turlarini kamaytirish, hisob-kitob mexanizmini soddalashtirish va ular bo'yicha to'lov davriyligini kamaytirish hisoblanadi.

Soliq siyosatini ishlab chiqishda davlatning roli ijtimoiy sohalarni rivojlantirishni hisobga olgan holda soliqqa tortish tizimini takomillashtirishning muhim yo'nalishlari bilan soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari o'zaro bog'liqligini ta'minlash lozim. Soliq siyosatining asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqishda bir qator ta'sir etuvchi mezonlarni hisobga olgan holda tashkil etish va bu yo'nalishlarni aniqlovchi muhim omilli ko'rsatkichlarni o'rganish hamda uning o'ziga xos xususiyatlarini tartiblash muammosi bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Soliq siyosati choralarini ishlab chiqishda eng muhim vazifalardan biri davlat xarajatlarini o'z vaqtida va mo'ljallangan hajmda moliyalanishi uchun soliq tushumlarining etarliligi hisoblanadi. Bu esa, o'z navbatida, soliq yukini kamaytirish borasidagi siyosatni byudjetning xarajatlar qismini optimallashtirish choralari bilan qo'shib olib borilishini taqozo etadi.[12]

Mamlakatimizda iqtisodiy erkinlashtirish sharoitida soliq siyosatini to'liq va aniq yuritilishini ta'minlaydigan vositalardan biri soliq siyosatini takomillashtirish jarayonida davlat xarajatlarini to'liq va o'z vaqtida moliyalashtirish hamda ishlab chiqarishni rivojlantirishga ta'sir etishni bosqichma-bosqich maqbullashtirishning o'ziga xos yo'nalishlarini ishlab chiqish va aniqlash muammosini hal etish bilan bog'liqligidadir.

Qisqacha xulosalar

Bugungi kunda respublikamiz soliq siyosatining huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi, «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi Qonuni, hukumatning boshqa soliqqa oid qonun, qarorlari, Prezident Farmonlari va boshqa me'yoriy hujjatlar bilan izohlanadi.

Soliq siyosatini ishlab chiqishda nafaqat alohida olingan muassasalar bevosita qatnashadi, shuningdek uni ishlab chiqishda soliq xizmati bilan shug'ullanmaydigan sub'ektlar, aniqrog'i soliq to'lovchilar qatnashishi mumkin, ya'ni bunda soliq to'lovchilarni o'zlarida soliqlarni takomillashtirishga qaratilgan takliflar, soliqlarni hisoblashni oson va samarali ishlash kabilar taklif sifatida berilishi mumkin.

---

[12] Jo'raev T. Soliq siyosatini takomillashtirish yo'lida. // Xalq so'zi. 2003 yil 20 sentyabrь.

Soliqqa tortish tizimini takomillashtirishning muhim yo'nalishlaridan biri soliq tizimini tartibga solish, soliq turlarini kamaytirish, hisob-kitob mexanizmini soddalashtirish va ular bo'yicha to'lov davriyligini kamaytirish hisoblanadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Soliq siyosati haqida tushuncha bering?
2. Soliq siyosatining taktikasi hakida gapirib bering?
3. Soliq siyosatining kontseptsiyasi to'g'risida ma'lumot bering?
4. Soliq siyosati strategiyasi deganda nimalarni tushunasiz?
5. Soliq siyosatini ishlab chiqishda davlatning roli qanday?
6. Soliq siyosati xususiyatlari va yo'nalishlarini tushuntirib bering?
7. O'zbekiston Respublikasi soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari nimalardan iborat?

Asosiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. –T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2006. -152 bet.
2. O'zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi Qonuni. // Xalq so'zi, 1997 yil, 29 avgust. 1-2 bet.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 18 dekabrdagi «O'zbekiston Respublikasining 2007 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida»gi 532-sonli Qarori.
4. Karimov I.A. YAngilanish va barqaror taraqqiyot yo'lidan yanada izchil harakat qilish, xalqimiz uchun farovon turmush sharoiti yaratish – asosiy vazifamizdir. // Xalq so'zi, 2007 yil 13 fevral.
5. Alimardonov M.I., To'xsanov Q.N. Soliq nazariyasi. – T.: O'zbekiston YOzuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005.
6. Zavalishina I.A. Soliqlar: nazariya va amaliyot –T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi nashriyot uyi, 2005. -544 bet.
7. YAhyoev Q.A. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti, Darslik (qayta ishlangan). - T.: Fan va texnologiyalar markazi, 2003. -247 bet.
8. YUtkina G.F. Nalogi i nalogooblojeniya: Uchebnik. –M.: INFRA-M, 2001. -429 s.
9. Toshmurodova B. Soliqlar vositasida iqtisodiyotni boshqarish mexanizmi. – T.: YAngi asr avlodi, 2002. –126 b.
10. http://www.nalog.ru (Rossiya Federatsiyasi Davlat soliq xizmati sayti).
11. http://www.soliq.uz (O'zR Davlat Soliq Qo'mitasi sayti).

IY bob. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOLIQ TIZIMI VA UNING SHAKLLANISHINING NAZARIY ASOSLARI

4.1. Soliq tizimi haqida tushuncha va uning mohiyati

YUridik va jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar, yig'imlar, bojlar va boshqa majburiy to'lovlar hamda ularning tuzilish tamoyillari, usullari, soliq nazoratining yig'indisi soliq tizimini tashkil etadi. Bu ta'rif soliq tizimini keng ma'noda tushunishdir. Soliq qonunchiligida soliq tizimi tor ma'noda talqin qilinib, bir xil mohiyatga ega bo'lgan va markazlashgan pul fondini tashkil etadigan soliq, yig'im, boj va boshqa majburiy to'lovlarning yig'indisi soliq tizimi deb ataladi. Soliq tizimiga nisbatan bunday yondashuv ayrim adabiyotlarda ham keltirilganligini ta'kidlash o'rinli. Qayd etilgan ta'rifda soliq va yig'imlar yagona mohiyat, ya'ni «majburiy xarakterga ega bo'lgan munosabat» va ularning bir-biri bilan bog'liqligi va nihoyat byudjetga tushishligini ko'rsatadi. Bu O'zbekiston Respublikasi soliq Kodeksi mazmuniga mos keladi. SHu erda bahsli masala ham mavjud, ya'ni davlatning byudjetdan tashqari fondlariga (pensiya, ijtimoiy sug'urta, bandlik, yo'l fondlari va boshqalar) to'lovlarni ham majburiylik nuqtai nazardan soliq tizimiga kiritish muammosi mavjud.

Prezident I.A. Karimov tomonidan, «avvalo soliq tizimi o'ziga xos vazifani- fiskal, qayta taqsimlash va rag'batlantirish vazifasini to'la darajada bajarishi kerak»,[13]- degan fikr bildirilgan edi.

Soliqlar bo'yicha izlanishlar olib borgan ayrim mualliflarning soliq tizimiga yondashuvi boshqacha. Soliq tizimiga, xususan, soliqlar yoki ularga tenglashtirilgan to'lovlar tizimi (majmui) sifatida qarash mumkin emas. Soliq solishning muhim shart-sharoitlariga quyidagilar kiradi: soliqlarni belgilash va amalga kiritish tartibi, soliqlarning turlari, ularni byudjet darajalari o'rtasida taqsimlash tartibi, soliq nazoratini amalga oshirish shakllari va uslublari, soliq to'lovchilarning huquqlari, majburiyatlari, ular manfaatlarini himoya qilish usullari, soliq munosabatlari ishtirokchilarining javobgarligi va shu bilan birga ushbu elementlar soliq tizimining tarkibiy unsurlari ekanligini ta'kidlaydi va soliq tizimi deganda ana shu elementlarning majmuasidan iborat bo'lgan va ular o'rtasidagi munosabatlar majmuasidan kelib chiqib ifodalash mumkin.

Umuman olganda soliq tizimini tarkiban soliqqa tortish tamoyillari, soliq siyosati, soliqqa tortish tizimi, soliq mexanizmi kabilarga ajratish mumkin. Ushbu elementlar bevosita mamlakatda amal qilayotgan soliqlarning tarkibini belgilab beradi.

4.2. Soliq tizimini guruhlashning o'ziga xos jihatlari

Soliq tizimining asosi bo'lgan soliqlar o'ziga xos xususiyatlariga, bir qator belgilariga ko'ra guruhlanadi. Soliqlarning guruhlanishi ularning ob'ektiga, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyaviy faoliyatiga ta'sir etishiga, undirilish

---

[13] Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. –T.: O'zbekiston, 1998. 358-b.

usullari, paydo bo'lishiga (sub'ektiga), byudjetga yo'naltirilishiga va boshqa belgilariga ko'ra ularning tasniflanishidir.

Soliqlarni bunday tartibda guruhlarga ajratishdan maqsad ularni taqsimlash tamoyillarini belgilashda, ularning soliq funktsiya va vazifalarini qay darajada bajarayotganligini baholashda, umuman olganda davlat byudjetini doimiy ravishda va muntazam daromadlar bilan ta'minlashda, shuningdek xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tadbirkorlik faoliyatini cheklab qo'ymasdan faoliyat ko'rsatishi uchun soliqlarning har tomonlama ilmiy-nazariy jihatdan o'rganish, tahlil qilishdan iborat.

Tarixan soliqlar ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishiga qarab yoki boshqacha qilib aytganda undirib olish manbasiga qarab ikki guruhga to'g'ri va egri soliqlar guruhlariga bo'linadi. Soliqlarni belgilaydigan va ulardan tushgan mablag'ni tasarruf etishiga, ya'ni byudjetga o'tkazish nuqtai-nazaridan soliqlar umumdavlat va mahalliy soliqlarga bo'linadi. SHuningdek, soliqlar paydo bo'lish manbaiga ko'ra yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarga bo'linadi. Soliqlarning qayd etilgan guruhlarga ajartib o'rganishni alohida savol sifatida kengroq yoritishga harakat qilamiz.

SHu o'rinda soliqlarni guruhlashning ayrim turlarini ko'rib chiqamiz. Soliqlarni ob'ekti va iqtisodiy mohiyati bo'yicha guruhlash iqtisodiyotga ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatishni o'rganishning ilmiy va amaliy uslubidir.

Soliqlar soliqqa tortish ob'ektiga qarab uch guruhga bo'linadi:

1. Oborotdan olinadigan soliqlar. Bunda soliqlar xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning bevosita oborotidan undiriladi, ularga qo'shilgan qiymat solig'i, aktsiz solig'i, jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va suyultirilgan gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq, bojxona bojlari, yig'imlari va boshqalar kiradi.

2. Mol-mulk qiymatlaridan olinadigan soliqlar. Bunday soliqlar soliq to'lovchi sub'ektlar tasarrufida mavjud bo'lgan mol-mulkdan, erdan va boshqalarga nisbatan belgilanadigan soliqlardan iborat.

3. Daromaddan olinadigan soliqlar. Bunga yuridik shaxslardan olinadigan daromad (foyda) solig'i, infratuzilmani rivojlantirish solig'i, jismoniy shaxslarning daromad solig'i va boshqalar kiradi.

Mamlakatimizda amal qilayotgan soliqlarning ayrimlari koxonalar ho'jalik faoliyatining oxirgi moliyaviy natijasidan byudjetga to'lanadigan aksariyat soliqlar va majburiy to'lovlar kelgusi davr xarajatlari orqali ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxiga qo'shiladi (er solig'i, mol-mulk solig'i, ekologiya solig'i va boshqalar). SHu o'rinda soliqlarni guruhlashning asosi hisoblangan, ularni xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyaviy faoliyatiga ta'sir etishiga qarab quyidagilarga ajratishimiz mukin:

1. Tovar (ish, xizmat)lar oborotidan to'lanadigan soliqlar. Bunday soliqlarga asosan egri soliqlar kiradi, ya'ni qo'shilgan qiymat solig'i, aktsiz solig'i, jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilgisi va suyultirilgan gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq, bojxona bojlari.

2. Ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan soliqlar: pensiya fondiga ajratmalar, kasaba uyushmalari federatsiyasiga ajratmalar, bandlik fondiga ajratmalar va boshqalar.

3. Davr xarajatlariga kiritiladigan soliqlar: mol-mulk solig'i, er solig'i, ekologiya solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, er osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq va boshqalar.

4. Korxonalar foydasidan to'lanadigan soliqlar: daromad (foyda) solig'i, infratuzilmani rivojlantirish uchun soliq va boshqalar.

4.3. Soliqlarning iqtisodiy mohiyatiga ko'ra bo'linishi

Soliqlar iqtisodiy mohiyatiga, to'lovchi bilan davlatning o'zaro munosabatlariga bevosita yoki bilvosita bog'liqligiga ko'ra to'g'ri va egri soliqlarga bo'linadi. To'g'ri soliqlar to'g'ridan-to'g'ri daromadga va mol-mulkka qaratiladi (soliqqa tortishning bevosita shakli). Tovarning bahosida to'lanadigan yoki tarifga kiritiladigan tovarlar va xizmatlardan olinadigan soliqlar egri soliqlarga kiradi. Tovar va xizmatlarning egasi ularni sotishda soliq summalarini olib, ularni davlatga o'tkazadi.

Daromadlar oladigan (mol-mulkka va shu kabilarga egalik qiladigan) xo'jalik yurituvchi sub'ektlar to'g'ri soliqlarning pirovard to'lovchisi hisoblanadi, narxlarga ustamalar orqali soliq yuki yuklab qo'yiladigan tovarning iste'molchisi esa egri soliqlarning pirovard to'lovchisi hisoblanadi. Amaliyotda nafaqat egri soliqlar, shu bilan birga to'g'ri soliqlarni ham iste'molchilar zimmasiga o'tkazish imkoniyati mavjuddir. Masalan, korxonalar to'laydigan soliqlar yuki inflyatsiya davrida ko'pincha narx-navoni oshirib yuborish orqali iste'molchilar zimmasiga yuklab boriladi.

To'g'ri soliqlarga tortishda mablag'larning safarbar qilinishi yangi qiymatni taqsimlash paytida boshlanadi. Davlat daromad olingan paytdayoq uning bir qismiga o'z huquqlarini da'vo qiladi.

Soliq to'lovchining daromadi (ish haqi, foyda, foizlar va hokazo) va uning mol-mulkining (er, uylar, qimmatli qogozlar va hokazo) qiymati to'g'ri soliqlar ob'ekti bo'ladi. Soliqqa tortishning bu shakli egri soliqlarga nisbatan birmuncha progressivdir, chunki u soliq to'lovchining daromadliligini, oilaviy ahvolini hisobga oladi, soliq daromadni olish bosqichida undiriladi. Bundan tashqari, to'g'ri soliqlarga tortishda soliq to'lovchi o'z solig'ining summasini aniq biladi.

Tarixiy jihatdan olganda to'g'ri soliqlar XVIII asrda va XIX asrning birinchi yarmida shakllandi, ular faqat XX asrda keng ommalashdi.

To'g'ri soliqlar real va shaxsiy soliqlarga bo'linadi.

Real soliqlar soliq to'lovchi mol-mulkining ayrim turlaridan (er, uylardan) kadastr asosida undiriladi, to'lovchining haqiqiy daromadliligini emas, balki o'rtacha daromadliligini hisobga oladi. Soliqqa tortish ob'ektiga qarab quyidagilar real soliqlarga kiradi: erga oid, uy-joylarga doir, kasb-hunarga tegishli, qimmatli qog'ozlardan olinadigan soliqlar. Real soliqlar tashqi belgilarga asoslanadi, soliqqa tortish mol-mulkning kadastr bo'yicha aniqlanadigan o'rtacha daromadliligi

bo'yicha amalga oshiriladi. O'z mohiyatiga ko'ra bunday soliqlar regressiv tusga egadir.

Ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi, davlat faoliyatining kengayishi shaxsiy soliqlarga o'tilishini taqozo etdi, chunki real soliqlar fiskal jihatdan ham, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan ham foydali bo'lmay qoldi. Real soliqqa tortishning ayrim unsurlari, odatda, mahalliy soliqlar tizimida asosan sanoat jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlarda saqlanib qolgan. SHaxsiy soliqlar ravnaq topmoqda, bular daromadlar manbaida yoki deklaratsiya bo'yicha undiriladigan jismoniy va yuridik shaxslarning daromadlari va mol-mulkidan olinadigan soliqlardir. Real soliqdan farqli ravishda shaxsiy soliqqa tortishda ob'ekt (daromad, mol-mulk) har bir to'lovchi uchun yakka tartibda hisoblab chiqiladi, uning moliyaviy ahvoli (oila soni, qarzdorlik va hokazo) e'tiborga olinadi. Rivojlangan mamlakatlarda soliqqa tortish ob'ektiga qarab shaxsiy soliqlarning quyidagi turlari farqlanadi: daromad solig'i, pullik sarmoyalardan tushadigan daromadlardan olinadigan soliq, sarmoyaning o'sishidan olinadigan soliq, korporatsiyaning foydasidan olinadigan soliq, merosdan va sovg'a qilishdan olinadigan soliq, mol-mulkdan olinadigan soliq, jon boshiga olinadigan soliq va hokazo.

Egri soliqlar bahoga yoki tarifga ustama sifatida belgilanadigan tovarlar va xizmatlardan olinadigan soliqlardir. Egri soliqlarga tortishda davlat tovar yoki xizmatlarning sotilishi paytida ushbu qiymatning bir qismiga o'z huquqlarini da'vo qilish bilan aslida yangi qiymatning taqsimlanishining ishtirokchisi bo'lib qoladi. Egri soliqlar to'g'ri soliqlardan farqli ravishda to'lovchining daromadi yoki mol-mulki bilan bevosita bog'liq bo'lmaydi. Tovarlar, odatda, shaxsiy iste'mol tovarlari, shuningdek xizmat ko'rsatish sohasining (sartaroshxonalar, hammomlar, kimyoviy tozalash xizmatlari) pullik aylanmasi, tomosha ko'rsatadigan va transport korxonalarining pattalari va shu kabilar soliqqa tortish ob'ekti bo'ladi. Egri soliqlarga tortiladigan tovarlar va xizmatlar soni muntazam kengayib bormoqda.

Xaridor-iste'molchi egri soliqlarning to'lovchisi bo'ladi. Tovarning sohibi yoki xizmatlar ko'rsatadigan shaxs aslida soliqni yig'uvchi hisoblanadi. Egri soliqlarning anchagina qismi mulkdor tomonidan tovarning yoki xizmatlarning narxiga qo'shiladi. Davlat korxonalari va monopoliyalar soliqning butun summasiga narxlarni oshirish bo'yicha juda katta imkoniyatlarga egadir. Tarmoq ichidagi raqobat yuksak bo'lganida va talab barqaror bo'lmagan holda soliqning muayyan hissasi tovarning ishlab chiqaruvchisi va sotuvchi tomonidan to'lanadi. Egri soliqlarning asosiy to'lovchisi pirovard oqibatda iste'molchilar bo'ladilar.

Egri soliqlar daromadlilikni, oilaviy ahvolni hisobga olmaydi. Hamma fuqarolar o'z daromadlarining miqdoridan qat'iy nazar, bunday soliqlarni to'laydilar, chunki egri soliqlarga tortiladigan turmush uchun zarur bo'lgan tovarlarni iste'mol qilishadi va xizmatlardan foydalanishadi.

Egri soliqlarning stavkalari qat'iy (tovar o'lchamining birligiga) va foizli (tovarning narxiga muayyan hissada) bo'ladi. Foizli stavkalar davlat uchun ko'proq foydalidir, chunki narxlar oshganida soliq tushumlari ham ko'payadi. Soliq stavkalarining oshirilishi ularning tovarlarning narxidagi hissasining ortishiga olib keladi.

Egri soliqlar aktsizlarni, davlatning fiskal monopoliyalarini va bojxona bojlarini o'z ichiga oladi. Aktsizlar undirilish usuliga qarab yakka tartibdagi (pivoga, shakarga, benzinga va hokazo) va universal (qo'shilgan qiymat solig'i va boshqalar) turlarga bo'linadi. Ular asosan xo'jalik aktlaridan va aylanmalardan, moliyaviy operatsiyalardan kelib chiqadi.

Respublikamiz davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda to'g'ri va egri soliqlar o'rtasidagi maqbul nisbatni ta'minlashni belgilovchi me'yorlarni aniqlash muammosi asosiy muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Ayrim soliq turlarining nisbati jamiyat rivojlanishiga qarab o'zgardi. XIX asrda va XX asr boshida undirilishining soddaligi bilan ajralib turadigan egri soliqlar asosiy ahamiyat kasb etgan edi. 20-yillardan boshlab ko'pgina mamlakatlarda to'g'ri soliqlar ko'proq ahamiyat kasb eta boshladi. Ikkinchi jahon urushidan so'ng rivojlangan mamlakatlarning soliq tizimida to'g'ri soliqlar alohida ahamiyatga ega bo'lib qoldi, daromad solig'i va korporatsiyalarning foydasidan olinadigan soliq ular ichida asosiy o'rin tutardi.

YUqoridagilardan kelib chiqib, xulosa kilganimizda, to'g'ri soliqlarni to'g'ridan - to'g'ri soliq to'lovchilarning o'zi to'laydi, ya'ni soliqning huquqiy va haqiqiy to'lovchisi xam bitta shaxs hisoblanadi.

Egri soliqlarning huquqiy to'lovchisi mahsulot ortuvchilar, ish, xizmatni bajaruvchilar hamda xizmat ko'rsatuvchilar, haqiqiy to'lovchisi esa iste'molchilar hisoblanadi.

Respublikamizda amal kilayotgan soliqlar hozirgi kunda yalpi ichki mahsulotning qariyb uchdan bir qismini taqsimlab, byudjetga jalb etadi va u orqali davlatning ijtimoiy zaruriy xarajatlari moliyalashtirishga yo'naltiriladi. So'nggi yillarda to'g'ri soliqlarning salmog'i yalpi ichki mahsulot qiymatida bir oz kamayib, egri soliqlar salmog'i oshgan. Bu erda hozirgi sharoitda to'g'ri tendendiya mavjuddir, chunki egri soliqlar to'g'ridan- to'g'ri korxona investitsiya faoliyatining susayishiga olib kelmaydi. To'g'ri soliqlar salmog'i YAIM qiymatida pasayishi korxonalarning moddiy-texnikaviy bazasi kengayishiga, qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarishiga imkon yaratadi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda amal qilayotgan to'g'ri va egri soliqlar tarkibiga quyidagi soliqlar kiradi (1-jadval):

1- jadval

To'g'ri soliqlar	Egri soliqlar
1. YUridik shaxslardan undiriladigan daromad (foyda) solig'i 2. Jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliq 3. Er solig'i 4. Mol-mulk solig'i 5. Er osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq 6. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq. 7. Infratuzilmani rivojlantirish solig'i va boshqalar.	1. Qo'shilgan qiymat solig'i 2. Aktsiz solig'i 3. Jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va suyultirilgan gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq 4. Bojxona to'lovlari va boshqalar

YAgona davlat byudjeti daromadlari tarkibida ularning salmog'i yuqoridagi ma'lumotlar bilan ifodalanadi.

YUqoridagi ma'lumotlar tahlil qilinganda yuridik shaxslar soliqlari va boshqa to'lovlari byudjet daromadlarining asosiy qismini tashkil etishi ko'rinadi. Bu soliqlar davlat byudjeti xarajatlarini moliyalashtirishda mustahkamlikni, uzviylikni ta'minlaydi. Bu soliqlarsiz byudjetni rejali moliyalashtirishning iloji yo'qdir. SHuning uchun ularning ahamiyati byudjet daromadlarini shakllantirishda beqiyosdir.

Agar bir davlatda ayrim soliqlar harakati jarayoni: ma'lum bir respublika va mahalliy byudjetga biriktirilgan bo'lsa, ayrimlari esa, byudjetlarni tartibga solib turadigan soliqlarga bo'linadi.

Umuman olganda iqtisodiyot tarmoqlaridan va aholining mehnatga layoqatli qismidan undiriladigan soliqlarning aksariyat qismi umumiylik xususiyatiga egadir. Lekin ayrim soliqlar va to'lovlar ham mavjudki, ular maqsadli xarakterga egadir. SHu nuqtai nazardan olib qaralganda soliqlar, ulardan foydalanish xususiyatiga ko'ra ham ikki guruhga bo'linadi:

1. Umumiy soliqlar - respublika hamda mahalliy byudjetlarga tushadi va qayta taqsimlanadi;

2. Maqsadli soliqlar - bevosita biror-bir soha, tarmoq yoki ob'ektni rivojlantirish uchun sarflanadi va taqsimlanadi.

4.4. Soliqlarning byudjetga tushishiga ko'ra bo'linishi

Respublikamizda asosan soliqlar byudjet tizimi daromadlarini shakllantiradi. Davlat byudjeti tizimi mamlakatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy hamda ma'naviy hayotini moliyaviy mablag' bilan ta'minlaydi va bu O'zbekiston Respublikasining byudjet tizimida umumrespublika byudjetining etakchi bo'g'inidir. U umumdavlat resurslarining bir qismi bevosita davlat hokimiyatining ijro etuvchi va farmoyish beruvchi oliy organi - O'zbekiston Respublikasi hukumatida markazlashuvni ta'minlaydi. Markazlashgan resurslar umumdavlat ahamiyatiga molik bo'lgan, umuman olganda jamiyat manfaatlarini ifodalaydigan tadbirlarni (xalq xo'jaligi ahamiyatidagi qurilishlarni, eng muhim ijtimoiy tadbirlarni, mudofaa, boshqaruv, davlatning tashqi iqtisodiy aloqalari, davlatning moddiy va moliyaviy zaxiralarini) mablag' bilan ta'minlashga ishlatiladi. Umumrespublika byudjeti orqali milliy daromadni Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahriga taqsimlash va qayta taqsimlash jarayoni izga solib turiladi. Davlat umumrespublika byudjetidan davlat byudjetining bu bo'g'ini ijrosi yuzasidan respublikadagi hamma ishlarni muvofiqlashtirish uchun foydalanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasining byudjeti pul mablag'larini respublikaning tegishli davlat hokimiyati va boshqaruv organlari amalga oshiradigan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tadbirlarini moliyalashtirish uchun markazlashtiradi.

Mahalliy byudjetlar O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimining muhim tarkibiy qismini tashkil etadi. Ular davlat hokimiyatining har bir mahalliy organi o'z faoliyatini amalga oshirishi uchun uning ixtiyorida aniq moliyaviy baza yaratadi. Mahalliy byudjetlar tizimi mahalliy talab-ehtiyojlarni to'laroq hisobga olish hamda davlat tomonidan markazlashgan tartibda amalga oshiriladigan

tadbirlar bilan to'g'ri olib borish imkonini beradi, mahalliy hokimiyat organlari mahalliy byudjet daromadlarining ko'payishi va resurslarning tejamkorlik bilan sarflanishi to'g'risida tinmay g'amxo'rlik qiladi, chunki joylarda iqtisodiyot va madaniyatning yuksalish sur'atlari to'g'ridan-to'g'ri mahalliy xo'jalik zaxiralarini safarbar qilish, mablag'larni tejab ishlatish borasidagi ishlarni tashkil etish bilan bog'liq bo'ladi, bu esa o'z navbatida umuman O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining muvaffaqiyatli bajarilishiga yordam beradi. Mahalliy byudjetlardan uy-joy-kommunal xo'jaligi va obodonlashtirish, maorif va sog'liqni saqlash muassasalari (maktablar, kasalxonalar, maktabgacha tarbiya muassasalari va boshqalar), ijtimoiy ta'minot sohasidagi tadbirlar mablag' bilan ta'minlanadi.

Respublikamizda soliqlar byudjet tizimi daromadlarini shakllantirishiga qarab asosan ikki guruhga bo'linadi:

O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 6-moddasiga muvofiq umumdavlat soliqlariga quyidagilar kiradi:

1) yuridik shaxslardan olinadigan daromad (foyda) solig'i;
2) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;
3) qo'shilgan qiymat solig'i;
4) aktsiz solig'i;
5) er osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq;
6) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq.

Umumdavlat soliqlari har yili qonuniy tartibda belgilanadigan normativlar bo'yicha tegishli byudjetlar o'rtasida taqsimlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 7 moddasiga muvofiq mahalliy soliqlar va yig'imlarga quyidagilar kiradi: mol-mulk solig'i; er solig'i; infratuzilmani rivojlantirish solig'i; jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq; ayrim turlardagi tovarlarni sotish huquqini beruvchi litsenziya yig'imlari; yuridik shaxslarni, shuningdek tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarni ro'yxatga olganlik uchun yig'im.

Umumdavlat soliqlari asosan respublika byudjeti daromadlarini shakllantirishga qaratilgan bo'lsa, mahalliy soliqlar va yig'imlar mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantiradi.

Soliqlarning respublika va mahalliy byudjetlar o'rtasida taqsimlanishi ular daromad manbaini shakllantirishdagi bir qator muammolarni vujudga keltiradi. Bulardan asosiylaridan biri byudjetlarni moliyalashtirish yuzasidan soliqlarning byudjetlararo taqsimlanish tartibi mezonlarini belgilash muammosidir.

Qoraqalpog'iston Respublikasida mahalliy soliqlar va yig'imlar soliq Kodeksi, O'zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlari, shuningdek Qoraqalpog'iston Respublikasining qonun hujjatlari bilan ham tartibga solinadi.

Soliq munosabatlari mavjud bo'lishining asosiy shartlaridan biri davlatning mavjudligi bo'lsa, ikkinchi sharti bo'lib soliqlarni to'lashga qobil bo'lgan soliq to'lovchilarning mavjudligidir. O'zbekiston soliqlar tizimi manbaiga qarab soliqlar yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarga ajratiladi.

Soliq solish maqsadida yuridik shaxslar deganda mulkida, xo'jalik yuritishi yoki tezkor boshqaruvida mol-mulki bo'lgan va o'z majburiyatlari bo'yicha ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, shuningdek mustaqil balansga va hisob-kitob varag'iga ega bo'lgan alohida bo'linmalar ham tushuniladi.

YUridik shaxslardan olinadigan soliqlarga hamma egri soliqlar, korxona daromadiga soliq, er osti boyliklaridan foydalanganlik uchun, suv resurslaridan foydalanganlik uchun, ekologiya, savdo tashkilotlarini yalpi daromad solig'i, er solig'i, mol-mulk solig'i, kichik biznes uchun yagona soliq va boshqalar kiradi. Ba'zi soliqlarni (QQS, aktsiz) yuridik shaxslar ham jismoniy shaxslar ham to'laydilar. Jismoniy shaxslar to'laydigan soliqlarga daromadga soliq, er, mol-mulk soliqlari kiradi. Huquqiy shaxslardan olinadigan soliqlar davlat byudjeti daromadlarining hal qiluvchi qismini tashkil etadi. Bu soliqlarning muhim xususiyati naqd pulsiz shaklda korxonalar hisob (joriy) schyotlaridan byudjet schyotlariga ko'chirib qo'yiladi. Uni undirish oson va arzonga tushadi. Jismoniy shaxslardan olinadigan ba'zi soliqlar naqd pulga undirilganligi uchun uni to'lash qiyin kechadi. Bunday soliqlarga er, mol-mulk soliqlari va qator yig'imlar kiradi. Soliq yig'ish xarajati ko'payib ketadi. CHunki bu ish bilan maxsus tajribaga ega bo'lgan inspektorlar shug'ullanadi, hujjatlar (deklaratsiya, xabarnomalar, chaqiriqlar va boshqalar) ko'p yoziladi.

Jismoniy shaxslar soliqlari ichida eng yirigi fuqarolar jami daromadiga soliqdir. Bu soliq orqali fuqarolarning guruhlari daromadlarini boshqarib borish imkoniyati yaratiladi.

Ilgari aytganimizdek yuridik shaxslarning byudjetlarga to'laydigan soliqlari to'g'ri va egri soliqlarga bo'linadi.

To'g'ri soliqlar daromad (foyda) soliqlari va resurslar soliqlaridan tashkil topadi. Egri soliqlar esa qo'shilgan qiymat solig'i, aktsiz solig'i, bojxona bojidan iboratdir. YUridik shaxslarning bu soliqlari byudjet daromadlarini asosiy qismini tashkil etishi quyidagi jadval ma'lumotlarida ko'rinadi.

YUridik shaxslar soliqlari pul muomalasini mustahkamlashda ham katta ahamiyatga ega. To'g'ri soliqlar yuridik shaxslarning xarajatlarga mo'ljallangan mablag'larini qisqartirib muomalaga oz pullarni chiqarishga olib keladi. Egri soliqlar esa tovarlar (ishlar, xizmatlar) tarkibida bo'lib, baho hisobiga muomaladagi ortiqcha pullarni muomaladan oladi. SHunday qilib soliqlar pul muomalasini mustahkamlashda katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Soliqlarning oshishi tovar (xizmat, ish) taklifini oshiradi, talabni kamaytiradi. Bu esa pul emissiyasini kamaytiradi. Ammo taklifda real qiymati past bo'lganligidan inflyatsiyani paydo qilishi mumkin.

YUridik shaxslar o'zlariga yuklatilgan soliqlarni hisoblash va byudjetga o'z vaqtida, to'liq to'lash javobgarligini olganlar. Ularning to'laydigan soliqlari asosan naqd pulsiz, ya'ni korxona, tashkilot, birlashmaning bankdagi hisob schyotlaridan mablag'ni ko'chirib, respublika yoki mahalliy byudjet schyotlariga o'tkazish yo'li bilan amalga oshiradi. Qoida bo'yicha har qanday yuridik shaxs o'z soliq va boshqa majburiy to'lovlarni belgilangan vaqtda byudjetga to'liq o'tkazishga majburdirlar. Buning uchun ular soliq va boshqa to'lovlarning muddati kelgan kungacha pullarni o'tkazish hujjatlari bo'lmish to'lov topshirig'i, cheklarni yozib banklarga topshirgan bo'lishlari kerak.

Agar to'lov topshiriqlari o'z muddatida yozilib banklarga topshirilmagan bo'lsa soliq idoralari o'zlarining inkasso-to'lov talabnomalari orqali undirib oladilar. Har bir o'z vaqtida byudjetga o'tkazilmagan kun uchun o'tkazilishi kerak

bo'lgan soliq summasi hisobidan 0,05% penya hisoblanib soliqqa qo'shimcha ravishda byudjetga majburiy undiriladi. Albatta penya summasining ko'payishi korxonaning moliyaviy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

SHuning uchun har qanday xo'jalik sub'ektlari hisobchilari soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni ularda belgilangan to'lov muddatigacha o'z vaqtida to'lab borishlari shart. Bunda ayniqsa bo'nak (avans) to'lovlarga ko'proq e'tibor qaratilishi lozim, chunki QQS, daromadga (foydaga) soliq va boshqalarda bo'nak to'lovlar soni ko'p bo'lganligidan boqimandaning ko'payishiga olib keladi. Hozirgi kunda bu boqimanda bilan kurash iqtisodiyotni barqarorlashtirishda muhim davlat tadbirlariga aylanmoqda.

YUridik shaxslarning hamma soliqlari naqd pulsiz to'lanadi. Biroq, ayrim yig'imlar (davlat va bojxona bojlari) naqd pulli bo'lishi mumkin. YUridik shaxslar soliqlarini naqd pulsiz to'lanishi juda katta iqtisodiy ahamiyatga ega. Pul o'tkazishlar tezlashadi, ijtimoiy xarajatlar tejaladi.

Jismoniy shaxslar deganda O'zbekiston Respublikasining fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar tushuniladi. Moliya yilida soliq solinadigan daromad, mol-mulk, er, maydoni, transport vositalari va shu kabi boshqa predmetlarga ega bo'lgan jismoniy shaxslar ularga belgilangan soliqlarni to'laydilar.

O'zbekiston Respublikasida doimiy yashab turgan yoki moliya yilida boshlanadigan yoxud tugaydigan o'n ikki oygacha bo'lgan istalgan davr mobaynida 183 kun yoki undan ko'proq muddatda O'zbekistonda turgan jismoniy shaxs O'zbekiston Respublikasining rezidenti deb qaraladi. O'zbekiston Respublikasining rezidenti bo'lgan jismoniy shaxslarga ularning O'zbekiston Respublikasidagi, shuningdek undan tashqaridagi faoliyati manbalaridan olingan daromadlari bo'yicha soliq solinsa, O'zbekiston Respublikasining rezidenti bo'lmagan jismoniy shaxslarga O'zbekiston Respublikasi hududidagi faoliyatdan olingan daromadlar bo'yicha soliq solinadi.

Umuman olganda mamlakatimiz soliq qonunchiligidan kelib chiqib soliqqa tortish nuqtai-nazaridan yuridik shaxslarni shartli ravishda quyidagicha guruhlashimiz mumkin:

1. umumiy tartibda soliq to'lovchi yuridik shaxslar;
2. mikrofirmalar va kichik korxonalar;
3. qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari;
4. savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari;
5. lotoreyalar, totalizatorlar va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlar o'tkazishga ixtisoslashgan yuridik shaxslar;
6. tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar.

Umumiy tartibda soliq to'lovchi yuridik shaxslar quyidagi soliqlarni to'laydi:

- Daromad (foyda) solig'i;
- Qo'shilgan qiymat solig'i;
- Aktsiz solig'i;
- Mol-mulk solig'i;
- Er solig'i;

- Er osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq;
- Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
- Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i.

YAgona soliq tizimiga o'tgan kichik korxonalar va mikrofirmalar quyidagi soliqlarni to'laydi:

- YAgona soliq to'lovi;
- Aktsiz osti tovarlarini ishlab chiqargan holda aktsiz solig'i.

Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari yagona er solig'ini to'laydi.

Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari quyidagi soliqlarni to'laydi:

- YAgona soliq to'lovi;
- Mol-mulk solig'i.

Tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari (sartaroshxona, billiardlar, o'yin avtomatlari) bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar quyidagi soliqni to'laydi:

- qat'iy soliq.

SHuningdek yuqoridagi barcha yuridik shaxslar quyidagi yig'imlar, bojlar va boshqa majburiy to'lovlarni ham to'laydilar:

- Bojxona to'lovlari (bojxona bojlari va yig'imlari, aktsiz solig'i va tovarlarni import qilishda qo'shilgan qiymat solig'i);
- Davlat bojlari;
- Tovarlarning ayrim turlari bilan savdo qilish huquqi uchun yig'imlar;
- Davlat maqsadli fondlariga ajratmalar (byudjetdan tashqari pensiya fondi, respublika yo'l fondi, bandlik fondi);
- Ro'yxatga olganlik uchun yig'im.

Jismoniy shaxslar to'laydigan soliqlar va yig'imlar tarkibi quyidagilardan iborat:

- Jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliq;
- Mol-mulk solig'i;
- Er solig'i;
- Jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yonilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq;
- Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
- Er osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq;
- YAgona bojxona to'lovi (import boji, qo'shilgan qiymat solig'i va yig'im o'rniga joriy etilgan);
- Import uchun aktsiz solig'i;
- Davlat boji;
- Tovarlarning ayrim turlari bilan savdo qilish huquqi uchun yig'imlar;
- Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarni ro'yxatga olganlik uchun yig'im.

YUqorida qayd etilganlardan xulosa qilib aytishimiz mumkinki, mamlakatimiz soliq qonunchiligiga muvofiq soliq to'lovchilar ikki katta guruhga, ya'ni yuridik va jismoniy shaxslar guruhiga bo'linadi va ularning faoliyat ko'rsatish xususiyatidan kelib chiqib yana tarkibiy qismlarga ajratish mumkin.

Respublikamiz davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda yuridik shaxslar to'laydigan soliqlar katta ahamiyatga egaligini yuqoridagi ma'lumotlardan bevosita ko'rishimiz mumkin.

4.5. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimining shakllanish va rivojlanish bosqichlari

Mustaqillik yillarida soliq tizimi islohoti rivojlanishini yaqqol ko'rsatish uchun shu davrni uch bosqichga bo'lib ko'rsatish mumkin.

Birinchi bosqich 1991-1994 yillar - O'zbekistonning o'z soliq tizimini tashkil etish va soliqlarning xazinaviy ahamiyatini oshirish bosqichidir.

Respublikamizning o'z soliq tizimini yaratishda 1991 yil 15 fevralda qabul qilingan "Korxonalar, tashkilotlar va birlashmalardan olinadigan soliqlar to'g'risida"gi qonun birinchi qonun bo'ldi. U o'zida birinchi marta soliq tizimining tuzilishi va ishlashining umumiy asoslarini aniqlab berdi, soliqlarni hisoblash va undirish tartibini o'rnatdi.

1992 yil 9 dekabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi fuqorolari, chet el fuqorolari va fuqoroligi bulmaganlardan olinadigan daromad solig'i to'g'risida"gi qonunga bir qancha o'zgarishlar bilan qabul qilindi. Bu qonunga binoan soliq ob'ekti kengaytirildi, ya'ni ilgari daromad solig'ini jamoa xo'jaligi orqali to'lab yurgan jamoa a'zolari to'g'ridan - to'g'ri o'zlari to'laydigan bo'ldilar.

1993 yil 7 mayda O'zbekiston Respublikasining "Maxalliy soliqlar va yig'imlar to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi. Bunday soliqlarga jismoniy shaxslarning mulk solig'i, er solig'i, kurort zonalarida ishlab chiqarish ob'ektlari qurilish solig'i, reklama solig'i, avtomobil vositalarini qayta sotish solig'i, transport vositalarini egalaridan soliqlar va 13 ta har xil yig'imlar kiritildi.

Korxonalar soliqlari to'g'risidagi qonunga 1993 yil 7 mayda o'zgarishlar kiritilib, chet el valyutasida olinadigan tushumdan soliq joriy etildi. Bu soliqdan Respublika valyuta fondiga ajratma avval 25 %, keyinchalik 10 % qilib belgilandi. Demak, soliq islohotining birinchi bosqichida soliqlarning xazinaviy samaradorligiga erishish chora-tadbirlari keng amalga oshirildi, O'zbekistonning o'z soliq tizimi joriy etildi.

Korxonalardan undiriladigan o'rmondan olinadigan daromad solig'i va bir qator boshqa soliqlar bekor qilindi. Daromad (foyda) solig'i; qo'shilgan qiymat solig'i; aktsiz solig'i; mol-mulk solig'i; respublikadan tashqariga olib chiqiladigan mahsulotlar va xom - ashyo resurslariga soliq joriy etildi.

1993 yilda ishlab chiqilgan tartibga ko'ra asosiy vositalar hisoblangan amortizatsiyaning 30 %i byudjetga o'tkazildi.

Xazinani to'ldirish, shuningdek resurslardan oqilona foydalanishini ta'minlash maqsadida 6 %li resurslar solig'i joriy etildi. SHuningddek, 1991 yil 15 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslardan olinadigan daromad solig'i to'g'risida»gi qonunga bir qator o'zgartishlar kiritildi.

1993 yil 7 may kuni «Mahalliy soliqlar va yig'imlar to'g'risida»gi qonun

qabul qilindi va ushbu qonunda ularga ta'rif berildi. Jismoniy shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq, er solig'i, kurort zonalaridagi ishlab chiqarish maqsadlaridagi ob'ektlar qurilishiga solinadigan soliq, reklama solig'i, avtotransport vositalarini olib sotganlik uchun soliq, ularning egalariga solinadigan soliq-jami 19 turdagi har xil soliqlar va yig'imlar mahalliy soliqlar guruhiga kiritildi. 1993 yilning 7 mayida «Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar to'g'risida»gi qonunga qo'shimchalar kiritildi.

Soliq islohotlarining **ikkinchi bosqichi** soliqlarni bozor iqtisodi talablariga moslashtirish va korxonalarning ishlab chiqarishni rag'batlantirishga qaratish davridir. Bu davrga 1995 —1997 yillar to'g'ri keladi.

Bu davrda soliqlar ishlab-chiqarish samaradorligini oshirishga ta'sirini kuchaytirishga bag'ishlandi. Ularga soliqlardan xilma-xil imtiyozlar berildi. Ayniqsa yuridik shaxslarning foydaga (daromad) solig'idan imtiyozlar ko'p edi, 1995 yildan boshlab korxonalar har bir foiz mahsulot ishlab chiqarish hajmini ko'paytirgani uchun 0,3 %dan foydaga soliq stavkasi kamaytirildi.

Xalq xo'jaligini iqtisodiy jihatdan barqarorlashtirish va tuzilmaviy jihatdan qayta qurish soliq tizimini isloh qilishni talab etdi va ko'plab korxonalar va tashkilotlarning foyda solig'ini daromad solig'i to'lashga o'tishi amalga oshirildi. Uning o'rtacha stavkasi 37 % etib belgilandi. Soliq to'lovchilar uchun imtiyozlar ko'zda tutildi. 1995 yildan boshlab soliq tizimini birxillashtirish boshlandi. Bir qator kam samarali soliqlar: respublika tashqarisiga olib chiqiladigan xom-ashyo resurslari uchun soliq, hisoblab yozilgan amortizatsiyadan byudjetga 30 foiz unidirish va boshqalar bekor qilindi. Jamoa xo'jaligi a'zolari va xalq xo'jaligining boshqa sohalarida ishlayotganlar uchun soliqqa tortishning yagona tartibi o'rnatildi. YA'ni, jamoa xo'jaligi a'zolari mehnatiga haq to'lash jamg'armasini soliqqa tortish bekor qilindi va ularga nisbatan fuqarolar daromad solig'i to'g'risidagi qonunchilik tatbiq etildi. Fuqarolar daromadiga solinadigan soliq shkalasi o'zgartirildi.

Sarmoyadorlar uchun rag'batlantirishlar soliq tizimining barqarorlashuviga ko'mak beradi. 1996 yilning 1 yanvarigacha ro'yxatdan o'tkazilgan xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalarga soliqqa tortish tizimida daromad yoki foydani soliqqa tortishni tanlash huquqi taqdim etildi, boshqa barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlar esa daromad solig'iga o'tkazilgan.

Soliqlarning bozor munosabatlarida qatnashishini kuchaytirishda ularning hammasi uchun yagona huquqiy asos O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi 1997 yil 24 aprelda qabul qilindi.

Soliq kodeksining qabul qilinishi soliq qonunchiligini mustahkamlabgina kolmay, soliqlarni mahsulotlar eksportini, import tovarlar o'rniga mahsulotlar ishlab chiqarishni, ishlab chiqarishda nogironlarning qatnashishini, mehr-muruvvat ishlarini rag'batlantirish vazifasini kuchaytirdi.

Soliq islohotining **uchinchi bosqichi** 1998 yildan hozirgi vaqtgacha davom etmoqda. Bu bosqichni soliq tizimida soliqlarni ixchamlashtirish kontseptsiyasining boshlanish davri deb atash mumkin.

Bu bosqichda soliq to'lovchi yuridik shaxslarga imkoni boricha soddalashgan, ixchamlashgan soliq tizimi joriy etilib, ularning soliq hisoblari, hisobotlarini, soliq

to’lash muddatlari ixchamlashtirildi.

Ixchamlashtirilgan soliq to’lashga o’tishning huquqiy asoslari qishloq xo’jalik tovar ishlab chiqaruvchilar uchun yagona er solig’i O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “qishloq xo’jaligi tovar ishlab chiqaruvchilar uchun yagona er solig’ini joriy etish to’g’risida”gi 1998 yil 10 oktyabrdagi PF-2086-son Farmoni bilan 1999 yildan boshlab, kichik korxonalar uchun yagona soliq to’lash O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Kichik korxonalar uchun ixchamlashtirilgan soliqqa tortish tizimiga o’tishni qo’llash to’g’risida”gi qarorga asosan (1998 yil 15 aprel 159—son) 1998 yildan boshlab va O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Savdo va ijtimoiy ovqatlanish korxonalarini soliqqa tortish tizimini takomillashtirish to’g’risida”gi Farmoni (1153 — son 10 aprel 1998 yil) bilan savdo va umumiy ovkatlanish korxonalari 1998 yildan boshlab yalpi daromaddan soliq va mulk solig’ini to’laydigan bo’ldi.

Soliq tizimini ixchamlashtirish soliq hisoblovchi xodimlar, davlat soliq idoralari va bank xodimlarining minglab soat vaqtlarini iqtisod qilishga, ularni korxonalar foaliyati tahliliga bag’ishlashga imkoniyat yaratmoqda.

Mustaqillik yillarida soliq tizimini rivojlantirish asta-sekin o’z natijasini berib bormoqda. Kichik korxonalarning mamlakat ichki mahsuloti ishlab chiqarishdagi salmogi ortib bormoqda. Mustaqillik yillarida O’zbekiston o’zining mustaqil soliq tizimiga ega bo’ldi va uni takomillashtirish borasida yangi izlanishlar davom etmoqda.

SHuni ta’kidlab o’tish joizki, respublika iqtisodiyotida soliqlarning tutgan muhim o’rni borligini nazarga olgan holda Respublikada olib borilayotgan soliq islohotlariga katta e’tibor berish lozim. Toki bu islohotlar respublikamiz iqtisodiyoti ravnaq topishiga, aholi turmush darajasini ko’tarishga doimo xizmat qilsin.

O’zbekiston Respublikasi soliq tizimi mustaqillik qo’lga kiritilgandan boshlab takomillashtirilib borilmoqda. Soliq islohotlarini olib borish jarayonida uning shakllanishini davrlar bo’yicha rivojlanishini bozor iqtisodiyoti sharoitidan kelib chiqqan holda davrlarni hisobga olish barobarida shakllantirish muammosi mavjud. Ushbu jarayon esa soliq tizimining shakllanishini va rivojlanishini davrlarga bo’lishning o’ziga xos xususiyatlarini aniqlash va belgilash muammosi bilan bog’liqdir.

1997 yil 24 aprelida O’zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining tasdiqlanishi soliq tizimini isloh qilishning hozirga qadar amalga oshirilayotgan uchinchi bosqichining boshlanishi ifodasi ekanligi tamoman qonuniy holdir.

Soliq kodeksi amalga kiritilishi bilan soliqqa tortishning barcha asos bo’luvchi me’yorlarini yagona hujjatga jamlash; soliq imtiyozlarini tizimlashtirish; foyda, mol-mulk, qo’shilgan qiymatni hisobga olish va soliqqa tortishning xalqaro tizimini joriy etishga imkon yaratildi.

Uchinchi bosqichda yuridik shaxslarga, birinchi navbatda kichik va o’rta korxonalar uchun soliqqa tortish, hisobga olish va hisobotning soddalashtirilgan tizimi barpo etildi. Kichik tadbirkorlik sub’ektlari ixtiyoriy asosda umumdavlat va mahalliy soliqlar hamda yig’imlar jamlanmasi o’rniga yagona soliq to’lay boshladilar. Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 15 apreldagi 159-son qarori bilan

kichik korxonalar uchun soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimini qo'llash tartibi tasdiqlandi.

2002 yildan boshlab davlat soliq siyosatida mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalardan soliq yukini yanada kamaytira borish, chetga qat'iy almashtiriladigan valyutada mahsulotlarni eksport qilganlarga ham daromadga (foydaga) soliqdan, ham mol-mulk solig'idan kamaytirilgan regressiv soliq stavkasi qo'llash siyosatini yurgizish joriy etila boshlandi. Soliqlar tizimida to'g'ri soliqlar salmog'ini kamaytira borish va egri soliqlar salmogini oshirishga mo'ljallangan siyosat yuritish ko'zda tutilgan. SHu bilan birga soliq qonunchiligi takomillashtirila borildi, hamma soliqlar bo'yicha barcha yo'riqnoma va nizomlar qaytadan ishlab chiqildi.

2003 yildan boshlab samarasiz, byudjetga tushushini qiyinlashtiradigan quyidagi soliqlar va to'lovlar bekor qilindi. Bular: reklama solig'i, avtotransport vositalarini olib sotish solig'i, me'yoridan ortiq sotilmagan tayyor mahsulot qoldig'i uchun 2 foizli haq hamda tabiatni ifloslantiruvchi chiqindilarni joylashtirish uchun haqlardir. 2003 yildan boshlab 2002 yilda joriy etilgan chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatuvchi mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun belgilangan daromaddan yagona soliq, savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari uchun yalpi tushumdan yagona soliq solish davom ettirildi. Soliq bazalari va stavkalariga ham o'zgartishlar kiritilgan.

Qisqacha xulosalar

Soliq tizimiga xususan soliqlar yoki ularga tenglashtirilgan to'lovlar tizimi (majmui) sifatida qarash mumkin emas. Soliq solishning muhim shart-sharoitlariga quyidagilar kiradi: soliqlarni belgilash va amalga kiritish tartibi, soliqlarning turlari, ularni byudjet darajalari o'rtasida taqsimlash tartibi, soliq nazoratini amalga oshirish shakllari va uslublari, soliq to'lovchilarning huquqlari, majburiyatlari, ular manfaatlarini himoya qilish usullari, soliq munosabatlari ishtirokchilarining javobgarligi va shu birga ushbu elementlar soliq tizimining tarkibiy unsurlari ekanligini ta'kidlaydi va soliq tizimi deganda ana shu elementlarning majmuasidan iborat bo'lgan va ular o'rtasidagi munosabatlar majmuasidan kelib chiqib ifodalash mumkin.

Soliq munosabatlari mavjud bo'lishining asosiy shartlaridan biri davlatning mavjudligi bo'lsa, ikkinchi sharti soliqlarni to'lashga qobil bo'lgan soliq to'lovchilarning mavjudligidir. O'zbekiston soliqlar tizimi manbaiga qarab soliqlar yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarga ajratiladi.

Mustaqillik yillarida soliq tizimini rivojlantirish asta-sekin o'z natijasini berib bormoqda. Kichik korxonalarning mamlakat ichki mahsuloti ishlab chiqarishdagi salmog'i ortib bormoqda.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston o'zining mustaqil soliq tizimiga ega bo'ldi va uni takomillashtirish borasida yangi izlanishlar davom etmoqda.

SHuni ta'kidlab o'tish joizki, respublika iqtisodiyotida soliqlarning tutgan muhim o'rni borligini nazarga olgan holda respublikada olib borilayotgan soliq islohotlariga katta e'tibor berish lozim. Toki bu islohotlar Respublikamiz iqtisodiyoti ravnaq topishiga, aholi turmush darajasini ko'tarishga doimo xizmat

qilsin.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Soliq tizimi va soliqqa tortish tizimi o'rtasida qanday farq bor?
2. Soliq tizimining tarkibiy tuzilishini tushuntirib bering?
3. Soliqlarni iqtisodiy mohiyatiga ko'ra guruhlang?
4. Soliqlar soliqqa tortish ob'ektiga ko'ra necha guruhga bo'linadi?
5. To'g'ri soliqlar davlat byudjeti daromadlarining necha foizini tashkil etadi?
6. To'g'ri soliqlar tarkibiga qaysi soliqlar kiradi?
7. Qaysi soliqlarni egri soliqlar tarkibiga kiritamiz?
8. Egri soliqlarning haqiqiy to'lovchisi kimlar hisoblanadi?
9. Hozirgi kunda respublikamizda olib borilayotgan soliq siyosatining asosiy yo'nalishi nimalardan iborat?

Asosiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. –T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2006. -152 bet.
2. O'zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi Qonuni. - T.: // Xalq so'zi, 1997 yil, 29 avgust. 1-2 bet.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 18 dekabrdagi «O'zbekiston Respublikasining 2007 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida»gi 532-sonli Qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 13 noyabrdagi «Bozorni iste'mol tovarlari bilan to'ldirishni rag'batlantirish hamda ishlab chiqaruvchilar va savdo tashkilotlarining o'zaro munosabatlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 390-sonli Qarori.
5. Karimov I.A. YAngilanish va barqaror taraqqiyot yo'lidan yanada izchil harakat qilish, xalqimiz uchun farovon turmush sharoiti yaratish – asosiy vazifamizdir. // Xalq so'zi, 2007 yil 13 fevral.
6. Karimov I.A. Erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, yangi marralar sari izchil harakat qilishimiz lozim. – T.: // Xalq so'zi, 2006 yil 11 fevral.
7. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. – T: // Xalq so'zi, 2005 yil 29 yanvar.
8. Alimardonov M.I., To'xsanov Q.N. Soliq nazariyasi. – T.: O'zbekiston YOzuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005.
9. YUtkina G.F. Nalogi i nalogooblojeniya. Uchebnik. –M.: INFRA-M, 2001. - 429 s.
10. Toshmuradova B. Soliq munosabatlarini optimallashtirish: O'quv qo'llanma. - T.: TMI, 2005. –158 b.
11. http://www.soliq.uz (O'z R Davlat Soliq Qo'mitasi sayti).

II bo'lim. YURIDIK SHAXSLARNI SOLIQQA TORTISH

V bob. YURIDIK SHAXSLARDAN UNDIRILADIGAN DAROMAD (FOYDA) SOLIG'I

5.1. Yuridik shaxs tushunchasi va yuridik shaxslarning turlari

O'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi. YUridik shaxslar mustaqil balans yoki smetaga ega bo'lishlari kerak.

Foyda olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olgan (tijoratchi tashkilot) yoki foyda olishni ana shunday maqsad qilib olmagan tashkilot (tijoratchi bo'lmagan tashkilot) yuridik shaxs bo'lishi mumkin.

Tijoratchi tashkilot bo'lgan yuridik shaxs xo'jalik shirkati va jamiyati, ishlab chiqarish kooperativi, unitar korxona va qonunlarda nazarda tutilgan boshqacha shaklda tuzilishi mumkin.

Tijoratchi tashkilot bo'lmagan yuridik shaxs jamoat birlashmasi, ijtimoiy fond va mulkdor tomonidan moliyaviy ta'minlab turiladigan muassasa shaklida, shuningdek qonunlarda nazarda tutilgan boshqacha shaklda tashkil etilishi mumkin.

Tijoratchi bo'lmagan tashkilot o'zining ustavda belgilangan maqsadlariga mos keladigan doiralarda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi mumkin.

YUridik shaxslar uyushmalar (ittifoqlar)ga va boshqa birlashmalarga qonunga muvofiq birlashishlari mumkin. YUridik shaxs qonun hujjatlari shuningdek ustav va boshqa ta'sis hujjatlari asosida ish olib boradi. YUridik shaxs o'zining ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan faoliyati maqsadlariga muvofiq fuqarolik huquq layoqatiga ega bo'ladi. YUridik shaxsning huquq layoqati u tuzilgan paytdan boshlab vujudga keladi va uni tugatish yakunlangan paytdan e'tiboran tugatiladi. YUridik shaxsning maxsus huquq layoqati uning ustavi, nizomi yoki qonun hujjatlari bilan belgilanadi. YUridik shaxs qonunda ro'yxati belgilab qo'yilgan ayrim faoliyat turlari bilan faqat maxsus ruxsatnoma (litsenziya) asosidagina shug'ullanishi mumkin. YUridik shaxsning huquqlari qonunda nazar tutilgan hollarda va tartibdagina cheklanishi mumkin. YUridik shaxsning huquqlarini cheklash haqidagi qaror ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.

YUridik shaxslar mulkdor yoki u vakil qilgan shaxs tomonidan yoxud vakolatli organning farmoyishi asosida, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda tashkil etiladi.

Mulkdorlar, xo'jalik yuritish yoki operativ boshqarish huquqi sub'ektlari yoxud ular vakil qilgan shaxslar yuridik shaxslarning muassislari hisoblanadi.

YUridik shaxs ustav asosida yoki ta'sis shartnomasi va ustav asosida yoxud faqat ta'sis shartnomasi asosida ish olib boradi. Qonunda nazarda tutilgan hollarda tijoratchi tashkilot bo'lmagan yuridik shaxs shu turdagi tashkilotlar haqidagi nizom

asosida ish olib borishi mumkin. YUridik shaxsning ta’sis shartnomasi uning muassislari tomonidan tuziladi, ustavi esa - tasdiqlanadi.

O’zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq bir muassis tomonidan tashkil etilgan yuridik shaxs shu muassis tasdiqlagan ustav asosida ish olib boradi.

YUridik shaxsning ustavi va boshqa ta’sis hujjatlarida yuridik shaxsning nomi, uning joylashgan eri (pochta manzili), yuridik shaxs faoliyatini boshqarish tartibi belgilab qo’yilishi, shuningdek ularda tegishli turdagi yuridik shaxslar to’g’risida qonunda nazarda tutilgan boshqa ma’lumotlar bo’lishi kerak. Tijoratchi bo’lmagan tashkilotlar va unitar korxonalarning, qonunda nazarda tutilgan hollarda esa, boshqa tijoratchi tashkilotlarning ham ta’sis hujjatlarida yuridik shaxs faoliyatining sohasi va maqsadlari belgilab qo’yilgan bo’lishi kerak.

Ta’sis shartnomasida taraflar (muassislar) yuridik shaxs tashkil etish majburiyatini oladilar, uni tashkil etish sohasida birgalikda faoliyat ko’rsatish tartibini, unga o’z mol-mulklarini berish hamda uning faoliyatida ishtirok etish shartlarini belgilaydilar. SHartnomada foyda va zararlarni ishtirokchilar o’rtasida taqsimlash, yuridik shaxs faoliyatini boshqarish, muassislarning uning tarkibidan chiqish shartlari va tartibi ham belgilab qo’yiladi. Ta’sis shartnomasiga muassislarning kelishuviga muvofiq boshqa shartlar ham kiritilishi mumkin.

Ta’sis hujjatlaridagi o’zgartishlar davlat ro’yxatidan o’tkazilgan paytdan boshlab, qonunda belgilangan hollarda esa - davlat ro’yxatidan o’tkazishni amalga oshiruvchi organ ana shunday o’zgartishlar haqida xabardor qilingan paytdan boshlab uchinchi shaxslar uchun kuchga ega bo’ladi. YUridik shaxslar va ularning muassislari mazkur o’zgartishlarni hisobga olib ish yuritgan uchinchi shaxslar bilan munosabatlarda ana shunday o’zgartishlar ro’yxatga olinmaganligini vaj qilib ko’rsatishga haqli emaslar.

YUridik shaxs qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat ro’yxatidan o’tkazilishi lozim. Davlat ro’yxatidan o’tkazish haqidagi ma’lumotlar barchaning tanishib chiqishi uchun yuridik shaxslarning ochiq yagona davlat reestriga kiritiladi.

YUridik shaxsni tashkil etishning qonunda belgilab qo’yilgan tartibini buzish yoki uning ta’sis hujjatlari qonunga mos kelmasligi yuridik shaxsni davlat ro’yxatidan o’tkazishning rad etilishiga sabab bo’ladi. YUridik shaxsni tashkil etish maqsadga muvofiq emas degan vaj bilan uni ro’yxatdan o’tkazishni rad etishga yo’l qo’yilmaydi.

Davlat ro’yxatidan o’tkazishni rad etish, shuningdek ro’yxatdan o’tkazish muddatini buzish ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.

YUridik shaxs davlat ro’yxatidan o’tkazilgan paytdan boshlab tashkil etilgan hisoblanadi. YUridik shaxs qonunda belgilangan hollardagina qayta ro’yxatdan o’tkazilishi lozim. YUridik shaxs qonunlarga va ta’sis hujjatlariga muvofiq ish olib boradigan o’z organlari orqali fuqarolik huquqlariga ega bo’ladi va o’z zimmasiga fuqarolik burchlarini oladi. YUridik shaxs organlarini tayinlash yoki saylash tartibi qonun hujjatlari va ta’sis hujjatlari bilan belgilanadi.

Qonunda nazarda tutilgan hollarda yuridik shaxs o’z ishtirokchilari orqali fuqarolik huquqlariga ega bo’lishi va fuqarolik burchlarini o’z zimmasiga olishi mumkin. Qonunga yoki yuridik shaxsning ta’sis hujjatlariga muvofiq yuridik shaxs

nomidan ish olib boradigan shaxs o'zi vakili bo'lgan yuridik shaxs manfaatlari yo'lida halol va oqilona ish olib borishi kerak. U yuridik shaxs muassislari (ishtirokchilari, a'zolari) talabi bilan, agar qonunda yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, yuridik shaxsga etkazgan zararini to'lashi shart.

YUridik shaxs o'zining tashkiliy-huquqiy shaklini bildiradigan nomiga ega bo'ladi. Tijoratchi bo'lmagan tashkilotlar, unitar korxonalarning nomlari, qonunda nazarda tutilgan hollarda esa - boshqa tijoratchi tashkilotlarning ham nomlari yuridik shaxs faoliyatining xususiyatini ko'rsatishi kerak. YUridik shaxsning nomiga to'la yoki qisqartirilgan rasmiy nomni (davlatning nomini) kiritishga, yuridik shaxs hujjatlarining rekvizitlariga yoki reklama materiallariga ana shunday nomni yoxud davlat ramzlari elementlarini qo'shishga O'zbekiston Respublikasi Hukumati belgilaydigan tartibda yo'l qo'yiladi.

YUridik shaxsning joylashgan eri, agar qonunga muvofiq yuridik shaxsning ta'sis hujjatlarida boshqacha tartib belgilangan bo'lmasa, u davlat ro'yxatidan o'tkazilgan joy bilan belgilanadi. YUridik shaxs o'zi bilan bo'ladigan aloqa amalga oshiriladigan pochta manziliga ega bo'lishi lozim hamda o'zining pochta manzili o'zgarganligi to'g'risida vakolatli davlat organlarini xabardor etishi shart. YUridik shaxsning nomi va joylashgan eri (pochta manzili) uning ta'sis hujjatlarida ko'rsatiladi. Tijoratchi tashkilot bo'lgan yuridik shaxs o'z firma nomiga ega bo'lishi lozim. YUridik shaxs o'z firmasining nomidan mutlaq foydalanish huquqiga egadir.

O'zga firma nomidan g'ayriqonuniy sur'atda foydalanayotgan shaxs firma nomiga egalik qilish huquqi bo'lgan shaxsning talabi bilan undan foydalanishni to'xtatishi hamda etkazilgan zararlarni to'lashi lozim.

5.2. YUridik shaxslardan undiriladigan daromad (foyda) solig'ini to'lovchilar va soliq solish ob'ekti

Moliya yilida soliq solinadigan daromadga (foydaga) ega bo'lgan yuridik shaxslar daromad (foyda) solig'i to'lovchilar hisoblanadi.

YUridik shaxslar daromad (foyda) solig'i bo'yicha byudjet bilan hisob-kitoblarni mustaqil ravishda amalga oshiradilar. Ayrim tarmoqlar yuridik shaxslarining birlashmalari byudjet bilan hisob-kitoblarni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan markazlashtirilgan tartibda amalga oshirishlari mumkin.

Jami daromad bilan soliq qonunchiligiga muvofiq belgilanadigan chegirmalar o'rtasidagi farq sifatida hisoblangan daromad (foyda) soliq solish ob'ektidir.

O'zi ishlab chiqargan tovarlarni (bajargan ishlarni, ko'rsatgan xizmatlarni) erkin konvertatsiya qilinadigan valyutada eksport qiluvchi korxonalar eksportni ichki bozor narxlaridan past narxlarda amalga oshirsalar, ular uchun soliq solinadigan baza eksport mahsuloti realizatsiya qilingan haqiqiy narxdan kelib chiqqan holda hisoblab chiqiladi. Ushbu tartib savdo-vositachilik tashkilotlariga, shuningdek tasdiqlangan ro'yxatga muvofiq xom-ashyo tovarlarini eksport qiluvchi ishlab chiqarish korxonalariga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Ustav fondiga qo'shilgan, umumiy vazifalarni xal etish uchun birlashtirilgan badallar, paylar va aniq maqsadga qaratilgan boshqa moliyaviy mablag'lar (kapital) ana shu vazifalarni hal etish uchun maxsus tuzilgan yuridik shaxsning daromadlari hisoblanmaydi va soliq solish ob'ekti bo'lmaydi.

5.3. Jami daromad tarkibi va jami daromaddan chegirmalar

Jami daromadga jo'natilgan tovar, bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar va boshqa operatsiyalar uchun yuridik shaxs olishi lozim bo'lgan (olgan) yoki tekinga olgan pul yoxud boshqa mablag'lar kiradi.

Bunday daromadlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

1) tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan keladigan tushum;

2) asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, qimmatli qogozlar, intellektual mulk ob'ektlari, materiallar va boshqa aktivlarni realizatsiya qilishdan keladigan daromad;

3) foizlar ko'rinishidagi daromadlar;

4) dividendlar;

5) boshqa shaxslardan bepul olingan mol-mulk;

Olingan grantlar daromad sifatida qaralmaydi. Grant deganda korxonaga davlat (hukumat), shuningdek nohukumat, xorijiy, xalqaro tashkilotlar va jamg'armalar tomonidan ijtimoiy ahamiyatdagi maqsadlarda, iqtisodiyotni rivojlantirishni rag'batlantirish, ilmiy-texnik va innovatsiya dasturlarini bajarish uchun bepul, gumanitar pul ko'rinishidagi yoki moddiy-texnik yordam tushuniladi. Grant mablag'laridan qat'iyan maqsadga muvofiq foydalaniladi.

6) mol-mulkni ijaraga (lizingga) berishdan keladigan daromad;

7) royalti;

8) tekin moliyaviy yordam (davlat byudjetidan berilgan subsidiyalar bundan mustasno);

9) da'vo muddati o'tkazib yuborilgan kreditorlik va deponent qarzdorlikni hisobdan chiqarishdan olingan daromadlar;

10) ilgari chegirib tashlangan xarajatlar, zararlar yoki shubxali qarzlarning o'rnini qoplash tariqasida olingan daromadlar;

11) valyuta hisobvaraqlaridagi kurs bo'yicha musbat farq;

12) favqulodda daromadlar;

13) boshqa daromadlar.

Soliq solinadigan daromadlarni (foydalarni) belgilashda jami daromaddan quyidagi chegirmalar amalga oshiriladi:

– qo'shilgan qiymat solig'i, aktsiz solig'i, mol-mulk solig'i, er solig'i, er osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, shuningdek bojxona bojlari summalari;

– banklarning va boshqa moliya-kredit tashkilotlarining kreditlari uchun foiz to'lovlari summalari, bundan banklarning va boshqa moliya-kredit tashkilotlarining investitsiya davrida kapital qo'yilmalar tarkibiga kiradigan investitsiya uchun olgan kreditlari bo'yicha foizlar hamda to'lov muddati o'tgan va uzaytirilgan ssudalar bo'yicha foizlar mustasno;

– chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan O’zbekiston Respublikasining kafolatisiz jalb etiladigan uzoq muddatli kreditlar bo’yicha foiz to’lovlari summalari;

– xodimlarga ish haqi to’lash bo’yicha xarajatlar (banklarning, kredit uyushmalari, sug’urta tashkilotlari, videosalonlarning, videoko’rsatuv, video va audio yozuv punktlarining, auktsionlar, kazinolarning, ommaviy kontsert-tomosha tadbirlarini o’tkazuvchi tashkilotlarning xarajatlari bundan mustasno);

– belgilangan tartibda kiritiladigan renta to’lovlarining summasi;

– ijara haqi;

– asosiy vositalarni ta’mirlash xarajatlari;

– chet yuridik va jismoniy shaxslarning moddiy xarajatlari va ko’rsatgan xizmatlarining qiymati;

– majburiy sug’urta to’lovlari bo’yicha o’tkaziladigan, qonun hujjatlariga muvofiq ish haqiga hisoblangan summalar;

– mahsulotni (xizmatlarni) sertifikatlash ishlariga xaq to’lash xarajatlari summalari;

– qonun hujjatlariga muvofiq normalar bo’yicha xizmat safari xarajatlari summalari;

– qonun hujjatlariga muvofiq normalar bo’yicha vakillik maqsadlaridagi xarajatlar summalari;

– qonun hujjatlariga muvofiq normalar bo’yicha reklama xarajatlari summalari;

– soliq to’lovchi faoliyati ixtisosligi bo’yicha kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash uchun xarajatlar summalari;

– soliq to’lovchi balansidagi sog’liqni saqlash ob’ektlari, qariyalar va nogironlar uylari, maktabgacha tarbiya bolalar muassasalari, bolalarning dam olish lagerlari, madaniyat va sport ob’ektlari, xalq ta’limi muassasalari, uy-joy fondini saqlashga mahalliy davlat xokimiyati organlari tasdiqlagan normativlarga muvofiq qilinadigan xarajatlar summalari, shuningdek soliq to’lovchilar sanab o’tilgan muassasalarni saqlashda ulush qo’shib qatnashib, ana shu maqsadlar uchun qiladigan xarajatlarining summalari;

– lizing ob’ektini sotib olish uchun olingan kreditlar foizlari va boshqa belgilangan to’lovlar summalari;

– lizing beruvchining lizing shartnomasi bo’yicha lizing to’lovi tarkibida to’lanadigan daromadi;

– qonun hujjatlarida belgilangan normalar doirasidagi ixtiyoriy sug’urta turlari bo’yicha xarajatlar summalari;

– qonun hujjatlarida belgilab qo’yiladigan boshqa majburiy to’lovlar.

SHuningdek quyidagi xarajatlar va ajratmalar ham jami daromaddan chegirib tashlanishi lozim:

1) banklar bo’yicha:

– kredit resurslari uchun to’lovlar, operatsiya xarajatlari, pul mablag’lari va boyliklarni tashish hamda saqlash xarajatlari;

– mijozlarning hisobvaraqlari, shu jumladan jismoniy shaxslarning omonatlari bo'yicha hisoblangan va to'langan foizlar;

– tavakkalchilik operatsiyalari bo'yicha zaxira hisobidan o'chirilgan umidsiz ssuda summalari;

2) sug'urta tashkilotlari bo'yicha:

– qayta sug'urta shartnomalari bo'yicha berilgan to'lov summalari;

– amal qilishi hisobot yili oxirigacha tugamagan sug'urta va qayta sug'urta shartnomalari bo'yicha to'lov summalari;

– sug'urta va qayta sug'urta majburiyatlari bo'yicha amalga oshirilgan va hisoblangan to'lov summalari;

– o'tgan yillardagi sug'urta xodisalari bo'yicha tugallanmagan to'lov summalari, shu jumladan da'vo muddati doirasidagi majburiyatlar summalari;

– sug'urta holatining ro'y berganligi haqida ma'lum qilingan, lekin zarar miqdori taqdim etilmagan shartnomalar bo'yicha sug'urta summalari;

– sug'urta tashkiloti sug'urta xodisalari ro'y berishini bartaraf etish va uning oldini olishga doir tadbirlarni (preventiv tadbirlarni) moliyalashga sarflaydigan mablag'lar summalari;

– sug'urta tashkilotlarining zaxira fondlari bu tashkilotlar ustav fondining yigirma besh foiziga etguniga qadar sug'urta tashkilotlari o'z daromadlarining yigirma foizi miqdorida zaxira fondlariga qiladigan ajratmalar.

Jami daromaddan chegirib tashlanadigan xarajatlar, majburiy to'lovlar, chiqimlar va ajratmalarni aniqlash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Agar amalga oshirilgan xarajat xarajatlarning bir necha toifasiga kiritilgan bo'lsa, u faqat bir marta jami daromaddan chegirilishi mumkin.

Asosiy vositalar sotib olish va ularni montaj qilishga, nomoddiy aktivlar sotib olishga qilingan xarajatlar, shuningdek boshqa kapital xarajatlar amortizatsiya tariqasida keyingi davrlarda jami daromaddan chegirib tashlanishi lozim.

Soliq to'lovchi (banklar va sug'urta tashkilotlari bundan mustasno) da'vo muddati o'tganidan so'ng daromadlari tovarlarning (ishlar, xizmatlarning) realizatsiya qilinishi bilan bog'liq bo'lgan, ilgari jami daromadga qo'shilgan umidsiz qarzlar bo'yicha chegirma qilinish huquqiga ega bo'ladi.

Moliyaviy jazo choralari va hisoblangan penya summalari jami daromaddan chegirib tashlanmaydi.

Tadbirkorlik faoliyatida uch yildan ortiq foydalanilgan asosiy vositalar realizatsiya qilinganida vujudga kelgan zararlar jami daromaddan chegirib tashlanadi. Qimmatli qogozlar realizatsiya qilinganida vujudga kelgan zararlar jami daromaddan chegirib tashlanmaydi. Ish xayvonlari va ko'p yillik daraxtlardan foydalanganda vujudga kelgan zararlar faqat ana shu aktivlardan foydalanishdan olingan daromaddan chegirib tashlanadi.

Asosiy vositalar amortizatsiya qilinadi, er bundan mustasno. Asosiy vositalarning soliq solinadigan davr mobaynida belgilangan normalar doirasida hisoblangan amortizatsiya ajratmalari summalari jami daromaddan chegirib tashlanadi.

Amortizatsiya ajratmalarining summalari asosiy vositalarning dastlabki (tiklanish) qiymati va soliq qonunchiligida belgilangan amortizatsiya normalari (2-jadval) asosida hisoblab chiqiladi. Amortizatsiya muddati tugaganidan so'ng eskirish hisoblanmaydi.

2-jadval

ASOSIY VOSITALARNING AMORTIZATSIYA NORMALARI

	Asosiy vositalar guruhlari	Amortizatsiya normasi, %
1.	Engil avtomobillar, taksi, yo'llarda foydalaniladigan avtotraktor texnikasi, maxsus asbob-uskuna, inventar va jihozlar. Kompyuterlar, periferiya qurilmalari va ma'lumotlarni qayta ishlash uskunalari	20
2.	YUk avtomobillari, avtobuslar, maxsus avtomobillar va avtotirkamalar. Sanoatning barcha tarmoqlari, metall quyish korxonasi uchun mashinalar va uskunalar, temirchilik-presslash uskunalari, qurilish uskunalari, qishloq xo'jalik mashinalari va uskunalari. Ofislar uchun mebel	15
3.	Temir yo'l, dengiz, daryo va xavo transporti vositalari. Kuchquvvat beradigan mashinalar va uskunalar: issiqlik texnika uskunalari, turbina uskunalari, elektr dvigatellari va dizel-generatorlar. Elektr uzatish va aloqa qurilmalari. Truboprovodlar	8
4.	Binolar, inshootlar va imoratlar	5
5.	Boshqa guruhlarga kiritilmagan, amortizatsiya qilinadigan aktivlar	10

Asosiy vositalarni uzoq muddatga ijaraga olgan yuridik shaxslar ham o'zlariga qarashli, ham ijaraga olingan asosiy vositalar yuzasidan amortizatsiya ajratmalarini hisoblaydilar. Bu holda ijaraga beruvchi ijaraga berilgan asosiy vositalar uchun amortizatsiya ajratmalarini hisoblamaydi.

Nomoddiy aktivlarga qilingan xarajatlar jami daromaddan eskirish tarzida har oyda, yuridik shaxs tomonidan ularning boshlang'ich qiymati va ulardan unumli foydalanish muddati (biroq yuridik shaxsning faoliyat muddatidan ortiq bo'lmagan muddat) asosida hisoblab chiqarilgan normalar bo'yicha chegirib tashlanadi.

Unumli foydalanish muddatini aniqlab bo'lmaydigan nomoddiy aktivlar bo'yicha amortizatsiya normalari besh yilga (biroq yuridik shaxsning faoliyat muddatidan ortiq bo'lmagan muddatga) mo'ljallab belgilanadi.

Soliq to'lovchining geologik tadqiqotlar va tabiiy resurslarni qazib olishga tayyorgarlik ishlari uchun qilgan xarajatlari jami daromaddan amortizatsiya sifatida, amortizatsiya ajratmalari normasi bo'yicha - o'n besh foiz miqdorida chegirib tashlanadi. Soliq to'lovchining tadbirkorlik faoliyatiga taalluqli bo'lmagan tadbirlarni o'tkazish bilan bog'liq xarajatlari bo'yicha chegirmalar qilinmaydi.

Agar madaniy, sport va boshqa tadbirlar uchun xarajatlar soliq to'lovchining asosiy faoliyati doirasida o'tkaziladigan bo'lsa, soliq qonunchiligi qoidalari unga nisbatan qo'llanilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 27-moddasiga binoan ijtimoiy ehtiyojlarga ajratmalar ya'ni, davlatga qarashli bo'lmagan pensiya fondlariga ajratmalar jami daromaddan chegirib tashlanmaydi. Soliq qonunchiligida nazarda tutilgan, chegirib tashlanishi lozim bo'lgan xarajatlarning jami daromaddan oshib ketishi zarar deb e'tirof etiladi.

Soliq to'lovchi ko'rilgan zararlarni zarar ko'rilgan hisobot yilidan keyingi besh yil muddat davomida taqsimlab o'tkazishni amalga oshirishga haqlidir.

O'tgan hisobot yilida yoki o'tgan hisobot yillarida ushbu moddaning birinchi qismiga muvofiq hisoblab chiqarilgan zararga (zararlarga) ega bo'lgan daromad (foyda) solig'i to'lovchilar joriy yildagi soliq solinadigan daromadni (foydani)

ko'rilgan zararlarning to'liq summasiga yoki ushbu summaning bir qismiga kamaytirishga xaqlidir.

Taqsimlab o'tkazilayotgan zararning har bir navbatdagi yilda hisobga olinadigan jami summasi soliq qonunchiligiga muvofiq hisoblab chiqarilgan joriy yildagi soliq solinadigan daromadning (foydaning) 50 %idan oshmasligi kerak.

Soliq solinadigan baza o'rni qoplanishi kerak bo'lgan zarar summasi miqdoriga faqat yil yakunlari bo'yicha kamaytirilishi mumkin. Birdan ortiq kalendar yilda ko'rilgan zararlar ular ko'rilgan ketma-ketlikda taqsimlab o'tkaziladi. Soliq to'lovchining daromad (foyda) solig'idan ozod qilingan davrdagi zararlari keyingi davrlarga taqsimlab o'tkazilishi mumkin emas.

5.4. YUridik shaxslarning daromadiga (foydasiga) solinadigan soliq stavkalari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 18 dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining 2007 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-532–son qaroriga muvofiq 2007 yilda foyda solig'i stavkasi 2006 yilda amalda bo'lgan 12 % o'rniga 10 % miqdorida belgilandi.

Auktsionlar o'tkazishdan, gastrol-kontsert faoliyati bilan shug'ullanishga litsenziyasi bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarni (shu jumladan norezidentlarni) jalb etish yo'li bilan ommaviy tomosha tadbirlarini tashkil etishdan daromad oladigan yuridik shaxslar uchun foyda solig'i stavkasi 35 % miqdorida saqlab qolindi. Bunda foyda solig'i hisoblab chiqarishda soliq solinadigan bazadan 2006 yilda ish haqi bo'yicha chegirilmaydigan xarajatlar chiqarib tashlanadi.

Tijorat banklarining foydasiga 17 %lik stavka bo'yicha soliq solinadi (2008 yil 1 yanvardan boshlab 15 %). Bunda foyda solig'ini hisoblab chiqarishda soliq solinadigan bazadan 2006 yilda ish haqi bo'yicha chegirilmaydigan xarajatlar chiqarib tashlanadi.

Foyda solig'ining barcha to'lovchilari uchun foyda solig'ini hisoblab chiqarish chog'ida chegiriladigan xarajatlar ro'yxati haqiqatda amalga oshirilgan xarajatlar chegarasida kengaytirildi, xususan, unga quyidagilar kiritildi:

- reklama xarajatlari;
- telekommunikatsiyalar xizmatlari uchun to'lov;
- shaharlararo va xalqaro telefon so'zlashuvlariga haq to'lash bo'yicha xarajatlar;
- soliq to'lovchining balansida turgan sog'liqni saqlash ob'ektlari, qariyalar va nogironlar uylari, bolalar maktabgacha tarbiya muassasalari, bolalar dam olish oromgohlari, madaniyat va sport ob'ektlari, xalq ta'limi muassasalari, shuningdek uy - joy fondi ob'ektlarining ta'minoti bo'yicha xarajatlar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 18 dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining 2007 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-532–son qaroriga muvofiq 2007 yilda hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 12 dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining 2008 yilgi asosiy makroiqtisodiy

ko’rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to’g’risida”gi PQ-744–son qaroriga muvofiq 2008 yilda yuridik shaxslardan olinadigan daromad (foyda) solig’i stavkalari quyidagi jadvaldagi miqdorlarda belgilangan (3-jadval).

3-jadval

YUridik shaxslardan olinadigan daromad (foyda) solig’i stavkalari

№	To’lovchilar	Soliq solinadigan bazaga nisbatan %da soliq stavkalari	
		2007 yil	2008 yil
1.	YUridik shaxslar (2-5-bandlarda nazarda tutilganlaridan tashqari)	10	10
2.	Tijorat banklari	17	15
3.	Auktsionlar o’tkazishdan, gastrol-kontsert faoliyati bilan shug’ullanishga litsenziyasi bo’lgan yuridik va jismoniy shaxslarni (shuningdek norezidentlarni) jalb etish yo’li bilan ommaviy tomosha tadbirlarini tashkil etishdan daromad oluvchi yuridik shaxslar	35	35
4.	O’zi ishlab chiqargan tovarlar (ishlar, xizmatlar) eksportining erkin almashtiriladigan valyutadagi hissasi quyidagi miqdorlarni tashkil etadigan eksportchi korxonalar uchun:		
	sotishning umumiy hajmida 15 foizdan 30 foizgacha	belgilangan stavka 30%ga pasaytiriladi	belgilangan stavka 30%ga pasaytiriladi
	sotishning umumiy hajmida 30 foiz va undan yuqori	belgilangan stavka 50%ga pasaytiriladi	belgilangan stavka 50%ga
5.	1-bandda ko’rsatilgan xizmat ko’rsatish sohasi korxonalari uchun, plastik kartalar qo’llab haq to’langan ko’rsatilgan xizmatlar hajmi bo’yicha	belgilangan stavka 10% ga pasaytiriladi	belgilangan stavka 10% ga pasaytiriladi

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 13 noyabrdagi "Bozorni iste’mol tovarlari bilan to’ldirishni rag’batlantirish hamda ishlab chiqaruvchilar va savdo tashkilotlarining o’zaro munosabatlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida"gi 390-son qaroriga muvofiq quyidagilarni ishlab chiqaruvchi korxonalar:

–iste’mol tovarlari, iste’mol tovarlari ishlab chiqarishdan olingan daromaddan tasdiqlangan ro’yxatga ko’ra, belgilanganidan 20 foiz kamaytirilgan stavka bo’yicha daromad (foyda) solig’i to’laydi;

–bolalar tovarlari, ularni ishlab chiqarishdan olingan daromaddan 7 foiz stavka bo’yicha daromad (foyda) solig’i to’laydi.

YUridik shaxslarga to’lanadigan dividendlar va foizlarga O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydigan stavka bo’yicha to’lov manbaida soliq solinadi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 18 dekabrdagi “O’zbekiston Respublikasining 2007 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko’rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to’g’risida”gi PQ-532–son qaroriga muvofiq 2007 yilda yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan dividendlar va foizlar tarzida olinadigan daromadlardan soliq stavkalari 10 foiz miqdorida saqlab qolindi.

Aktsiyalar bo’yicha va xo’jalik yurituvchi sub’ektlarning ustav sarmoyasidagi ulushbay qatnashuvdan olinadigan daromadlar soliq solish maqsadlari uchun dividendlar hisoblanadi. Depozit qo’yilmalar, qarz majburiyatlari va boshqa qimmatli qog’ozlar bo’yicha olinadigan daromadlar foizlar jumlasiga kiritiladi.

Davlat obligatsiyalari va davlatning boshqa qimmatli qog’ozlari bo’yicha dividendlar va foizlar, shuningdek O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Byudjetdan tashqari Pensiya jamg’armasining vaqtincha bo’sh mablag’larini moliyaviy bozorlarga joylashtirishdan foizlar tarzida olinadigan daromadlar soliq solishdan ozod etiladi.

O’zbekiston Respublikasidagi to’lov manbaida soliq solinadigan dividend va foizlar olgan yuridik shaxs – rezident ularni jami daromaddan chegirish huquqiga egadir. Banklar va boshqa rezident moliya - kredit tashkilotlariga to’lanadigan foizlarga to’lov manbaida soliq solinmaydi, balki bank va boshqa rezident moliya-kredit tashkilotida belgilangan tartibda soliq solinadi.

Norezidentning O’zbekiston Respublikasidagi to’lov manbaidan olingan, doimiy muassasa bilan bog’liq bo’lmagan daromadiga (foydasiga) manbada chegirmalarsiz quyidagi jadvaldagi stavkalar bo’yicha soliq solinadi (4-jadval):

4-jadval

O’zbekiston Respublikasi norezidentlari daromadlaridan to’lov manbaida undiriladigan daromad (foyda) solig’i stavkalari

№ t/r	Norezidentlarning daromad turlari	Soliq stavkalari, %
1.	Dividendlar va foizlar	10
2.	Tavakkalchiliklarni sug’urta qilishga yoki qayta sug’urta qilishga to’langan sug’urta mukofotlari	10
3.	O’zbekiston Respublikasi bilan boshqa davlatlar o’rtasida harakat qilishda xalqaro aloqa uchun telekommunikatsiyalar yoki transport xizmatlari (fraxtdan daromadlar)	6
4.	Royalti, ijaradan (lizingdan) olingan daromadlar, xizmatlar ko’rsatish, shu jumladan boshqaruv, maslahat xizmatlari ko’rsatishdan keladigan daromadlar va boshqa daromadlar, daromad solig’i solingan daromadlar (foyda) bunga kirmaydi	20

5.5. YUridik shaxslardan undiriladigan daromad (foyda) solig’i bo’yicha belgilangan imtiyozlar

Quyidagi yuridik shaxslar daromad (foyda) solig’idan ozod qilinadi:

1) protez-ortopediya buyumlari, inventari ishlab chiqarishga, shuningdek nogironlarga xizmat ko’rsatishga ixtisoslashgan yuridik shaxslar-asosiy faoliyat turi bo’yicha;

2) ishlovchilari umumiy sonining kamida ellik foizini nogironlar, 1941-1945 yillardagi urush va mehnat fronti faxriylari tashkil etgan, nogironlar jamoat birlashmalari, “Nuroniy” jamg’armasi va O’zbekiston chernobilchilar uyushmasi mulki bo’lganlari, bundan savdo, vositachilik, ta’minot-sotish va tayyorlov faoliyati bilan shug’ullanadigan yuridik shaxslar mustasno;

3) davolash muassasalari huzuridagi davolash - ishlab chiqarish ustaxonalari;

4) jazoni ijro etish muassasalari;

5) tijorat bilan shug’ullanmaydigan yuridik shaxslar, ularning tadbirkorlik faoliyatidan olgan daromadlaridan (foydalaridan) tashqari;

6) shahar yo’lovchilar transporti (taksidan, shu jumladan yo’nalishli taksidan tashqari) yo’lovchilarni tashish bilan bog’liq xizmatlari bo’yicha;

7) tarix va madaniyat yodgorliklarini ta’mirlash va qayta tiklash ishlarini amalga oshirishdan olingan daromadlar (foydalar) bo’yicha;

8) O’zbekiston Respublikasining investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalarga kapital mablag’lar sarflaydigan chet el investitsiyasi ishtirokidagi ishlab chiqarish korxonalari, ro’yxatdan o’tgan vaqtidan e’tiboran dastlabki etti yil davomida;

9) yangi tashkil etilayotgan korxonalar, shu jumladan shaxarchalar, qishloqlar va ovullar hududida tashkil etilgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar (savdo, vositachilik, ta’minot-sotish va tayyorlov faoliyati bilan shug’ullanuvchi korxonalardan tashqari) ro’yxatdan o’tkazilgan paytdan e’tiboran birinchi yili daromad (foyda) solig’i to’lashdan ozod qilinadi, ikkinchi yili belgilangan stavkaning yigirma besh foizi miqdorida va uchinchi yili ellik foizi miqdorida soliq to’laydi. Keyingi yillarda daromad (foyda) solig’i belgilangan stavka bo’yicha to’liq miqdorda to’lanadi.

YAngi tashkil etilayotgan boshqa korxonalar, shu jumladan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar (savdo, vositachilik, ta’minot- sotish va tayyorlov faoliyati bilan shug’ullanuvchi korxonalardan tashqari) ro’yxatdan o’tkazilgan paytdan e’tiboran birinchi yili belgilangan stavkaning yigirma besh foizi miqdorida va ikkinchi yili ellik foizi miqdorida soliq to’laydi. Keyingi yillarda daromad (foyda) solig’i belgilangan stavka bo’yicha to’liq miqdorda to’lanadi.

YUridik shaxslar belgilangan imtiyozli davrning bir yili o’tguniga qadar tugatilgan taqdirda, soliq summasi ularning butun faoliyati davri uchun to’liq miqdorda undirib olinadi;

10) ichki ishlar organlari xuzuridagi soqchilik bo’linmalari;

11) gastrol-kontsert faoliyati bilan shug’ullanish huquqini beruvchi litsenziyasi bo’lgan yuridik shaxslar;

12) sug’urta shartnomalari bo’yicha sug’urta tovoni (sug’urta puli) tariqasida olingan mablag’lar summasi bo’yicha;

13) dividendlar ko’rinishida olingan va yuridik shaxsdan olinib, uning ustav kapitaliga (fondiga) yo’naltirilgan daromadlar bo’yicha;

14) Xalq banki - fuqarolarning shaxsiy jamg’arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag’lardan foydalanishdan olingan daromadlar bo’yicha.

YAngi tashkil etilgan korxonalarga berilgan imtiyozlar avvaldan amal qilib turgan yuridik shaxslar, ularning filiallari va tarkibiy bo’linmalari negizida tuzilgan

yuridik shaxslarga (chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalardan tashqari), shuningdek korxonalar huzurida tuzilgan yuridik shaxslarga nisbatan, basharti ular korxonadan ijaraga olingan asbob-uskunalarda ishlayotgan bo'lsalar, qo'llanmaydi.

YUridik shaxslarning soliq solinadigan daromadi (foydasi) quyidagi summaga kamaytiriladi:

1) ekologiya, salomatlik va xayriya fondlari, madaniyat, xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish, jismoniy tarbiya va sport muassasalariga fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga beriladigan badallar summasiga, biroq soliq solinadigan daromadning (foydaning) bir foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda;

2) investitsiyalarga (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori asosida asosiy ishlab chiqarishni rivojlantirish, kengaytirish va rekonstruktsiya qilishga, kollejlar, akademik litseylar, maktablar va maktabgacha ta'lim muassasalari qurilishiga), shuningdek investitsiyalar uchun olingan kreditlarni uzishga yo'naltiriladigan xarajatlar summasiga, hisobot davri uchun hisoblangan amortizatsiyadan to'liq foydalanish sharti bilan, biroq soliq solinadigan daromadning (foydaning) o'ttiz foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda;

3) diniy va jamoat birlashmalarining (kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar va harakatlardan tashqari), hayriya fondlarining mulkida bo'lgan korxonalar daromadidan (foydasidan) shu birlashmalar va fondlarning ustavda belgilangan faoliyatini amalga oshirish uchun yo'naltiriladigan ajratmalari summasiga.

5.6. Norezidentlar hamda chet ellik yuridik shaxslarning daromadlariga (foydasiga) soliq solish xususiyatlari

O'zbekistonda ta'sis etilgan yoki ro'yxatdan o'tkazilgan yuridik shaxs, shuningdek O'zbekiston Respublikasidan tashqarida ro'yxatdan o'tgan, bosh korxonasi O'zbekistonda joylashgan yuridik shaxs O'zbekiston Respublikasining rezidenti hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining rezidenti bo'lgan yuridik shaxslarga O'zbekiston Respublikasidagi va undan tashqaridagi faoliyat manbalaridan olgan daromadlari (foydalari) bo'yicha soliq solinadi.

O'zbekiston Respublikasining rezidenti bo'lmagan yuridik shaxslarga O'zbekiston hududidagi manbalardan olgan daromadlari (foydalari) bo'yicha soliq solinadi.

O'zbekiston Respublikasidan tashqarida to'langan daromad (foyda) solig'i summalari O'zbekiston Respublikasida soliq to'lash vaqtida O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq hisobga olinadi. Hisobga olinadigan summalar miqdori O'zbekiston Respublikasida amalda bo'lgan stavkalar bo'yicha hisoblab chiqarilgan daromad (foyda) solig'i summasidan ortiq bo'lmasligi kerak.

O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshiradigan soliq to'lovchi-norezident O'zbekiston Respublikasida bo'lgan, doimiy muassasa bilan bog'langan manbalardan olingan daromadlari (foydasi)dan soliq qonunchiligida ana shunday daromadga (foydaga) nisbatan nazarda tutilgan chegirmalar summasiga kamaytirilgan soliqni to'lovchi hisoblanadi.

Norezidentning doimiy muassasa bilan bog'liq bo'lmagan daromadiga, agar daromad manbai O'zbekiston Respublikasida joylashgan bo'lsa, jami daromaddan chegirma qilmay, Soliq Kodeksining 30-moddasida nazarda tutilgan stavkalar bo'yicha to'lov manbaida soliq solinadi. To'lov manbaida soliq solish to'lovning O'zbekiston Respublikasi ichida yoki uning hududidan tashqarida amalga oshirilganidan qat'i nazar qo'llaniladi.

CHet ellik yuridik shaxslarga O'zbekiston Respublikasi hududida O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida belgilangan xususiyatlarni hisobga olgan holda Soliq Kodeksiga muvofiq soliq solinadi.

CHet ellik yuridik shaxslardan soliqlar va yig'imlarni undirish o'zaro kelishuv asosida to'xtatilishi yoki cheklanishi mumkin, basharti tegishli chet davlatda ham O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxslariga nisbatan xuddi shunday chora-tadbirlar ko'rilgan bo'lsa. CHet ellik yuridik shaxslar bilan bitimlar tuzish chog'ida bunday bitimlarning shartlariga O'zbekiston Respublikasida faoliyatni amalga oshiradigan soliq to'lovchilar hamda boshqa shaxslar chet ellik yuridik shaxslarning soliqlar va yig'imlarni to'lash bo'yicha xarajatlarini o'z zimmasiga olishini nazarda tutadigan soliq haqidagi izohlarning kiritilishiga ruxsat berilmaydi.

Norezident-yuridik shaxsning doimiy muassasasiga daromad (foyda) solig'iga qo'shimcha ravishda ushbu doimiy muassasaning chet elga o'tkazadigan daromadidan o'n foiz miqdorida soliq olinadi. CHet ellik yuridik shaxslarga O'zbekiston Respublikasi hududida O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida belgilangan xususiyatlarni hisobga olgan holda Soliq Kodeksiga muvofiq soliq solinadi.

5.7. YUridik shaxslardan undiriladigan daromad (foyda) solig'ini hisobga olish tartibi

Uzoq muddatli kontraktlarga taalluqli daromadlar va chegirmalar ularning amalda bajarilgan qismi bo'yicha moliya yili davomida hisobga olinadi. Uzoq muddatli kontraktning amalda bajarilganligi moliya yili oxirigacha qilingan xarajatlarni ushbu kontrakt bo'yicha jami xarajatlar bilan taqqoslash orqali aniqlanadi.

Soliq solish maqsadida tovar-moddiy zaxiralarni baholash va hisobga olish buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Tovar-moddiy zaxiralarni qo'shimcha baholash summasi tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) realizatsiya qilinishiga qarab, soliq solinadigan daromad (foyda) tarkibiga kiritiladi.

Amortizatsiya qilinishi kerak bo'lgan asosiy vositalarning ijarasi bir taraf (lizing beruvchi) ikkinchi tarafning (lizing oluvchining) topshirig'iga binoan uchinchi tarafdan (sotuvchidan) lizing shartnomasida shartlashilgan mol-mulkni (lizing ob'ektini) mulk qilib sotib olganda hamda uni lizing shartnomasida belgilangan shartlarda haq evaziga egalik qilish va foydalanish uchun lizing oluvchiga berganda lizing (moliyaviy ijara) deb hisoblanadi. Bunda ijara muddati

o’n ikki oydan ortiq bo’lishi va lizing shartnomasi quyidagi shartlardan biriga muvofiq bo’lishi lozim:

–lizing shartnomasining muddati tugagach, asosiy vositalar lizing oluvchining mulki bo’lib o’tsa;

–ijara muddati asosiy vositalar xizmat muddatining sakson foizidan ortiq bo’lsa;

–lizing oluvchi asosiy vositalarni ularning bozor qiymatidan past narxda evazini to’lab sotib olish huquqiga ega bo’lsa, bunda ana shu huquqni amalga oshirish kunidagi asosiy vositalar qiymati asos bo’ladi;

–ijaraga olingan asosiy vositalarning ijara tugaganidan keyingi qoldiq qiymati ularning ijara boshlanishidagi qiymatining yigirma foizidan kam bo’lsa;

–lizing shartnomasining butun davri uchun lizing to’lovlarining joriy summasi ijaraga olingan vositalar qiymatining to’qson foizidan ortiq bo’lsa.

Aktivlar realizatsiya qilinganida ularni realizatsiya qilishdan olingan tushum bilan bu aktivlarning qiymati o’rtasidagi musbat farq aktivlar qiymatining o’sishidan olingan daromad hisoblanadi. Aktivlarni realizatsiya qilishdan olingan tushum bilan bu aktivlarning qiymati o’rtasidagi manfiy farq aktivlarni realizatsiya qilishdan ko’rilgan zarar hisoblanadi.

Aktivlar qiymatiga ularni olish, ishlab chiqarish, qurish, montaj qilish va o’rnatish xarajatlari, shuningdek ularning qiymatini orttiradigan boshqa xarajatlar qo’shiladi, soliq to’lovchi chegirish huquqiga ega bo’lgan xarajatlar bundan mustasno. Agar aktivlarning faqat bir qismi realizatsiya qilinsa, unda aktivlarning realizatsiya qilish paytidagi qiymati qolgan va realizatsiya qilingan qismlari o’rtasida taqsimlanadi.

Aktivlar bepulga yoki kamaytirilgan qiymat bo’yicha topshirilganida topshiruvchi shaxsga qarashli aktivlarning qiymati vujudga kelgan xarajatlar asosida, oluvchi shaxsning daromadlari esa-kirim qilingan baholash qiymati bo’yicha, lekin topshirilayotgan aktivlarning tannarxidan kam bo’lmagan miqdorda belgilanadi.

5.8. YUridik shaxslardan undiriladigan daromad (foyda) solig’ini hisoblash mexanizmi va to’lash tartibi

Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar ortib boruvchi yakun bilan chiqarilgan daromad (foyda) solig’i bo’yicha hisob-kitoblarni, agar qonun hujjatlarida boshqa tartib belgilanmagan bo’lsa, soliq ro’yxatidan o’tgan joydagi soliq organlariga yil choraklariga oid va yillik moliyaviy hisobotni taqdim etish muddatlarida topshiradilar.

YUridik shaxs tugatilgan taqdirda soliq organi soliq to’lovchidan kamroq bo’lgan davr uchun hisobotlar, soliq bo’yicha hisob-kitoblarni taqdim etishni yozma xabarnoma topshirish yo’li bilan talab qilishi mumkin bo’lib, xabarnomada buning sababi va hisobotlar, soliq bo’yicha hisob-kitoblar qachon va qaysi davr uchun taqdim etilishi lozimligi ko’rsatiladi.

YUridik shaxsni tugatish haqida belgilangan tartibda qaror qabul qilingan taqdirda tugatish komissiyasi (tugatuvchi) besh kunlik muddatda bu haqda soliq organini yozma ravishda xabardor qiladi. YUridik shaxsni tugatish haqida qaror qabul qilinganidan so'ng soliq to'lovchi o'n besh kun ichida soliq organiga hisobotlar, soliq bo'yicha hisob-kitoblarni taqdim etishi shart.

Daromad (foyda) solig'i bo'yicha hisobotlar, hisob-kitoblar qonun hujjatlarida belgilangan shakl va tartibda taqdim etiladi. Daromad (foyda) solig'ini to'lov manbaida ushlab qolishni quyidagilar amalga oshirishi shart:

- yuridik shaxslarga dividendlar va foizlar to'lovchi yuridik shaxslar;
- norezident yuridik shaxslarga Soliq Kodeksining 30-moddasiga muvofiq to'lovlarni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar.

Daromad (foyda) solig'ini ushlab qolish va byudjetga o'tkazish uchun daromad to'lovchi yuridik shaxs javobgardir. Soliq summasi ushlab qolinmaganda daromad to'lovchi yuridik shaxs ushlab qolinmagan soliq summasini hamda u bilan bog'liq jarima va penyalarni byudjetga to'lashi shart.

YUridik shaxslarga dividendlar va foizlar to'lovchi yuridik shaxslar quyidagilarni bajarishi shart:

1) soliqni to'lov amalga oshirilgan oy tugaganidan so'ng besh kun ichida byudjetga o'tkazishi;

2) daromad oluvchi yuridik shaxslarning ro'yxat raqami, ularning nomi, daromadining umumiy summasi va hisobot yilida ushlab qolingan soliqning umumiy summasi ko'rsatilgan ma'lumotnomani moliya yili tugaganidan so'ng o'ttiz kun ichida soliq organlariga taqdim etishi, shuningdek daromad oluvchi yuridik shaxslarga ularning talabiga ko'ra yuborishi lozim.

YUridik shaxslar daromad (foyda) solig'ini daromad (foyda) solig'i bo'yicha hisob-kitoblarni topshirish uchun belgilangan kundan boshlab besh kun ichida, Soliq Kodeksning 41-moddasiga muvofiq o'tgan hisobot davrining moliyaviy natijalari asosida to'laydi.

Yilning hisobot choragida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan eng kam ish haqining ikki yuz barobaridan ko'proq miqdorda daromad (foyda) olgan yuridik shaxslar daromad (foyda) solig'i bo'yicha joriy to'lovlarni har oyning 15-kuniga qadar yilning choragi bo'yicha daromad (foyda) solig'i summasining uchdan bir qismi miqdorida to'laydi.

YUridik shaxslar joriy to'lovlar summasini hisoblab chiqarish uchun yilning joriy choragi birinchi oyining 5-kunigacha o'zlari soliq ro'yxatidan o'tgan joydagi soliq organiga yilning tegishli choragida olish mo'ljallangan daromad (foyda) hamda belgilangan daromad (foyda) solig'i stavkasi asosida ma'lumotnoma taqdim etadilar.

Yil mobaynida to'langan daromad (foyda) solig'i summalari tegishli hisobot yili uchun soliq to'lovchiga hisoblab chiqarilgan soliq hisobiga o'tkaziladi.

Qisqacha xulosalar

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, soliqlar uzoq davr mobaynida jamiyat tomonidan yaratilgan mahsulotning bir qismini davlat byudjeti daromadlarini shakllantirish uchun undiriladigan asosiy moliyaviy manba hisoblanadi.

SHuningdek, soliqlar davlatning barcha davlat miqyosidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan asosiy moliyaviy manbalardan biri bo'lib, mamlakat iqtisodiy taraqqiyotida va belgilangan islohotlarni amalga oshirishdagi asosiy vositadir. YUridik shaxslardan undiriladigan daromad (foyda) solig'i umumdavlat solig'i hisoblanib, davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda asosiy o'rin tutadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. YUridik shaxslardan undiriladigan daromad (foyda) solig'ini to'lovchilar bo'lib kimlar hisoblanadi ?
2. Rezidentlar kimlar hisoblanadi?
3. YUridik shaxslardan undiriladigan daromad (foyda) solig'ida soliq solish ob'ekti nima hisoblanadi ?
4. Jami daromad tarkibiga nimalar kiradi ?
5. Royalti nimani anglatadi?
6. Soliq solinadigan daromadlarni (foydalarni) belgilashda jami daromaddan qanday chegirmalar amalga oshiriladi?
7. YUridik shaxslarning daromadiga (foydasiga) solinadigan soliq bo'yicha qanday soliq stavkalari mavjud?
8. YUridik shaxslardan undiriladigan daromad(foyda) solig'i bo'yicha qanday imtiyozlar mavjud ?
9. Norezidentlar hamda chet ellik yuridik shaxslarning daromadlariga (foydasiga) soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
10. Norezidentlar kimlar hisoblanadi?
11. YUridik shaxslardan undiriladigan daromad (foyda) solig'ini hisobga olish tartibi qanday?

Asosiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. -T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2005. 3-152 b.
2. Karimov I.A. Erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, yangi marralar sari izchil harakat qilishimiz lozim. // Xalq so'zi. 2006 y. 11 fevral. 2- b.
3. O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligida 1109-son bilan ro'yxatga olingan, YUridik shaxslarning daromadi (foydasi)ga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish va byudjetga to'lash tartibi to'g'risidagi Yo'riqnoma 13.03.2002.
4. Zavalishina I.A. Soliqlar: nazariya va amaliyot. -T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi. 2005. 176-243 betlar
5. YAhyoev Q. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. -T.: Fan va texnologiyalar markazi, 2003. 50-72 betlar

VI bob. QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'I

6.1. Qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchilar

Davlat byudjetining daromadlarini shakllantirishda qo'shilgan qiymat solig'i bilan to'ldirish g'oyasi XX asr boshlarida vujudga kelgan. Qo'shilgan qiymat solig'i ilk bor Germaniyada 1919 yilda ***Vilgelm fon Simens*** tomonidan «Veredelte Umsatzteuer» nemischa mukammallashgan aylanma soliq nomi bilan joriy etilgan. Bu soliq turi ilk bor qo'shilgan qiymat solig'i nomi bilan frantsuz iqtisodchisi M. Lore tomonidan 1954 yilda taklif qilingan va 1960 yilda Kot–d–Ivuar Respublikasi joriy etilib, ushbu mamlakat soliq tizimiga soliq turi sifatida kiritilgan[14].

Dunyo mamlakatlarida qo'shilgan qiymat solig'i undirish tartibi dastlab 1954 yilda frantsuz iqtisodchisi M.Lore tomonidan tavsiya etilgan, bu soliq turi bilan bog'liq fikrlar XX asrning boshlarida vujudga kelgan va jahonning 48 dan ortiq mamlakatlarida joriy etilgan.

Mustaqil Davlatlar Xamdo'stligi davlatlarida 1992 yildan boshlab qo'shilgan qiymat solig'i joriy etilgan.

O'zbekiston Respublikasida qo'shilgan qiymat solig'i 1992 yilda joriy etilgan bo'lib, bu soliqni huquqiy tartibga soluvchi soliq qonunchiligi hujjati bo'lib 1991 yil 15 fevralda qabul qilingan «Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar to'g'risida»gi qonun va unga muvofiq ishlab chiqilgan 1992 yil 30 martdagi «Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash va to'lash tartibi to'g'risidagi» yo'riqnoma hisoblanadi. Soliq qonunchiligiga muvofiq 1992 yilda dastlab qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi 30 % miqdorida belgilangan. Qo'shilgan qiymat solig'i egri (bilvosita) soliq bo'lib, tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) ishlab chiqarish, sotish jarayonida qo'shilgan qiymatning bir qismini byudjetga ajratilishidir.

O'zbekiston Respublikasi hududiga import qilinadigan tovarlarga ishlarga, xizmatlarga qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash va to'lash tartibi alohida belgilangan. O'zbekiston Respublikasi hududida tadbirkorlik faoliyatini yuritayotgan yuridik shaxslar soliq (qo'shilgan qiymat solig'ini) to'lovchilar hisoblanadilar. Lekin amaldagi qonunchilikka muvofiq soliqqa tortishning alohida tartibi ko'zda tutilgan yuridik shaxslar (yagona soliqni to'lashga o'tgan kichik korxonalar, savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari va yagona er solig'ini to'lashga o'tgan qishloq xo'jalik tovarlari ishlab chiqaruvchilari) ushbu soliqni to'lovchilar hisoblanmaydilar. 2007 yildan boshlab ushbu soliqni soliqqa tortishning alohida tartibi o'rnatilgan yuridik shaxslar ixtiyoriy ravishda hisoblashlari va to'lashlari mumkin.

Asosiy faoliyati bilan bir qatorda qo'shilgan qiymat solig'iga tortiladigan boshqa faoliyat bilan shug'ullanadigan qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilari - yagona er solig'i to'lovchilar, soliq qonunchiligida belgilangan tartibda shu faoliyatdan qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari hisoblanadilar.

---

[14] Toshmatov SH.A., Komilov A.A. Qo'shilgan qiymat solig'i. Iqtisodiyot va huquq dunyosi. -T.:2004. 16-bet.

Soliq qonunchiligida soliq solish maqsadida yuridik shaxslar deganda mulkida, xo'jalik yuritishida yoki tezkor boshqaruvida mol-mulkka ega bo'lgan va o'z majburiyatlari bo'yicha ana shu mol-mulk bilan javob beradigan, shuningdek mustaqil balansga va hisob-kitob varag'iga ega bo'lgan hamma turdagi korxonalar, birlashmalar va tashkilotlar (shu jumladan, ularning alohida bo'linmalari) tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasi hududiga ishlar, xizmatlarni import qiluvchi yuridik shaxslar ana shu import qilinadigan ishlar, xizmatlarga qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilar hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi hududiga ishlar va xizmatlar importiga nisbatan qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash va to'lash tartibi alohida belgilanadi.

Import qilinadigan tovarlarga nisbatan qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchilar ushbu tovarlarni import qiladigan yuridik shaxslar, shuningdek boj to'lamasdan o'z ehtiyojlari uchun me'yoridan ortiqcha tovarlar olib kiradigan jismoniy shaxslar hisoblanadi. Qo'shilgan qiymat solig'ini bevosita deklarant yoki istalgan manfaatdor shaxs, agar qonun hujjatlarida o'zga hol nazarda tutilmagan bo'lsa, to'lashi mumkin.

6.2. Qo'shilgan qiymat solig'ining soliq solish ob'ekti

O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligiga ko'ra qo'shilgan qiymat solig'i solish ob'ekti tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning sotilishi bo'yicha aylanmalar hisoblanadi, qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan, o'z ishlab chiqarish ehtiyojlari (ishlab chiqarishning ichki aylanmasi) uchun foydalaniladiganlar bundan mustasno.

Tovarlar (ishlar, xizmatlar) sotilishiga doir aylanmalar deganda yuklab jo'natilgan mahsulot, bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar tushuniladi. Tovarlarning sotilishida o'zi ishlab chiqargan va chetdan sotib olingan barcha tovarlarning sotilishiga doir aylanmalar soliq solish ob'ekti hisoblanadi.

Soliq solish maqsadida iste'molchilik maqsadi va qiymatiga ega bo'lgan hamma narsa (tovar, mahsulot, ko'chmas mulk, shu jumladan, binolar va inshootlar, shuningdek elektr va issiqlik energiyasi, gaz, suv va shu kabilar) tovar hisoblanadi.

Ishlarning sotilishida bajarilgan qurilish-montaj, ta'mirlash, ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik, texnologik, loyiha-qidiruv, restavratsiya qilish va boshqa ishlar qiymati soliq solish ob'ekti hisoblanadi.

Xizmatlar sotilishida quyidagi qiymatlar soliq solish ob'ekti hisoblanadi:

-yo'lovchilar va yuk transporti, shu jumladan, gaz, neft, neft mahsulotlari, elektr va issiqlik energiyasini tashish (uzatish)ga doir xizmatlar, tovarlarni yuklab jo'natish, yukdan tushirish, qayta yuklash, saqlashga doir xizmatlar;

-mol-mulk va ko'chmas mulk ob'ektlarini ijaraga berish xizmatlari;

-vositachilik xizmatlari;

-aloqa, maishiy, uy-joy-kommunal xizmatlar;

-reklama xizmatlari;

-ma'lumotlarni ishlash va axborot ta'minotiga doir xizmatlar;

boshqa xizmatlar.

SHuningdek, quyidagilar ham soliq solinadigan aylanmalarga kiradi:

a) tovarlar, ishlar va xizmatlarning, shu jumladan, o'zi ishlab chiqargan tovarlarning sotilishi bo'yicha, korxonaning tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan, shu jumladan, o'z xodimlariga iste'moli uchun korxona ichidagi aylanmalar;

b) tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning boshqa korxonalar yoki jismoniy shaxslarga, shu jumladan, korxona xodimlariga bepul berilishi yoki haqini qisman to'lab berilishiga doir aylanmalar;

v) garovdagi buyumlarning sotilishi, shu jumladan, ularning garovni tutib turuvchiga u garov majburiyatlarini ta'minlamaganidagi berilishiga doir aylanmalar.

Lotereya biletlarini sotish lotereya tashkilotchisi uchun soliq solish ob'ekti hisoblanmaydi. Bunda korxonalar (qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilar) tomonidan lotereyalar tashkilotchisiga ko'rsatiladigan lotereya biletlarining sotilishi (tarqatilishi)ga oid xizmatlar qo'shilgan qiymat solig'iga umumiy belgilangan tartibda tortiladi.

Qo'shilgan qiymat solig'i solinadigan ob'ekt bo'lib O'zbekiston Respublikasining bojxona qonunlariga binoan belgilangan bojxona rejimlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi hududiga import qilinadigan tovarlar (shu jumladan MDH mamlakatlaridan import qilinadigan tovarlar) hisoblanadi.

Soliq qonunchiligida tovar deganda iste'molga mo'ljallangan va qiymatga ega hamma narsa (ishlar, xizmatlardan tashqari) (uskunalar, mahsulotlar, xom-ashyo, materiallar, elektr, issiqlik va energiyaning boshqa turlari, transport vositalari va tovar-moddiy boyliklar) tushuniladi.

Tuzilgan shartnomalar (kontraktlar)ga muvofiq respublika hududiga import qilinadigan ishlar va xizmatlar qo'shilgan qiymat solig'i solinadigan ob'ekt hisoblanadi.

6.3. Soliq solinadigan aylanmani aniqlash va soliq solinadigan aylanmaning o'zgartirilishi

Sotish bo'yicha soliq solinadigan aylanma miqdori sotiladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) qiymati asosida qo'llaniladigan narxlar va tariflardan kelib chiqib, ularga qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmasdan aniqlanadi.

Aktsiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha soliq solinadigan aylanmani aniqlashda aktsizlar summasi ham unga kiritiladi.

Tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning bepul berilishida, asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va tugallanmagan qurilish ob'ektlari (tugallanmagan qurilishni hisobga oluvchi hisobvaraqlarda hisobga olinadigan) bundan mustasno, soliq solinadigan aylanma miqdori korxonada berish paytida vujudga kelgan narx (tarif) darajasidan kelib chiqib, ularga qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmasdan, biroq bunday tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning ishlab chiqarilishi (xarid qilinishi) bo'yicha amalda vujudga kelgan xarajatlardan kamaytirmasdan aniqlanadi.

Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar bepul berilishida soliq solinadigan aylanma miqdori berilishda shakllangan narx va qoldiq qiymat o'rtasidagi farq ko'rinishida aniqlanadi.

Tugallanmagan qurilish ob'ektlarining (tugallanmagan qurilishni hisobga oluvchi hisobvaraqlarda hisobga olinadigan) bepul berilishida soliq solinadigan aylanma miqdori berilishda shakllangan narx va tugallanmagan qurilishning haqiqiy tannarxi o'rtasidagi farq ko'rinishida aniqlanadi. Tovarlar (ishlar, xizmatlar) bepul berilishida ularni beruvchi korxona soliq to'lovchi hisoblanadi.

Mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ning amaldagi tannarxidan (yoki olingan narxi va tovar xarid qilinishiga bog'liq xarajatlardan) past narxlarda sotilishini amalga oshiradigan korxonalar uchun soliq solish maqsadida korxonada sotish paytida qaror topgan, biroq:

- tovarlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarishda - tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning amaldagi ishlab chiqarish tannarxidan;
- savdo, ta'minot-tayyorlash faoliyatini amalga oshirganda - olingan narxi va tovar xarid qilinishiga bog'liq xarajatlardan past bo'lmagan narx qabul qilinadi.

Ish haqini qonunlarda belgilangan tartibda tovarlar (shu jumladan, o'zi ishlab chiqargan) bilan natura shaklida to'laydigan yoki ularni o'z xodimlariga kassa orqali tannarxidan past narxlar bo'yicha sotadigan korxonalar uchun soliq solinadigan aylanma soliq qonunchiligiga asosan yuqorida keltirilgan tartibda belgilanadi. Korxona ichida o'zi ishlab chiqargan, korxonaning tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan tovarlar (ishlar, xizmatlar)dan foydalanilishda ularning ishlab chiqarishdagi tannarxi soliq solinadigan aylanmani belgilash uchun asos qilib qabul qilinadi.

Berilgan xom-ashyo va materiallardan tovarlar tayyorlanganida ularni ishlash qiymati (shu jumladan, xarajatlar va foyda), aktsiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha esa - aktsizlar hisobga olingan holdagi ishlash qiymati soliq solinadigan aylanma hisoblanadi.

Qaytariladigan idishlar, shu jumladan, garov qiymatiga ega shisha idishlar qiymati soliq solinadigan aylanmaga kiritilmaydi, bunday idishlarni ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan sotilishi bundan mustasno.

Uzoq davom etadigan ishlab chiqarish davriga ega korxonalar (qurilish, qurilish-montaj va ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy tashkilotlar) uchun bajarilgan va buyurtmachilar tasdiqlagan, shartnomaviy narxlardan kelib chiqib, haq to'lash uchun hisob-kitob hujjatlari taqdim etilgan ishlar (xizmatlar) qiymati soliq solish ob'ekti hisoblanadi.

Qurilish ishlarini pudratchi yoki yordamchi pudratchi tashkilotlar bajarganida unga qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab yozish bilan sotilgan pudratchi (yordamchi pudratchi) materiallarining va buyurtmachi materiallarining qiymati kiritilgan holda bajarilgan hamda tasdiqlangan ishlarning qiymati soliq solish ob'ekti hisoblanadi. Bunda moddiy resurslar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ining summasi soliq qonunchiligida belgilangan tartibda hisobga olinadi.

Pudratchi tashkilotlar yordamchi pudratchi tashkilotlarga moddiy-texnika resurslarini (qurilish-montaj ishlarini bajarish uchun zarur materiallar,

konstruktsiyalar, buyumlar, namunaviy asbob-uskunalar, apparaturalar, standartlashtirilmagan texnologik va energetik asbob-uskunalar, shu jumladan maxsus materiallarni) bir ob'ekt qurilishi doirasida sotganida, ularga qo'shilgan qiymat solig'ini kiritmasdan, qo'llanadigan narx va tariflardan kelib chiqqan holda sotiladigan moddiy-texnika resurslarining qiymati soliq solinadigan aylanma hisoblanadi.

Markazlashtirilgan manbalar (byudjet pul mablag'lari, davlat byudjeti tarkibida konsolidatsiyalanadigan davlat maqsadli jamg'armalari mablag'lari (byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasidan tashqari), hukumat qarorlari bilan belgilanadigan boshqa manbalar) hisobidan moliyalanadigan ob'ektlarni qurish chog'ida tugallanmagan ishlab chiqarish bo'yicha xarajatlar ob'ekt foydalanishga topshirilishiga qadar pudratchining balansida qayd etiladi va pudratchida qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha soliq solinadigan aylanmaga kiritilmaydi.

Tugallanmagan qurilish bo'yicha xarajatlar pudratchida ob'ektni loyihada nazarda tutilgan ishlarning barcha hajmini bajarish, shu jumladan maxsus va ishga tushirish-sozlash ishlari, ob'ektni texnologik va muhandislik uskunalari bilan butlash bo'yicha foydalanishga topshirish dalolatnomasiga ko'ra qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha soliq solinadigan aylanmaga kiritilishi kerak. Bunda, pudratchida tugallanmagan qurilish xarajatlari bo'yicha hisobga kiritiladigan qo'shilgan qiymat solig'ining summasi bo'lib, ushbu xarajatlar soliq solinadigan aylanmaga kiritilishi chog'ida, olingan hisobvaraq-fakturalar bo'yicha soliq summasi hisoblanadi.

O'z ehtiyojlari uchun o'zining kuchi bilan bajarilgan qurilish-montaj ishlariga qo'shilgan qiymat solig'i solinmaydi. Moddiy resurslar, yoqilg'i, ishlarga doir qo'shilgan qiymat solig'i summasi ob'ektning qurilishiga hisobdan chiqariladi.

Tovar oldi-sotdisi bilan shug'ullanuvchi (qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisi hisoblanuvchi), narxlar o'rtasidagi farq, ustamalar va qo'shimcha haqlar shaklida daromad oluvchi tayyorlash, ta'minot-sotish va boshqa korxonalar uchun soliq solinuvchi aylanma miqdori xaridorlarga sotiladigan tovarlar qiymati asosida, ularga qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda qo'llanadigan narxlardan kelib chiqib aniqlanadi.

Komissiya shartnomalari bo'yicha vositachilik faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar uchun soliq solinadigan aylanma miqdori vositachilik haqi summasidan kelib chiqib belgilanadi.

"O'zdonmahsulot" DAK tizimi tarkibiga kiradigan, birlamchi ishlovdan keyingi don, qo'shimcha mahsulot va chiqindilarni sanoatda donni qayta ishlashga sotishni amalga oshiradigan korxonalar uchun soliq solinadigan aylanma miqdori ustama narx summalaridan kelib chiqib aniqlanadi. Bunda shu jumladan spirt ishlab chiqarish uchun chet tashkilotlarga don sotish aylanmalariga qo'shilgan qiymat solig'i umumbelgilangan tartibda solinadi.

Banklar uchun, O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligida nazarda tutilgan imtiyozlar beriladiganlaridan tashqari, xizmatlar qiymati soliq solinadigan aylanma hisoblanadi. Qo'shilgan qiymat solig'i summasining hisobga olinishi nazarda tutilmagan asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning sotilishi chog'ida soliq solinadigan aylanma miqdori sotish bahosi bilan qoldiq qiymat o'rtasidagi farq ko'rinishida aniqlanadi. Tugallanmagan qurilish ob'ektlarining

(tugallanmagan qurilishni hisobga oluvchi hisobvaraqlarda hisobga olinadigan) sotilishi chog'ida soliq solinadigan aylanma miqdori sotish bahosi bilan ularning haqiqiy tannarxi o'rtasidagi farq ko'rinishida aniqlanadi.

Masalan,

1) agar asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati hisobotda QQS hisobga olinib aks ettirilishicha 120,0 ming so'mni, eskirish - 50,0 ming so'mni, qoldiq qiymati 70,0 ming so'mni (120,0 - 50,0) va sotish narxi - 200,0 ming so'mni tashkil etsa, soliq solinadigan aylanma miqdori (200,0 - 70,0) = 130,0 ming so'mni tashkil etadi. QQS summasi esa (130 x 20 : 120) = 21,66 ming so'mni tashkil etadi, u byudjetga to'lanishi lozim;

2) agar asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati hisobotda QQS hisobga olinib aks ettirilishicha 120,0 ming so'mni, eskirish - 50,0 ming so'mni, qoldiq qiymati 70,0 ming so'mni (120,0 - 50,0) va sotish narxi - 70,0 ming so'mni tashkil etsa, soliq solinadigan aylanma miqdori (70,0 - 70,0) = 00,0 ming so'mni tashkil etadi. QQS summasi ham (00,0 x 20 : 120) = 00,0 ming so'mni tashkil etadi, ya'ni soliq solinadigan aylanma yo'q;

3) agar asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati hisobotda QQS hisobga olinib aks ettirilishicha 120,0 ming so'mni, eskirish - 50,0 ming so'mni, qoldiq qiymati 70,0 ming so'mni (120,0 - 50,0) va sotish narxi - 50,0 ming so'mni tashkil etsa, unda bu misolda ham soliq solinadigan aylanma yo'q, chunki sotish narxi qoldiq qiymatidan kam.

Quyidagilar soliq solinadigan aylanma miqdoriga kiritilmaydi:

a) korxonaning bir tarkibiy birliklari tomonidan ushbu korxona boshqa tarkibiy birliklarining sanoat-ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun sotilgan mahsulotlar, yarim tayyor mahsulotlar, bajarilgan ishlar va xizmatlarga doir aylanmalar (ichki ishlab chiqarish aylanmasi). Ushbu bandda korxonaning tarkibiy birliklari deganda bank muassasasida hisob-kitob varag'iga ega bo'lmagan, shuningdek asosiy korxona balansida turadigan tarkibiy birliklar tushuniladi.

b) xo'jalik jamiyatlari va shirkatlari, boshqa turdagi korxonalar tugatilganida ular mol-mulkining a'zolari, muassislari o'rtasida taqsimlanishi bo'yicha aylanmalar. Tugatilgan korxona mol-mulki boshqa shaxslarga sotiladigan bo'lsa, bu qoida unga tegishli bo'lmaydi;

v) korxonalar o'rtasida bo'lish balansi bo'yicha va (yoki) ushbu korxonalarning mulkdori bo'lgan yuqori tashkilotning buyrug'iga ko'ra bir tizimning ichida bepul berilgan asosiy vositalar va tugallanmagan qurilish ob'ektlarining (tugallanmagan qurilishni hisobga oluvchi hisobvaraqlarda hisobga olinadigan) qiymati;

d) asosiy vositalar, tugallanmagan qurilish ob'ektlari (tugallanmagan qurilishni hisobga oluvchi hisobvaraqlarda hisobga olinadigan) va nomoddiy aktivlarni korxonalarning ustav kapitaliga ulush sifatida berish bo'yicha aylanmalar.

Xaridorlar hisob-kitob va yo'lda yurish hujjatlari haqini to'laganlaridan so'ng tovarlarni qaytargan, shuningdek buyurtmachilar ilgari haqi to'langan ishlar yoki xizmatlardan voz kechgan taqdirda, da'vo qilishning bir yillik muddatiga rioya qilingani holda tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni sotish bo'yicha aylanmalarga shunday

operatsiyalar bo’yicha qo’shilgan qiymat solig’i summasi miqdorida o’zgarish kiritiladi.

Agar kafolatli xizmat muddati belgilangan tovarlar ushbu muddat doirasida ularni tayyorlagan korxonaga qaytarilsa, bunday tovarlar bo’yicha qo’shilgan qiymat solig’ining hisobga olinishi yoki qaytarilishi xaridorlarning hisob-kitob hujjatlariga dastlabki haq to’lashi va soliqning byudjetga tushish muddatidan qat’i nazar amalga oshiriladi.

6.4. Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha belgilangan soliq imtiyozlari

Qo'shilgan qiymat solig'idan quyidagilar ozod qilinadi:

1) sug'urta qilish va qayta sug'urta qilishga doir operatsiyalar, shu jumladan sug'urta bo'yicha vositachilar va agentlar amalga oshiradigan bunday operatsiyalar bilan bog'liq xizmatlar;

2) ssudalarni berish va o'tkazish bo'yicha operatsiyalar bilan bog'liq xizmatlar. Ssudalarni berish va uzatishga (uzoq muddatli va qisqa muddatli kredit) bank mijozlari hujjatlarini tayyorlash (TIAni tayyorlash uchun shartnoma bo'lmagan holda), kreditni rasmiylashtirish; uchun hujjatlar paketini ko'rib chiqish (arizani ko'rib chiqish, kreditni to'lay olish qobiliyatini baholash, kreditning bahosini (foizini) aniqlash, kredit shartnomasini tayyorlash va tuzish), ssuda hisobvarag'i va kredit liniyasini ochish, kreditga (kreditlashga) xizmat ko'rsatish, ssudalarning maqsadli ijro etilishini nazorat qilish kiradi;

3) pul omonatlari, joriy hisobvaraqlar, to'lovlar, o'tkazmalar, cheklar va boshqa qimmatli qog'ozlarga tegishli operatsiyalar bilan bog'liq xizmatlar. Pul omonatlariga daxldor operatsiyalarga jismoniy va yuridik shaxslarning hisobvaraqlariga o'tkazish, qo'yilmalardan qo'yilmalarga summalarni o'tkazish va ularni rasmiylashtirish; O'zbekiston Respublikasidan tashqariga o'tkazish kiradi.

Joriy hisobvaraqlarga daxldor operatsiyalarga bank hisobvaraqlarini ochish, mijozning arizasi bo'yicha hisobvaraqlar rejimini o'zgartirish va hisobvaraqlarni qayta rasmiylashtirish: saqlash, hisobvaraqlarga pul o'tkazish va hisobvaraqlardan pul berish bo'yicha operatsiyalar, qabul qilish, qayta hisoblash bo'yicha operatsiyalar, hisobvaraqlarni yopish, mijozning talabiga ko'ra joriy hisobvaraqlar bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish va hisobvaraqning holati to'g'risida ko'chirma-ma'lumotnomalar berish kiradi.

To'lovlar, o'tkazmalar, cheklar va boshqa qimmatli qog'ozlarga daxldor operatsiyalarga inkassoni ijro etish, o'tkazmalar, korrespondent bankka inkassoga qo'yilgan hujjatlarni yuborish yoki qaytarish, eksport qilinadigan hujjatlashtirilgan inkasso bo'yicha hujjatlarni qabul qilish, tekshirish va jo'natish, inkasso topshirig'i shartlarini o'zgartirish yoki uni bekor qilish, to'lovdan ozod bo'lgan hujjatlarni berish, hujjatlashtirilgan akkreditivlar bo'yicha operatsiyalar, kafolatli-aktseptli operatsiyalar, cheklar bilan operatsiyalar (naqd pulni chet el banklari cheklariga almashtirish va aksincha, topshiriq bo'yicha cheklar inkassosi, cheklarni joriy hisobvaraqqa kiritish, so'mli chekli daftarchalarga xizmat ko'rsatish (berilgan chek daftarchasini hisobga qo'yish realizatsiya hisoblanmaydi, balki mijozning joriy hisobvaraqlaridan cheklar yordamida mijoz tomonidan naqd pul olish uchun to'lovlarni o'tkazish bo'yicha to'lov bo'lib hisoblanadi) kiradi;

4) xorijiy valyuta va qonuniy to'lov vositalari bo'lgan pullar muomalasiga tegishli operatsiyalar bilan bog'liq xizmatlar, numizmatika maqsadlarda foydalaniladiganlaridan tashqari.

Qonuniy to'lov vositasi hisoblangan chet el valyutasining muomalasiga taalluqli bo'lgan operatsiyalarga qonuniy to'lov vositasi hisoblangan naqd chet el valyutasi bilan operatsiyalar (valyutani qabul qilish, berish, almashtirish, sotib olish, maydalash, eskirgan valyutani inkasso qilish, naqd valyutani olib chiqib

ketishga ruxsat berish), chet el valyutalari bilan konversion operatsiyalar, ushbu operatsiyalarni va valyuta kurslarini tasdiqlash to'g'risidagi hujjatlarni berish bilan birga, eksport-import shartnomalarini hisobga olish va xizmat ko'rsatish operatsiyalari (shartnomaning to'g'ri rasmiylashtirilganligini va uni shartnoma bo'yicha to'lovlarni o'tkazish uchun hisobga qo'yilganligini tekshirish; korxonalarning hisobvaraqlariga tushumlarning o'z vaqtida to'liq tushishlarini nazorat qilish, valyuta tushumlarini shartnoma bo'yicha majburiy sotilishini amalga oshirish; sheriklar tomonidan majburiyatlar to'liq bajarilganda hisobdan chiqarish); SWIFT, TELEKS, REUTER maxsus telekommunikatsion bank tizimlari orqali to'lovlar va o'tkazishlar amalga oshiriladigan operatsiyalar; qoplash sharti bilan o'tkaziladigan kafolatli operatsiyalar (kafolatlarni avizo qilish va berish, ko'rsatilgan summadan berish va kafolatlarni tasdiqlash, kafolatlash shartlarini o'zgartirish, so'rovlarni tayyorlash va banklarga jo'natish); kredit kartochkalari (VISA, IAPA, Priorite Pass) bo'yicha to'lov o'tkazishlarga xizmat ko'rsatish (pul mablag'larini chiqarish, almashtirish, hisobga kiritish, o'tkazish va hisobdan chiqarish) kiradi.

Qonuniy to'lov vositasi bo'lgan pul muomalasiga taalluqli bo'lgan operatsiyalarga qonuniy to'lov vositasi bo'lgan, pul mablag'lariga mulk huquqini almashtirishga olib keluvchi naqd pul hajmi bilan, jumladan puldan to'lov sifatida foydalanish bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalar kiradi.

Inkassatsiyaga doir xizmatlar pullar muomalasiga taalluqli operatsiyalarga kirmaydi;

5) qimmatli qog'ozlar muomalasiga tegishli operatsiyalar bilan bog'liq xizmatlar, ularning tayyorlanishi va saqlanishiga doir operatsiyalardan tashqari. Qimmatli qog'ozlar muomalasiga tegishli operatsiyalar deganda qimmatli qog'ozlarning oldi-sotdisiga tegishli operatsiyalar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi qonunlarida nazarda tutilgan, qimmatli qog'ozlar egasining almashinishiga olib keladigan boshqa harakatlar tushuniladi;

6) maxsus vakolat berilgan organlar tomonidan bajariladigan va davlat boji, yig'imlar undiriladigan xatti-harakatlar. Mazkur imtiyoz litsenziya (ruxsatnoma), ro'yxatdan o'tkazish va patentlarga oid bojlar va yig'imlarning hamma turlariga, shuningdek davlat boshqaruv organlari, joylardagi davlat hokimiyati organlari, boshqa vakolatli organlar yuridik va jismoniy shaxslarga muayyan huquqlarni berishda undiradigan bojlar va yig'imlarga nisbatan qo'llaniladi;

7) bolalarning maktabgacha tarbiya muassasalarida saqlanishi, kasallar va qariyalarni parvarish qilishga doir xizmatlar;

8) dafn qilish byurolari va qabristonlarning marosim xizmatlari;

9) intellektual mulk ob'ektlarini xarid qilish huquqi uchun patent bojlari, ro'yxat yig'imlari va ruxsatnoma to'lovlari;

10) protez-ortopediya buyumlari, nogironlar uchun inventarlar ishlab chiqarish va nogironlarga ortopedik protez qo'yish xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan korxonalarning mahsulotlari, davolash muassasalari huzuridagi davolash-ishlab chiqarish ustaxonalari mahsulotlari;

11) pochta markalari (kollektsiya qilinadiganlaridan tashqari), markalangan otkritkalar va konvertlarning sotilishi;

12) aloqa tashkilotlarining pensiya va nafaqalarni to'lash bo'yicha xizmatlari;

13) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ilmiy-texnika taraqqiyotini muvofiqlashtirish kengashi qoshidagi Fan va texnologiyalar markazining ilmiy-texnika dasturlari doirasida davlat kontraktlari bo'yicha bajariladigan ilmiy-tadqiqot va innovatsiya ishlari.

Mazkur imtiyozni olish uchun asos bo'lib davlat buyurtmalari bo'yicha ITTMK qoshidagi Fan va texnologiyalar markazining (ITD - ilmiy-texnika dasturlari doirasidagi) ilmiy-tadqiqot, konstruktorlik-texnologik va innovatsiya ishlarini (ITTKI) bajarish;

- ITTMK qoshidagi Fan va texnologiyalar markazi bilan vazirliklar va idoralar tuzgan fundamental tadqiqotlar dasturlari (FTD), davlat ilmiy-texnik dasturlari (DITD), innovatsiya ishlari dasturlari (IID), xalqaro (davlatlararo) ilmiy-texnik dasturlari (XITD)ni bajarish;

- ITTMK qoshidagi Fan va texnologiyalar markazi bilan aniq loyiha ijrochilar tuzgan fundamental (FTD), amaliy tadqiqot (DITD), innovatsiya ishlari dasturi (IID), xalqaro (davlatlararo) ilmiy-texnik dasturlari (XITD) doirasida bajariladigan kontrakti hisoblanadi.

Bunda ITD, FTD, DITD, IID, XITD bo'yicha ITTKI ijrochilari uchun vazirliklar, idoralar va ijrochilar o'rtasidagi ITTMK qoshidagi Fan va texnologiyalar markazining vazirliklar va idoralar bilan ushbu dasturlar bo'yicha tuzgan kontrakti doirasida tuzilgan kontrakt (shartnoma) yuqorida ko'rsatilgan imtiyozni olish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

ITD, FTD, DITD, IID, XITD dasturlari bo'yicha qo'shimcha ijrochilar ITTMK qoshidagi Fan va texnologiyalar markazining xulosasini olganidan so'ng qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashdan ozod qilinadi;

14) shahar yo'lovchi transportining xizmatlari (taksi, shu jumladan yo'nalishlar oralig'ida qatnaydigan taksidan tashqari), shuningdek umumiy yo'nalishdagi temir yo'l va avtomobil transportida (taksi, shu jumladan yo'nalishlar oralig'ida qatnaydigan taksidan tashqari) shahar atrofiga yo'lovchilarni tashishga doir xizmatlar.

Mazkur imtiyoz shahar yo'lovchi transportining yo'lovchilarni tashish, yuridik va jismoniy shaxslarning buyurtmanomalari bo'yicha ishchi va xizmatchilarni ishdan va ishga tashish bilan, turli tadbirlarga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq ko'rsatilgan xizmatlari bo'yicha, shu jumladan, yo'lovchilarning umumiy foydalanishdagi avtomobil transportida shahar atrofi yo'nalishlarida tashishlar bo'yicha xizmatlar ko'rsatilishidan olinadigan daromadlar bo'yicha beriladi;

15) aholiga ko'rsatiladigan uy-joy-kommunal va foydalanishga doir xizmatlar (bundan suv, issiqlik va gaz ta'minoti bo'yicha xizmatlar mustasno).

Qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan uy-joy-kommunal xo'jaligi xizmatlariga aholi tomonidan haqi to'lanadigan kanalizatsiya, elektr energetika xo'jaliklari, sanitariya-tozalash, lift xo'jaliklari, umumiy foydalanishdagi antennalarni o'rnatish va foydalanishga doir xo'jaliklar, er resurslari va davlat kadastri, uy-joy fondidan foydalanish va uni tutib turish boshqarmalari va bo'limlarining xizmatlari kiradi.

Mazkur imtiyoz, shuningdek aholi nomidan ish yuritadigan va yuqorida sanab o'tilgan xo'jaliklar bilan ularning aholiga ko'rsatgan xizmatlari uchun hisob-kitoblarni amalga oshiradigan uy-joylardan foydalanish boshqarmalari (UFB) yoki shirkatlarga ham tegishli bo'ladi;

16) xalq ta'limi sohasidagi o'quv-ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq xizmatlar, shuningdek oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlaridagi ta'lim uchun haq.

Xalq ta'limi sohasidagi o'quv-ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq xizmatlar deganda korxonalarning ta'lim berish faoliyati sohasida ko'rsatadigan xizmatlari tushuniladi. Ta'lim muassasalari tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirganida, shu jumladan, mol-mulkni ijaraga berganda qo'shilgan qiymat solig'i umumiy belgilangan tartibda to'lanadi;

17) saqlash uchun vakolatli davlat organiga qimmatbaho metallarni sotishdan olingan aylanmalari;

18) diniy tashkilotlar va birlashmalarning udum va marosimlarni o'tkazishga doir tadbirlari. Ko'rsatilgan birlashmalarning marosimlar uchun va diniy maqsaddagi buyumlarni tayyorlashi va sotishi ham qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinadi;

19) tibbiy, sanatoriy-kurort va sog'lomlashtirish, turistik-ekskursiya xizmatlari, jismoniy tarbiya va sport muassasalari, bolalar dam olish lagerlarining asosiy faoliyatiga doir xizmatlari.

Tibbiy xizmatlarga sog'liqni saqlash muassasalari, stomatologiya, gomeopatiya poliklinikalari, kosmetologiya shifoxonalari, tish-protez qo'yish bo'limlari va kabinetlari, narkologiya ambulatoriyalari, haydovchilarning tibbiy komissiyalari, dezinfektsiya stantsiyalari, sanitariya-epidemiyalarga qarshi yo'nalishdagi laboratoriya va bo'linmalari hamda boshqa tibbiy-sanitariya yo'nalishdagi muassasalar ko'rsatadigan tibbiy yordam va sanitariya xizmati kiradi.

Veterinariya xizmatlari tibbiy xizmatlarga kirmaydi.

Sanatoriy - kurort va sog'lomlashtirish xizmatlariga sanatoriy-kurort va sog'lomlashtirish tashkilotlarining yo'llanmalar qiymatiga qo'shiladigan xizmatlari kiradi. Sanatoriy-kurort va sog'lomlashtirish tashkilotlarining dam oluvchilarga ko'rsatadigan yo'llanmalar qiymatidan ortiq bo'lgan xizmatlariga ham qo'shilgan qiymat solig'i solinmaydi.

Turistik-ekskursiya xizmatlariga turistik-ekskursiya tashkilotlarining, turistik xizmatlar ko'rsatishda yo'llanma qiymatiga qo'shiladigan, tur tarkibiga kiradigan va haqiqatda ko'rsatilganini tasdiqlaydigan xizmatlar majmui kiradi. Turistik xizmatlar majmuiga "Turistik xizmatlarni taqdim etish shartnomasi"da belgilanganidek transport xizmati ko'rsatish, yashash, ovqatlanish xizmatlari, ekskursiya xizmati ko'rsatish, madaniy, jismoniy dastur va boshqa xizmatlarni tashkillashtirishni o'z ichiga oladi. Mazkur imtiyoz ushbu tashkilotlardan turistlarga qo'shimcha xizmatlar ko'rsatilganda, shartnomada belgilanganidek ortiqcha turistik-ekskursiya xizmatlariga nisbatan ham qo'llaniladi.

Mazkur imtiyoz turistik-ekskursiya faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan pullik xizmatlarga tegishli bo'lmaydi.

Jismoniy tarbiya va sport muassasalari xizmatlariga sport inshootlarida o'tkaziladigan musobaqalar, bayramlar, sport-tomosha tadbirlari, taqvimiy va matchlardagi uchrashuvlar, sport turlari bo'yicha o'quv guruhlari va komandalar, maktablar, sog'lomlashtirish, umumiy jismoniy tayyorgarlik, salomatlik, chiniqish, suzish, sog'lomlashtiruvchi yugurish va yurish yo'nalishiga ega, atletika, ritmik va davolanish gimnastikasi va shu kabi klublarda bajariladigan jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini o'tkazish, sport inshootlariga tashrif buyuruvchilarga taqdim qilinadigan, pattalar qiymatida nazarda tutilgan sport-texnika uskunalari, trenajerlar, inventar, kiyim-boshlarni berishga doir va boshqa xizmatlar kiradi;

20) xususiylashtiriladigan davlat mol-mulki qiymati;

21) gidrometeorologiya va aerologiya ishlari;

22) geologiya va topografiya ishlari;

23) nashriyotlar, gazeta va jurnallar tahririyatlari, matbaa va kitob savdosi korxonalari, teleradiokompaniya, O'zbekiston Milliy axborot agentligining asosiy faoliyatga doir mahsulotlari va xizmatlari.

Nashriyotlar, gazeta va jurnallar tahririyatlari va matbaa korxonalarining asosiy faoliyatiga bosma mahsulotlar (kitoblar, gazetalar, jurnallar, ma'lumot beruvchi to'plamlar, risolalar, albomlar, plakatlar, bukletlar, otkritkalar, daftarlar, rasm va chizmachilik daftarlari, blanklar va boshqa bosma mahsulotlar)ni tayyorlash va nashr qilish, maketlash, kompyuter grafikasi, sahifalash, original maketlarni tayyorlash, nashrlarga reklama murojaatlarini qabul qilish, rasmiylashtirish va joylashtirish, rang tasvirlashtirish, yuridik va jismoniy shaxslarni axborot bilan ta'minlash, uni yig'ish va qayta ishlash, matnlarni tarjima qilish bo'yicha ishlar, magnitli va qog'ozli tashuvchilarda, pochta tizimi va Internet vositasida sotish bilan bog'liq faoliyatlar, shuningdek qonunlarda ko'zda tutilgan boshqa turdagi matbaa korxonalari kiritiladi.

Bunda, agar ma'lum bir faoliyat (reklamani qabul qilish, axborotni yig'ish, qayta ishlash va sotish) bosma mahsulotni tayyorlash, nashr qilish va tarqatish bilan bog'liq bo'lmagan alohida va uzil-kesil ishlar ko'rinishida amalga oshiriladigan bo'lsa, u holda mazkur faoliyatdan olingan daromadlarga nisbatan qo'shilgan qiymat solig'i yuzasidan beriladigan imtiyozlar qo'llanilmaydi (masalan, reklamaning televidenie, tashqi vositalar va hokazolarda uning joylashtirilishi uchun qabul qilinishi).

Nashriyotlar, gazeta va jurnallar tahririyatlari, matbaa korxonalarining asosiy faoliyat bilan bog'liq bo'lmagan faoliyati (mol-mulkning ijaraga berilishi, oldi-sotdi, vositachilik va boshqalar) umumiy belgilangan tartibda qo'shilgan qiymat solig'iga tortilishi lozim.

Nashriyotlar, gazeta va jurnallar tahririyatlari, matbaa korxonalari ular tomonidan asosiy faoliyatning amalga oshirilishi chog'ida amaldagi qonunchilikka muvofiq ravishda tegishli ro'yxatdan o'tkazilishlari va qonunchilikda ko'zda tutilgan litsenziyaga ega bo'lishlari shart.

YUqorida ko'rsatib o'tilgan faoliyatni amalga oshiruvchi, biroq nashriyotlar, gazeta va jurnallar tahririyatlari, matbaa korxonalari bo'lib hisoblanmaydigan korxonalarga nisbatan qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha imtiyoz qo'llanilmaydi;

24) vakolatli davlat tashkilotlari o'tkazadigan ekologik ekspertiza xizmatlari;

25) davlat tilini o’qitishga va davlat tilida ish yuritishni o’rgatishga oid xizmatlar;

26) eksport qilinadigan tovarlarni tashish, ortish, tushirish, qayta ortish bo’yicha xizmatlar.

O’zbekiston Respublikasidan tashqariga eksport qilinadigan yuklarni tashish va xizmat ko’rsatishga doir xizmatlarga ularni xalqaro tashish hujjatlarida rasmiylashtirishda tashish, ekspeditsiya qilish, ortish, tushirish va qayta yuklash bo’yicha xizmatlar kiradi;

27) ishlovchilar umumiy sonining kamida ellik foizini nogironlar tashkil etgan nogironlarning jamoat birlashmalari, "Nuroniy" jamg’armasi va "O’zbekiston chernobilchilari" uyushmasining mulkida bo’lgan, tovarlarni (chetdan keltiriladigan va aktsizlanadiganlari bundan mustasno) ishlarni va xizmatlarni (savdo, vositachilik, ta’minot-sotish va tayyorlov bundan mustasno) ishlab chiqadigan va sotadigan yuridik shaxslar.

Ko’rsatilgan imtiyozni olish huquqini belgilash chog’ida xodimlarning umumiy soniga shtatda bo’lgan korxona xodimlari, shu jumladan o’rindoshlik bo’yicha ishlovchilar, shuningdek korxona shtatida turmagan shaxslar (pudrat shartnomasi va fuqarolik-huquqiy tusdagi boshqa shartnomalar bo’yicha ish bajaradigan) kiritiladi;

28) ichki ishlar organlari huzuridagi qo’riqlash bo’linmalari xizmatlari;

29) faoliyatning ushbu turi bilan shug’ullanish huquqiga litsenziyaga ega bo’lgan yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan gastrol-kontsert faoliyati;

30) kitob mahsulotlarini, o’quvchilar o’quv qurollari va ko’rgazmali o’quv qurollarini, dori-darmon vositalari va tibbiy buyumlarni ulgurji sotuvchilar;

31) mol-mulkni lizingga berishdan lizing to’lovlari.

Qo’shilgan qiymat solig’idan ozod qilingan, shuningdek soliq qonunchiligida ko’rsatilgan, qo’shilgan qiymat solig’idan ozod qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqaruvchi korxonalar moddiy resurslar (ishlar, xizmatlar)ni qo’shilgan qiymat solig’i bilan sotib oladilar. Bunda sotib olingan moddiy resurslar (ishlar, xizmatlar)ga doir qo’shilgan qiymat solig’i ishlab chiqarish xarajatlariga yoki davr xarajatlariga kiritiladi. Savdo, ta’minot-sotish va tayyorlash korxonalari qo’shilgan qiymat solig’ini xarid qilingan tovar qiymatiga kiritadilar.

SHunga o’xshash sotib olingan moddiy resurslar (ishlar, xizmatlar) bo’yicha qo’shilgan qiymat solig’i summalarini ishlab chiqarish va muomala xarajatlariga, savdo, ta’minot-sotish va tayyorlash korxonalari bo’yicha - xarid qilingan qiymatga kiritish tartibi amaldagi qonunchilikka muvofiq soliq solishning alohida tartibi ko’zda tutilgan yuridik shaxslarga nisbatan ham qo’llaniladi.

Agar korxona qo’shilgan qiymat solig’idan ozod qilingan faoliyat turi bilan bir qatorda bunday soliqqa tortiladigan faoliyatni ham amalga oshiradigan bo’lsa, unda u faoliyatning bunday turlari bo’yicha xarajatlar va natijalarning alohida hisobini yuritishi kerak.

Agar korxona etkazib berilishi qo’shilgan qiymat solig’iga tortiladigan va bunday soliqqa tortilmaydigan bir xildagi mahsulotni ishlab chiqaradigan bo’lsa, unda bunday holda xarajatlarning ajratib ko’rsatilishi soliq solinadigan aylanmaning jami aylanma summasidagi salmog’iga qarab amalga oshiriladi.

Masalan.

Hisobot davri uchun korxona 200000 so'mlik, qo'shilgan qiymat solig'isiz sotish aylanmasiga ega bo'lib, shu jumladan soliqqa tortiladigan aylanmasi 170000 so'm, soliqqa tortilmaydigan (soliqdan ozod qilingan) aylanmasi 30000 so'm;

Jami sotish summasidagi soliqqa tortiladigan aylanma summasi salmog'i 85% ni tashkil etadi (170000 : 200000 x 100).

Agar hisobot davrida olingan hisobvaraq-fakturalardagi qo'shilgan qiymat solig'i summasi 35000 so'mni tashkil etgudek bo'lsa, u holda ushbu summaning 85 %i hisobga olinadi, ya'ni 29750 so'mi (35000 x 85/100).

Qolgan 5250 so'mlik (35000 - 29750) to'langan qo'shilgan qiymat solig'i summasi ishlab chiqarish (muomala) xarajatlariga kiritiladi.

O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi amalga kiritilishiga qadar qabul qilingan qonun hujjatlariga muvofiq taqdim etilgan soliq imtiyozlari ular taqdim etilgan muddat tugagunigacha saqlab qolinadi.

Qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan va soliq qonunchiligida ko'rsatilib qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqaradigan, shuningdek O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida taqdim etilgan qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha belgilangan tartibga muvofiq hisob-kitob qilmaydigan soliq imtiyoziga ega korxonalar, choraklik va bir yillik moliya hisobotini topshirish uchun belgilangan muddatlarda soliq qonunchiligiga muvofiq imtiyozdan foydalanganlik to'g'risida ma'lumotnoma (1-shakl) taqdim etadilar.

1-shakl

200__yil "____"_____uchun
(hisobot davri)
Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha imtiyozdan foydalanganlik to'g'risida ma'lumotnoma

Ko'rsatkichlar	Aylanma	Ctavka	Hisoblangan soliq summasi	Imtiyozni qo'llash uchun asos	Imtiyozning amal qilish muddati
1	2	3	4	5	6
Qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etilgan yuklab jo'natilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) nomi					
Masalan:					
Tibbiy xizmatlar	100,0	20%	20,0	Soliq kodeksi, 71-modda, 21-band	Doimiy
yoki					
CHigit ekish uchun PVX plyonkasini ishlab chiqarish	300,0	20%	60,0	O'zR VM 2003 yil 25 yanvardagi 44-	2003 yil yanvar va fevralda

uchun granulalar				son qarori	keltirilgan

Amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq qo'shilgan qiymat solig'idan quyidagilar ozod qilinadi:

1) O'zbekiston Respublikasi tomonidan tuzilgan shartnomalar (bitimlar) bo'yicha xalqaro va hukumatga qarashli xorijiy moliyaviy va iqtisodiy tashkilotlari bergan qarzlar va grantlar hisobiga yuridik shaxslar, shu jumladan O'zbekiston Respublikasining rezidenti bo'lmagan yuridik shaxslar tomonidan olib kirilayotgan ishlar, xizmatlar;

2) O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 71-moddasida ko'rsatilgan ishlar (xizmatlar);

Soliq kodeksi amalga kiritilguniga qadar qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari asosida soliq to'lovchilarga taqdim etilgan soliq imtiyozlari ular taqdim etilgan muddat tugaguniga qadar saqlanib qoladi.

SHuningdek, amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq quyidagilar qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinadi:

a) xorijiy diplomatik vakolatxonalar va ularga tenglashtirilgan vakolatxonalar rasmiy foydalanishi uchun mo'ljallangan tovarlar;

b) diplomatik vakolatxonalar va ularga tenglashtirilgan vakolatxonalar diplomatik xodimlarining, shuningdek ular bilan birga yashaydigan va O'zbekiston Respublikasining fuqarolari bo'lmagan oila a'zolarining shaxsiy foydalanish uchun mo'ljallangan tovarlar, shu jumladan eng zarur uy-ro'zg'or tovarlari;

v) xorijiy diplomatik vakolatxonalar va ularga tenglashtirilgan vakolatxonalarning ma'muriy-texnik xodimlari, shu jumladan ular bilan birga yashaydigan oila a'zolarining, agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bo'lmasalar yoki O'zbekiston Respublikasida doimiy yashamasalar, olib kiradigan eng zarur uy-ro'zg'or tovarlari;

g) jismoniy shaxslar boj to'lamasdan olib kirish me'yorlari doirasida import qiladigan tovarlar, bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarida tasdiqlangan;

d) O'zbekiston Respublikasi hududiga tabiiy ofatlar, qurolli ixtiloflar, baxtsiz hodisalar yoki avariyalar yuz berganda yordam ko'rsatish uchun, insonparvarlik yordami va bepul texnik ko'mak berish uchun olib kiriladigan tovarlar, shuningdek davlatlar, hukumatlar, xalqaro tashkilotlar yo'li bilan xayriya maqsadlarida olib kiriladigan tovarlar;

e) O'zbekiston Respublikasi hududiga bojxona maqsadida va quyidagi maqsadlarda olib kiriladigan texnologik uskunalar:

- 1998 yilga doir investitsiya dasturiga kiritilgan ustuvor ob'ektlarni jihozlash uchun;
- hukumat kafolati bilan xorijiy kreditlar hisobiga moliyalanadigan investitsion loyihalarni amalga oshirish uchun;
- yangidan qurilayotgan va rekonstruktsiya qilinayotgan, xalq iste'moli tovarlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashayotgan korxonalar uchun;
- xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning ustav sarmoyasiga ularning ulushi sifatida xorijiy investorlar tomonidan olib kiriladigan texnologik uskunalar;

- Respublika neft-gaz tarmog'i ob'ektlari uchun turli quvurlar;
- belgilangan tartibda tasdiqlangan loyihalarga muvofiq, agar vakolatli bankning tegishli tasdig'i mavjud bo'lsa, yangi ishlab chiqarishlarni barpo etishga, shuningdek ishlab turganlarini zamonaviylashtirish va texnik jihatdan qayta jihozlashga olib kiriladigan texnologik uskunalar;
- lizingga topshirish uchun, vakolatli bankning tegishli tasdig'i mavjud bo'lganida;
- xorijiy investorning investitsiya majburiyatlari hisobidan xususiylashtirilayotgan korxonalar uchun.

j) quyidagilar doirasida etkazib beriladigan uskunalar (axborot va tashkiliy texnika asboblari, materiallari, tizim va vositalari):

- xalqaro va xorijiy tashkilotlar hamda jamg'armalar grantlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasida bajariladigan ilmiy-texnika va innovatsiya dasturlari hamda loyihalarini amalga oshirish;
- ilmiy-texnikaviy hamkorlik bo'yicha xalqaro kelishuvlar, vakolatli organning ko'rsatilgan uskuna ajratilgan grantlar (mablag'lar)ning maqsad va vazifalariga muvofiqligi to'g'risidagi xulosasiga asosan. Bunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 20 fevraldagi "Ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish to'g'risida" PF-3029-son Farmoni chiqishiga qadar mazkur imtiyoz O'zbekiston Respublikasi Fan va texnika davlat qo'mitasining xulosasi asosida taqdim etiladi.

Xorijda xarid qilingan yoki u erdan yuborilgan uskunalar (axboriy va tashkiliy texnikaning asboblari, materiallari, tizim va vositalari) boshqalarga berilgan taqdirda barcha to'lov va soliqlar belgilangan tartibda to'lanadi;

z) yuridik shaxslar, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi norezidentlari O'zbekiston Respublikasi tomonidan tuzilgan shartnomalar (kelishuvlar) bo'yicha xalqaro va xorijiy hukumat moliyaviy va iqtisodiy tashkilotlari taqdim etgan qarzlar va grantlar hisobiga olib keladigan uskunalar, materiallar;

i) xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi, bolalar poyabzali ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalar tomonidan o'z ishlab chiqarishida ishlatish uchun olib keladigan xom-ashyo, materiallar va tayyorlov buyumlari;

m) import bo'yicha olib kelinadigan dori-darmonlar va tibbiy buyumlar.

Soliq to'lovchilarga Soliq kodeksi amalga kiritilishiga qadar qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga binoan taqdim etilgan soliq imtiyozlari ular taqdim etilgan muddat tugashiga qadar saqlanadi.

6.5. Qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi va hisoblash tartibi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 18 dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining 2007 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-532–son qaroriga muvofiq 2007 yilda soliq solinadigan barcha aylanmalar bo'yicha 20 % miqdorida qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi saqlanib qolindi.

SHuningdek, import qilinadigan tovarlar, ishlar va xizmatlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i 20 (yigirma) foiz stavkasi bo'yicha to'lanadi.

Quyidagilar nol darajali stavka bo'yicha soliqqa tortiladi:

1) erkin almashtiriladigan valyutaga tovarlar hamda O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida bajariladigan (ko'rsatiladigan) ishlar (xizmatlar) eksporti, shu jumladan Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlariga etkazib berishlar, agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida boshqa narsa nazarda tutilmagan bo'lsa.

Tovarlar eksportiga soliq solishda tovarni O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan olib chiqish belgilovchi omil hisoblanadi. Tovarlar eksportida nol stavkasi bo'yicha soliq solish quyidagi hujjatlar mavjud bo'lganida qo'llaniladi:

- kontrakt (yoki belgilangan tartibda tasdiqlangan kontrakt nusxasi);
- tovarning bojxona rasmiylashtiruvini o'tkazadigan bojxona organining belgilari qo'yilgan bojxona yuk deklaratsiyasi;
- eksport qilinayotgan tovarlarga xorijiy shaxs haq to'laganligini tasdiqlaydigan to'lov hujjatlari va bank ko'chirmasi;
- tovarlar ko'rsatilgan mamlakatga jo'natilganligini tasdiqlaydigan, tovarga ilova qilinuvchi hujjatlar.

O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida bajariladigan (ko'rsatiladigan) ishlar, xizmatlar eksportida nol stavkasi bo'yicha soliq solish quyidagi hujjatlar mavjud bo'lganida qo'llaniladi: xorijiy shaxslar bilan kontraktlar; ishlar (xizmatlar) sotuvchisi va sotib oluvchisi imzolagan dalolatnomalar, ma'lumotnomalar yoki boshqa hujjatlar; bajarilgan ishlar (xizmatlar)ga xorijiy shaxs haq to'laganligini tasdiqlaydigan to'lov hujjatlari.

Bevosita O'zbekiston Respublikasi aeroportlari va havo makonida xorijiy havo kemalariga xizmat ko'rsatish, shu jumladan aeronavigatsiya xizmati bo'yicha ko'rsatiladigan xizmatlar, agar ularga erkin almashtiriladigan valyutada haq to'lansa, eksport xizmatlariga tenglashtiriladi va ularga nol stavkasi bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i solinadi.

2) chet el diplomatiya vakolatxonalari va ularga tenglashtirilgan vakolatxonalarning rasmiy foydalanishi uchun, shuningdek mazkur vakolatxonalarning diplomatiya va ma'muriy-texnik xodimlarining, ular bilan birga yashovchi oila a'zolarining, agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bo'lib hisoblanmasalar va respublikada doimiy yashamasalar, chet el tarafi tomonidan o'zaro muvofiqlik tamoyilining qo'llanilish sharti bilan shaxsiy foydalanish uchun sotiladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar).

3) "bojxona hududida qayta ishlash" bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlarni qayta ishlash bo'yicha erkin almashtiriladigan valyutaga bajariladigan (ko'rsatiladigan) ishlar (xizmatlar).

4) O'zbekiston Respublikasi hududi orqali chet mamlakatlarning yuklarini tashish (tranzit tashishlar) bo'yicha xizmatlar. CHet mamlakatlar yuklarini tranzit tashishlarga yuklarning tranzitini amalga oshirish uchun xorijiy shaxslar bilan bevosita shartnomalar yoki xalqaro transport bitimlari va bojxona organlarining ko'rsatilgan tranzit yuklarning amalda olib kelingani va olib chiqib ketilishi

haqidagi belgilari mavjud bo'lganida O'zbekiston Respublikasi hududi orqali chet mamlakatlar tranzit yuklarining tashilishi va xizmat ko'rsatishga doir xizmatlar kiradi.

5) suv, issiqlik, gaz ta'minoti bo'yicha aholiga ko'rsatiladigan kommunal xizmatlar.

Korxonalar nol darajali stavka bo'yicha soliqqa tortiladigan mahsulotlarga qo'shilgan qiymat solig'ini "0" stavkasi bo'yicha hisoblaydilar va ishlab chiqarishda ishlatiladigan moddiy resurslar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i summasini hisobga olish uchun qabul qiladilar. Qo'shilgan qiymat solig'i summasi belgilangan stavkalar asosida quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$Sqqs = Say \times S / 100; (1),$$

bunda: Sqqs - iste'molchilardan undiriladigan soliq summasi;

Say - soliqqa tortiladigan aylanma;

S - qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi.

Tovarlar (ishlar, xizmatlar) qo'shilgan qiymat solig'ini o'z ichiga olgan narxlar va tariflar bo'yicha sotilganida - soliq quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$Sqqs = Tq \times S / (S + 100); (2),$$

bunda: Tq - qo'shilgan qiymat solig'i ham hisobga olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) qiymati.

Soliq qonunchiligida ko'rsatilgan qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan yoki qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni sotadigan korxonalar erkin (shartnomaviy) narx va tarifga qo'shilgan qiymat solig'i summasini qo'shmaydilar. SHunga o'xshash tartib amaldagi qonunchilikka muvofiq soliq solishning alohida tartibi ko'zda tutilgan yuridik shaxslarga nisbatan ham qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasi hududiga import qilinadigan tovarlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish uchun asos bojxona qonunlariga muvofiq belgilanadigan bojxona qiymati hisoblanadi.

Tovarlar importi bo'yicha soliq solinadigan oborot hajmiga bojxona qiymati bilan bir qatorda bojxona boji summasi va aktsiz solig'i summasi (aktsiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha) kiritiladi.

Import qilinadigan tovarlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i quyidagi formula bo'yicha hisoblab chiqariladi:

$$Sqqs = (Sb+Bb+As) \times S/100,$$

bu erda: S qqs - qo'shilgan qiymat solig'i summasi;

Sb - import qilinadigan tovarning bojxona qiymati;

Bb - bojxona boji summasi;

As - aktsiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha aktsiz solig'i summasi;

S - qo'shilgan qiymat solig'ining foizlardagi stavkasi.

Import qilinadigan ishlar, xizmatlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i ishlar, xizmatlar bajarilganligi dalilini tasdiqlovchi hujjatlar (dalolatnoma, ma'lumotnoma yoki boshqa hujjatlar) asosida quyidagi formula bo'yicha hisoblab chiqariladi:

$$Cqqs = S \times N/100,$$

bu erda: Sqqs - qo'shilgan qiymat solig'i summasi;

S - dalolatnoma, ma’lumotnoma yoki boshqa hujjatlarga ko’ra tasdiqlanadigan, import qilinadigan ishlar, xizmatlar qiymati;

N - qo’shilgan qiymat solig’ining foizlardagi stavkasi.

Realizatsiya qilinadigan joyi O’zbekiston Respublikasi bojxona hududi bo’lgan O’zbekiston Respublikasi rezidentlari tomonidan import qilinadigan ishlar, xizmatlar import qilinadigan ishlar, xizmatlar deb tan olinadi.

Ishlab chiqarish maqsadlarida foydalaniladigan, sotib olinadigan moddiy resurslarga, shuningdek chetdagi tashkilotlar bajaradigan ishlar (xizmatlar)ga qo’shilgan qiymat solig’i ishlab chiqarish (muomala) xarajatlariga kiritilmaydi, qo’shilgan qiymat solig’idan ozod qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning sotilishi bundan mustasnodir.

Byudjetga to’lanadigan qo’shilgan qiymat solig’i soliq solinadigan aylanmalar bo’yicha hisoblangan soliq summasi bilan soliq qonunchiligiga muvofiq hisobga kiritiladigan soliq summalari o’rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

Ushbu tartib qo’shilgan qiymat solig’ini to’lovchi hisoblanadigan hamma korxona va tashkilotlarga tatbiq etiladi.

O’z ehtiyojlari uchun foydalaniladigan asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar hisobda sotib olish qiymati bo’yicha, to’langan qo’shilgan qiymat solig’i summasi ham qo’shilgan holda aks ettiriladi.

Hisobga kiritiladigan qo’shilgan qiymat solig’i summasi bo’lib, hisobot davri mobaynida haqiqatda kelib tushgan, shu jumladan, import qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun nol stavkasi bo’yicha aylanma bilan birgalikdagi soliq solinadigan aylanma uchun foydalaniladigan olingan hisobvaraq-fakturalar bo’yicha to’lanishi lozim bo’lgan soliq summasi hisoblanadi.

Hisobot davri mobaynida xo’jalik yurituvchi sub’ektlar shartnomalarining shartlariga ko’ra xorijiy valyutaga ekvivalentda yozilgan hisobvaraq-fakturalar bo’yicha kelib tushgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo’yicha hisobga kiritiladigan qo’shilgan qiymat solig’i summasi bo’lib O’zbekiston Respublikasi pul birligida - hisobvaraq-faktura yozilgan sanada O’zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi bo’yicha qayta hisoblangan so’mlardagi soliq summasi hisoblanadi.

Import qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo’yicha bojxona yuk deklaratsiyasi (BYUD), shuningdek bojxona deklaratsiyasi qiymati (BDQ), bojxona qiymatining tuzatilishi (BKT) (bajarilgan ishlar, ko’rsatilgan xizmatlar dalolatnomalari) va qo’shilgan qiymat solig’ining amalda to’langanligini tasdiqlovchi to’lov hujjatlari hisobga olish uchun asos bo’lib hisoblanadi. Import qilingan tovarlar bo’yicha hisobga kiritiladigan qo’shilgan qiymat solig’i summasi bo’lib importchi bayonot bergan bojxona qiymatidan kelib chiqib belgilangan tartibga muvofiq hisoblab chiqarilgan, sotish chog’ida soliq solinadigan aylanma uchun foydalaniladigan soliq summasi hisoblanadi.

Agar qo’shilgan qiymat solig’i tovarlarni olib kirish chog’ida bojxona to’g’risidagi qonun hujjatlariga muvofiq bojxona baholash usullari tizimini qo’llash yo’li bilan aniqlanadigan bojxona qiymatidan kelib chiqib hisoblab chiqarilsa, bojxona rasmiylashtiruvi chog’ida haqiqatda to’langan soliq bilan soliq qonunchiligiga muvofiq hisobga kiritiladigan soliq o’rtasidagi farq import qilingan tovarlarning xarid qiymatiga kiritiladi.

Misol:

Importchi tomonidan olib kirilayotgan tovarga doir bayonot berilgan bojxona qiymati 100 mln. so'mni tashkil etadi, tovar importi chog'ida bojxona to'lovlarini to'lash uchun hisob-kitobli bojxona qiymatini bojxona organlari 200 mln. so'm miqdorida belgilagan. Bojxona rasmiylashtiruvi chog'ida bojxona to'lovlarining hisoblangan summalari: bojxona boji (30%) - 60 mln so'm, aktsiz (20%) - 40 mln so'm, QQS (20%) - 60 mln so'm, (200+60+40) x 20/100).

Hisobga kiritiladigan QQS summasi - 40 mln. so'm (100 (importchi bayonot bergan bojxona qiymati) + 60 (bojxona boji) + 40 (aktsiz) x 20/100). 20 mln. so'm (60-40) summasidagi farq import qilingan tovarning xarid qiymatiga kiradi.

Import qilish chog'ida qo'shilgan qiymat solig'ini to'lash bo'yicha muddatlarning uzaytirilishi yoki bo'lib-bo'lib to'lash taqdim etilgan hollarda (bojxona qonunchiligiga yoki hukumat qaroriga muvofiq) hisobga kiritiladigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi bo'lib soliqning haqiqatda to'langan summasi hisoblanadi.

Eksportga etkazib beriladigan mahsulot bo'yicha hisobga kiritiladigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi bo'lib tovarlar O'zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqilganligi va tasdiqlovchi hujjatlar mavjudligida, eksportdan valyuta tushumi korxonaning hisobvarag'iga kelib tushganligi dalili tasdiqlanganda, soliq qonunchiligiga ko'ra hisoblab chiqarilgan soliq summasi hisoblanadi.

Quyidagilar bo'yicha soliq summasi hisobga olinmaydi:

a) qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan, shuningdek qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqaruvchi korxonalar foydalanadigan sotib olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha;

b) soliq to'lovchining tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha;

v) xarid qilingan, hisobda dastlabki qiymati bo'yicha aks ettiriladigan asosiy vositalar (shu jumladan etkazib berish va montaj qilish, o'rnatish, foydalanishga topshirish hamda undan vazifasiga ko'ra foydalanish uchun aktivni ishlash holatiga keltirish bilan bevosita bog'langan har qanday boshqa xizmatlar) va o'z ehtiyojlari uchun foydalaniladigan nomoddiy aktivlar bo'yicha;

g) korxonaning ustav jamg'armasiga ulush sifatida kiritilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) va moddiy resurslar bo'yicha, ular keyinchalik sotilganida, soliqqa tortiladigan va tortilmaydigan aylanmalar bo'yicha va tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan faoliyatda ishlatilishida.

Bunda korxonaning ustav jamg'armasiga ulush sifatida kiritilgan import qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha to'langan qo'shilgan qiymat solig'i summasi ushbu tovarlar (ishlar, xizmatlar) keyinchalik sotilganda yoki soliqqa tortiladigan aylanmalar bo'yicha ishlatilganda umumiy belgilangan tartibda hisobga olinadi.

Agar xarid qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i summasi hisobot oyida hisobga kiritilgan bo'lsa, keyingi davrlarda esa ushbu moddiy resurslar tadbirkorlik faoliyatida va soliq to'lovchining soliq solinadigan etkazib berishlari uchun ham foydalanilmagan bo'lsa, u holda ushbu

(keyingi) davrlarda soliq solinadigan aylanma va soliq qonunchiligida ko'rsatilgan hisobga olish uchun qabul qilingan soliq summalari tuzatilishi amalga oshiriladi.

Ushbu qoida yagona soliq (kichik korxonalar), yagona er solig'i, yalpi tushumdan yagona soliq to'lovchi yuridik shaxslarga ham tatbiq etiladi.

Bunda aytilgan soliqlarni to'lashga o'tgunga qadar qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha manfiy saldosi bor, yuqorida aytilgan yuridik shaxslar, qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha oxirgi hisob-kitobda bu summaga tuzatish qiladilar va uni ishlab chiqarish (muomala) xarajatlariga, savdo, ta'minot-sotish va tayerlash korxonalari bo'yicha xarid qilingan qiymatga hisobdan chiqaradilar.

Korxona qo'shilgan qiymat solig'iga tortiladigan va bunday soliqdan ozod qilingan aylanmalarga ega bo'lganida, qo'shilgan qiymat solig'iga tortiladigan etkazib berishlarga (nol darajali stavka bo'yicha soliq solish kirgan holda) to'g'ri keladigan bunday soliq summasi qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha hisobga olish uchun qabul qilinadi.

Bunday tartibdan istisno tariqasida, kommunal xo'jalik korxonalari aholiga soliq qonunchiligida ko'rsatilgan kommunal xizmatlarni ko'rsatishda foydalanilgan moddiy resurslar uchun etkazib beruvchilarga to'langan qo'shilgan qiymat solig'i summasini ishlab chiqarish xarajatlariga kiritmaydi, balki hisobga olish uchun qabul qiladi. Bunda kommunal xizmat ko'rsatish korxonalari qo'shilgan qiymat solig'ini faqat musbat saldo mavjud bo'lganida, ya'ni ko'rsatilgan xizmatlar uchun olingan qo'shilgan qiymat solig'i tushumlari umuman barcha faoliyatlar bo'yicha foydalanilgan moddiy resurslar uchun etkazib beruvchilarga to'langan qo'shilgan qiymat solig'i summasidan ortiq bo'lganida to'laydilar.

Hisobot davrida umuman kommunal xizmatlar (suv, issiqlik, gaz ta'minoti bo'yicha aholiga ko'rsatiladigan kommunal xizmatlardan tashqari) ko'rsatadigan korxonalar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha manfiy saldo vujudga kelganida, u ushbu hisobot davridagi kommunal xizmatlarni ishlab chiqarish va etkazib berishga doir xarajatlarga (davr xarajatlariga) kiritiladi.

Suv, issiqlik, gaz ta'minoti bo'yicha aholiga ko'rsatiladigan kommunal xizmatlar bo'yicha nol stavkasining qo'llanishi natijasida vujudga kelgan manfiy saldo soliq qonunchiligiga muvofiq qoplanadi. Agar bundan oldingi hisobot davri uchun hisobga olingan qo'shilgan qiymat solig'i summasining hisobot davri uchun hisoblangan soliq summasidan ortiq bo'lgan summasi vujudga kelsa, unda ko'rsatilgan ortiqcha summa hisobot davridan keyingi davr uchun hisobga olinadi.

Agar umuman korxona bo'yicha hisobga olinishi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'i summasi qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha nol stavkasini qo'llagan holda ushbu hisobot davri uchun hisoblangan soliq summasidan ortiq bo'lganida, unda bunday ortiqcha summa (manfiy saldo) soliq to'lovchiga uning soliqlar va yig'imlar bo'yicha qarzi bo'lmagan taqdirda qonunda belgilangan tartibda qaytariladi. Bunda ushbu ortiqcha summa soliq to'lovchining shaxsiy hisobvarag'ida ortiqcha to'lov sifatida emas, balki manfiy saldo sifatida hisobga olinadi. Ortiqcha to'langan qo'shilgan qiymat solig'i summasi, soliqlar va yig'imlar bo'yicha qarzlar mavjud bo'lmagan taqdirda, bo'lg'usi to'lovlar hisobiga

kiritiladi yoki soliq to'lovchiga yozma arizasi olingan kundan boshlab o'ttiz kun ichida qaytariladi.

Hisobvaraq-faktura soliq qonunchiligida ko'rsatilgan tartibga muvofiq hisobga olish uchun qabul qilinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi uchun xizmat qiladigan hujjat hisoblanadi. Qo'shilgan qiymat solig'iga tortiladigan va tortilmaydigan tovarlarni sotuvchi, ishlarni bajaruvchi va xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar, shuningdek qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha imtiyozlarga ega korxonalar ushbu tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni oladigan shaxsga soliq qonunchiligida ko'rsatilgan shaklga ko'ra (2-shakl) bajarilgan hisobvaraq-fakturani taqdim etishi shart.

2-shakl

2015 yil " " dagi
- sonli tovar yuklab jo'natish hujjatiga
2015 yil " " dagi
- sonli hisobvaraq - faktura

Etkazib beruvchi: _____
Manzil: _____
Telefon: _____
Hisob-kitob hisobvaraq raqami: _____
_____ da
_____ shahri
Etkazib beruvchining identifikatsiya raqami (STIR): _____
XXTUT bo'yicha kod: _____

Xaridor: _____
Manzil: _____
Telefon: _____
Hisob-kitob hisobvaraq raqami: _____
_____ da
_____ shahri
Etkazib beruvchining identifikatsiya raqami (STIR): _____
XXTUT bo'yicha kod: _____

Tovar (ish, xizmat)lar nomi	O'lchov birligi	Miqdori	Narxi	Etkazib berish qiymati	QQS		Etkazib berishning QQS hisobga olingan qiymati
					Stavkasi	Summasi	
1	2	3	4	5	6	7	8
Jami to'lashga:							

Rahbar _____
Bosh buxgalter _____
M. O'.

Tovarni berdim _____
(etkazib beruvchining mas'ul shaxsi imzosi)

Oldim _____
(xaridor yoki vakolatli vakilning imzosi)
2015yil "___"_____ dagi
____- sonli ishonchnoma bo'yicha
_____
(tovar oluvchining F.I.SH.)

Hisobvaraq-fakturalarni, shuningdek amaldagi qonunchilikka muvofiq soliq solishning alohida tartibi ko'zda tutilgan yuridik shaxslar ham yozadilar. Bunda

mazkur korxonalar hisobvaraq-fakturada qo'shilgan qiymat solig'i summasini ko'rsatishmaydi va "qo'shilgan qiymat solig'isiz" degan belgili muhr qo'yadi (yoki yozuvni yozib qo'yadi).

Hisobvaraq-faktura O'zbekiston Respublikasi pul birligi - so'mda yoziladi.

Tuzilgan shartnomalar shartlariga ko'ra tovarlari, xizmatlari narxi (tariflar) xorijiy valyutaga ekvivalentlikda belgilanadigan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar hisobvaraq-fakturalarni xorijiy valyutaga ekvivalentlikda yozib, O'zbekiston Respublikasi pul birligi - hisobvaraq-faktura yozilgan sanada O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi bo'yicha qayta hisoblangan so'mlarda aks ettiradilar. Hisobvaraq-faktura tovarlarning yuklab jo'natilishi, ishlarning bajarilishi, xizmatlar ko'rsatilishi sanasidan kechiktirilmasdan yoziladi. Bunda hisobvaraq-faktura tovarlarning yuklab jo'natilishi, ishlarning bajarilishi, xizmatlar ko'rsatilishi uchun oldindan haq to'lanishiga yozilmaydi.

Hisobvaraq-faktura etkazib beruvchi korxona (pudratchi, ijrochi) tomonidan xaridor korxona (buyurtmachi) nomiga kamida ikki nusxada yoziladi, ularning bir nusxasi tovarlarning yuklab jo'natilishi (ishlarning bajarilishi va xizmatlar ko'rsatilishi) sanasidan kechiktirmasdan etkazib beruvchi tomonidan xaridorga taqdim qilinadi va xaridorga qo'shilgan qiymat solig'i summasini soliq qonunchiligida belgilangan tartibda hisobga olish (qoplash) uchun huquq beradi. Hisobvaraq-fakturaning ikkinchi nusxasi etkazib beruvchida qoladi. Hisobvaraq-fakturalar hisobvaraqlarning kelib tushishi va taqdim etilishi ro'yxatdan o'tkaziladigan daftarda majburiy tartibda hisobga olinishi lozim.

Import qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha bojxona yuk deklaratsiyasi (BYUD), shuningdek bojxona deklaratsiyasi qiymati (BDQ), bojxona qiymatining tuzatilishi (BKT) (bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar dalolatnomalari) va qo'shilgan qiymat solig'ining amalda to'langanligini tasdiqlovchi to'lov hujjatlari hisobvaraq-faktura hisoblanadi.

Eksport qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha hisobvaraq-faktura bo'lib bojxona yuk deklaratsiyasi hisoblanadi.

Bevosita aholiga pullik xizmatlar (ishlar)ni ko'rsatadigan korxonalar uchun tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni sotishda kassa cheki yoki xizmatlar ko'rsatilishi (ishlar bajarilishi)ni tasdiqlovchi boshqa hujjatlar hisobvaraq-faktura hisoblanadi. Bunda bu hujjatlarda qo'shilgan qiymat solig'i ajralib turishi lozim.

O'z mahsulotlarini (tovarlarini, ishlarini, xizmatlarini) uzluksiz etkazib beradigan korxonalar bo'yicha hisobvaraq-fakturalar iste'molchilarga hisobvaraqni rasmiylashtirish bilan bir vaqtda, lekin bir oyda bir martadan kam bo'lmagan tarzda yoziladi. Bunda hisobvaraq-fakturalarning yozilishi mahsulot sotilgan hisobot davrida amalga oshiriladi.

Banklar uchun, qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan operatsiyalar bajarilganda, hisobvaraq-faktura bo'lib mijoz shaxsiy hisobvarag'idan ko'chirma hisoblanadi. Lizing operatsiyalari bo'yicha lizing beruvchilar uchun hisobvaraq-faktura bo'lib lizing ob'ektini qabul qilish - topshirish dalolatnomasi hisoblanadi. Bunda tegishli hujjatlar (lizingning tarkibiy qismi hisoblanadigan lizing to'lovlari jadvali; hisobvaraq; lizing to'lovlarini to'lash bo'yicha lizing oluvchiga taqdim

etiladigan bildiruvnoma va hokazo) bilan rasmiylashtiriladigan har bir lizing to'loviga qo'shimcha hisobvaraq-faktura yozilmaydi.

Agar lizing shartnomasi lizing beruvchi tomonidan qo'shilgan qiymat solig'i solinadigan qo'shimcha xizmatlar ko'rsatishni nazarda tutsa, bunda mazkur xizmatlarga belgilangan tartibda hisobvaraq-faktura yoziladi.

Qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan sug'urta xizmatlarini ko'rsatishda, hisobvaraq-faktura o'rniga birlamchi hujjat bo'lib quyidagi hujjatlar:

- sug'urta korxonalari uchun - sug'urta polisi;
- sug'urta agentlari uchun - sug'urta polisi va shartnoma topshirig'i (agentlik bitimi);
- sug'urta brokerlari uchun - sug'urta polisi va shartnoma topshirig'i hisoblanadi.

Ishlar (qurilish, ta'mirlash-qurilish, loyiha-qidiruv, ilmiy-tadqiqot va boshqa ishlar) bajarish yoki xizmatlar (transportga doir, mol-mulkni ijaraga berish, aloqa xizmatlari va boshqalar) ko'rsatish bilan shug'ullanadigan korxonalar ham hisobvaraq-faktura yozishi kerak.

Agar ishlar bajaradigan korxonalarda buyurtmachiga imzo chekish uchun taqdim etiladigan, bajarilgan ishlar (qilingan xarajatlar) qiymati to'g'risidagi ma'lumotnoma - hisobvaraq-fakturada yoki hujjatda hisobvaraq-fakturaning belgilangan shaklida aks ettirilgan barcha majburiy rekvizitlar ushbu hujjatda QQS to'lovchilari uchun QQS summasi ko'rsatilgan yoki QQS to'lovchisi bo'lmaganlar uchun "QQSsiz" yozuvi (shtampi) qo'yilgan holda mavjud bo'lsa, bunda mazkur hujjatlar hisobvaraq-fakturaga tenglashtiriladi va bunday korxonalar qo'shimcha ravishda hisobvaraq-faktura yozmasligi kerak.

6.6. Qo'shilgan qiymat solig'ini to'lash tartibi va muddatlari

Qo'shilgan qiymat colig'i bo'yicha hisob-kitob ro'yxatdan o'tilgan joydagi davlat soliq xizmati organlariga taqdim etiladi:

- korxonalar tomonidan (soliqqa tortishning umumbelgilangan tizimini qo'llovchi mikrofirmalar va kichik korxonalardan tashqari) - hisobot oyidan keyingi oyning 15-kunidan kechiktirmasdan har oyda, o'sib boruvchi yakun bilan, shuningdek yil yakunlari bo'yicha yillik moliyaviy hisobotni soliq qonunchiligiga muvofiq shaklda taqdim etish muddatida;
- soliqqa tortishning umumbelgilangan tizimini qo'llovchi mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan - birinchi chorak, yarim yillik va 9 oy yakunlari bo'yicha har oyda, hisobot choragidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmasdan, yil yakunlari bo'yicha esa - yillik moliyaviy hisobotni taqdim etish muddatida.

Korxonalar soliqni qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha hisob-kitoblarni taqdim etish uchun belgilangan kungacha, soliq qonunchiligiga muvofiq tegishli davr (oy) uchun sotishga doir amaldagi aylanma asosida to'laydi.

Korxona soliqlar va yig'imlar summalarini ortiqcha to'lagani va soliqlar va yig'imlar bo'yicha qarzi bo'lmagani taqdirda bunday summalar bo'lg'usi to'lovlar

hisobiga o'tkaziladi yoki to'lovchining yozma arizasi olingan kundan boshlab o'ttiz kun muddatda korxonaga qaytariladi.

Qo'shilgan qiymat solig'i tanlangan bojxona rejimi shartlariga muvofiq, tasdiqlangan stavkalar bo'yicha hisoblab chiqiladi va to'lanadi. Tovarlar O'zbekiston Respublikasi hududiga import qilinishida qo'shilgan qiymat solig'i bojxona deklaratsiyasi qabul qilinishiga qadar yoki u bilan bir vaqtda to'lanadi.

Agar bojxona deklaratsiyasi O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksida belgilangan muddatda topshirilmasa, qo'shilgan qiymat solig'ini to'lash muddatlari bojxona deklaratsiyasini topshirish muddati tugagan kundan boshlab hisoblab chiqariladi. Qo'shilgan qiymat solig'i milliy valyuta - so'mda to'lanadi.

Jismoniy shaxslar soliqni naqd pul bilan bojxona organi yoki posti kassasiga belgilangan tartibda to'lashlari mumkin. Bojxona organining qaroriga ko'ra to'lovchiga O'zbekiston Respublikasining Davlat bojxona qo'mitasi 1999 yil 16 martda 03/8-78-son bilan tasdiqlagan Bojxona to'lovlarini to'lashni kechiktirish va uni bo'lib-bo'lib to'lash bo'yicha yo'riqnomaga (ro'yxat raqami 697, 8 aprel 1999 yil) muvofiq qo'shilgan qiymat solig'i to'lashni kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash huquqi taqdim etilishi mumkin.

Bajarilgan ishlar, xizmatlar dalili tasdiqlangan kundagi Markaziy bank kursi bo'yicha qayta hisoblangan ishlar, xizmatlar qiymatidan kelib chiqqan holda amalda ishlar bajarilganini, xizmatlar ko'rsatilganini tasdiqlaydigan hujjatlar asosida import qilinadigan ishlar va xizmatlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i milliy valyuta (so'm)da hisoblab chiqariladi.

Montaj qilish, ishga tushirish, sozlash, maslahatlar, o'qitish va boshqa ishlar, xizmatlarga doir import qilinadigan ishlar va xizmatlarga, olib kelinadigan uskunalarga doir xizmatlarga qo'shilgan qiymat solig'i tuzilgan shartnomalar (kontraktlar)ga muvofiq belgilangan mazkur ishlar, xizmatlarning qiymati asosida hisoblab chiqariladi.

Import qilinadigan ishlar, xizmatlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i to'lovi ana shu ishlar, xizmatlarni import qiluvchi shaxs yozib bergan hamda unda "import qilinadigan ishlar, xizmatlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i summasi to'lovi" degan yozuv bitilgan to'lov topshiriqnomasi asosida amalga oshiriladi. Import qilinadigan ishlar, xizmatlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i amalda ishlar, xizmatlar bajarilgan kundan boshlab 5 kun ichida byudjetga to'lanadi. Qo'shilgan qiymat solig'i faqatgina milliy valyuta - so'mda to'lanadi. Import qilinadigan ishlar, xizmatlarga nisbatan qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha hisob-kitob ro'yxatdan o'tilgan joydagi davlat soliq xizmati organlariga taqdim etiladi:

- korxonalar tomonidan (mikrofirmalar va kichik korxonalardan tashqari) - ishlar, xizmatlar importi amalga oshirilgan hisobot oyidan keyingi oyning 15-kunidan kechiktirmasdan har oyda;
- mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan - birinchi chorak, yarim yillik va 9 oy yakunlari bo'yicha, oylarga taqsimlagan holda, ishlar, xizmatlar importi amalga oshirilgan hisobot choragidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmasdan, yil yakunlari bo'yicha esa - yillik moliyaviy hisobotni taqdim etish muddatida.

6.7. Qo'shilgan qiymat solig'ini Respublika byudjetiga o'tkazish tartibi

Qo’shilgan qiymat solig’ining to’langan summalari hududiy bojxona organlarining depozit hisobvaraqlariga kirim qilinib, keyin ular Respublika byudjetining daromadiga qayd etilishi kerak. Bunda, shu jumladan qo’shilgan qiymat solig’i bo’yicha hisoblab yozilgan bo’nak to’lovlari summalari to’lovchi tomonidan hududiy bojxona organlarining depozit hisobvaraqlariga kirim qilinishi kerak. Ko’rsatilgan summalar yuk kelishiga qarab tuzatiladi, so’ngra ular respublika byudjetining daromadiga qayd etiladi.

Bojxona organlari uch kun davomida undirilgan qo’shilgan qiymat solig’i summalarini respublika byudjetining daromadiga o’tkazadilar. Bojxona organlari qo’shilgan qiymat solig’ining to’g’ri hisoblab yozilishi va o’z hisobvaraqlaridan respublika byudjetining daromadiga o’z vaqtida o’tkazilishi uchun javobgardirlar.

Ortiqcha to’langan yoki undirilgan qo’shilgan qiymat solig’i summasi o’ttiz kun ichida qaytarilishi yoki bo’lg’usi to’lovlar hisobiga qayd etilishi kerak.

To’lovchi ortiqcha to’langan yoki undirilgan qo’shilgan qiymat solig’i summalarini qaytarishni talab qilib, ular to’langan yoki undirilgan paytdan boshlab bir yil davomida murojaat qilishi mumkin. Ortiqcha to’langan qo’shilgan qiymat solig’i summalarini qaytarish bojxona organlariga quyidagi hujjatlar taqdim etilganda amalga oshiriladi:

- to’lovchining yozma arizasi, unda ortiqcha to’lash yoki undirishning sabablari ko’rsatiladi, shuningdek pul mablag’lari qaytarilishi kerak bo’lgan to’lovchining bank rekvizitlari beriladi;
- unga muvofiq qo’shilgan qiymat solig’i hisoblab chiqarilgan va undirilgan bojxona yuk deklaratsiyasi;
- ijro etilishi to’g’risida vakolatli bank belgisi qo’yilgan, tegishli qo’shilgan qiymat solig’i summalarini to’lashga doir to’lov hujjati;
- tovarlarning chegaradan haqiqatda olib o’tilgani to’g’risida chegara bojxonasining belgisi qo’yilgan tovarlarga ilova qilinuvchi hujjatlar.

Ortiqcha to’langan qo’shilgan qiymat solig’i summalarini qaytarish umumiy tushumlar hisobiga amalga oshiriladi.

Ortiqcha to’langan qo’shilgan qiymat solig’i summalarini qaytarishning boshqa qoidalari O’zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo’mitasi 2000 yil 29 iyunda 02/8-27-son bilan tasdiqlagan Ortiqcha to’langan yoki undirilgan bojxona to’lovlarini qaytarish to’g’risida yo’riqnomaga ko’ra (ro’yxat raqami 947, 14 iyul 2000 yil) tartibga solinadi.

Qo’shilgan qiymat solig’ining to’g’ri hisoblab chiqarilishi va o’z vaqtida to’lanishi uchun javobgarlik deklarant (to’lovchi) zimmasiga yuklanadi. Qo’shilgan qiymat solig’i belgilangan tartibga muvofiq to’lanmagan taqdirda tegishli to’lovlarning summalari bojxona organlari tomonidan ularni to’lash uchun javobgar shaxslardan so’zsiz tartibda, bojxona qonunlari tomonidan belgilangan miqdorda penyani hisoblab yozish bilan undiriladi. Qo’shilgan qiymat solig’ining to’g’ri hisoblab yozilishi va byudjetga to’lanishi ustidan nazoratni bojxona organlari bojxona va soliq qonunlariga muvofiq amalga oshiradilar.

Korxonalar qo'shilgan qiymat solig'ining to'g'ri hisoblanishi va o'z vaqtida to'lanishi uchun O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

Soliqlar to'g'risidagi qonunlarning to'g'ri qo'llanilishi ustidan nazorat O'zbekiston Respublikasining "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi Qonuniga, O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga va O'zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlariga muvofiq davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Qo'shilgan qiymat solig'ini to'g'ri hisoblab chiqarilgani va o'z vaqtida to'lanishi bo'yicha javobgarlik soliq to'lovchining zimmasiga yuklanadi. Qo'shilgan qiymat solig'i to'lanmagan taqdirda belgilangan tartibga muvofiq to'lanishi lozim bo'lgan to'lovlar summasi soliq qonun hujjatlarida belgilangan miqdorda penya hisoblangan holda soliq organlari tomonidan undiriladi. Qo'shilgan qiymat solig'ini to'g'ri hisoblab chiqarish va byudjetga to'lash ustidan nazoratni soliq organi soliqqa oid qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiradilar.

6.8. Hisobvaraq-fakturani to'ldirish tartibi

Hisobvaraq-faktura tovarlarning yuklab jo'natilishi, ishlarning bajarilishi va xizmatlar ko'rsatilishi sanasidan kechiktirmasdan yoziladi.

Hisobvaraq-fakturada ko'rsatilishi lozim:

1) hisobvaraq-fakturaning tartib raqami va yozilgan sanasi;

2) hisobvaraq-faktura ilova qilinadigan, yuklab jo'natiladigan tovarlar hujjatlari (shartnomalar) raqami va sanasi;

3) soliq to'lovchi va xaridorning nomi, manzili va STIRi, xalq xo'jaligi tarmoqlari umumdavlat tasnifnomasi (XXTUT) bo'yicha tarmoq kodi;

4) komissiya shartnomasi asosida yoziladigan hisobvaraq-fakturalar bo'yicha, hisobvaraq-faktura yuk jo'natuvchining qo'shimcha rekvizitlari bilan to'ldiriladi, bunda ham nomi, manzili va STIRi, xalq xo'jaligi tarmoqlari umumdavlat tasnifnomasi (XXTUT) bo'yicha tarmoq kodi ko'rsatiladi.

Jadvalli shaklni to'ldirishda quyidagilarni qayd etish kerak:

1-ustunda - tovarlar nomi (bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar bayoni);

2-ustunda - mazkur tovar bo'yicha qabul qilingan o'lchov birligi (dona, kilogramm, metr va shu kabilar) va ishlar, xizmatlar bo'yicha o'lchov birligi;

3-ustunda - hisobvaraq bo'yicha yuklab jo'natiladigan tovarning miqdori (bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar hajmi), u yuzasidan qabul qilingan o'lchov birliklaridan kelib chiqib;

4-ustunda - tovarning shartnoma (kontrakt) bo'yicha o'lchov birligida QQSsiz narxi;

5-ustunda - ushbu nomdagi tovar jami sonining QQSsiz qiymati (3-ustun x 4-ustun);

- agar hisobvaraq-faktura bajarilgan ishlar (ko'rsatilgan xizmatlar)ga yozib beriladigan bo'lsa, unda bu ishlar (xizmatlar)ning qiymati QQSsiz ko'rsatiladi va 3 hamda 4-ustunlar to'ldirilmaydi;

- agar korxona aktsizlanadigan mahsulot ishlab chiqarsa, hisobvaraq-fakturaga qo'shimcha ustun kiritiladi, unda aktsiz stavkasi va summasi aks ettiriladi;

6-ustunda - qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi (20 yoki 0 foiz); agar tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha QQSdan ozod qilish mavjud bo'lsa, oddiy chiziq tortib qo'yiladi;

7-ustunda ushbu tovar (ish, xizmat) bo'yicha tegishli stavkalarga ko'ra hisoblangan QQS summasi; agar tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha QQSdan ozod qilish mavjud bo'lsa, oddiy chiziq tortib qo'yiladi.

Amaldagi qonunchilikka muvofiq soliqqa tortishning alohida tartibi ko'zda tutilgan yuridik shaxslar 6 va 7-ustunlarda qo'shilgan qiymat solig'i summalarini ko'rsatmaydilar va "Qo'shilgan qiymat solig'i summasisiz" shtampini qo'yadilar (yoki yozib qo'yadilar) va 8-ustunni to'ldirmaydilar.

8-ustunda - tovar (ish, xizmat) har bir turining QQS qo'shilgan qiymati (yoki soliqdan ozod qilinadigan yoki nol darajali stavka bo'yicha soliq solinadiganlari bo'yicha - QQSsiz) ko'rsatiladi, amaldagi soliq qonunchiligiga muvofiq soliq solishning alohida tartibi ko'zda tutilgan yuridik shaxslar 8-ustunni to'ldirmaydilar.

Hisobvaraq-fakturaning yakunlovchi satrida 5, 7 va 8-ustunlar bo'yicha summalar jamlanadi. Hisobvaraq-faktura rahbar va bosh buxgalter tomonidan imzolanadi va korxona muhri bilan tasdiqlanadi.

Agar xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tovarlar olib chiqishda yukxatlarni hisobvaraq-fakturaga almashtirsa, "ishonchnoma bo'yicha tovar olish" to'g'risida belgi to'ldiriladi.

Bunda, agar xo'jalik yurituvchi sub'ektlar, tovarlarni etkazib berishga hisobvaraq-fakturalarni yozishdan tashqari, "ishonchnoma bo'yicha olingani" to'g'risida belgi qo'yilgan yukxatlarni to'ldirsalar, hisobvaraq-fakturada mazkur belgilar to'ldirilmaydi. Ularning haqiqatda olinganligi dalolatnomalar, ma'lumotnomalar yoki boshqa shunday hujjatlar bilan tasdiqlanadigan bajariladigan ishlar, ko'rsatiladigan xizmatlar bo'yicha ham mazkur belgilar to'ldirilmaydi.

Agar bitim shartlariga ko'ra majburiyat xorijiy valyutada ko'rsatilsa, hisobvaraq-fakturada ko'rsatiladigan summalar xorijiy valyutada ko'rsatilib, O'zbekiston Respublikasi pul birligi - hisobvaraq-faktura yozilgan sanada O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi bo'yicha qayta hisoblangan so'mlarda aks ettirilishi mumkin.

Asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va tugallanmagan qurilish ob'ektlarini (tugallanmagan qurilishni hisobga oluvchi hisobvaraqlarda hisobga olinadigan) sotish chog'ida hisobvaraq-fakturaning jadval shaklini to'ldirishning xususiyatlari:

1-ustun "Tovarlar (ishlar, xizmatlar) nomi"da - asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar yoki tugallanmagan qurilish ob'ektlarining nomi ko'rsatiladi;

2-ustun "O'lchov birligi"da - o'lchov birligi ko'rsatiladi;

3-ustun "Miqdori" - to'ldirilmaydi;

4-ustun "Narxi"da - asosiy vositalar yoki nomoddiy aktivlarning qoldiq qiymati ko’rsatiladi. Tugallanmagan qurilish ob’ektlari uchun ularning haqiqiy tannarxi ko’rsatiladi;

5-ustun "Etkazib berish qiymati"da – soliq qonunchiligiga binoan belgilangan soliq solinadigan aylanma miqdoridan hisoblab chiqilgan qo’shilgan qiymat solig’i summasini unga kiritgan holda sotish narxi ko’rsatiladi;

6 va 7-ustunlar "QQS"da - soliq stavkasi va soliq qonunchiligiga binoan belgilanganini hisobga olgan holda soliq solinadigan aylanma miqdoridan hisoblab chiqarilgan summa ko’rsatiladi.

Bunda 7-ustun, agar soliq qonunchiligiga muvofiq soliq solinadigan aylanma mavjud bo’lsa, to’ldiriladi. Agar soliq solinadigan aylanma mavjud bo’lmasa, ya’ni 4-ustun summasi 5-ustunda ko’rsatilgan summadan katta yoki unga teng bo’lsa, 7-ustun to’ldirilmaydi;

8-ustun "Etkazib berishning QQSni hisobga olgan holda qiymati"da - soliq qonunchiligiga binoan belgilangan soliq solinadigan aylanma miqdoridan hisoblab chiqarilgan qo’shilgan qiymat summasini unga kiritgan holda sotish narxi ko’rsatiladi. Bunda 8-ustun, agar 5-ustunda ko’rsatilgan narx 4-ustunda ko’rsatilgan summadan katta bo’lgan taqdirda to’ldiriladi.

Asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va tugallanmagan ishlab chiqarish ob’ektlari tekinga berilganida hisobvaraq-fakturalarni to’ldirish yuqorida bayon etilgan tartibga aynan o’xshash tarzda amalga oshiriladi.

Ishlar (qurilish, ta’mirlash-qurilish, loyiha-qidiruv, ilmiy-tadqiqot va boshqa ishlar) bajarish yoki xizmatlar (transportga doir, mol-mulkni ijaraga berish, aloqa xizmatlari va boshqalar) ko’rsatish bilan shug’ullanadigan korxonalar hisobvaraq-faktura yozish chog’ida belgilangan shaklga muvofiq, ishlar (xizmatlar) ijrochisi hamda buyurtmachi sifatida barcha rekvizitlarni to’ldirishlari kerak.

YUqorida aytilgan korxonalar tomonidan jadval shakli to’ldirilganida quyidagilar aks ettirilishi kerak:

1-ustunda: tovarlar (ishlar, xizmatlar) nomi - bajarilgan ishlar (ko’rsatilgan xizmatlar) tavsiflanadi;

2-ustunda - pul ifodasida o’lchov birligi ko’rsatiladi;

3-“Miqdori” va 4-“Narxi” ustunlari to’ldirilmaydi;

5-“Etkazib berish qiymati” ustunida bajarilgan ishlar (ko’rsatilgan xizmatlar) hajmi qo’shilgan qiymat solig’isiz ko’rsatiladi;

6-ustunda QQS stavkasi ko’rsatiladi;

7-ustunda QQS summasi ko’rsatiladi;

8-ustunda bajarilgan ishlar (ko’rsatilgan xizmatlar) hajmi qo’shilgan qiymat solig’ini hisobga olgan holda ko’rsatiladi.

Agar ishlar bajarayotgan, xizmatlar ko’rsatayotgan korxonalar kichik korxonalar uchun yagona soliq to’lashni nazarda tutadigan soliq solishning soddalashtirilgan tizimiga o’tsa, 6 va 7-ustunlarda qo’shilgan qiymat solig’i summasini ko’rsatmaydi hamda “QQSsiz” shtampini qo’yadi (yoki yozib qo’yadi) va 8-ustunni to’ldirmaydi.

Agar ishlar bajarayotgan korxonalarda buyurtmachiga imzo chekish uchun taqdim etilgan, bajarilgan ishlar (qilingan xarajatlar) qiymati to’g’risidagi

ma’lumotnoma-hisobvaraq-fakturada hisobvaraq-fakturaning belgilangan shaklida aks ettirilgan barcha majburiy rekvizitlar (ushbu hujjatni yozishga asos bo’lgan shartnomaning ro’yxat raqami va sanasi, nomlanishlar, manzillar, STIR, XXTUT bo’yicha tarmoq kodi) mavjud bo’lsa, QQS stavkasi va summasi alohida ajratilgan, QQS to’lamaydiganlar bo’yicha “QQSsiz” belgisi qayd etilgan bo’lsa, bunday korxonalar qo’shimcha ravishda hisobvaraq-faktura yozmasligi kerak. Bunda “bajarilgan ishlar (qilingan xarajatlar) qiymati to’g’risidagi ma’lumotnoma - hisobvaraq-faktura” hisobvaraq-faktura bo’lib hisoblanadi.

6.9. Bojxona yuk deklaratsiyasida qo’shilgan qiymat solig’ini aks ettirish tartibi

Qo’shilgan qiymat solig’i (QQS)ni hisoblab chiqishda bojxona yuk deklaratsiyasi (BYUD)ning 47-ustuni quyidagi tartibda to’ldiriladi:

"Turi" kichik ustunida "29" - QQS kodi ko’rsatiladi;

"Hisoblab yozish asosi" kichik ustuniga soliq qonunchiligiga muvofiq hisoblab chiqarilgan, soliq solinadigan oborot summasidagi miqdor qayd etiladi;

"Stavka" kichik ustunida QQS stavkasi hajmi ko’rsatiladi;

"Summa" kichik ustunida hisoblab chiqarilgan va to’lanadigan QQS summasi ko’rsatiladi;

"TU" kichik ustunida to’lov usulining ikki belgili harfiy kodi ko’rsatiladi:

"bn" - bank orqali naqdsiz hisob-kitob;

"kt" - bojxona to’lovlari summasini naqd pulda to’lash;

"op" - bojxona to’lovlarini to’lash kechiktirildi;

"rp" - bojxona to’lovlarini bo’lib-bo’lib to’lash huquqi taqdim etildi;

"oo" - to’lov amalga oshirilmasligi kerak.

"Hisob-kitob qilish tafsilotlari" degan V ustunida to’lov kodi, to’lovning umumiy summasi, shuningdek QQS to’langanini tasdiqlaydigan to’lov hujjatlarining raqamlari va sanasi ko’rsatiladi.

BYUDning "To’lovlarni kechiktirish" degan 48 va "Preferentsiya" degan 36-ustunlari O’zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo’mitasi 1999 yil 24 sentyabrda tasdiqlagan Bojxona yuk deklaratsiyasini to’ldirish tartibi to’g’risida yo’riqnomaga (ro’yxat raqami 834, 3 noyabr 1999 yil) muvofiq to’ldiriladi.

Qisqacha xulosalar

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining tadrijiy rivojlanish jarayonlarida soliq solish tartibi va soliq munosabatlari uzluksiz ravishda o’zining takomillashish tavsifiga ega bo’lgan. Soliq munosabatlari tizimini bugungi soliq islohatlari talablari darajasida yanada samaraliroq tashkil etish va amalga oshirish, soliq sub’ektlari tomonidan undagi ayrim elementlar mexanizmini maqbul tartiblar asosida qabul qilish zaruriyatini ko’rsatadi.

Soliq munosabatlaridagi muhim soliq solish elementlari mexanizmidan biri, bu qo’shilgan qiymat solig’iga tortish mexanizmidir. Qo’shilgan qiymat solig’iga tortish mexanizmining samarali faoliyat ko’rsatishi uchun soliq sub’ektlarining

soliq qonunchiligi tartiblariga to'liq rioya qilgan holda faoliyat ko'rsatishlarini talab etadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Davlat byudjetini daromadlarini shakllantirishda qo'shilgan qiymat solig'i bilan to'ldirish g'oyasi qachon vujudga kelgan?
2. Qo'shilgan qiymat solig'i ilk bor qaerda va kim tomonidan qanday nom bilan joriy etilgan?
3. Bu soliq turi ilk bor qo'shilgan qiymat solig'i nomi bilan kim tomonidan qachon taklif qilingan?
4. Qo'shilgan qiymat solig'i ilk bor qachon va qaysi mamlakat soliq tizimiga soliq turi sifatida kiritilgan?
5. O'zbekiston Respublikasida qo'shilgan qiymat solig'i qachon joriy etilgan?
6. Mustaqil Davlatlar Xamdo'stligi davlatlarida qachondan boshlab qo'shilgan qiymat solig'i joriy etilgan?
7. Qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchilar bo'lib kimlar hisoblanadi?
8. Qo'shilgan qiymat solig'i nimani ifodalaydi?
9. Qo'shilgan qiymat solig'i solish ob'ektiga nimalar kiradi?
10. Soliq solinadigan aylanma qanday aniqlanadi?

VII bob. AKTSIZ SOLIG'I

7.1. Aktsiz solig'ini to'lovchilar

Aktsizlanadigan tovarlar ishlab chiqaradigan, mulkchilik shaklidan qat'i nazar, yuridik shaxslar aktsiz solig'i to'lovchilari hisoblanadi. Soliq solish maqsadida yuridik shaxslar deganda mulkida, xo'jalik yuritishida yoki tezkor bosh-qaruvida mol-mulki bo'lgan va o'z majburiyatlari bo'yicha ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, shuningdek mustaqil balans va hisob-kitob varag'iga ega bo'lgan alohida korxonalar ham tushuniladi.

Aktsiz to'lanadigan tovarlar olib kiruvchi, mulkchilik shaklidan qat'i nazar yuridik shaxslar, shuningdek jismoniy shaxslar aktsiz solig'ini to'lovchilar hisoblanadi. Bunda, agar qonun hujjatlarida boshqa narsa ko'zda tutilmagan bo'lsa, istalgan manfaatdor shaxs to'lovchi uchun bojxona to'lovlarini to'lashga haqlidir.

Aktsiz solig'i bilvosita soliq ko'rinishida byudjetga kiritiladigan (olinadigan), narxda va qo'shilgan qiymat solig'i solish bazasida hisobga olinadigan sof daromadning bir qismidir. Aktsiz solig'i stavkalari va aktsizlanadigan tovarlar ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi hamda belgilangan tartibda soliq to'lovchilarga O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasi tomonidan etkaziladi.

O'zbekiston Respublikasi hududiga yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan olib kiriladigan, aktsiz to'lanadigan tovarlarga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlariga ko'ra ro'yxatlar va stavkalar bo'yicha aktsiz solig'i solinadi.

Aktsiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha aktsiz solig'i bojxona xizmatlari tomonidan so'mlarda undiriladi va har 5 kunda respublika byudjetiga kirim qilinadi. Olib kiriladigan, aktsiz to'lanadigan tovarlarga aktsiz solig'ining hisobi va uning byudjetga kelib tushishi ustidan nazoratni O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona xizmatining hududiy boshqarmalari amalga oshiradi.

7.2. Aktsiz solig'ining soliq solish ob'ekti

Aktsizlanadigan tovarlar uchun soliq solish ob'ekti bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- aktsiz solig'ining qat'iy stavkalari belgilangan alkogolli mahsulot, tamaki mahsulotlari, o'simlik (paxta) yog'i, etil spirti, pivo, bo'yicha - sotilgan mahsulot hajmi natura ifodasida;
- boshqa aktsizlanadigan mahsulotlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ini hisobga olmasdan, yuklab jo'natilgan tovarning shartnomaviy narxlar bo'yicha qiymati (o'z ichiga aktsiz solig'i summasini oladi).

Tekinga beriladigan aktsizlanadigan mahsulot bo'yicha quyidagilar soliq solish ob'ekti bo'lib hisoblanadi:

1) aktsiz solig'ining qat'iy stavkalari belgilangan alkogolli mahsulot, tamaki mahsulotlari, o'simlik (paxta) yog'i, etil spirti, pivo, bo'yicha - sotilgan mahsulot hajmi natura ifodasida;

2) boshqa aktsizlanadigan mahsulotlar bo'yicha soliq to'lovchida tovarni berish paytida shakllangan narxlar darajasidan kelib chiqib hisoblangan, biroq mazkur aktsizlanadigan tovarni ishlab chiqarish bo'yicha haqiqatda shakllangan xarajatlardan past bo'lmagan qiymat.

Buyurtmachi tomonidan beriladigan xom ashyodan mahsulotga aktsiz solig'ini hisoblash chog'ida aktsiz solig'i solinadigan mahsulotni sotishga doir aylanma quyidagicha belgilanadi: aktsiz solig'ining qat'iy stavkalari belgilangan mahsulot bo'yicha tayyor mahsulotning fizik hajmidan kelib chiqib; boshqa mahsulotlar bo'yicha tayyor mahsulotni ishlab chiqarishga doir ishlar qiymatidan va buyurtmachi tomonidan beriladigan xom ashyo qiymatidan kelib chiqib.

O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kiriladigan tovarlar bo'yicha aktsiz solig'ini hisoblab chiqarish uchun soliq solish ob'ekti bo'lib bojxona yuk deklaratsiyasining 45-ustunida ko'rsatilgan, tovarning bojxona rasmiylashtiruvi paytida O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi bo'yicha so'mlarda qayta hisoblangan tovarning bojxona qiymati hisoblanadi.

7.3. Aktsiz solig'i bo'yicha belgilangan soliq imtiyozlari

Quyidagilarga aktsiz solig'i solinmaydi:

a) aktsizlanadigan tovarlarni eksportga etkazib berish, bundan ro'yxatini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydigan ayrim tovarlar mustasno;

b) salomas va "O'zbekiston" yog'ini ishlab chiqarishda foydalaniladigan paxta yog'ini etkazib berish;

v) xalq ta'limi va sog'liqni saqlash tizimining ehtiyojlari uchun O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan maxsus mebel.

Imtiyozlar taqdim etish uchun maxsus mebel deganda: davlat va nodavlat ta'lim va tibbiyot muassasalarini jihozlash uchun; bo'ysunishdagi ta'minot-sotish tashkilotlariga ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlarini jihozlash uchun sotiladigan mebel tushuniladi.

Mazkur imtiyoz ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlarini jihozlash uchun maxsus mebelni xarid qilishga tuzilgan kontraktlar (shartnomalar) mavjud bo'lganida taqdim etiladi.

Mazkur mebel boshqa iste'molchilarga sotilganda unga umumbelgilangan tartibda soliq solinadi.

"O'zbekiston Respublikasi hududiga aktsiz solig'i olinmaydigan tovarlarning jismoniy shaxslar tomonidan olib kirilishi bo'yicha belgilangan normalar"ga (1998 yil 13 mart, ro'yxat raqami 412 Me'yoriy hujjatlari axborotnomasi, 1998 yil, 3-son, 2002 yil, 2-son) ko'ra jismoniy shaxslar tomonidan olib kiriladigan, aktsiz solig'iga tortiladigan tovarlarga nisbatan aktsiz solig'i tatbiq etilmaydi.

7.4. Aktsiz solig'i stavkalari va hisoblash tartibi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 18 dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining 2007 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari

prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-532–son qaroriga muvofiq 2007 yilda O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan aktsizli tovarlarga nisbatan aktsiz solig'i stavkalari quyidagi miqdorlarda belgilangan (5-jadval):

5-jadval

O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan aktsizli tovarlarga nisbatan aktsiz solig'i stavkalari (2007 yil)

Tovarlar nomi	Soliq stavkasi	
	aktsiz solig'ini hisobga olgan holda sotish narxlarida tovarlar qiymatiga nisbatan foizlarda	bir o'lchov birligiga so'mlarda
1. Etil spirti (1 dal. uchun)		3031
2. Quvvatlantirilmagan vino (1 litr tayyor mahsulot uchun) (1)		5230
4. Boshqa vinolar (suv qo'shilmagan 1 litr etil spirti uchun) (1)		5728
5. Konyak (brendi) (suv qo'shilmagan 1 litr spirt uchun) (1)		26160
6. Aroq va boshqa alkogolli mahsulotlar (suv qo'shilmagan etil 1 litr spirti uchun) (1)		26160
7. Tarkibida foizlarda hajmiy ulushda etil spirti (alkogol) bor pivo (1 litr mahsulot uchun) (1):		2975
8. O'simlik (paxta) yog'i (1 tonna uchun) (1):		
oziq-ovqat yog'i (salomas va "O'zbekiston" yog'ini ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan yog'dan tashqari);		796059
Texnik moy (kislota miqdori 0,3 mg KON/g dan yuqori, oziq-ovqat mahsulotlari tarkibiga qo'shishga yaroqsiz bo'lgan)		437899
9. Filtrli sigaretalar (1 ming dona uchun) (1):		
yumshoq o'ramda		-
qattiq o'ramda		13424
10. Filtrsiz sigaretalar, papiroslar (1 ming dona uchun)		6479
11. Zargarlik buyumlari	25	
12. "O'zDEUavto" AJ ishlab chiqargan avtomobillar (2)	29	
13. Kumushdan ishlangan oshxona anjomlari	11	
14. Neft mahsulotlari:		
15. Tabiiy gaz (2)	25	
16. Ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan sotiladigan suyultirilgan gaz ("O'ztransgaz" AK mintaqalararo unitar korxonalari tomonidan aholiga sotiladigan gaz hajmi bundan mustasno) (2)	26	

O’zbekiston Respublikasi hududiga chetdan keltiriladigan aktsizlanadigan tovarlarga aktsiz solig’i stavkalari miqdorlarining to’liq ro’yxati o’quv qo’llanmaning ilovalar qismida keltirilgan (6-ilova).

Qat’iy miqdorlarda belgilangan aktsiz solig’i stavkalari O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan narxlarning dinamikasi hamda mahsulotning sotilishi hajmidan kelib chiqqan holda yil mobaynida qayta ko’rib chiqilishi mumkin.

"O’zDEUavto" AJ avtomobillari, tabiiy va suyultirilgan gazga aktsiz solig’ini to’lovchilar va uni to’lash tartibi O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan O’zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo’mitasi bilan kelishilgan holda belgilanadi.

Qimmatbaho metallarga doir aktsiz solig’ini to’lovchilar, uning stavkalari va to’lash tartibi O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadi.

Aktsiz solig’i summasi quyidagi formulalar bo’yicha aniqlanadi:

Suvsiz etil spirtining 1 litri uchun aktsiz solig’ining qat’iy stavkalari belgilangan mahsulot bo’yicha mahsulot birligiga alkogolli mahsulot (kam spirtli vino, shampan vinosidan tashqari)

$$(F \times A) / 100,$$

bunda:

F - tayyor mahsulot tarkibidagi spirt (o’tkirligi), foizlarda (undan spirt tayyorlangan xom ashyo turidan qat’i nazar);

A - aktsiz solig’ining qat’iy stavkasi, o’lchov birligiga so’mlarda.

Tayyor mahsulot birligiga aktsiz solig’ining qat’iy stavkalari belgilangan mahsulot bo’yicha (kam spirtli vino, shampan vinosi, etil spirti, pivo, o’simlik (paxta) yog’i va tamaki mahsulotlari)

$$S \times A,$$

bunda:

S - tegishli o’lchov birliklarida sotilgan mahsulotning fizik hajmi;

A - aktsiz solig’ining qat’iy stavkasi, o’lchov birligiga so’mlarda.

Boshqa aktsizlanadigan mahsulotlar bo’yicha

$$(O \times A) / 100,$$

bunda:

O - o’z ichiga aktsiz solig’ini oladigan narx, QQSsiz;

A - aktsiz solig’i stavkasi, foizlarda.

Aktsiz markalari bilan markalangan tovarlar bo’yicha aktsiz solig’i belgilangan tartibda hisoblab chiqiladi. Bunda aktsiz markalarining nominal qiymati aktsiz solig’ini to’lash hisobiga kiritilmaydi.

Alkogolli mahsulot bo’yicha aktsiz solig’i summasi quyidagi tartibda hisoblanadi:

(1 litr uchun)

№	Ko’rsatkichlar	Konyak	Aroq	Quvvatlantirilmagan vino
1.	Tayyor mahsulot tarkibida bo’lgan spirt hajmi (%)	42	40	

2.	Aktsiz solig'i stavkasi			
a)	(suvsiz etil spirtining 1 litriga so'mda)	4 000,0	2 660,0	-
b)	(tayyor mahsulotning 1 litriga so'mda)	-	-	273,9
3.	Hisoblab yozilgan aktsiz solig'ining summasi			
a)	(1-satr x 2a-satr / 100) (tayyor mahsulotning 1 litri uchun so'mda)	1 680,0	1 064,0	
b)	(2b-satr) (tayyor mahsulotning 1 litri uchun so'mda)	-	-	273,9

Masalan, 10 ming dal aroq sotilganida aktsiz solig'ining hisoblab yozilgan summasi (spirt bo'yicha aktsiz solig'ini hisobga kiritmasdan) quyidagi miqdorni tashkil etadi: 1064 x 100000 = 106,4 mln so'm.

Stavkalari foizlarda belgilangan aktsizlanadigan mahsulot bo'yicha aktsiz solig'i quyidagi tartibda hisoblanadi:

Aktsiz solig'i summasining hisob-kitobi uchun aktsizni o'z ichiga oladigan narx quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$O = (S \times 100) / 100 \quad A,$$

bu erda:

O - QQSsiz aktsiz solig'ini o'z ichiga oladigan narx;

S - korxonaning hisob-kitob (ulgurji) narxi (me'yoriy xarajatlar va foyda me'yori);

A - aktsiz solig'i stavkasi.

Aktsiz solig'i summasi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$O \times A / 100$$

1.	Mahsulot birligining tannarxi	So'm	1 500,0
2.	Zarur foyda	So'm	100,0
3.	Mahsulotning hisob-kitob (ulgurji) narxi (1-satr + 2-satr)	So'm	1 600,0
4.	Aktsiz solig'i stavkasi	%	20
5.	Aktsiz solig'i bilan mahsulotning narxi (QQSsiz) (3-satr x 100) / (100 4-satr)	So'm	2 000,0
6.	Aktsiz solig'ining summasi (5-satr - 3-satr)	So'm	400,0

Aktsiz solig'i summasi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$S \times A/100,$$

bu erda:

S - bojxona qiymati;

A - aktsiz solig'i stavkasi.

Alkogolli va tamaki mahsulotlariga aktsiz solig'ini hisoblab chiqarish uchun soliq solinadigan oborot quyidagi formula bo'yicha belgilanadi:

$$O = S \times 100/ (100-A),$$

bu erda:

O - soliq solinadigan oborot;

S - bojxona qiymati;

A - aktsiz solig'i stavkasi.

Aktsiz solig'i summasi quyidagi formula bo'yicha belgilanadi:

O x A/100,

bu erda:

O - soliq solinadigan oborot;

A - aktsiz solig'i stavkasi.

Markalanadigan, olib kiriladigan tamaki mahsulotlariga aktsiz solig'ini hisoblash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

Tovarning nomlanishi	Maxsulot birligi uchun narxi, AQSH doll.	1 mln. dona uchun bojxona qiymati	Aktsiz stavkalari va summasi		
			Oborot	Stavka	Summa
Filtrli sigaretalar	0,02	25,0 ming. AQSH doll.			
Kurs 1:700		17500 ming.so'm	35000 ming so'm	50 %	17500 ming so'm

Bojxona qiymatiga tashish, yuklash, yuklab tushirish, qayta yuklash va qayta tushirish xarajatlari, sug'urta summasi va hokazolar kiritilgan;

Stavka aktsizni o'z ichiga oladigan narxga, ya'ni soliq solinadigan oborotga nisbatan qo'llanadi;

Soliq solinadigan oborot = (17500 x 100)/ (100 - 50) = 35000;

Aktsiz summasi = 35 000 x 50 : 100 = 17500.

Olib kiriladigan, aktsiz to'lanadigan alohida turdagi tovarlar bo'yicha aktsiz solig'i summasi tovarning bojxona qiymatidan foizlarda yoki bir birlik o'lchovi uchun AQSH dollarlarida belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida to'langan xom-ashyodan (mahsulotdan) aktsizlanadigan tovar ishlab chiqarilgan taqdirda, xom-ashyo (mahsulot) bo'yicha to'langan aktsiz solig'i summasi ishlab chiqarish xarajatlariga kiritilmaydi, balki tayyor mahsulotning sotilgan hajmi bo'yicha byudjetga to'lanadigan aktsiz solig'i summasini aniqlash chog'ida hisobga olinishi kerak.

Hisobga olinadigan aktsiz solig'i summasi ustidan nazoratni amalga oshirish uchun aktsizlanadigan xom-ashyo (mahsulot) etkazib beruvchilar hisobvaraq-fakturalarda yuklab jo'natilgan xom ashyo (mahsulot) bo'yicha aktsiz solig'i summasini ajratib ko'rsatishlari kerak.

Agar xarid qilinayotgan aktsizlanadigan xom-ashyo (mahsulot) bo'yicha aktsiz solig'i summasi hisobvaraq-fakturada ajratib ko'rsatilmagan bo'lsa, u hisob-kitob yo'li bilan hisoblab chiqarilmaydi va tayyor mahsulot bo'yicha hisobga olinmaydi.

Keyinchalik hisobga olinadigan, xarid qilinadigan aktsizlanadigan xom ashyo (mahsulot) bo'yicha aktsiz solig'i summasi alohida ochiladigan "Xarid qilinadigan aktsizlanadigan xom-ashyo (mahsulot) bo'yicha aktsiz solig'i" hisobvarag'ida hisobga olinadi va byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzlarni hisobga olish

hisobvarag'ining debetiga sotilgan mahsulot (soliq solinadigan aylanma) hajmiga to'g'ri keladigan hissada hisobdan chiqariladi.

Alkogolli mahsulot bo'yicha hisobga kiritish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1.	Aroq ("YUbiley" arog'i) tarkibidagi spirtning hajmi (%)	40
2.	Aroqqa ("YUbiley" arog'i) doir aktsiz solig'ining stavkasi (suvsiz etil spirtining 1 litriga so'mda)	2 660
	a) shu jumladan "O'zvinosanoat-xolding" XK maxsus hisobvarag'iga yo'naltiriladigan aktsiz solig'ining summasi	60
3.	Aktsiz solig'ining summasi: (1 dal aroq uchun so'mda)	
	a) tayyor mahsulotga hisoblab yozilgan (2-satr x 1-satr / 100*10)	10 640
	b) "O'zvinosanoat-xolding" XK maxsus hisobvarag'iga yo'naltiriladigan (2a-satr x 1-satr / 100*10)	240
4.	Etil spirti uchun aktsiz solig'ining stavkasi (1 dal spirt uchun so'mda)	1410
5.	Hisobga kiritiladigan 1 dal tayyor mahsulotni ishlab chiqarish uchun foydalanilgan spirtga doir aktsiz solig'ining summasi (4-satr x 1-satr / 100) (1 dal aroq uchun so'mda)	564
6.	Byudjetga to'lanadigan aroq bo'yicha aktsiz solig'ining summasi (3a-satr - 3b-satr - 5-satr) (1 dal tayyor mahsulot uchun so'mda)	9836

Majburiy ravishda markalanadigan, olib kiriladigan aktsiz to'lanadigan tovarlarga aktsiz solig'ini to'lovchilar aktsiz markalarini xarid qilish chog'ida kontrakt (bayonot berilgan) qiymatidan hisoblangan aktsiz solig'i summasining 100 foizini to'laydilar, bunda aktsiz markalarining nominal qiymati aktsiz solig'i summasidan ortiq miqdorda to'lanadi, mablag'lar belgilangan tartibga ko'ra respublika byudjetiga kirim qilinadi. Markalangan, aktsiz to'lanadigan tovarlar olib kirilganda aktsiz solig'i summasi bojxona qiymatidan kelib chiqib qayta hisoblanadi.

Bojxona yuk deklaratsiyasini to'ldirish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

To'lanadigan aktsiz solig'i summasini hisoblab chiqarish bojxona yuk deklaratsiyasi va unga doir qo'shimcha varaqlarda quyidagi chizma bo'yicha amalga oshiriladi.

47-"Turi" ustunining birinchi kichik ustunida "olib kiriladigan tovarlarga aktsiz" to'lovining shifri - 27 ko'rsatiladi.

"Hisoblab chiqarish asosi" ustunining ikkinchi kichik ustuniga kiritiladi:

- soliq solinadigan oborot bo'lgan, aktsiz solig'i summasini aniqlash formulalari bo'yicha hisoblangan qiymat. Agar mahsulotga AQSH dollarlarida aktsiz solig'i belgilangan bo'lsa, mazkur ustunga chiziq chizib qo'yiladi.

- "Stavka" ustunining uchinchi kichik ustunida aktsiz solig'ining stavkasi ko'rsatiladi. "Summa" ustunining to'rtinchi kichik ustunida to'lanadigan aktsiz solig'i summasi ko'rsatiladi.

"TU" ustuni kichik ustunida to'lov usulining ikki belgili harfiy kodi ko'rsatiladi:

"bn" - bank orqali naqdsiz hisob-kitob;

"kt" - bojxona to'lovlari summasini naqd pul bilan to'lash;

"op" - bojxona to'lovlarini to'lashni kechiktirish huquqi berilgan;

"rp" - bojxona to’lovlarini bo’lib-bo’lib to’lash huquqi berilgan;

"oo" - to’lov amalga oshirilmasligi kerak.

"Hisoblash tafsilotlari" degan V ustunida to’lov kodi, to’lovning umumiy summasi, shuningdek aktsiz solig’i to’langanini tasdiqlaydigan to’lov hujjatlarining tartib raqamlari va sanasi ko’rsatiladi.

O’zbekiston Respublikasi hududiga olib kiriladigan, aktsiz to’lanadigan tovarlar bo’yicha aktsiz solig’ini to’lash boshqa bojxona to’lovlarini to’lashdan oldin yoki u bilan bir vaqtda amalga oshiriladi. To’ldirilgan BYUD bilan birga taqdim etilgan, to’lashga qabul qilinganligi to’g’risida bank belgisi bo’lgan to’lov topshiriqnomasi to’lovchi tomonidan aktsiz solig’i to’langanini tasdiqlaydi.

O’zbekiston Respublikasi hududiga olib kiriladigan tovarlarga aktsiz solig’ining summasi respublika byudjetiga kirim qilinadi.

Davlat bojxona qo’mitasi hududiy bojxona boshqarmalarining qaroriga ko’ra to’lovchiga, O’zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo’mitasi tomonidan 1999 yil 16 martda 03/8-78-son bilan tasdiqlangan Bojxona to’lovlarini kechiktirib yoki bo’lib-bo’lib to’lashni taqdim etish to’g’risidagi yo’riqnomaga (ro’yxat raqami 697, 1999 yil 8 aprel) muvofiq tovarlarning bojxona rasmiylashtiruvi sanasidan boshlab 2 oydan oshmaydigan muddatga aktsiz solig’ini kechiktirib yoki bo’lib-bo’lib to’lash taqdim etilishi mumkin.

To’lovchilar tomonidan O’zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligiga muvofiq sotishning haqiqiy hajmidan kelib chiqib hisoblab chiqarilgan aktsiz solig’i summasi byudjetga quyidagi muddatlarda to’lanadi:

1. Joriy oyning 13-kunidan kechiktirmay - joriy oyning birinchi o’n kunligi uchun;

2. Joriy oyning 23-kunidan kechiktirmay - joriy oyning ikkinchi o’n kunligi uchun;

3. Keyingi oyning 3-kunidan kechiktirmay - hisobot oyining qolgan kunlari uchun.

Tovarga ilova qilinadigan hujjatlarda ko’rsatilgan mahsulot yuklab jo’natilgan kun sotish kuni bo’lib hisoblanadi.

O’n kunlik to’lovlar bo’yicha aktsiz solig’ining kelib tushgan summasi Davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliq to’lovchilarning shaxsiy hisobvaraqlarida bir vaqtda soliqni “Hisoblab yozish” va “To’lash” ustunlarida aks ettiriladi.

Aktsiz solig’i bo’yicha hisob-kitob ro’yxatdan o’tkazilgan joydagi davlat soliq xizmati organlariga taqdim etiladi: korxonalar tomonidan (mikrofirmalar va kichik korxonalardan tashqari) - hisobot oyidan keyingi oyning 20-kunidan kechiktirmasdan har oyda; mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan - birinchi chorak, yarim yillik va 9 oy yakunlari bo’yicha, o’n kunliklarga taqsimlagan holda, hisobot choragidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmasdan, yil yakunlari bo’yicha esa - yillik moliyaviy hisobotni taqdim etish muddatida.

Dam olish (ishlanmaydigan) yoki bayram kuniga to’g’ri keladigan aktsiz solig’ini to’lash muddatlari, tegishincha, hisob-kitobni taqdim etish muddatlari ham dam olish yoki bayram kunidan keyingi birinchi ish kuniga ko’chiriladi.

Hisobot davri mobaynida o'n kunlik to'lovlar bilan kiritilgan aktsiz solig'i summalari tegishli hisobot davri uchun hisob-kitob bo'yicha hisoblab chiqarilgan soliq summasida hisobga olinishi kerak.

Ortiqcha kiritilgan aktsiz solig'i summalari bo'lg'usi to'lovlar hisobiga kiritiladi yoki uning yozma arizasi olingan kundan boshlab Davlat soliq xizmati organi tomonidan 30 kun ichida to'lovchiga qaytariladi (agar byudjetga to'lovlar bo'yicha qarz mavjud bo'lmasa). Ortiqcha kelib tushgan aktsiz solig'i summasi o'ttiz kun ichida qaytarilishi yoki kelgusi to'lovlar hisobiga kiritilishi kerak.

Ular to'langan yoki undirilgan paytdan boshlab bir yil davomida to'lovchi ortiqcha to'langan yoki undirilgan aktsiz solig'i summalari qaytarilishini talab qilib, murojaat etishi mumkin.

Ortiqcha to'langan aktsiz solig'i summalarini qaytarish bojxona organlariga quyidagi hujjatlarni taqdim etish bilan amalga oshiriladi:

1. To'lovchining yozma arizasi, unda ortiqcha to'lash yoki undirish sabablari ko'rsatiladi, shuningdek pul mablag'lari qaytarilishi kerak bo'lgan to'lovchining bank rekvizitlari beriladi;
2. Aktsiz solig'ini hisoblab chiqarish va undirish uchun asos bo'lgan bojxona yuk deklaratsiyasi;
3. Ijrosi to'g'risida bank belgisi qo'yilgan, aktsiz solig'ining tegishli summalarini to'lashga oid to'lov hujjati;
4. Tovarlar (ishlar, xizmatlar) chegaradan haqiqatda olib o'tilgani to'g'risida chegara bojxonasining belgisi qo'yilgan (zarur hollarda) tovarga ilova qilinuvchi hujjatlar.

Ortiqcha to'langan aktsiz solig'i summalarini qaytarish umumiy tushumlar hisobiga amalga oshiriladi. Ortiqcha to'langan aktsiz solig'i summalarini qaytarishning boshqa qoidalari O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi tomonidan 2000 yil 29 iyunda 02/8-27-son bilan tasdiqlangan Ortiqcha to'langan yoki undirilgan bojxona to'lovlarini qaytarish to'g'risida yo'riqnoma (ro'yxat raqami 947, 2000 yil, 14 iyul, Me'yoriy hujjatlar axborotnomasi, 2000 yil, 13-son)ga binoan tartibga solinadi.

Aktsiz solig'i bo'yicha byudjet bilan hisob-kitoblar hisobi byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzlarni hisobga olish hisobvaraqlarida yuritiladi. Aktsiz solig'ining byudjetga kiritiladigan hisoblab chiqarilgan summasi xaridorlar va buyurtmachilardan olinadiganlarni hisobga olish hisobvarag'i debeti hamda byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzlarni hisobga olish hisobvarag'i krediti bo'yicha aks ettiriladi. Byudjetga aktsiz solig'i summasini to'lash byudjetga to'lovlarga doir qarzlarni hisobga olish hisobvarag'i debeti bo'yicha pul mablag'larini hisobga olish hisobvaraqlari bilan korrespondentsiyada aks ettiriladi.

Aktsiz markalarini xarid qilish chog'ida boshqa joriy aktivlarni hisobga olish hisobvarag'i debeti va pul mablag'larini hisobga olish hisobvarag'i krediti bo'yicha buxgalteriya yozuvi amalga oshiriladi.

Mahsulotni markalash uchun aktsiz markalaridan foydalanishga qarab buxgalteriya yozuvi amalga oshiriladi: davr xarajatlarini hisobga olish hisobvarag'i debeti va boshqa joriy aktivlarni hisobga olish hisobvarag'i krediti.

Soliq to'lovchilar aktsiz solig'ining to'g'ri hisoblab chiqarilishi va o'z vaqtida to'lanishi uchun O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar. Aktsiz solig'ining to'g'ri hisoblanishi va o'z vaqtida to'lanishi uchun javobgarlik to'lovchilar va deklarantlar zimmasiga yuklanadi.

To'lovchi tomonidan aktsiz solig'i bo'yicha byudjet oldidagi majburiyatlar bajarilmagan taqdirda bojxona xizmatlari tegishli summalarni, shuningdek muddati kechiktirilgan har bir kun uchun, qonun hujjatlariga muvofiq undirish kuni ham qo'shiladi, 0,5 foiz miqdorida penyalarni undiradilar.

Olib kiriladigan tovarlar bo'yicha undiriladigan aktsiz soliqlarining byudjetga kirim qilinishi ustidan nazoratni bojxona organlari amalga oshiradi.

7.5. Alohida tovarlar bo'yicha byudjetga to'lanadigan aktsiz solig'ini hisoblab chiqishning xususiyatlari

Alkogolli mahsulot bo'yicha:

a) Alkogolli mahsulot bo'yicha byudjetga to'lanadigan aktsiz solig'i summasi belgilangan stavkalar bo'yicha hisoblab yozilgan soliq summasi bilan "O'zvinosanoat-xolding" xolding kompaniyasini rekonstruktsiya qilish va rivojlantirish jamg'armasi hisobvarag'iga o'tkaziladigan soliq summasi o'rtasidagi farq sifatida belgilanadi.

Tegishli hisobot choragi uchun korxona bo'yicha hamda umuman respublika bo'yicha alkogolli mahsulot bo'yicha aktsiz solig'ining belgilangan xomcho'tlari bajarilmaganda yoki ko'rsatilgan soliq turi bo'yicha boqimanda mavjud bo'lganda "O'zvinosanoat-xolding" XK maxsus hisobvarag'i o'tkazilishi lozim bo'lgan soliqning bir qismi yoki hamma summasi xomcho'tga etmaydigan summa miqdorida byudjetga o'tkaziladi va soliq to'lovchining shaxsiy hisobvarag'ida hisoblangan soliq summasi sifatida aks ettiriladi.

Aktsiz solig'ini "O'zvinosanoat-xolding" XK maxsus hisobvarag'iga to'lash tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Alkogolli mahsulot bo'yicha byudjetga to'lanadigan aktsiz solig'i quyidagi tartibda hisoblanadi:

(1 litr uchun)

№	Ko'rsatkichlar	Konyak	Aroq	Quvvatlantirilmagan vino
1.	Tayyor mahsulot tarkibida bo'lgan spirt hajmi (%)	42	40	
2.	Aktsiz solig'i stavkasi			
a)	(suvsiz etil spirtining 1 litriga so'mda)	4 000,0	2 660,0	-
b)	(tayyor mahsulotning 1 litriga so'mda)	-	-	273,9
3.	Hisoblab yozilgan aktsiz solig'ining summasi			
a)	(1-satr x 2a-satr/100)(tayyor mahsulotning 1 litri uchun so'mda)	1 680,0	1 064,0	
b)	(2b-satr) (tayyor mahsulotning 1 litri uchun so'mda)	-	-	273,9
4.	"O'zvinosanoat-xolding" XK maxsus hisobvarag'iga yo'naltiriladigan aktsiz solig'ining stavkasi			
a)	(suvsiz etil spirtining 1 litriga so'mda)	60,0	60,0	-

b)	(tayyor mahsulotning 1 litriga so'mda)	-	-	12,0
5. a)	"O'zvinosanoat-xolding" XK maxsus hisobvarag'iga yo'naltiriladigan aktsiz solig'ining stavkasi (1-satrx4a-satr/100)(tayyor mahsulotning 1 litri uchun so'mda)	25,2	24,0	-
b)	(4b-satr) (tayyor mahsulotning 1 litri uchun so'mda)	-	-	12,0
6.	Byudjetga to'lanadigan aktsiz solig'ining summasi			
a)	(3a-satr - 5a-satr) (tayyor mahsulotning 1 litri uchun so'mda)	1 654,8	1 040,0	-
b)	(3b-satr - 5b-satr) (tayyor mahsulotning 1 litri uchun so'mda)	-	-	261,9

Masalan, 10 ming dal aroq sotilganida aktsiz solig'ining hisoblab yozilgan summasi (spirt bo'yicha aktsiz solig'ini hisobga olmasdan) quyidagi miqdorni tashkil etadi: 1064 x 100000 = 106,4 mln so'm, shu jumladan undan:

"O'zvinosanoat-xolding" XK maxsus hisobvarag'iga o'tkaziladigani: (24,0 x 100000) = 2,4 mln so'm;

byudjetga to'lanadigani: (1040 x 100000) = 104 mln so'm.

O'simlik (paxta) yog'i bo'yicha:

b) Belgilangan tartibga muvofiq, oziq-ovqatda ishlatiladigan o'simlik (paxta) yog'i bo'yicha, bundan salomas va "O'zbekiston" yog'ini ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan yog' mustasno, byudjetga to'lanadigan aktsiz solig'ining summasi bo'lib umumbelgilangan stavka bo'yicha hisoblab chiqilgan soliq summasi bilan maxsus hisobvaraqqa o'tkaziladigan soliq summasi o'rtasidagi farq hisoblanadi. Bunda aktsiz solig'i summasi, korxona tomonidan belgilangan prognoz ko'rsatkichlari bajarilgan va o'simlik (paxta) yog'i bo'yicha aktsiz solig'iga doir boqimandalar mavjud bo'lmagan taqdirda, maxsus hisobvaraqqa yo'naltiriladi. Maxsus hisobvaraqqa o'tkaziladigan aktsiz solig'ining miqdori O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Tozalangan o'simlik (paxta) yog'i ishlab chiqaradigan korxonalar ularga xizmat ko'rsatadigan bankda belgilangan miqdorda hisoblab chiqarilgan aktsiz solig'ini to'lash bo'yicha alohida hisobvaraq ochadilar, u korxonaning ko'rsatilgan hisobvarag'iga har o'n kunda, aktsiz solig'ini to'lash muddatlaridan kechiktirmay o'tkaziladi.

Davlat soliq xizmati tuman organlarining rahbarlari korxonalarga biriktirilgan moliya inspektorlari bilan hamkorlikda, ular bo'lmagan taqdirda esa tuman (shahar) hokimiyatlarining moliya bo'limlari rahbarlari bilan hamkorlikda hisobot oyining yakunlari bo'yicha, hisobot oyidan keyingi oyning 3-kunidan kechiktirmay, aktsiz solig'i bo'yicha boqimanda yoki ortiqcha to'lov summasini aniq ko'rsatgan holda prognoz ko'rsatkichlarining bajarilganligi to'g'risida dalolatnoma tuzadilar.

Aktsiz solig'i bo'yicha prognoz ko'rsatkichlari bajarilgan va unga doir boqimanda bo'lmagan taqdirda korxonaning maxsus hisobvarag'ida to'plangan summa dalolatnoma asosida hisobot oyidan keyingi oyning 5-kunidan kechiktirmay maxsus hisobvaraqqa o'tkaziladi. Belgilangan prognoz

ko'rsatkichlari bajarilmagan yoki aktsiz solig'i bo'yicha boqimanda bo'lmagan taqdirda etishmayotgan summa dalolatnoma asosida korxona hisobvarag'ida to'plangan summa hisobiga byudjetga undiriladi, to'plangan summaning qolgan qismi esa maxsus hisobvaraqqa o'tkaziladi.

O'simlik (paxta) yog'i ishlab chiqaruvchi korxonalarning maxsus hisobvaraqlarida to'plangan pul mablag'lari qat'iyan maqsadga ko'ra ishlatiladi, ya'ni maxsus hisobvaraqqa o'tkaziladi.

Soliq solishdan bo'shatib olingan mablag'lardan maqsadga ko'ra foydalanilmaganda korxonalar qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

Har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 6-kunidan kechiktirmay, maxsus hisobvaraqda to'plangan mablag'lar konvertatsiyaga yo'naltiriladi. Konvertatsiyalangan mablag'lar ikki bank kuni mobaynida hukumat kafolati bilan jalb etilgan kreditlarni so'ndirishga yo'naltirilishi kerak. Soliq solishdan bo'shatib olingan mablag'lardan maqsadga ko'ra foydalanilmaganda korxonalar qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladi.

Har chorakda, hisobot choragidan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga belgilangan miqdorda hisoblab chiqarilgan aktsiz solig'ining kelib tushishi va ko'rsatilgan mablag'larni kreditlarni so'ndirishga yo'naltirish to'g'risida hisobot taqdim etiladi.

Aktsiz solig'ini o'tkazishning belgilangan tartibiga rioya etilishi ustidan nazorat qilish Qoraqalpog'iston Respublikasi moliya vaziri, viloyatlar va Toshkent shahar moliya boshqarmalarining boshliqlari, Davlat soliq xizmati hududiy organlarining rahbarlari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining o'simlik yog'i ishlab chiqaruvchi korxonalarga biriktirilgan moliya inspektorlari zimmasiga yuklanadi.

O'simlik (paxta) yog'i bo'yicha byudjetga to'lanadigan aktsiz solig'i quyidagi tartibda hisoblanadi:

№	Ko'rsatkich nomi	O'lchov birligi	Summasi
1.	Korxonaning hisob-kitob (ulgurji) narxi (me'yoriy xarajatlar va foyda me'yori)	1 tonna uchun so'mda	182900
2.	Aktsiz solig'i: a) umumbelgilangan stavkada	1 tonna uchun so'mda	495000
	b) byudjetga to'lanadigani	1 tonna uchun so'mda	440550
	v)"YOg'moytamakisanoat" uyushmasiga o'tkaziladigani (2a-satr - 2b-satr)	1 tonna uchun so'mda	54450

Qisqacha xulosalar

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, soliqqa tortish tizimiga ko'ra aktsiz solig'i bilvosita soliqlardan hisoblanib, mahsulot, tovar bahosi tarifiga ustama shaklda qo'yilib, iste'mol mahsulotining bahosining yuqori bo'lishiga narx-navoni o'sishiga bevosita ta'sir etadi. Aktsizlar - tovarlar uchun qo'yiladigan bilvosita soliqlarning bir turi bo'lib, qo'shilgan qiymat solig'idan farqli ma'lum bir chegaralangan tur va guruhdagi mahsulotlarning narxiga qo'shiladi. Aktsizlar qadimda barcha davlatlar byudjeti daromadlarini shakllantirishda munosib xissa qo'shib kelgan. CHunki aktsizlar orqali davlat zarurati uchun zarur bo'lgan

moliyaviy mablag'lar tez va oddiy soliqqa tortish mexanizmi orqali undirish imkoniyati mavjud bo'lgan.

O'zbekiston Respublikasi soliq tizimida aktsizlar davlat moliyaviy resurslarining shakllanib borishida asosiy o'rin tutadi. Alohida tovarlardan aktsiz solig'ini undirish zarurligi ulardan davlat byudjetini daromadlarini shakllantirishning qo'shimcha manbai sifatida foydalanishdan tashqari, alohida iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni davlat tomonidan tartibga solish uchun zarurligidir.

Bilvosita soliqlar xususan, aktsiz solig'i davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda asosiy soliqlardan bir bo'lib, davlat byudjeti daromadlari tarkibida eng yuqori soliq tushumlari ushbu soliqlardan tashkil topadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Aktsiz tushunchasi qanday ma'noni anglatadi?
2. O'zbekiston Respublikasida aktsiz solig'i qachon joriy etilgan?
3. Aktsiz solig'ini to'lovchilar bo'lib kimlar hisoblanadi?
4. Aktsiz solig'i solish ob'ektiga nimalar kiradi?
5. Aktsiz solig'i bo'yicha qanday soliq imtiyozlari mavjud?
6. Aktsiz solig'i stavkalari va hisoblash tartibi qanday?
7. Aktsiz solig'i summasi byudjetga qanday muddatlarda to'lanadi?
8. Aktsiz solig'ini respublika byudjetiga o'tkazish tartibi qanday?
9. Bojxona yuk deklaratsiyasida aktsiz solig'ini aks ettirish tartibi qanday?

Asosiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi. Respublika Axborot-Maslahat markazi. -T.: 2006.
2. Karimov I.A. YAngilanish va barqaror taraqqiyot yo'lidan yanada izchil harakat qilish, xalqimiz uchun farovon turmush sharoiti yaratish-asosiy vazifamizdir. Vatanparvar. 2007 y. 16 fevral. 2 b. № 7 (2186)
3. YUtkina G.F. Nalogi i nalogooblojeniya: Uchebnik. – 5-e izd., pererab. i dop. – M.: INFRA-M, 2006. – 509 s.
4. Sbornik zadach po nalogam i nalogooblojenie: Uchebnoe posobie. / M.V. Vladыka, V.F. Tarasova, T.V. Saprыkina; pod obщ. Red. V.F.Tarasovoy. – M.: KNORUS, 2006. – 360 S.
5. Nalogi i nalogooblojenie: kurs-minimum, reshenie zadach. – M.: Ekonomist, 2006. – 336 s.
6. Praktikum po nalogam i nalogooblojenie: Uchebnoe posobie / kol.avt.; pod red. Prof. L.I.Goncharenko. – M.: KNORUS, 2006. – 208 s. 2 ekz.
7. O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligida 1325-son bilan ro'yxatga olingan, «O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan tovarlar bo'yicha yuridik shaxslar tomonidan aktsiz solig'ini hisoblab chiqish va to'lash tartibi to'g'risida»gi Yo'riqnoma., 15.03.2004 y.
8. O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligida 1101-son bilan ro'yxatga olingan, «YUridik va jismoniy shaxslar tomonidan O'zbekiston Respublikasi

xududiga olib kiriladigan aloxida turdagi tovarlar bo'yicha aktsiz solig'ini to'lash tartibi to'g'risida»gi Yo'riqnoma 05.03.2002 y.
9. Zavalishina I.A. Soliqlar: nazariya va amaliyot. - T.: "Iqtisodiyot va huquq dunyosi" nashriyot uyi, 2005. 160-175 b.
10. YAhyoev Q. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. -T.: "Fan va texnologiyalar markazi", 2003. 88-94 betlar.
11. "Norma" AXT ekspertlari tomonidan tayyorlangan tushuntirishlar.

VIII bob. YURIDIK SHAXSLARDAN OLINADIGAN MOL-MULK SOLIG'I

8.1. YUridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ini to'lovchilar

Soliq solinadigan mol-mulkka ega bo'lgan yuridik shaxslar mol-mulk solig'i to'lovchilardir.

Soliq solish maqsadida yuridik shaxslar deganda mulkida, xo'jalik yuritishida yoki tezkor boshqaruvida mol-mulk bo'lgan va o'z majburiyatlari bo'yicha mol-mulki bilan javob beradigan, shu jumladan mustaqil balans va hisob-kitob varag'iga ega alohida bo'linmalar tushuniladi.

Soliq solishning alohida tartibi o'rnatilgan ayrim toifadagi to'lovchilarga, agarda ularda qonun hujjatlariga muvofiq mol-mulk solig'ini to'lash bo'yicha majburiyatlar vujudga kelmasa, tatbiq etilmaydi.

Bunda, agar soliq solishning alohida tartibi o'rnatilgan yuridik shaxslar faoliyatning asosiy turi bilan bir qatorda boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullansalar, ular alohida hisob yuritishlari va qonun hujjatlariga muvofiq mol-mulk solig'ini to'lashlari zarur.

8.2. YUridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ining soliq solish ob'ekti

YUridik shaxslar uchun soliq solish ob'ekti bo'lib:

a) asosiy vositalarning o'rtacha yillik qoldiq qiymati (qonun hujjatlariga muvofiq mulk qilib sotib olingan erning qiymati bundan mustasno);

b) nomoddiy aktivlarning o'rtacha yillik qoldiq qiymati;

v) belgilangan muddatlarda tugallanmagan qurilish ob'ektining o'rtacha yillik qiymati;

g) me'yoriy muddatlarda o'rnatilmagan uskunalarning o'rtacha yillik qiymati hisoblanadi.

Agar u quyidagi shartlardan biriga javob bersa, amortizatsiyalanadigan asosiy vositalarning ijarasi lizing hisoblanadi:

1) ijara muddati asosiy vositalar xizmat muddatining sakson foizidan oshsa;

2) ijarachi asosiy vositalarni qat'iy narxda yoki ijara tugashi bo'yicha belgilanadigan narxda sotib olish huquqiga ega bo'lsa;

3) ijaraga olinadigan asosiy vositalarning qoldiq qiymati ijaraning tugashida ularning ijara boshlanishidagi qiymatining yigirma foizidan kamni tashkil etsa;

4) to’lovlarning joriy summasi butun ijara davri uchun ijaraga olinadigan vositalar qiymatining to’qson foizidan oshsa.

YUridik shaxslar mol-mulkining o’rtacha yillik qoldiq qiymati hisobot yilining 1 yanvaridagi va hisobot yilidan keyingi yilning 1 yanvaridagi mol-mulk qoldiq qiymatining yarmini qo’shishdan olingan summani hamda hisobot davri qolgan barcha oylari har bir dastlabki kunidagi mol-mulk qoldiq qiymati summasini 12 ga bo’lishdan olingan son sifatida quyidagi formula bo’yicha aniqlanadi:

$$\text{Mol-mulkning o'rtacha qoldiq qiymati} = \frac{\frac{\text{1 yanv.ga}}{2} + \text{1 fev.ga} + \ldots + \text{1 dek.ga} + \frac{\text{1 yanv.ga*}}{2}}{12}$$

*qoldiq qiymat qayta baholashni hisobga olmasdan, ya’ni hisobot davri oxiridagi holat bo’yicha aniqlanadi.

Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning qoldiq qiymati ushbu mol-mulkning boshlang’ich (tiklash) qiymati bilan soliq to’lovchining hisob siyosatida belgilangan usullardan foydalanilgan holda hisoblangan amortizatsiya summasi o’rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

Hisobot davriga soliqni hisoblab chiqarish uchun mol-mulkning o’rtacha qoldiq qiymati hisobot davri oyining birinchi kunidagi mol-mulk qoldiq qiymati yarmini, hisobot davridan keyingi birinchi oyning birinchi kunidagi mol-mulk qoldiq qiymati yarmini va hisobot davri qolgan barcha oylari birinchi kunidagi mol-mulk qoldiq qiymatini qo’shishdan olingan summani 12 ga bo’lishdan olingan summa sifatida aniqlanadi.

Agar mol-mulk oyning birinchi yarmida amalga kiritilgan bo’lsa, mol-mulkning o’rtacha yillik qoldiq qiymatini hisoblab chiqarishda kiritish oyi to’liq oy deb qabul qilinadi, agar mol-mulk oyning ikkinchi yarmida amalga kiritilgan bo’lsa, o’rtacha yillik qoldiq qiymat amalga kiritish oyidan keyingi oyning birinchi kunidan boshlab hisoblanadi.

Masalan.

1) yuridik shaxs 20 oktyabrda ta’sis etilgan:

200 __ yil uchun hisoblab chiqarishga yuridik shaxs mol-mulki o’rtacha yillik qoldiq qiymatining hisob-kitobi

Balans moddalari nomi	**Balans kodi satri**	**Balans moddalari bo’yicha summalar**				
		01.01		**01.11**	**01.12**	**01.01**
Asosiy vositalar	010	-	-	845	845	835
Nomoddiy aktivlar	020					

Asosiy vositalarning eskirishi	011, 021			100	110	120
Soliq solinadigan mol-mulkning qoldiq qiymati	012, 022			745	735	715

Soliqni hisoblab chiqarish uchun mol-mulkning o'rtacha qoldiq qiymati = $\frac{745 : 2 + 735 + 715 : 2}{12}$ = 122,08

$$= \frac{745:2+735+715 : 2}{12} = 122,08;$$

2) hisobot yilining I-choragi uchun:

1-chorak uchun soliqni hisoblab chiqarishga mol-mulkning o'rtacha qoldiq qiymati

$$= \frac{\frac{1\ \text{yanv.ga}}{2} + 1\ \text{fev.ga} + \ldots + 1\ \text{martga} + \frac{1\ \text{apr.ga}}{2}}{12}$$

3) 13 martdan mol-mulk solig'ini to'lovchi bo'lgan yuridik shaxs uchun:

I chorak uchun soliqni hisoblab chiqarishga mol-mulkning o'rtacha qoldiq qiymati

$$= \frac{\frac{1\ \text{martga}}{2} + \frac{1\ \text{aprelga}}{2}}{12}$$

Soliq solinadigan bazani aniqlash uchun, balans aktivida aks ettiriladigan eskirishni chegirgan holda, buxgalteriya hisobining quyidagi hisobvaraqlari bo'yicha summalar qabul qilinadi: asosiy vositalarni hisobga olish hisobvaraqlari; uzoq muddatga ijaraga olinadigan asosiy vositalarni hisobga olish hisobvaraqlari; nomoddiy aktivlarni hisobga olish hisobvaraqlari; tugallanmagan qurilishni (belgilangan muddatlarda qurilishi tugallanmagan ob'ekt qismida) hisobga olish hisobvaraqlari; o'rnatishga mo'ljallangan uskunani (me'yor muddatlarida o'rnatilmagan uskuna qismida) hisobga olish hisobvaraqlari.

8.3. YUridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i stavkalari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 18 dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining 2007 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-532–son qaroriga muvofiq 2007 yilda yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i stavkalari quyidagi jadvaldagi miqdorlarda belgilangan (6-jadval).

Me'yoriy muddatlarda o'rnatilmagan uskunalar uchun mol-mulk solig'i ikki baravar miqdorda to'lanadi.

YUridik shaxslarning mol-mulkiga 3,5 foiz stavkasi bo'yicha soliq solinadi.

6-jadval

YUridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i stavkalari

№	To'lovchilar	Soliq solinadigan bazaga nisbatan %larda soliq stavkasi
1.	YUridik shaxslar	3,5
2.	O'zi ishlab chiqargan tovarlar (ishlar, xizmatlar) eksportining erkin almashtiriladigan valyutadagi hissasi quyidagi miqdorlarni tashkil etadigan eksportchi korxonalar uchun:	
	sotishning umumiy hajmida 15 foizdan 30 foizgacha	belgilangan stavka 30 %ga pasaytiriladi
	sotishning umumiy hajmida 30 foiz va undan yuqori	belgilangan stavka 50 %ga pasaytiriladi

Eksport mahsuloti ishlab chiqaradigan va uni mustaqil ravishda yoki ixtisoslashgan tashqi savdo birlashmalari va firmalari orqali sotadigan, vazirliklar, idoralar, korporatsiyalar, kontsernlar, uyushmalar va kompaniyalarning tarkibiy bo'linmalari hisoblangan korxonalar uchun quyidagi miqdorlarda sotishning umumiy hajmida o'zi ishlab chiqargan mahsulot (ishlar, xizmatlar)ning erkin almashtiriladigan valyutaga ulushiga bog'liq holda mol-mulk solig'ining tabaqalashtirilgan stavkalari belgilanadi:

- eksport ulushi 15 foizdan 30 foizgacha bo'lganda belgilangan stavka 30 foizga kamaytiriladi;
- eksport ulushi 30 foizdan ortiq bo'lganda belgilangan stavka 50 foizga kamaytiriladi.

Bunda ishlar (xizmatlar) eksporti bo'lib O'zbekiston Respublikasining chet el davlatining yuridik yoki jismoniy shaxsiga, ularni bajarish (ko'rsatish) joyidan qat'iy nazar, ishlarni bajarish (xizmat ko'rsatish) hisoblanadi.

Ko'rsatilgan imtiyoz savdo-vositachi korxonalarga, shuningdek erkin almashtiriladigan valyutaga xom ashyo tovarlari - paxta tolasi, ip gazlama, lint, neft, neft mahsulotlari, gaz kondensati, tabiiy gaz, elektr energiyasi, qimmatbaho, rangli va qora metallarni eksport qiladigan ishlab chiqarish korxonalariga tatbiq etilmaydi.

8.4. YUridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i bo'yicha belgilangan imtiyozlar

Quyidagi yuridik shaxslarning mol-mulkiga soliq solinmaydi:

a) notijorat tashkilotlarning mol-mulkiga, tadbirkorlik faoliyati uchun foydalaniladigan mol-mulkdan tashqari;

Soliq solish maqsadida notijorat tashkilotlar deganda quyidagilar tushuniladi: faqat davlat byudjeti mablag'lari hisobiga moliyalanadigan, tasdiqlangan smetalar doirasida xarajatlarni qoplashga byudjetdan dotatsiyalar oladigan korxonalar, muassasalar va tashkilotlar; xayriya birlashmalar, uyushmalar va jamg'armalar, xalqaro tashkilotlar, diniy birlashmalar va boshqa tashkilotlar:

1) ijtimoiy-xayriya yoki boshqa maqsadlar uchun barpo etilgan, tadbirkorlik faoliyati uchun daromad olishni ko'zlamasligi ta'sis hujjatlarida qayd etilganlari;

2) moliyaviy va boshqa mablag'larni mazkur tashkilotning xodimlari, muassislari yoki a'zolarining shaxsiy manfaatlari uchun taqsimlamaydigan va investitsiyalamaydiganlari (mehnat uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda taqdirlashlardan tashqari).

b) xalq ta'limi va madaniyat muassasalari ehtiyojlari uchun foydalaniladigan mol-mulkka;

v) uy-joy-kommunal xo'jaligi va boshqa umumfuqaroviy ahamiyatga molik shahar xo'jaligining mol-mulkiga.

Soliqqa tortish maqsadida uy-joy-kommunal va boshqa shahar umumfuqaro ahamiyatidagi xo'jaliklarga mulkchilik shaklidan qat'i nazar bevosita uy-joy fondini boshqarish, saqlash va foydalanishni amalga oshiruvchi uy-joy mulkdorlari shirkatlari va boshqa tashkilotlar; sanitar tozalash va yig'ishtirish, obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish, shahar va qo'rg'onlarni tashqi yoritish tashkilotlari; vodoprovod suv tarmog'idan foydalanish, taqsimlash tarmoqlari (tozalash inshootlari bilan birga) va suv taqsimlash; kanalizatsiya tarmoqlarini ishlatish (tozalash inshootlari bilan birga), gaz taqsimlash tarmoqlaridan foydalanish va gaz taqsimlash; qozonxonalar, isituvchi, issiqlikni taqsimlovchi tarmoqlardan foydalanish hamda kommunal-maishiy ehtiyojlar va aholi uchun issiqlik taqsimlovchi tashkilotlar; xizmat binolarining xo'jalik boshqarmalari; o't o'chirish komandalari; uy-joy-kommunal xo'jaligining xo'jalik boshqarmalari; uy-joy-kommunal va boshqa umumfuqaro ahamiyatidagi shahar xo'jaligi korxonalari kiritiladi.

e) nogironlarning jamoat birlashmalari, "Nuroniy" jamg'armasi va "O'zbekiston chernobilchilari" uyushmasining mulkida bo'lgan, ishlovchilari umumiy sonining kamida ellik foizini nogironlar tashkil qilgan yuridik shaxslarning mol-mulkiga, savdo, vositachilik, ta'minot-sotish va tayyorlov faoliyati bilan shug'ullanadiganlari bundan mustasno;

j) yangi tashkil etilgan yuridik shaxslarning mol-mulkiga, ro'yxatdan o'tgan paytidan e'tiboran ikki yil mobaynida. Mazkur imtiyoz tugatilgan (qayta tashkil etilgan) korxonalar, ularning filiallari va tarkibiy bo'linmalarining ishlab chiqarish quvvatlari va asosiy fondlari negizida tashkil etilgan korxonalarga, shuningdek korxonalar huzurida tashkil etilgan yuridik shaxslarga nisbatan, basharti ular ana shu korxonalardan ijaraga olingan asbob-uskunalarda ishlayotgan bo'lsalar, qo'llanilmaydi;

z) xorijiy kredit hisobiga xarid qilingan asbob-uskunalarga, ushbu kreditni so'ndirish muddatiga, lekin u besh yildan ortiq bo'lmasligi kerak.

Mazkur imtiyoz quyidagilarga tatbiq etiladi:

- soliq to'lashga doir majburiyatlar yuzaga kelgan paytdan boshlab ushbu kreditni so'ndirish muddatiga, lekin besh yildan oshirmagan holda, mazkur asbob-uskuna bo'yicha mol-mulkka;

- buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq to'lovchining balansida qayd etilgan etkazib berish, montaj qilish va ishga tushirish-sozlash xarajatlarini o'z ichiga oladigan asbob-uskunalarning butun qiymatiga.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va mahalliy hokimiyat organlari (o'z hududida mol-mulk joylashgan soliq to'lovchilarga nisbatan) tomonidan qo'shimcha imtiyozlar berilishi mumkin.

Mol-mulk solig'i hisoblab chiqarilayotganida soliq solinadigan baza quyidagilarning qiymatiga kamaytiriladi:

a) soliq to'lovchining balansida bo'lgan uy-joy-kommunal va ijtimoiy-madaniy soha ob'ektlarining;

b) tabiatni muhofaza qilish, sanitariya-tozalash maqsadida va yong'inga qarshi xavfsizlik uchun foydalaniladigan ob'ektlarning. Ob'ektlarni tabiatni muhofaza qilish maqsadlari uchun foydalanilayotganlar toifasiga kiritish tabiatni muhofaza qilish organlarining muayyan ob'ektlardan tabiatni muhofaza qilish maqsadlarida foydalanilishi to'g'risidagi ma'lumotnomasiga muvofiq amalga oshiriladi. Sanitariya-tozalash maqsadida foydalaniladigan ob'ektlar qatoriga tozalagich inshootlari kiradi. YOng'indan saqlash ob'ektlariga o't o'chirish depolari, o't o'chirish uchun maxsus qurilgan suv havzalari, o't o'chirish jihozlari o'rnatilgan taxtalar kiradi;

v) mahsulot o'tkazgichlar, aloqa yo'llari (shu jumladan avtomobil yo'llari), aloqa va energiya uzatish liniyalarining, shuningdek ularni foydalanishga yaroqli holda saqlab turish maqsadida qurilgan inshootlarning.

Mahsulot o'tkazgichlarga quyidagilar kiradi:

- neft, neft mahsulotlari, kondensat quvurlari va quvur transportining boshqa turlari, nasos, kompressor hamda taqsimlash stantsiyalari bilan birga;

- uy-joy-kommunal ob'ektlari bo'lmagan mintaqaviy gaz, bug' quvurlari, issiqlik trassalari, suv quvurlari, kanalizatsiya kollektorlari;

- buxgalteriya hisobotida alohida ob'ektlar sifatida hisobga olinadigan alohida joylashgan tsexlar, konlar va karerlarning ayrim uchastkalari orasidagi mahsulotlarni harakatlantirish uchun ishlatiladigan er osti, er usti va havoda joylashtirilgan har xil ko'rinishdagi quvurlar va transportyorlar.

Aloqa liniyalariga havo aloqa liniyalari, ularga ilib qo'yilgan simlar va aloqa kabellari, ustunli radiofikatsiya aloqa liniyalari, ularni belgilaydigan signal va o'lchov ustunlari (qoziqlari), radiorele aloqa liniyalari, kabelli telefon kanalizatsiyasi, er usti va er ostidagi ularga xizmat qilinmaydigan kuchaytirish (regeneratsiya qilish) punktlari, taqsimlovchi shkaflar, qutilar, erga ulangan sim konturlari va boshqa aloqa inshootlari kiradi.

Energiya uzatish liniyalariga havo va kabelli elektr uzatish liniyalari kiradi.

Soliq solish maqsadida ularni foydalanishga yaroqli holda saqlab turish maqsadida qurilgan inshootlarga ustunlar, tabiiy va sun'iy to'siqlardan o'tishlar va boshqa muhofaza inshootlari kiradi.

d) aloqa yo'ldoshlarining;

e) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga ko'ra to'xtatib qo'yilgan asosiy ishlab chiqarish fondlarining;

j) shahar yo'lovchilar transportining (taksidan, shu jumladan yo'nalishli taksidan tashqari), shahar atrofidagi yo'nalishlarda yo'lovchilar tashiydigan umumiy foydalanishdagi avtomobil transportining (taksi, shu jumladan yo'nalishli taksidan tashqari);

z) yo'l xo'jaligi korxonalarining yo'llarni ta'mirlash va saqlash ishlarida band bo'lgan transport vositalarining ***(ushbu "z"kichik band Adliya vazirligi tomonidan 2007 yil 31 martda 1107-6-son bilan ro'yxatga olingan yo'riqnomaga asosan chiqarib tashlangan);***

*i) davlat dasturlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari uchun kadrlar tayyorlashda foydalaniladigan transport vositalarining (****ushbu "i"kichik band Adliya vazirligi tomonidan 2007 yil 31 martda 1107-6-son bilan ro'yxatga olingan yo'riqnomaga asosan chiqarib tashlangan).***

l) yuridik shaxs tomonidan belgilangan tartibda kasanachilik mehnati bilan shug'ullanayotgan fuqarolarga haq olmasdan foydalanishga berilgan uskunalar, asboblar va inventarning, mazkur yuridik shaxsning buyurmasi bo'yicha ishlarni bajarish uchun – foydalanish davrida;

m) qishloq xo'jaligi mahsulotini etishtirish va saqlash uchun foydalaniladigan mol-mulkning (dehqonchilik, chorvachilik, baliqchilik);

n) tezkor-qidirish tadbirlari tizimlari texnik vositalarining.

Soliq to'lovchilarga O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi amalga kiritilishiga qadar qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari bilan taqdim etilgan soliq imtiyozlari ular taqdim etilgan muddat tugashiga qadar saqlanadi.

8.5. YUridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ini to'lash tartibi

YUridik shaxslar byudjetga joriy to'lovlar summasini hisobot yili mol-mulkining o'rtacha yillik qoldiq qiymatidan va soliq stavkasidan kelib chiqib mustaqil ravishda belgilaydilar. Byudjetga joriy to'lovlarni to'lash har oyning 20-kunidan kechiktirmay, yillik soliq summasining 1/12 qismi miqdorida to'lanadi. Byudjetga joriy to'lovlarni hisoblab chiqarish va to'lash uchun soliq to'lovchilar mol-mulkning tegishli yilga o'rtacha yillik qoldiq qiymatidan va belgilangan soliq stavkasidan kelib chiqadilar va joriy yilning 10 (o'ninchi) yanvarigacha davlat soliq xizmati organlariga ma'lumotnoma (11-ilova) taqdim etadilar.

Birinchi chorak, yarim yil, 9 oy va yil tugaganda to'lovchilar mustaqil ravishda mol-mulk solig'ini o'sib boruvchi yakun bilan, hisobot davrida mol-mulkning o'rtacha qoldiq qiymatidan kelib chiqib, (7-ilovadagi shakl asosida) hisoblab chiqadilar va hisobot davridan keyingi oyning 25-sanasidan, yil yakunlari bo'yicha yillik moliya hisobotlarini taqdim etish muddatidan kechiktirmay ro'yxatdan o'tgan joydagi davlat soliq organlariga taqdim etadilar. Mol-mulk solig'ining hisoblangan summasi hisob-kitobni taqdim etish uchun belgilangan kundan boshlab besh kunlik muddatda to'lanadi.

Mol-mulkning qoldiq qiymati va imtiyoz taqdim etish muddatini ko'rsatgan holda korxona mol-mulki o'rtacha qoldiq qiymatining hisob-kitobi va soliq undirilmaydigan mol-mulk ro'yxati mol-mulk solig'ining hisob-kitobiga majburiy ilovalar (8,9-ilovalar) hisoblanadi

Mahsulot eksportini amalga oshiradigan eksportchi korxonalar mol-mulk solig'i hisob-kitobini taqdim etayotganlarida eksport qilinadigan mahsulot (ishlar, xizmatlar)ga doir ma'lumotnomani (10-ilova) taqdim etadilar.

YAgona soliq to'lovi to'lovchisi bo'lgan korxona binoning bir qismini ijaraga bergan holatda, soliqqa tortish bazasini hisoblash uchun shu bino qismining o'rtacha yillik qoldiq qiymati bino umumiy maydonining 1 kv.m o'rtacha yillik qoldiq qiymatini binoning soliqqa tortiladigan maydoniga ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi.

Belgilangan muddatlarda tugallanmagan qurilish ob'ektlari va me'yoriy muddatlarda o'rnatilmagan uskuna uchun mol-mulk solig'ini to'lash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1. Belgilangan muddatlarda tugallanmagan qurilish ob'ekti uchun mol-mulk solig'ini to'lovchilar bo'lib qurilishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar-buyurtmachilar hisoblanadi.

Soliq solish ob'ekti bo'lib belgilangan muddatlarda tugallanmagan qurilish ob'ektining qiymati (smetalar, smeta-moliya hisob-kitoblari va kapital qurilish titullari ro'yxatida ko'zda tutilgan bino va inshootlarni qurish, uskunalar, asboblar, asbob-uskunalarni va boshqa predmetlarni sotib olish xarajatlari (qurilish pudrat yoki xo'jalik usuli bilan qurilishidan qat'i nazar), ya'ni tugallanmagan qurilish hisobvarag'ida hisoblanadigan hamma ishlar va xarajatlar (belgilangan muddatlarda tugallanmagan qurilish ob'ektlari qismida) hajmi hisoblanadi. Qurilishning belgilangan muddati deb qurilishni tashkil qilish loyihasi (QTQL) tarkibida 1.04.03-85-son QMQ "Korxonalar, binolar va inshootlarni qurish muddati me'yorlari"ga muvofiq loyihalash tashkiloti tomonidan aniqlanadigan ob'ekt qurilishining me'yoriy muddati hisoblanadi.

Loyihalash tashkilotlari loyiha-smeta hujjatlarida tayyorlash muddatlarini ajratgan holda qurilish muddati me'yorini ko'rsatishlari shart. Loyiha-smeta hujjatlarida qurilish muddati me'yori ko'rsatilmagan taqdirda, buyurtmachi loyihalash tashkilotidan muayyan ob'ekt bo'yicha qurilish muddatining me'yori to'g'risida xulosa olishga majbur.

2. Me'yordagi muddatda o'rnatilmagan uskunalar uchun mol-mulk solig'ini to'lovchilar bo'lib kapital mablag'lar hisobiga qayta jihozlanadigan ob'ektlarda montaj qilish talab qilinadigan va o'rnatishga belgilangan texnologik, energetik va ishlab chiqarish uskunalari bo'lgan (ustaxonalar, tajriba qurilmalari va laboratoriyalar uchun uskunalarni qo'shib) yuridik shaxslar hisoblanadi.

Me'yordagi muddatda o'rnatilmagan uskunalar uchun soliq solish ob'ekti bo'lib o'rnatishga belgilangan uskunalar qiymati hisoblanadi, ular qatoriga montaj qilishni talab qiladigan, faqat qismlarini yig'ish va poydevorga yoki ustunlarga, polga, qavatlararo to'siqlarga va boshqa bino va inshootlarni ko'tarib turuvchi konstruktsiyalarga o'rnatiladigan uskunalar hamda uskunalarni hisobga olish hisobvarag'ida hisoblanadigan shunday uskunalarning ehtiyot qismlar to'plami

(me'yordagi muddatda o'rnatilmagan uskunalar qismida) hisoblanadi. Ushbu uskunalar tarkibiga o'rnatiladigan uskunalar qatorida montaj qilish uchun belgilangan nazorat-o'lchov apparaturasi yoki boshqa asboblar ham kiradi.

Korxonalar, binolar va inshootlar qurilishida tasdiqlangan qurilish muddati va tayyorlab qo'yilgan zaxiralar me'yoriga muvofiq har bir ob'ekt bo'yicha texnologik yoki boshqa uskunalarni etkazib berish va montaj qilish jadvali belgilangan bo'lishi lozim.

Mamlakatimizda ishlab chiqarilgan va import qilingan uskunalarni etkazib berish va montaj qilish jadvalida quyidagi muddatlarda topshirish hisobga olinadi:

- yirik texnologiya va energetika uskunalari - ularni nomma-nom ro'yxatlari bo'yicha montaj qilish va etkazib berish jadvallarining rejadagi muddati o'tib ketgandan keyin;

- texnologiya uskunalari, texnologiya liniyalari, qurilmalar va boshqa umumzavod uskunalari - uskunalarni montajga topshirishining rejadagi muddati o'tgandan keyin, lekin olti oydan ortiq bo'lmagan muddatda;

- komplekt import uskunalari - ularni montajga topshirishning rejadagi muddati o'tib ketgandan ke-yin, lekin bir yildan ortiq bo'lmagan muddatga, agar texnik shart-sharoitlariga ko'ra uskunani qismlar bo'yicha montaj qilish mumkin bo'lmasa, ularni montajga topshirish muddati uskunalar butun komplektining kelib tushishi paytidan hisoblanadi;

- qismlarga ajratilgan import uskunalari, shuningdek kabel mahsulotlari, simlar va troslar - ularni montajga topshirishning rejadagi muddati o'tgandan keyin, lekin olti oydan ortiq bo'lmagan muddatda.

Uskunalarni montaj qilish va o'rnatish uchun me'yorlar va jadvallar bo'lmaganida soliq quyidagi muddatlarda to'lanadi:

- ishlab chiqarish maqsadlaridagi ob'ektlar bo'yicha mamlakatimizda ishlab chiqarilgan va import qilingan uskunalarning o'rnatilmaganligi uchun - sotib olinganiga bir yillik muddat to'lganidan keyingi oydan boshlab;

- noishlab chiqarish maqsadlaridagi ob'ektlar bo'yicha - sotib olinganiga olti oy tugagandan keyin;

Uskunalarni etkazib berish va montaj qilishning yuqorida ko'rsatilgan muddatlarini buzganligi uchun korxona va tashkilotlar, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollardan tashqari, mol-mulk solig'ini ikki baravar ko'paytirilgan stavka bo'yicha to'laydilar.

Ortiqcha to'langan soliq summalari, agar soliqlar va yig'imlar bo'yicha qarz mavjud bo'lmasa, to'lovchining yozma arizasiga ko'ra bo'lg'usi to'lovlar hisobiga qayd etiladi yoki 30 kun ichida qaytariladi.

Byudjet bilan hisob-kitoblarning buxgalteriya hisobi byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzni hisobga olish hisobvarag'i bo'yicha yuritiladi.

Hisoblab yozilgan soliq summasi quyidagicha aks ettiriladi: davr xarajatlarini hisobga olish hisobvarag'i debeti; byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzlarni hisobga olish hisobvarag'i krediti.

Byudjetga o'tkazilgan soliq summalari quyidagicha aks ettiriladi: byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzlarni hisobga olish hisobvarag'i debeti; pul mablag'larini hisobga olish hisobvarag'i krediti.

Mol-mulk solig'ini to'lovchilar davlat soliq xizmati organlarining qarorlari va ularning mansabdor shaxslari harakatlari ustidan yuqori davlat soliq xizmati organlariga yoki sudga shikoyat qilish huquqiga egadirlar. Mol-mulk solig'ini to'lovchilar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq soliqni to'g'ri hisoblab chiqarish va o'z vaqtida to'lash uchun javobgardirlar.

Mol-mulk solig'ini to'g'ri hisoblab chiqarish va o'z vaqtida to'lash ustidan nazorat, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq, davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Qisqacha xulosalar

Respublikamizda yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ini joriy etilib soliq tizimiga kiritilishi yuridik shaxslarning mol-mulkidan samarali foydalanishi va foydalanilmayotgan mol-mulkni ishlab chiqarishga jalb etishga intilishi ortadi.

SHuningdek, mahalliy soliqlar, xususan, mol-mulk solig'i mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish manbaini vujudga keltirish, tabiiy va boshqa resurslarni qayta ishlab chiqarish, davlat hokimiyati va boshqaruvi mahalliy idoralarining faoliyat ko'rsatishi uchun shart-sharoit yaratish maqsadini ko'zlaydi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. YUridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ini to'lovchilar kimlar hisoblanadi?
2. YUridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i solish ob'ektiga nimalar kiradi?
3. YUridik shaxslar mol-mulkining o'rtacha yillik qoldiq qiymati qanday aniqlanadi?
4. YUridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i stavkalari va hisoblash tartibi qanday?
5. YUridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i bo'yicha qanday imtiyozlar mavjud?
6. YUridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ini to'lash tartibi qanday?

Asosiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi. Respublika Axborot-Maslahat markazi. -T.: 2006.
2. O'zbekiston Respublikasining "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi Qonuni. -T.: 1997 yil 29 avgust, 1-2 betlar
3. O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligida № 1107-son bilan ro'yxatga olingan, YUridik shaxslarning mol- mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish va byudjetga to'lash tartibi to'g'risida Yo'riqnoma 11.03.2002.
4. YUtkina G.F. Nalogi i nalogooblojeniya: Uchebnik. – 5-e izd., pererab. i dop. – M.: INFRA-M, 2006. – 509 s.
5. Nalogi i nalogovaya sistema Rossiyskoy Federatsii: Uchebnik. – M.: Finansы i statistika, 2006. – 464 s.

6. Aleksandrov I.M. Nalogi i nalogooblojenie: Uchebnik. – 3-e izd., prerab. I dop. – M.: “Dashkov i K”, 2005. – 314s.
7. Zavalishina I.A. Soliqlar: nazariya va amaliyot. -T.: “Iqtisodiyot va huquq dunyosi” nashriyot uyi, 2005. 289-309 betlar
8. Sbornik zadach po nalogam i nalogooblojenie: Uchebnoe posobie. / M.V. Vladыka, V.F. Tarasova, T.V. Sapгыkina; pod obщ. Red. V.F. Tarasovoy. – M.: KNORUS, 2006. – 360 s.
9. Praktikum po nalogam i nalogooblojenie: Uchebnoe posobie. / kol.avt.; pod red. prof. L.I. Goncharenko. – M.: KNORUS, 2006. – 208 s.
10. YAhyoev Q. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. - T.: “Fan va texnologiyalar markazi”, 2003. 95-102 betlar.

IX bob. YURIDIK SHAXSLARDAN UNDIRILADIGAN ER SOLIG’I

9.1. YUridik shaxslardan undiriladigan er solig’ini to’lovchilar va soliq solish ob’ekti

O’z mulkida, egaligida yoki foydalanishida er uchastkalariga ega bo’lgan yuridik shaxslar er solig’i to’lovchilardir.

YUridik shaxslar uchun quyidagi er uchastkalari soliq solinadigan ob’ekt hisoblanadi:

1) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mulk qilib olingan er uchastkalari;

2) qishloq yoki o’rmon xo’jaligini yuritish uchun egalik qilishga berilgan er uchastkalari;

3) korxonalar, binolar va inshootlar qurish uchun yoki qishloq xo’jaligiga taalluqli bo’lmagan boshqa maqsadlarda foydalanish uchun berilgan er uchastkalari;

4) korxonalar, binolar yoki inshootlarga bo’lgan mulk huquqi o’tishi bilan birga egalik qilish va foydalanish huquqi ham o’tgan er uchastkalari.

9.2. YUridik shaxslardan undiriladigan er solig’i stavkalari

Er solig’i stavkalari O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. Qishloq xo’jalik erlarining sifati er uchastkasi mulkdori, er egasi yoki erdan foydalanuvchining aybi bilan yomonlashgan (boniteti pasayib ketgan) taqdirda, er solig’i erning sifati yomonlashuviga qadar belgilangan stavkalar (12-ilova) bo’yicha undiriladi.

SHaharlar va shahar posyolkalarining ma’muriy chegaralarida joylashgan qishloq xo’jalik ahamiyatiga molik erlar uchun er solig’i qishloq xo’jalik erlariga belgilangan stavkalarning ikki baravari miqdorida undiriladi.

Qonun hujjatlariga muvofiq er uchastkalarini ijaraga olgan yuridik shaxslar er solig’i o’rniga byudjetga ijara haqi to’laydilar. Ijara haqi taraflarning kelishuviga

binoan belgilanadi, lekin bu haq qonun hujjatlarida belgilangan er solig'ining bir stavkasidan kam va uch stavkasidan ko'p bo'lmasligi, erlardan qishloq xo'jalik ehtiyojlari uchun foydalanilgan taqdirda esa - bir stavkasi miqdorida bo'lishi lozim.

YAgona soliq to'lovi to'laydigan mikrofirmalar va kichik korxonalar qonun hujjatlariga muvofiq ijaraga olingan er uchastkalari uchun byudjetga ijara haqi to'lashdan ozod qilinadi.

YUridik shaxslar foydalanadigan (shu jumladan, er solig'ini to'lashdan ozod etilgan), davlat hokimiyati organlari tomonidan ajratilgan maydonlardan ortiqcha er uchastkalari uchun er solig'i yuridik shaxslar uchun 2,0 koeffitsientini qo'llagan holda to'lanadi. Davlat hokimiyati organlari tomonidan ajratilgan maydonlardan ortiqcha foydalaniladigan erlar uchun yuqorida ko'rsatilgan koeffitsientni qo'llagan holda er solig'i to'lanmagan taqdirda soliq to'lovchilarga nisbatan qonun hujjatlariga muvofiq moliyaviy jazo choralari qo'llanadi.

Davlat hokimiyati organlari tomonidan ajratilgan er uchastkalari maydoni er berish to'g'risida davlat hokimiyat organlarining qarori, erga egalik qilish yoki undan foydalanish huquqi uchun davlat dalolatnomasi, erni ijaraga olish shartnomasi, er uchastkasiga bo'lgan huquqlarni ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi guvohnoma va er uchastkasiga bo'lgan huquqni tasdiqlaydigan boshqa hujjatlarga ko'ra belgilanadi. Er uchastkasiga nisbatan mulk, egalik qilish yoki undan foydalanish huquqini tasdiqlaydigan hujjatlar mavjud bo'lmasa, soliq butun maydon uchun yuqorida ko'rsatilgan oshirish koeffitsientlarini qo'llagan holda to'lanadi.

Alohida turadigan ob'ektlar qurilishi uchun er uchastkalari maydonlari er uchastkasiga doir huquqni tasdiqlaydigan hujjatlarda ko'rsatilgan maydondan oshib ketgan taqdirda ham oshirish koeffitsientlari qo'llanadi. Ma'muriy va sanoat markazlariga nisbatan olganda er uchastkalarining joylashish joyiga bog'liq holda qishloq joylari uchun belgilangan er solig'i stavkalariga quyidagi koeffitsientlar qo'llanadi:

- Toshkent shahri atrofida 20 km lik aylanada - 1.30;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi poytaxti va viloyat markazlari atrofida 15 km lik aylanada - 1.20;
- tuman markazlari atrofida 10 km lik aylanada - 1,15;
- boshqa shaharlar atrofida 5 km lik aylanada - 1,10.

Er uchastkalarigacha masofa shaharlar va tuman markazlarining ma'muriy chegaralaridan boshlab avtomobil yo'llari bo'ylab belgilanadi. Er uchastkasi ikki shahar yaqinida joylashgan taqdirda shaharning yuqoriroq funktsional vazifasiga muvofiq keladigan koeffitsient qabul qilinadi.

Bir qishloq aholi punkti doirasida yagona stavkalarni belgilash maqsadida soliq to'lovchilarga berilgan erlar, erlarning qanday qismi ushbu zonaga kirishiga bog'liq holda, butunlay shahar atrofi zonasiga kiritiladi yoki ushbu zonadan butunlay chiqariladi.

Dehqon xo'jaliklaridan undiriladigan er solig'ini hisoblab chiqarish chog'ida er solig'i stavkalariga, er sifatiga bog'liq holda, quyidagi koeffitsientlar qo'llaniladi:

- tuproq boniteti 40 ballgacha bo'lsa - 0,75;
- tuproq boniteti 41 dan 70 ballgacha bo'lsa - 1,0;
- tuproq boniteti 70 balldan ortiq bo'lsa - 1,25.

SHahar va qo'rg'onlarning ma'muriy chegaralarida joylashgan kon va karerlar band etgan erlar uchun soliq korxonalar, muassasalar va tashkilotlar uchun belgilangan stavkalarga 0,1 koeffitsientini qo'llagan holda to'lanadi.

O'rmon xo'jaliklarida mollarni o'tlatish uchun foydalanilmaydigan yaylov erlar uchun er solig'i boshqa erlar uchun stavkalar bo'yicha to'lanadi.

9.3. YUridik shaxslardan undiriladigan er solig'i bo'yicha belgilangan imtiyozlar

Soliq solinmaydigan er uchastkalariga quyidagi erlar kiradi:

1) shaharlar, shahar posyolkalari va qishloq aholi punktlarining umumiy foydalanishdagi erlari (maydonlar, ko'chalar, tor ko'chalar, yo'llar, sohil bo'ylari, madaniy-maishiy ehtiyojlarni qondirish va aholining dam olishi uchun foydalanadigan erlar; ariq tarmoqlari, qabristonlar va boshqalar);

2) jamoa bog'dorchiligi, uzumchiligi va polizchiligining, jamoa garajlarining umumiy foydalanishdagi erlari; Ularga borish yo'llari, ariqlar, kollektorlar va umumiy foydalanishdagi boshqa erlar kiradi;

3) tabiatni muhofaza qilish ahamiyatiga molik erlar (davlat qo'riqxonalari, milliy va dendrologiya bog'lari, botanika bog'lari, zakazniklar, ov qilishga mo'ljallanganlari bundan mustasno, tabiat yodgorliklari), ihota daraxtzorlari egallagan erlar;

4) tarixiy-madaniy ahamiyatga molik erlar (tarixiy-madaniy qo'riqxonalar, xotira bog'lari, sag'analar, arxeologiya yodgorliklari, tarix va madaniyat yodgorliklari egallagan erlar);

5) suv fondi erlari (daryolar, ko'llar, suv omborlari, kanallar, dengizlar, muzliklar, botqoqliklar, gidrotexnika va boshqa suv xo'jaligi inshootlari egallagan erlar, shuningdek suv havzalari sohilidagi suv xo'jaligi ehtiyojlari uchun korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga belgilangan tartibda berilgan erlar);

6) elektr uzatish liniyalari, podstantsiyalar, umumdavlat aloqa liniyalari va ularning inshootlari egallagan erlar;

YAngi elektr uzatish havo va kabel liniyalarini qurish uchun erlar vaqtincha foydalanish uchun qurilish davriga ajratiladi, elektr uzatish liniyalaridan doimiy ishlatish uchun foydalanishga esa faqat kuchlanishi 1000 V dan yuqori elektr uzatish liniyalarining tayanchlari, elektr uzatish kabel liniyalarining er ustidagi inshootlari, kuchlanishni pasaytiruvchi podstantsiyalar, taqsimlash va sektsiyalashtirish punktlari egallagan er uchastkasigina ajratiladi. Elektr uzatish uchun tayanchlar va ulardagi inshootlarga er maydoni er ajratish materiallari bo'yicha qabul qilinadi. SHu munosabat bilan er solig'ini to'lashdan qurilish davrida butun ajratilgan er uchastkasi, foydalanish davrida esa - faqat kuchlanishi 1000 V dan yuqori elektr uzatish liniyalari tayanchlari, ulardagi inshootlar va podstantsiyalar egallagan erlargina ozod etiladi.

Umumdavlat aloqa liniyalari va ulardagi inshootlarga havo aloqa liniyalari, ularga ilib qo'yilgan simlar va aloqa kabellari, ustunli aloqa va radiofikatsiya liniyalari, ularni belgilaydigan signal va o'lchov ustunlari (qoziqlari), radiorele aloqa liniyalari, kabelli telefon kanalizatsiyasi, er usti va er ostidagi xizmat qilinmaydigan kuchaytirish (regeneratsiya qilish) punktlari, taqsimlovchi shkaflar, qutilar, erga ulangan sim konturlari va boshqa aloqa inshootlari kiradi.

7) umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari, temir yo'llarning umumiy tarmog'i, umumiy foydalanishdagi shahar elektr transporti (shu jumladan metropoliten) va ularning inshootlari egallagan erlar.

Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llariga O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan belgilangan tartibda ularning indekslari va tartib raqamlarini ko'rsatgan holda tegishli ro'yxatlarga kiritilgan avtomobil yo'llari taalluqlidir.

Avtomobil yo'llarining inshootlariga ko'priklar, yo'l chetidagi ariqlar, yon tomondagi zaxira erlar, ko'tarma ortidagi ariqlar va ko'tarmalar, tog'dagi suv ajratish kanallari, ariq ortidagi bermalar va qiyaliklarning mustahkamligini ta'minlash bermalari, avtobus bekatlari, tushishlar, traktor yo'llari, piyodalar va velosiped yo'lkalari, o'pirilish, sel, ko'chkiga qarshi va avtomobil yo'llari uchun ajratilgan erlarda joylashtirilgan boshqa himoya inshootlari kiradi. Soliq to'lashdan ozod etiladigan er uchastkalariga temir yo'l stantsiyalari hududida bosh, stantsiya va saralash temir yo'l liniyalari egallagan erlar ham kiradi.

Sanoat va boshqa korxonalarga o'tkazilgan temir yo'llar egallagan erlar uchun soliq belgilangan tartibda to'lanadi. Temir yo'llarning inshootlari tarkibiga zaxiralar, tuproqtepalar, yo'ldagi suv ajratish, mustahkamlash va tutib turish inshootlari, yo'llar bo'ylab qordan himoyalash va qumni mustahkamlash polosalari, tortish podstantsiyalari, tonnellar va shu singari sun'iy inshootlar va yo'l qurilmalari kiradi.

Soliq imtiyozi tramvay yo'llari va trolleybus liniyalari, metropoliten liniyalari, tramvay va trolleybus bekatlari, shu jumladan dispetcherlik punktlari, metropoliten bekatlari va shahar elektr transporti yo'llaridagi boshqa inshootlar egallagan erlarga tatbiq etiladi. Ma'muriy va boshqa yordamchi binolar, depolar (depo hududida joylashgan elektr transporti yo'llari va metropoliten liniyalari egallagan erlardan tashqari), qurilish va ta'mirlash ob'ektlari egallagan erlar uchun soliq belgilangan tartibda to'lanadi;

8) sport inshootlari, stadionlar, sport maydonchalari, suzish havzalari, sportning texnik turlari ob'ektlari va boshqa jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish komplekslari, onalar va bolalarning dam olish va sog'lomlashtirish joylari, sanatoriy-kurort muassasalari va dam olish uylari, o'quv-mashq bazalari egallagan erlar;

9) magistral suv quvurlari, neft va gaz quvurlari, issiqlik trassalari, magistral kanalizatsiya kollektorlari va ularning inshootlari, suv olish va tozalash inshootlari, shuningdek suv ta'minoti va kanalizatsiyaga tegishli boshqa ob'ektlar egallagan erlar;

Suv ta'minoti va kanalizatsiyaga tegishli boshqa ob'ektlar tarkibiga aholi punktlarida suv quvuri va kanalizatsiya tarmog'idagi nasos stantsiyalari, kuzatish quduqlari va dyukerlar, suv minoralari va shu singari inshootlar kiradi.

Magistral gaz va neft quvurlari va ularning inshootlari egallagan erlar. Inshootlar tarkibiga yong'in va avariyalardan saqlash inshootlari, quvurlarni katodli himoyalash stantsiyalari, ulanish tugunlari bilan birga nasos va kompressor stantsiyalari, quvurlarni tozalash qurilmalari va hokazolar kiradi. Magistral issiqlik trassalari va ularning inshootlari egallagan erlar. Issiqlik trassalarining inshootlariga nasos stantsiyalari (kuchaytiruvchi, pasaytiruvchi, aralashtiruvchi, drenaj), issiqlikni hisobga olish va nazorat qilish asboblari, isitkichlar, issiq suv ta'minotining tsirkulyatsiya nasoslari kiradi;

10) samolyotlarning uchish-qo'nish maydonlari, shu jumladan ularni erda boshqarish yo'lkalari va to'xtash joylari, fuqaro aviatsiyasi aeroportlarining radionavigatsiya va elektr-yoritish uskunalari joylashgan erlar;

11) O'zbekiston Respublikasining Investitsiya dasturiga kiritilgan ob'ektlar qurilishi uchun ajratilgan erlar - qurilishning normativ muddati davriga, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan qurilish ishlari to'xtatib qo'yilgan ob'ektlar egallagan erlar;

Investitsiya dasturiga kiritilgan ob'ektlar qurilishining me'yoriy muddati tugagach, shuningdek to'xtatib qo'yilgan ob'ektlarni qurish davom etilgan yoki ular faoliyat ko'rsata boshlagan hollarda er solig'i qurilishning me'yoriy muddati tugashidan yoki ob'ekt qurilishi yoxud undan foydalanish boshlanganidan keyingi oydan boshlab to'lana boshlaydi. Investitsiya dasturiga kiritilgan ob'ektlar qurilishiga ajratilgan er uchastkalariga soliq solinmaydi. Agar Investitsiya dasturiga ko'ra korxona, uning alohida tsexlarini ta'mirlash yoki qayta jihozlash nazarda tutilgan bo'lsa, bunday hollarda soliq imtiyoz qo'llanmaydi;

12) gidrometeorologiya va gidrogeologiya stantsiyalari hamda postlari egallagan erlar;

13) ilmiy tashkilotlarning qishloq xo'jaligi ahamiyatiga molik va o'rmon fondidagi erlari, qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi sohasidagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlari hamda o'quv yurtlariga qarashli tajriba, eksperimental va o'quv-tajriba xo'jaliklarining bevosita ilmiy va o'quv maqsadlari uchun foydalaniladigan erlari;

Ilmiy tajribalar, eksperimental ishlar, yangi navlar selektsiyasini amalga oshirish hamda Bob doirasi tasdiqlangan boshqa ilmiy va o'quv maqsadlari uchun foydalaniladigan ekinlar va ko'chatlar egallagan er uchastkalari soliq to'lashdan ozod etiladi;

14) yangi o'zlashtirilayotgan erlar va meliorativ holatini yaxshilash ishlari olib borilayotgan sug'oriladigan erlar - loyihada nazarda tutilgan muddatga, lekin ishlar boshlanganidan e'tiboran ko'pi bilan besh yilga;

Er solig'ini to'lashdan yangi o'zlashtirilayotgan va sug'oriladigan erlar, shuningdek kapital tekislash, sug'orish tarmog'ini ta'mirlash va erlarning meliorativ holatini yaxshilash yoxud sug'orilayotgan erlarni kompleks ta'mirlash bo'yicha meliorativ ishlar amalga oshiriladigan sug'orilayotgan qishloq xo'jalik erlari ozod qilinadi. Agar loyihada erlarni o'zlashtirish va meliorativ ishlarni amalga oshirish muddatlari ko'rsatilmagan bo'lsa yoki er uchastkasi boshqa muddatlarda ishga tushirilgan bo'lsa, bunday holda meliorativ ishlar va yangi erlarni o'zlashtirish ishlari bajarilgan yillar uchun, lekin 5 yildan ko'p bo'lmagan muddatda, er uchastkasiga soliq to'lanmaydi;

15) zaxiradagi erlar;

16) rekreatsion ahamiyatga molik erlar (aholining ommaviy dam olishi va turizmini tashkil etish uchun tegishli muassasalarga berilgan erlar: o'rmon bog'lari, bog'lar, xiyobonlar, plyajlar va boshqalar). Bunda muassasa deganda mulkdor tomonidan boshqarish, ijtimoiy-madaniy yoki notijorat tusidagi boshqa funktsiyalarni bajarish uchun tashkil etilgan holda u tomonidan to'liq yoki qisman moliyalanadigan tashkilot tan olinadi;

17) sog'lomlashtirish ahamiyatiga molik erlar (kasalliklarning oldini olish va odamlarni davolash ishini tashkil etish uchun qulay tabiiy omillarga ega bo'lgan erlar);

18) yakka tartibda uy-joy qurish va shaxsiy yordamchi xo'jalik yuritish uchun qonun hujjatlarida belgilangan normalar doirasida berilgan erlar - er uchastkalari berilgan paytdan e'tiboran ikki yil muddatga;

19) soliq to'lovchining balansida bo'lgan hamda tadbirkorlik faoliyatida foydalanilmayotgan fuqarolik himoyasi va safarbarlik ahamiyatiga molik ob'ektlar egallagan erlar. Fuqarolik himoyasi va safarbarlik ahamiyatiga molik ob'ektlar egallagan erlar maydoni haqiqatda egallagan maydondan kelib chiqib qabul qilinadi.

Erlardan o'z o'rnida foydalanilmagan taqdirda ushbu belgilangan imtiyozlar qo'llanilmaydi.

Quyidagi yuridik shaxslar er solig'idan ozod qilinadilar:

a) tijorat bilan shug'ullanmaydigan yuridik shaxslar, er uchastkalaridan tadbirkorlik faoliyati yo'lida foydalanayotganlaridan tashqari;

Agar er uchastkalaridan notijorat tashkilotlar bevosita tadbirkorlik faoliyati yo'lida foydalansalar (ijaraga berilsa, qishloq xo'jaligi mahsuloti etishtirilsa va hokazo), bunday er uchastkalari uchun soliq belgilangan tartibda to'lanadi.

Soliq solish maqsadida notijorat tashkilotlar deganda quyidagi yuridik shaxslar tushuniladi: faqat davlat byudjeti mablag'lari hisobiga moliyalanadigan, xarajatlarni qoplashga byudjetdan tasdiqlangan smetalar doirasida dotatsiya oladigan korxonalar, muassasalar va tashkilotlar; xayriya birlashmalari, uyushmalari va jamg'armalari, xalqaro tashkilotlar, diniy birlashmalar va boshqa tashkilotlar:

–Ijtimoiy-xayriya yoki ta'sis hujjatlarida qayd etilganidek, tadbirkorlik faoliyatidan daromad olishni nazarda tutmaydigan boshqa maqsadlar uchun barpo etilgan yuridik shaxslar;

–Moliyaviy va boshqa mablag'larni mazkur tashkilot xodimlari, muassislari yoki a'zolarining shaxsiy manfaatlari yo'lida taqsimlamaydigan va investitsiyalamaydigan yuridik shaxslar (qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mehnat uchun haqlardan tashqari);

b) madaniyat, maorif, sog'liqni saqlash va mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish muassasalari, bo'ysunuvidan qat'i nazar, o'z zimmalariga yuklangan vazifalarni amalga oshirish uchun ularga ajratilgan er uchastkalari uchun;

Ularga quyidagilar kiradi:

–madaniyat va san’at muassasalari (kutubxonalar, filmoteka va fonotekalar, muzeylar, ko’rgazmalar, klub muassasalari, maktabgacha tarbiya muassasalari, xalq universitetlari, madaniyat va istirohat bog’lari, botanika bog’lari va hayvonot bog’lari, televidenie va radioeshittirish tahririyatlari, kitob palatalari, teatrlar, kinoteatrlar, kontsert tashkilotlari va jamoalari, tsirklar, tasviriy san’at studiyalari va badiiy bezatish tashkilotlari, kinostudiyalar va ovoz yozish studiyalari, aholining buyurtmasiga ko’ra ish va xizmatlarsiz kinofilmlar tayyorlash, ovoz yozish, havaskorlik kinofilmlarini tayyorlash, ovoz yozish xizmatlari, kinofilmlar ijarasi, madaniyat va san’at xo’jaligini boshqarish);

–maorif muassasalari (oliy va o’rta maxsus ma’lumotli kadrlar tayyorlash, oliy ma’lumotli kadrlar tayyorlash, o’rta maxsus ma’lumotli kadrlar tayyorlash, ishchilar va boshqa xodimlarni tayyorlash va malakasini oshirish, umumiy ta’lim bolalar maktablari, ishchi yoshlar uchun umumiy ta’lim maktablari, maktabgacha tarbiya, ota-onalar qarovisiz qolgan bolalarni tarbiyalash muassasalari);

–sog’liqni saqlash muassasalari (kasalxona muassasalari, moxovxonalar, dispanserlar, ambulatoriya-poliklinika muassasalari, tez va shoshilinch tibbiy yordam hamda qon quyish muassasalari, onalik va bolalikni muhofaza qilish muassasalari, sanatoriy-kurort muassasalari, sanitariya-profilaktika muassasalari, sanitariya-epidemiologiya muassasalari, sanitariya maorifi muassasalari, sud-tibbiy ekspertiza muassasalari);

–mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish muassasalari (vrachlik-mehnat ekspertiza komissiyalari, qariyalar va nogironlar uchun internat uylar).

Er uchastkalari (xonalar)dan ularning asosiy faoliyati bilan bog’liq bo’lmagan maqsadlar uchun (ijaraga berish, qishloq xo’jaligi mahsulotini etishtirish va hokazo) foydalanadigan madaniyat, maorif, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish muassasalari er solig’ining tegishli hissasini to’laydilar;

v) dehqon (fermer) xo’jaliklari - davlat ro’yxatidan o’tkazilgan paytdan e’tiboran ikki yil muddatga;

YUridik shaxslar belgilangan imtiyozli davrdan keyin bir yil o’tguniga qadar tugatilgan taqdirda, soliq summasi ularning butun faoliyat davri uchun to’liq miqdorda undiriladi.

g) nogironlarning jamoat birlashmalari, “Nuroniy” jamg’armasi va “O’zbekiston CHernobilchilari” assotsiatsiyasi mulkida bo’lgan, ishlovchilari umumiy sonining ellik foizini nogironlar tashkil qilgan yuridik shaxslar (savdo, vositachilik, ta’minot-sotish va tayyorlov faoliyati bilan shug’ullanuvchi yuridik shaxslar bundan mustasno)

Xodimlarning umumiy soniga korxona shtatida bo’lgan, shu jumladan o’rindoshlik bo’yicha ishlovchilar, shuningdek korxona shtatida bo’lmagan (pudrat shartnomasi va fuqarolik-huquqiy tusdagi boshqa shartnomalar bo’yicha ishlarni bajaradigan) xodimlar kiritiladi;

9.4. YUridik shaxslardan undiriladigan er solig’ini hisoblash va to’lash tartibi

Er solig'i yuridik shaxslar tomonidan har yili 1 yanvargacha bo'lgan holatga qarab mustaqil hisoblab chiqariladi va soliq bo'yicha hisob-kitoblar er uchastkasi joylashgan hududdagi soliq organiga joriy yilning 1 fevraligacha taqdim etiladi:

1. Qishloq xo'jaligi ahamiyatiga ega bo'lmagan erlar uchun.
2. Qishloq xo'jaligi ahamiyatiga molik erlar uchun.

Bo'shatib olinayotgan mablag'lardan muayyan maqsadlar uchun foydalanish sharti bilan imtiyozlar olgan yuridik shaxslar soliq to'lovchilar uchun belgilangan shakl bo'yicha va muddatlarda er solig'i hisob-kitobini taqdim etadilar.

YUridik shaxs hisoblangan dehqon xo'jaliklari hisoblab yozilgan er solig'i umumiy summasining 95%ini byudjetga, 5%ini esa Dehqon va fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasiga to'laydilar. Hisob-kitoblarda Jamg'armaga to'lanadigan summa alohida satrda aks ettiriladi.

Er solig'ini hisoblash er uchastkasi haqiqatda egallagan maydondan kelib chiqib amalga oshiriladi. Er uchastkalarining umumiy maydonlari to'g'risidagi ma'lumotlar er uchastkasiga bo'lgan huquqni tasdiqlaydigan hujjatlar yoki erlarni inventarizatsiyalash dalolatnomalari bo'yicha qabul qilinadi.

Qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi ahamiyatiga molik er mulklari maydonlari va ularning sifat holati er kadastri hujjatlariga ko'ra qabul qilinadi va erlardan haqiqatda foydalanishga muvofiq kelishi kerak.

Yil davomida yuridik shaxslarda er uchastkalariga mulk huquqi, erga egalik qilish huquqi, erdan foydalanish huquqi vujudga kelgan (bekor bo'lgan) taqdirda, shuningdek ular foydalanayotgan er maydoni kengaygan (kamaygan) yoki er solig'i bo'yicha imtiyoz huquqlari to'xtatib qo'yilgan (paydo bo'lgan) hollarda ular er uchastkasi ajratilgan (olib qo'yilgan) yoki imtiyozlar to'xtatilgan (paydo bo'lgan) kundan e'tiboran bir oydan kechiktirmay davlat soliq organlariga er solig'i bo'yicha hisob-kitoblarni taqdim etishlari shart.

Hisobot yili davomida er mulklari tarkibida o'zgarishlar yuz bergan yuridik shaxslar davlat soliq organlariga er solig'i to'lanadigan hisobot yilining 1 noyabriga qadar er solig'ining aniqlashtirilgan hisob-kitobini taqdim etadilar.

Foydalanilishi foydali qazilmalarni qazib olish bilan bog'liq erlar, shu jumladan ochiq usulda qazib olinadigan, bo'sh va balansdan tashqari jinslar uyumlari band etgan yoki ular uchun mo'ljallangan erlar uchun soliqni hisoblab chiqarish ularning joylashgan erini hisobga olgan holda kon va karerlar uchun stavkalar bo'yicha amalga oshiriladi. Foydalanilishi foydali qazilmalarni qayta ishlash yoki ulardan ishlab chiqarishda foydalanish bilan bog'liq er uchastkalari uchun, shu jumladan oxirgi omborlar va tindirgichlar, shuningdek ma'muriy, yordamchi binolar va inshootlar band etgan erlar uchun soliq korxonalar, muassasalar va tashkilotlar uchun belgilangan stavkalar bo'yicha hisoblab chiqariladi.

Alohida binolar yoki xonalar boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga ijaraga berilganida er solig'ini balansida ushbu bino bo'lgan yuridik shaxs to'laydi. Agar alohida bino bir necha yuridik shaxsning balansida bo'lsa, er solig'ini har bir yuridik shaxs alohida, egallagan ishlab chiqarish xonalariga mutanosib ravishda to'laydi.

Ko’p qavatli turar joylarning bir qismini egallagan yuridik shaxslar er solig’ini turar joy egallagan umumiy maydondan va mazkur yuridik shaxs tomonidan foydalaniladigan ishlab chiqarish xonalarining hissasidan kelib chiqib hisoblab chiqaradilar.

Yil davomida yuridik shaxslarda er uchastkalariga mulk huquqi, erga egali qilish huquqi, erdan foydalanish huquqi vujudga kelgan taqdirda, shuningdek ular foydalanayotgan er maydoni kengaygan yoki er solig’i bo’yicha imtiyoz huquqlari to’xtatib qo’yilgan hollarda ular er uchastkasi ajratilgan yoki imtiyozlar to’xtatilgan kundan e’tiboran bir oydan kechiktirmay soliq organlariga er solig’i bo’yicha hisob-kitoblarni taqdim etishlari shart. Yil davomida ajratilgan er uchastkalari uchun soliq er uchastkasi ajratilganidan keyingi oydan e’tiboran to’lanadi. Er uchastkasi olib qo’yilgan (kamaytirilgan), haqi to’lab qaytarib olingan, sotilgan taqdirda soliq undirish er uchastkasi olib qo’yilgan (kamaytirilgan), haqi to’lab qaytarib olingan, sotilgan oydan e’tiboran to’xtatiladi (kamaytiriladi).

YUridik shaxslarga er solig’i bo’yicha imtiyozlar belgilanganda ular bunday huquq paydo bo’lgan oydan e’tiboran soliq to’lamaydilar. Er solig’i bo’yicha imtiyozlarga ega bo’lish huquqi to’xtatilgan taqdirda ular bunday huquq to’xtatilganidan keyingi oydan e’tiboran er solig’i to’lay boshlaydilar.

YUridik shaxslar tomonidan (qishloq xo’jalik korxonalaridan tashqari) soliq yilning har choragida, teng ulushlarda chorakdagi ikkinchi oyning 15-kunigacha to’lanadi.

Agar yuridik shaxs er uchastkasini hisobot choragi uchun to’lash muddati tugaganidan keyin olgan bo’lsa, ushbu davr uchun soliqni to’lash muddati bo’lib keyingi chorak uchun soliq to’lash muddati hisoblanadi.

YAgona er solig’ini to’lashga o’tmagan qishloq xo’jaligi korxonalari er solig’ini yilda bir marotaba, hisobot yilining 15 dekabrigacha to’laydi.

Qishloq xo’jalik korxonalari er solig’ini bir yilda bir marta - hisobot yilining 15 dekabrigacha to’laydilar.

Yil davomida ajratilgan er uchastkalari uchun soliq er uchastkasi ajratilgan oydan keyingi oydan boshlab to’lanadi. (Masalan, vakolatli hokimiyat organining 15 avgustdagi qarori bilan korxonaga er ajratilsa, u er solig’ini 1 sentyabrdan boshlab to’laydi).

Er uchastkasi olib qo’yilgan (kamaytirilgan), haqi to’lab qaytarib olingan, sotilgan taqdirda soliq undirish er uchastkasi olib qo’yilgan (kamaytirilgan), haqi to’lab qaytarib olingan, sotilgan oydan boshlab to’xtatiladi (kamaytiriladi). (Masalan, korxonadan er uchastkasining bir qismi vakolatli hokimiyat organining 25 avgustdagi qaroriga ko’ra olib qo’yilsa, u er solig’ini to’lashni 1 avgustdan boshlab to’xtatadi).

YUridik shaxslarga er solig’i bo’yicha imtiyoz belgilansa, ular ushbu huquq paydo bo’lgan oydan boshlab soliq to’lashni to’xtatadilar. Er solig’i bo’yicha imtiyoz huquqi to’xtatilgan taqdirda ular er solig’ini ushbu huquq to’xtatilgan oydan keyingi oydan boshlab to’laydilar. Soliq to’lovchi tomonidan ortiqcha soliq summalari to’langan taqdirda, agar boshqa soliqlar va yig’imlar bo’yicha qarz

mavjud bo'lmasa, ushbu summalar soliq to'lovchiga o'ttiz kun ichida uning yozma arizasi bo'yicha qaytariladi yoki bo'lg'usi to'lovlar hisobiga qayd etiladi.

Er solig'i, soliq to'lovchining joylashgan eridan qat'i nazar, hududida er uchastkasi joylashgan tuman yoki shaharning mahalliy byudjetiga to'lanadi. Agar er uchastkasi ham tuman, ham shahar hududida joylashgan bo'lsa, soliq xuddi shu tartibda to'lanadi.

Agar Toshkent shahrining ma'muriy chegarasi korxona erlarining o'rtasidan o'tsa va uning erlari bir qismi Toshkent shahri Uch tepa tumanining hududida, boshqa qismi esa Toshkent viloyati Zangiota tumanining hududida bo'lib qolsa, korxona shahar hududida joylashgan er qismi uchun er solig'ini shahar uchun stavkalar bo'yicha hisob-kitob qiladi va hisob-kitobni Uch tepa tumani Davlat soliq inspektsiyasiga topshiradi hamda soliqni shahar byudjetiga to'laydi. Zangiota tumani hududida joylashgan er qismi uchun hisob-kitob Toshkent viloyatining qishloq joylari uchun stavkalar bo'yicha amalga oshiriladi, hisob-kitob tuman Davlat soliq inspektsiyasiga topshiriladi va ushbu tuman byudjetiga soliq to'lanadi.

YUridik shaxslarning byudjet bilan er solig'i bo'yicha hisob-kitoblari buxgalteriya hisobi byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzlarni hisobga olish hisobvarag'ida yuritiladi.

1. Hisoblab yozilgan soliq summasi quyidagicha aks ettiriladi: davr xarajatlarini hisobga olish hisobvarag'i debeti; byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzlarni hisobga olish hisobvarag'i krediti.

2. Byudjetga o'tkazilgan soliq summalari quyidagicha aks ettiriladi: byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzlarni hisobga olish hisobvarag'i debeti; pul mablag'larini hisobga olish hisobvarag'i krediti.

Er solig'i to'lovchilari davlat soliq xizmati organlarining qarorlari va ular mansabdor shaxslarining harakatlari ustidan davlat soliq xizmatining yuqori organlari yoki sudga shikoyat qilish huquqiga egadirlar. Er solig'i to'lovchilari O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

Davlat soliq xizmati organlari soliqning to'g'ri hisoblab chiqarilishi va o'z vaqtida to'lanishi ustidan O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq nazoratni amalga oshiradilar.

Qisqacha xulosalar

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, jamiyat taraqqiyotining tadrijiy rivojlanish bosqichlarida soliq munosabatlari uzluksiz rivojlanib borgan.Ushbu munosabatlar tizimini bugungi kun talablari darajasida yanada samaraliroq tashkil etish va amalga oshirish, sub'ektlar tomonidan undagi ayrim elementlar mexanizmini maqbul shartlar asosida qabul qilish zaruriyatini belgilaydi. Soliqqa tortish munosabatlaridagi mana shunday muhim elementlar mexanizmidan biri, bu er solig'iga tortish mexanizmidir.

Er mulkchiligini amalga oshirishning asosiy iqtisodiy shakli er solig'i hisoblanadi. Respublikamizda mavjud erlarning sifatini yaxshilash, erlardan samarali foydalanish va soliq tizimida islohatlar amalga oshirilayotgan bir

sharoitda soliq munosabatlari, soliqqa tortish uslublari, mahalliy soliqlarni rejalashtirish, mavjud mablag'lardan maqsadli foydalanish bo'yicha soliq munosabatlarini huquqiy mexanizmlarini ishlab chiqish lozim.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. YUridik shaxslardan undiriladigan er solig'ini to'lovchilar kimlar hisoblanadi?
2. YUridik shaxslardan undiriladigan er solig'i bo'yicha soliq solish ob'ekti nima hisoblanadi?
3. YUridik shaxslardan undiriladigan er solig'i bo'yicha qanday soliq stavkalari mavjud?
4. YUridik shaxslardan undiriladigan er solig'i bo'yicha qanday soliq imtiyozlari belgilangan?
5. YUridik shaxslardan undiriladigan er solig'ini hisoblash tartibi qanday?
6. YUridik shaxslardan undiriladigan er solig'i qaysi byudjetga o'tkaziladi?
7. YUridik shaxslardan undiriladigan er solig'i qanday muddatlarda to'lanadi?

Asosiy adabiyotlar

1. **O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. -T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2005., 3-152 b.**
2. **O'zbekiston Respublikasining "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi qonuni. // Xalq so'zi, 1997 yil, 29 avgust.2–bet.**
3. O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 1118- soni bilan ro'yxatga olingan, Er solig'ini hisoblab chiqarish va to'lash tartibi to'g'risida Yo'riqnoma 27.03.2002.
4. **Zavalishina I.A. Soliqlar: nazariya va amaliyot. -T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2005. 310-343 betlar**
5. **YAhyoev Q. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. -T.: Fan va texnologiyalar markazi, 2003., 108-115 betlar**
6. **Kochergov D.S., Ustinova E.E. Uproщennaya sistema nalogooblojeniya. -M.: Omega, 2006.- 317 s.**
7. **YUtkina G.F. Nalogi i nalogooblojeniya: Uchebnik. – 5-e izd., pererab. i dop. – M.: INFRA-M, 2006. – 509 s.**
8. **Nalogi i nalogovaya sistema Rossiyskoy Federatsii: Uchebnik. – M.: Finansы i statistika, 2006. – 464 s.**
9. **Aleksandrov I.M. Nalogi i nalogooblojenie: Uchebnik. – 3-e izd., prerab. i dop. – M.: "Dashkov i K", 2005. – 314s.**
10. **Latipov A. Erdan foydalanish va unga soliq solish. –T.: "Iqtisodiyot va huquq dunyosi" nashriyot uyi, 2005 yil, 19-31 betlar.**

X bob. OBODONLASHTIRISH VA IJTIMOIY INFRATUZILMANI RIVOJLANTIRISH UCHUN SOLIQ

10.1. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini to'lovchilar

Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini to'lovchilari bo'lib tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar – O'zbekiston Respublikasining rezidentlari hisoblanadilar.

Soliq solish maqsadida yuridik shaxslar deganda mulkida, xo'jalik yuritishida yoki tezkor boshqaruvida mol-mulki bo'lgan va o'z majburiyatlari bo'yicha ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, shuningdek mustaqil balans va hisob-kitob raqamiga ega bo'lgan alohida bo'linmalar ham tushuniladi.

Quyidagilar obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini to'lovchilari bo'lib hisoblanmaydilar:

a) notijorat tashkilotlari. Bunda tadbirkorlik faoliyatidan daromad oluvchi notijorat tashkilotlari ushbu faoliyat bo'yicha soliqni umumbelgilangan tartibda to'laydilar.

b) soliq solishning soddlashtirilgan tartibi o'rnatilgan yuridik shaxslar (agar ularda qonunchilikka binoan obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini to'lash majburiyati yuzaga kelmasa).

10.2. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ining soliq solish ob'ekti va soliq stavkalari

Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini hisoblashda soliq solish ob'ekti bo'lib, hisoblangan foyda solig'i chegirilganidan keyingi sof foyda (daromad) hisoblanadi. Byudjetga to'lanadigan soliq summasi yuqorida ko'rsatilgan hisobot shaklining 260-satrida aks ettiriladi.

Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ining eng yuqori stavkasi soliq solish ob'ektining 8 foizi miqdorida belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 18 dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining 2007 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-532–son qaroriga muvofiq 2007 yilda obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i stavkalari quyidagi jadvaldagi miqdorlarda belgilangan (7-jadvalning 1-bandi):

7-jadval

Mahalliy soliqlar va yig'imlarning eng yuqori stavkalari

№	Soliq va yig'imlar turlari	CHegaralangan stavkalar
1.	Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i	Korxona ixtiyorida qoladigan sof foydaning 8%
2.	Iste'mol uchun jismoniy shaxslardan undiriladigan soliq :	
	transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi	1 litr uchun 80 so'm
	transport vositalari uchun gaz	1 kg uchun 80 so'm

3.	Ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig'im :	
	alkogolli mahsulotlar	bir oylik savdo uchun eng kam ish haqining 5 baravari
	qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlardan yasalgan buyumlar	bir oylik savdo uchun eng kam ish haqining 3,5 baravari
4.	Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadigan yuridik, shuningdek jismoniy shaxslarni ro'yxatdan o'tkazish uchun yig'im	eng kam ish haqining 5 baravari

10.3. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini hisoblash tartibi

Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini hisoblashda soliqni to'lovchilar uchun soliq solish bazasi bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

a) balansida ijtimoiy infratuzilma ob'ektlari bo'lmaganlar uchun – sof foyda;

b) balansida ijtimoiy infratuzilma ob'ektlari bo'lganlar uchun – to'g'rilangan sof foyda hisoblanadi.

To'g'rilangan sof foyda quyidagi formula asosida aniqlanadi:

Sf+Xis-S,

bu erda

Sf - sof foyda;

Xis – ijtimoiy infratuzilma ob'ektlarini saqlab turish bo'yicha amaldagi xarajatlar;

S - daromad (foyda) solig'ining hisob-kitob qilingan summasi, u daromad (foyda) solig'ining belgilangan stavkasi va ijtimoiy infratuzilma ob'ektlarini saqlab turish bo'yicha amaldagi xarajatlari summasidan kelib chiqib hisoblanadi (Xis x daromad (foyda) solig'i stavkasi : 100);

Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini hisoblab chiqarish va to'lash tartibi to'g'risidagi yo'riqnomani qo'llash maqsadida ijtimoiy infratuzilma ob'ektlariga sog'liqni saqlash, bolalar maktabgacha tarbiya muassasalari va umumta'lim maktablari kiradi. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i soliq solish bazasi va belgilangan stavkadan kelib chiqib hisoblanadi.

Bunda, agar balansida ijtimoiy infratuzilma ob'ektlari mavjud bo'lgan soliq to'lovchida ijtimoiy infratuzilma ob'ektlarini saqlab turish bo'yicha amaldagi xarajatlari:

- hisoblangan obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i summasiga teng yoki undan ko'p bo'lsa, soliq to'lanmaydi;

- hisoblangan obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i summasidan kam bo'lsa, byudjetga to'lanadigan obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i hisoblangan obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i hamda ijtimoiy infratuzilma ob'ektlarini saqlab turish bo'yicha haqiqatdagi xarajatlar farqi sifatida aniqlanadi.

10.4. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini to'lash muddatlari

CHorak davomida soliq to'lovchilar obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ining byudjetga joriy to'lovlarini amalga oshiradilar. Joriy to'lovlarni hisoblab chiqarish va to'lash uchun soliq to'lovchilar taxmin qilinayotgan soliqqa tortiladigan sof foyda (daromad) va belgilangan soliq stavkasidan kelib chiqadilar hamda joriy chorak birinchi oyining 5 kuniga qadar davlat soliq xizmati organlariga joriy to'lovlar unga muvofiq hisoblab yoziladigan ma'lumotnoma (13-ilova) taqdim etadilar.

Yilning hisobot choragida mahsulotni sotishdan olgan daromadi (foydasi) eng kam ish haqi darajasining 200 baravarigacha bo'lgan yuridik shaxslar, shuningdek yagona er solig'ini to'lashga o'tmagan qishloq xo'jaligi korxonalari (dehqon xo'jaliklari bundan mustasno), ular ishlab chiqarishining mavsumiy xarakterdaligini hisobga olib, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i to'lovlarini joriy to'lovlarni to'lamasdan har chorakda, yil boshidan o'sib boruvchi yakun bilan, oldingi choraklar uchun hisoblangan soliq summalarini hisobga olgan holda amalga oshiradilar.

Joriy to'lovlar har bir oyning 25-kunidan kechiktirmay, soliq choraklik summasining uchdan bir qismi hajmida amalga oshiriladi.

Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i bo'yicha hisob-kitoblar ro'yxatdan o'tkazish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga har chorakda o'sib boruvchi yakun bilan (14-ilovadagi shakl asosida) hisobot choragidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa - yillik moliyaviy hisobotni taqdim etish muddatida haqiqatda shakllangan soliq solinadigan bazadan kelib chiqib taqdim etiladi.

Hisob-kitob bo'yicha hisoblangan obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i summasini to'lovchilar byudjetga obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i bo'yicha hisob-kitoblarni taqdim etish muddatlari belgilangan kundan boshlab 5 kun davomida to'laydilar.

Byudjet bilan hisob-kitoblar buxgalteriya hisobi byudjetga to'lovlar bo'yicha (turlar bo'yicha) qarzlarni hisobga olish hisobvarag'i bo'yicha yuritiladi. Belgilangan tartibda hisoblangan soliq byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzlarni hisobga olish hisobvarag'i krediti va soliqlar hamda yig'imlarni to'lash uchun foydani ishlatishni hisobga olish hisobvarag'i debeti bo'yicha aks ettiriladi.

O'tkazilgan soliq summalari byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzlarni hisobga olish hisobvarag'i debeti va pul mablag'larini hisobga olish hisobvarag'i krediti bo'yicha aks ettiriladi.

Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i mahalliy byudjetga o'tkaziladi.

Soliq qonunchiligini buzganlik uchun obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini to'lovchilar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

Soliq qonunchiligiga rioya etilishi ustidan nazorat Davlat soliq xizmati organlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi, O'zbekiston Respublikasining "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Qisqacha xulosalar

Mamlakatimiz bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'lidan jadal rivojlanib borar ekan iqtisodiyotning turli tarmoqlari orasida mahalliy soliqlar alohida e'tibor talab etadi. CHunki obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i iqtisodiyotimiz tayanchi, mahalliy byudjetning asosiy tarkibiy qismidir. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda asosiy o'rin tutadi va soliq tizimida mahalliy soliqlar tarkibida muhim ahamiyatga ega.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini to'lovchilar kimlar hisoblanadi?
2. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i solish ob'ekti nima hisoblanadi?
3. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i bo'yicha qanday soliq imtiyozlari belgilangan?
4. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i stavkalari va hisoblash tartibi qanday?
5. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish uchun soliq qanday muddatlarda to'lanadi?

Asosiy adabiyotlar

1. **O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi. Respublika Axborot-Maslahat markazi. -T.: 2005.**
2. O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligida 2007 yil 17 mayda 1680-son bilan ro'yxatga olingan Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasining 2007 yil 6 apreldagi 38, 2007-27-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish uchun soliqni hisoblab chiqarish va byudjetga to'lash tartibi to'g'risida"gi Yo'riqnoma.
3. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2003 yil 16 fevraldagi 1217-son bilan ro'yxatga olingan, Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasining 2003 yil 5 fevraldagi 28, 2003-23-sonli qarori bilan tasdiqlangan Mahalliy soliqlar va yig'imlarni hisoblab chiqarish va byudjetga to'lash tartibi to'g'risida Yo'riqnoma
4. **YUtkina G.F. Nalogi i nalogooblojeniya. Uchebnik. – 5-e izd., pererab. i dop. – M.: INFRA-M, 2006. – 509 s.**
5. **Aleksandrov I.M. Nalogi i nalogooblojenie: Uchebnik. – 3-e izd., prerab. i dop. – M.: "Dashkov i K", 2005. – 314s.**
6. **Zavalishina I.A. Soliqlar: nazariya va amaliyot. -T.: "Iqtisodiyot va huquq dunyosi" nashriyot uyi, 2005. 366-372 betlar.**

7. **YAhyoev Q. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. -T.: Fan va texnologiyalar markazi, 2003. 181-183-betlar.**

XI bob. SUV RESURSLARIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQ

11.1. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lovchilar

O'z faoliyatida suvdan foydalanuvchi yuridik shaxslar, dehqon xo'jaliklari (yuridik shaxs tashkil etadigan va yuridik shaxs tashkil etmaydigan) hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi jismoniy shaxslar suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilardir.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqqa tortish tartibi soliq solishning alohida tartibi o'rnatilgan to'lovchilarning ayrim toifalariga tatbiq etilmaydi.

Bunda, agar soliq solishning alohida tartibi o'rnatilgan to'lovchilar asosiy faoliyat turi bilan bir qatorda boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullansalar, ular alohida hisob olib borishlari va shu faoliyatda foydalaniladigan suv hajmidan kelib chiqib suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lashlari kerak.

Suvdan foydalanish joyida yuridik shaxslar, davlat soliq xizmati organlarida ro'yxatga olinish joyidan qat'i nazar, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'laydilar.

Aholi punktlarining suv ta'minoti uchun suv etkazib beruvchi yuridik shaxslar o'z faoliyatida ishlatiladigan suv uchungina soliq to'lovchilar hisoblanadi.

11.2. Suv resurslaridan foydalanganlik solig'ining soliq solish ob'ekti va soliq stavkalari

Er usti va er osti manbalaridan foydalaniladigan suv resurslarining hajmi soliq solish ob'ekti hisoblanadi.

Er usti manbalariga kiradi: daryolar, ko'llar, suv omborlari, er yuzasidagi boshqa havzalar va suv manbalari, turli xil kanal va hovuzlar.

Er osti manbalariga kiradi: artezian quduqlar va skvajinalar, vertikal va gorizontal zovur tarmog'i.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi va soliq to'lovchilarga O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan tartibda etkaziladi. Suvdan qishloq xo'jalik ekinlari va ko'chatlarini sug'orish uchun foydalanadigan yordamchi xo'jaliklarga ega yuridik shaxslar, shuningdek ilmiy-tadqiqot tashkilotlari va o'quv yurtlarining o'quv-tajriba xo'jaliklari soliqni qishloq xo'jalik korxonalari uchun belgilangan stavkalar bo'yicha to'laydilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 18 dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining 2007 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari

prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-532–son qaroriga muvofiq 2007 yilda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari quyidagi jadvaldagi miqdorlarda belgilangan (8-jadval):

11.3. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha belgilangan imtiyozlar

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lashdan quyidagi yuridik shaxslar ozod etiladi:

a) notijorat tashkilotlari, ana shu faoliyatda ishlatilgan suv hajmidan kelib chiqib, suv resurslaridan tadbirkorlik faoliyati uchun foydalanuvchilardan tashqari. Soliq solish maqsadida notijorat tashkilotlari deganda quyidagilar tushuniladi: faqat davlat byudjeti mablag'lari hisobiga moliyalanadigan, xarajatlarni qoplash uchun belgilangan smetalar doirasida dotatsiya oladigan korxonalar, muassasalar va tashkilotlar; xayriya birlashmalari, uyushmalari va jamg'armalari, xalqaro tashkilotlar, diniy birlashmalar va boshqa tashkilotlar:

1) ijtimoiy-xayriya yoki tadbirkorlik faoliyatidan daromad olishni ko'zlamaydigan, ta'sis hujjatlarida ta'kidlangan boshqa maqsadlar uchun barpo etilganlari;

2) moliyaviy va boshqa mablag'larni mazkur tashkilot xodimlari, muassislari yoki a'zolarining shaxsiy manfaatlari uchun taqsimlamaydigan va investitsiyalamaydiganlari (qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mehnatga haq to'lashlar bundan mustasno);

b) er osti mineral suvlaridan davolash maqsadlarida foydalanadigan sog'liqni saqlash muassasalari, ular mineral suvlardan savdo tarmog'ida sotish uchun foydalanadigan hollar bundan mustasno;

v) farmatsevtika faoliyati bilan shug'ullanadigan va suvdan dorivor vositalar tayyorlashda foydalanadiganlar;

g) atrof muhitga zararli ta'siri oldini olish maqsadida chiqarib tashlanadigan er osti suvlari uchun (ishlab chiqarish va texnik ehtiyojlar uchun ishlatiladigan suv hajmlaridan tashqari). Masalan, sizot suvlarning sathini pasaytirish maqsadida chiqarib tashlanadigan zovur suvlari;

d) uning uchun byudjetga soliq to'lagan yuridik shaxslardan suv olgan iste'molchilar;

e) foydali qazilmalar qazib olish bilan yo'l-yo'lakay va shaxtadan suvni chiqarib tashlash uchun olingan er osti suvlari uchun, ishlab chiqarish va texnik ehtiyojlar uchun foydalaniladigan suv hajmlaridan tashqari;

j) agregatlar ishlashi uchun suvdan foydalanganlik uchun gidroelektrostantsiyalar;

z) birlamchi foydalanganlik uchun haq to'langan suvdan ikkilamchi foydalanuvchilar (masalan, sug'orish uchun kollektor-zovur tarmog'idagi suvdan foydalanish);

i) faoliyatning asosiy turi bo'yicha qishloq xo'jalik mahsuloti etishtiruvchilar sho'rlangan erlarni sug'orishga suvdan foydalanganlik uchun. Soliq imtiyozi yordamchi qishloq xo'jaligiga ega yuridik shaxslarga ham tatbiq etiladi;

k) umumiy ishlovchilarining kamida ellik foizi nogironlar bo'lgan, nogironlarning jamoat birlashmalari, "Nuroniy" jamg'armasi va "O'zbekiston chernobilchilari" uyushmasi mulkida bo'lganlari, savdo-sotiq, vositachilik, ta'minot-sotish va tayyorlov faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslardan tashqari;

Soliq to'lovchilarga O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi amalga kiritilishiga qadar qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga ko'ra taqdim etilgan soliq imtiyozlari ular taqdim etilgan muddat tugashiga qadar saqlanadi.

11.4. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblash tartibi va to'lash muddatlari

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilar tomonidan, dehqon xo'jaliklari (yuridik shaxs tashkil etadigan va tashkil etmaydigan)dan tashqari, tasdiqlangan stavkalar bo'yicha amalda olingan soliqqa tortiladigan suv hajmidan kelib chiqib hisoblanadi.

Dehqon xo'jaliklari (yuridik shaxs tashkil etadigan va yuridik shaxs tashkil etmaydigan) uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq davlat soliq xizmati organlari tomonidan umuman xo'jalik bo'yicha o'tgan yilda 1 ga sug'oriladigan erga sarflangan suv hajmidan kelib chiqib hisoblanadi.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha hisob-kitob:

1) yuridik shaxslar (dehqon xo'jaliklari, mikrofirmalar va kichik korxonalardan tashqari) tomonidan soliq qonunchiligiga muvofiq shakl (15-ilovadagi shakl bo'yicha) bo'yicha soliqni to'lash uchun belgilangan muddatda;

2) mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan - birinchi chorak, yarim yillik, 9 oy yakunlari bo'yicha hisobot choragidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmasdan soliq qonunchiligiga muvofiq shakl bo'yicha oyma-oy taqsimlangan holda, yil yakunlari bo'yicha esa - yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda;

3) tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar (dehqon xo'jaliklaridan tashqari) tomonidan soliq qonunchiligiga muvofiq shakl bo'yicha (15-ilovadagi shakl bo'yicha) soliqni to'lash uchun belgilangan muddatda davlat soliq xizmati organlariga o'sib boruvchi yakun bilan taqdim etiladi.

Dehqon xo'jaliklariga (yuridik shaxs tashkil etadigan va yuridik shaxs tashkil etmaydigan) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lash to'g'risida to'lov xabarnomalari davlat soliq xizmati organlari tomonidan joriy yilning 1 mayidan kechiktirmay taqdim etiladi.

Suvni markazlashtirilgan vodoprovod tarmog'idan oladigan yuridik shaxslar "Suvoqava" tizimi korxonalari bilan solishtirish jarayonida olingan suv hajmini aniqlashtirish chog'ida suv hajmidagi farqni solishtirish amalga oshirilgan davr uchun hisob-kitoblarda aks ettiradilar.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq quyidagi muddatlarda to'lanadi:

1. YUridik shaxslar tomonidan (qishloq xo'jaligi korxonalari va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) - har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 15-kunigacha;

2. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tomonidan (dehqon xo'jaliklaridan tashqari) - har chorakda, hisobot choragidan keyingi oyning 15-kunigacha.

3. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning umumiy summasi chorakda eng kam ish haqining ellik baravaridan kam miqdorni tashkil etadigan yuridik shaxslar soliqni chorakda bir marta, hisobot choragidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay to'laydilar. Bunda, mikrofirmalar va kichik korxonalar hisob-kitoblarni soliq qonunchiligiga muvofiq shaklda taqdim etadilar.

Soliq to'lovchilar (qishloq xo'jalik korxonalaridan tashqari) joriy yilning 15 yanvariga qadar suvdan foydalanish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga soliqni belgilangan limitdan kelib chiqib yoki suv etkazib berish shartnomasiga ko'ra har oyda yoki har chorakda to'lashlari to'g'risida bildiruvnoma yuboradilar.

4. YAgona er solig'ini to'lashga o'tmagan qishloq xo'jalik korxonalari va dehqon xo'jaliklari (yuridik shaxs tashkil etadigan va yuridik shaxs tashkil etmaydigan) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni yilda bir marta - hisobot yilining 15 dekabriga qadar to'laydilar.

YAgona er solig'ini to'lashga o'tmagan qishloq xo'jalik korxonalari boshqa yuridik va jismoniy shaxslar foydalangan suv hajmini olingan suvning umumiy hajmidan chiqarib tashlaydilar, bunda 1 gektar sug'oriladigan erni sug'orishga suv sarfining umuman xo'jalik bo'yicha o'rtacha miqdoridan kelib chiqiladi. Soliq to'lovchi tomonidan ortiqcha soliq summalari to'langan taqdirda, soliqlar, yig'imlarning boshqa turlari bo'yicha qarz mavjud bo'lmasa, ushbu summalar soliq to'lovchiga uning yozma arizasi bo'yicha o'ttiz kun ichida qaytariladi yoki bo'lg'usi to'lovlar hisobi o'tkaziladi.

Suv er osti va yuzadagi manbalardan kelib tushadigan suv tarmog'idagi suvdan foydalanilganda soliq manbalar bo'yicha belgilangan stavkalardan kelib chiqib hisoblanadi. SHahar va tumanlarning davlat soliq xizmati organlari suv etkazib beruvchi korxonalardan vodoprovod tarmog'iga yuzadagi va er osti manbalaridan kelib tushadigan suv hajmlari nisbati to'g'risidagi ma'lumotlarni olishlari va mazkur ma'lumotlarni soliq to'lovchilarga etkazishlari kerak.

Korxonalar, muassasalar va tashkilotlar tomonidan binolar bir qismi, ayrim xonalar boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga ijaraga topshirilganida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni "Suvoqava" tizimi korxonalari yoki suv xo'jaligi organlari yoxud boshqa korxonalar bilan suv etkazib berish to'g'risida shartnoma tuzgan ijaraga beruvchilar to'laydilar.

Bino (xona)ni ijaraga olgan va o'zlari suv etkazib berish to'g'risida shartnoma tuzgan yuridik shaxslar suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni mustaqil ravishda to'laydilar. Amaldagi korxonalar va tashkilotlar hududida ta'mirlash-qurilish va boshqa ishlarni bajaradigan yuridik shaxslar ushbu ishlarni bajarish jarayonida foydalaniladigan suv uchun soliq to'lamaydilar. Ta'mirlash-qurilish va boshqa ishlarni bajarish chog'ida foydalaniladigan suv hajmi uchun soliqni ular uchun ushbu ishlar bajariladigan korxona va tashkilotlar to'laydilar. YAngi

qurilish maydonchasida qurilish ishlarini bajarish chog'ida qurilish paytida foydalaniladigan suv hajmi uchun soliqni qurilish tashkiloti to'laydi.

Mulkchilik va bo'ysunish shaklidan qat'i nazar issiq suv va bug' uzatuvchi korxonalar suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni ular tomonidan yuzadagi va er osti manbalaridan ishlab chiqarish va texnik ehtiyojlar uchun ishlatilgan suv resurslari hajmi uchun to'laydilar.

YUridik shaxslarning byudjet bilan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha hisob-kitoblarining buxgalteriya hisobi byudjetga to'lovlar bo'yicha (turlar bo'yicha) qarzlarni hisobga olish hisobvarag'ida yuritiladi.

1. Hisoblab yozilgan soliq summasi quyidagicha aks ettiriladi: davr xarajatlarini hisobga olish hisobvarag'i debeti; byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzlarni hisobga olish hisobvarag'i krediti.

2. Byudjetga o'tkazilgan soliq summalari quyidagicha aks ettiriladi: byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzlarni hisobga olish hisobvarag'i debeti; pul mablag'larini hisobga olish hisobvarag'i krediti.

Soliq to'lovchilar davlat soliq xizmati organlarining qarorlari va ular mansabdor shaxslarining harakatlari ustidan davlat soliq xizmatining yuqori organlari yoki sudga shikoyat qilish huquqiga egalar.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning to'g'ri hisoblash va to'lanishi ustidan nazorat O'zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organlari tomonidan, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Qisqacha xulosalar

Suv resurslari mamlakatimizning katta boyligi hisoblanib, undan samarali foydalanish har bir O'zbekiston Respublikasi fuqarosining burchi hisoblanadi. SHuning uchun suv resurslaridan oqilona va tejamkorlik bilan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblash mexanizmi qanchalik mukammal bo'lmasin uni suv tanqisligi sharoitida qayta ko'rib chiqish zarurdir. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni belgilashda soliq to'lovchilarni iqtisodiy holati va hududiy joylashishiga qarab o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda belgilash lozim.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lovchilar kimlar hisoblanadi?
2. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq solish ob'ektiga nimalar kiradi?
3. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha qanday soliq stavkalari mavjud?
4. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblash tartibi qanday?
5. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha qanday imtiyozlar mavjud?
6. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lash muddatlari qanday?

Asosiy adabiyotlar

1. **O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi. Respublika Axborot-Maslahat markazi. -T.: 2005.**
2. O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligida 2002 yil 15 fevralda 1097-son bilan ro'yxatga olingan, Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasining 2002 yil 14 yanvardagi 7, 2002-8-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblab chiqarish va to'lash tartibi to'g'risida"gi Yo'riqnoma.
3. **YUtkina G.F. Nalogi i nalogooblojeniya: Uchebnik. – 5-e izd., pererab. i dop. – M.: INFRA-M, 2006. – 509 s.**
4. **Zavalishina I.A. Soliqlar: nazariya va amaliyot. -T.: "Iqtisodiyot va huquq dunyosi" nashriyot uyi, 2005. 355-361 betlar.**

XII bob. ER OSTI BOYLIKLARIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQ

12.1. Er osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lovchilar va soliqqa tortish ob'ektlari

Soliqqa tortish maqsadida er osti boyliklari deganda er qobig'ining yuqori qismini qamrab oladigan hamda foydali qazilmalarni tadqiq qilish va qazib olish mumkin bo'lgan makon, foydali qazilmalar deganda - iqtisodiy va sog'lomlashtirish ahamiyatiga ega geologik hosilalar qaraladi.

Er osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliqni O'zbekiston Respublikasi hududida foydali qazilmalarni qazib olish, texnogen hosilalardan foydalanish, shuningdek chaqnoq toshlar xom ashyosi namunalari, paleontologik qoldiqlar va boshqa geologik kollektsiya materiallarini yig'ish bilan shug'ullanadigan yuridik va jismoniy shaxslar to'laydilar.

Tarkibida rangli, nodir, asl, qora metallar va boshqa mineral xom ashyo bo'lgan rudalarni bir korxona qazib olib, uni bundan keyin qayta ishlash uchun boshqa korxonalarga bersa (eksport bundan mustasno), qazib olinadigan rudani qayta ishlaydigan va soliq stavkasi belgilangan tayyor mahsulot chiqaradigan korxona soliq to'lovchi hisoblanadi. Masalan, Olmaliq mis qazib olish korxonasi tarkibida mis bo'lgan, qazib olingan rudani boyitish fabrikasiga beradi, fabrika boyitilgan rudani Olmaliq kon-metallurgiya kombinatining mis eritish zavodiga topshiradi. Kombinat tayyor mahsulot - tozalangan mis chiqaradi, soliq stavkasi ham unga belgilangan. Mazkur holatda rudani qazib oluvchi korxona emas, balki tozalangan misni olganlik uchun kombinat soliq to'lovchi hisoblanadi.

Ruda qayta ishlash uchun O'zbekiston Respublikasidan tashqariga yuklab jo'natilgan yoki eksport qilingan taqdirda rudani qazib olgan korxona soliq to'lovchi bo'lib hisoblanadi.

Quyidagilar er osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliqqa tortish ob'ektlari hisoblanadi:

1) Foydali qazilmalarni qazib olish hajmi (shu jumladan yo'l-yo'lakay olinadigan foydali qazilmalar va qimmatli komponentlar) ularni qayta ishlashdan

olingan mahsulotning haqiqatda sotilish qiymati bo'yicha, qo'shilgan qiymat solig'i va aktsiz solig'ini chegirgan holda.

Qazib olingan ruda tarkibidan, asosiy foydali qazilmadan tashqari, unga doir stavkalar belgilangan boshqa xom ashyo ajratib olingan taqdirda yo'l-yo'lakay olinadigan foydali qazilmalar va qimmatli komponentlar soliqqa tortish ob'ekti bo'lib hisoblanadi.

Qazib olingan foydali qazilma yoki uning bir qismi korxona tomonidan boshqa materiallarni ishlab chiqarish yoki tayyorlash uchun xom ashyo hisoblangan taqdirda soliq ushbu xom ashyoni qazib olishning ishlab chiqarish tannarxidan kelib chiqib, tasdiqlangan stavkalar bo'yicha to'lanadi.

Hisobot oyida qazib olingan, lekin to'laligicha yoki qisman sotilmagan foydali qazilmalar hajmi uchun soliq sotilgan mahsulotning hisobot oyi yoki sotish amalga oshirilgan bundan oldingi oy uchun o'rtacha hisoblangan qiymatidan kelib chiqib to'lanadi.

Gaz qazib chiqaruvchi korxonalar uchun soliqqa tortish ob'ekti bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilangan sotish bahosi bo'yicha, qo'shilgan qiymat solig'i va aktsiz solig'i chegirilgan holda, birlamchi tayyorgarlikdan o'tgan qatlamdan qazib olingan tabiiy gaz (tozalanmagan gaz) hajmi hisoblanadi.

2) Texnogen hosilalar hajmi (mineral xom-ashyoni qazib olish va qayta ishlash chiqindilari) ajratib olingan asosiy foydali qazilmaning qonun hujjatlariga muvofiq haqiqiy sotilish qiymati bo'yicha, bunda qo'shilgan qiymat solig'i va aktsiz solig'i chegiriladi. Texnogen hosilalarga shu jumladan texnologik yoki boshqa sabablarga ko'ra vaqtincha ishlatilmayotgan mineral xom ashyoni qazib olish va qayta ishlash chiqindilari kiradi.

3) To'plangan chaqnoq tosh xom-ashyosi namunalari, paleontologik qoldiqlar va boshqa geologik kollektsiya materiallarining hisob qiymati.

Yig'ish deganda chaqnoq tosh xom-ashyosi namunalari, paleontologik qoldiqlar va boshqa geologik kollektsiya materiallarini tabiiy ochiq joylar, tabiiy er osti bo'shliqlari (g'orlar), ishlatib bo'lingan karerlar, kon qazish sanoati uyumlari, daryo qayirlarida konchilik va boshqa maxsus ish turlarini bajarmasdan, er ostining bir butunligini buzmasdan olib to'plash tushuniladi.

12.2. Er osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari

Er osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalarini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydi va soliq to'lovchilarga O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hamda Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan tartibda etkaziladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 18 dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining 2007 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-532–son qaroriga muvofiq 2007 yilda er osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari miqdorlari belgilangan. (16-ilova)

12.3. Er osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliqdan belgilangan imtiyozlar

Quyidagilar er osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lashdan ozod etiladilar:

a) er osti boyliklarini geologik jihatdan o'rganuvchi yuridik va jismoniy shaxslar;

b) geologik, mineralogik va boshqa alohida qo'riqlanadigan tabiiy hududlarda ilmiy ish olib boruvchi yuridik va jismoniy shaxslar;

v) hamma joyda tarqalgan foydali qazilmalarni ularga berilgan er uchastkalari doirasida belgilangan tartibda, o'z xo'jalik va maishiy ehtiyojlari uchun qazib olishni amalga oshiruvchi er egalari va erdan foydalanuvchilar.

Soliq qonunchiligiga muvofiq yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan maqsadlar uchun o'z hududida qazib olingan va ishlatiladigan keng tarqalgan foydali qazilmalar hajmi er osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lashdan ozod etiladi.

O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi amalga joriy etilishidan avval qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq soliq to'lovchilarga taqdim etilgan soliq imtiyozlari ular taqdim etilgan muddat tugashiga qadar saqlanadi.

12.4. Er osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblash va to'lash tartibi

Er osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha hisob-kitoblar quyidagi muddatlarda taqdim etiladi:

yuridik va jismoniy shaxslar (mikrofirmalar va kichik korxonalardan tashqari) soliq qonunchiligiga muvofiq belgilangan shakl bo'yicha (18-ilova) soliqni to'lash uchun belgilangan muddatda;

mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan – birinchi chorak, yarim yillik, 9 oy yakunlari bo'yicha hisobot choragidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmasdan soliq qonunchiligiga muvofiq shakl bo'yicha oyma-oy taqsimlangan holda, yil yakunlari bo'yicha esa – yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda davlat soliq xizmati organlariga o'sib boruvchi yakun bilan taqdim etiladi.

Er osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliqni yuridik shaxslar quyidagi tartib va muddatlarda to'laydilar:

a) foydali qazilmalarni qazib olganlik va texnogen hosilalardan foydalanganlik uchun – har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning yigirmanchi kuniga qadar;

b) rangli tosh xom-ashyosi, paleontologik qoldiqlar va boshqa geologik kollektsiya materiallari namunalarini to'plaganlik uchun har chorakda hisob-kitoblarni taqdim etish uchun belgilangan kundan kechiktirmay.

Bunda mikrofirmalar va kichik korxonalar soliq qonunchiligiga muvofiq belgilangan shakl bo'yicha (19-ilova) hisob-kitoblarni taqdim etadilar.

Keng tarqalgan foydali qazilmalarni (17-ilovada to'liq ro'yxati keltirilgan) qazib olish bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar yiliga bir marotaba, keyingi yilning 20 yanvaridan kechiktirmay, davlat soliq xizmati organlarining xabarnomasi bo'yicha hisob-kitobni ularga taqdim etadilar va er osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliqni to'laydilar.

Er osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq umumdavlat solig'i hisoblanadi va respublika byudjetiga kiritiladi.

YUridik shaxslarning er osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha hisob-kitoblari buxgalteriya hisobi byudjetga to'lovlar bo'yicha (turlar bo'yicha) qarzlarni hisobga olish hisobvarag'ida yuritiladi.

Hisoblab yozilgan soliq summasi quyidagicha aks ettiriladi: davr xarajatlarini hisobga olish hisobvarag'ining debeti; byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzlarni hisobga olish hisobvarag'ining krediti.

Byudjetga o'tkazilgan soliq summalari quyidagicha aks ettiriladi: byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzlarni hisobga olish hisobvarag'ining debeti; pul mablag'larini hisobga olish hisobvarag'ining krediti.

Soliq to'lovchi tomonidan ortiqcha soliq summalari to'langan holda, boshqa soliqlar va yig'imlar bo'yicha qarz bo'lmagan taqdirda, ushbu summalar soliq to'lovchiga uning yozma arizasiga ko'ra o'ttiz kun ichida qaytariladi yoki kelgusi to'lovlar hisobiga o'tkaziladi.

Er osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lovchilar O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar. Soliq to'lovchilar davlat soliq xizmati organlarining qarorlari va ular mansabdor shaxslarining harakatlari ustidan davlat soliq xizmatining yuqori organlari yoki sudga shikoyat qilish huquqiga ega bo'ladilar.

Er osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliqning to'g'ri hisoblab chiqilishi va to'lanishi ustidan nazoratni O'zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organlari O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiradilar.

Qisqacha xulosalar

Er ostidan foydalanganlik uchun soliq umumdavlat soliqlari tarkibida yangi soliq turlaridan bo'lib, atrof-muhitga etkaziladigan zarar oqibatlarni bartaraf etish maqsadida joriy etilgan. Er osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq davlatning moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojni qondirish maqsadida qonun tomonidan belgilab qo'yilgan me'yorda va o'rnatilgan muddatda O'zbekiston Respublikasi hududida foydali qazilmalarni qazib olish, texnogen hosilalardan foydalanish, shuningdek chaqnoq toshlar xom ashyosi namunalari, paleontologik qoldiqlar va boshqa geologik kollektsiya materiallarini yig'ish bilan shug'ullanadigan yuridik va jismoniy shaxslardan davlat ixtiyoriga majburiy ravishda undirib olinadigan to'lovlardir.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Soliqqa tortish maqsadida er osti boyliklari tushunchasi qanday ma'noni anglatadi va er osti boyliklari ga nimalar kiradi?

2. Er osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lovchilar kimlar hisoblanadi?
3. Er osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliqqa tortish ob'ektlariga nimalar kiradi?
4. Er osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha qanday soliq stavkalari mavjud?
5. Er osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblash hisoblash tartibi qanday?
6. Er osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha qanday imtiyozlar mavjud?
7. Er osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lash muddatlari qanday?

Asosiy adabiyotlar

1. **O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi. Respublika Axborot-Maslahat markazi. -T.: 2005.**
2. O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligida 1098-son bilan ro'yxatga olingan, Er osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblab chiqarish va to'lash tartibi to'g'risidagi Yo'riqnoma 15.02.2002
3. **YUtkina G.F. Nalogi i nalogooblojeniya: Uchebnik. – 5-e izd., pererab. i dop. – M.: INFRA-M, 2006. – 509 s.**
4. **Aleksandrov I.M. Nalogi i nalogooblojenie: Uchebnik. – 3-e izd., prerab. i dop. – M.: "Dashkov i K", 2005. – 314s.**
5. **Zavalishina I.A. Soliqlar: nazariya va amaliyot. -T.: "Iqtisodiyot va huquq dunyosi" nashriyot uyi, 2005 y. 348-354 betlar.**
6. **O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi. Respublika Axborot-Maslahat markazi. -T.: 2005.**
7. **Sbornik zadach po nalogam i nalogooblojenie: Uchebnoe posobie. / M.V. Vladыka, V.F. Tarasova, T.V. Saprыkina; pod obщ. Red. V.F. Tarasovoy. – M.: KNORUS, 2006. – 360 s.**
8. **YAhyoev Q. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. -T.: "Fan va texnologiyalar markazi", 2003 . 115-118 betlar.**

III bo'lim. JISMONIY SHAXSLARNI SOLIQQA TORTISH

XIII bob. JISMONIY SHAXSLARDAN UNDIRILADIGAN DAROMAD SOLIG'I

13.1. Jismoniy shaxslar daromad solig'ining iqtisodiy mohiyati, mazmuni va ob'ektiv zarurligi

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 51-moddasiga ko'ra soliqlar va boshqa yig'imlarni o'z vaqtida, to'la xajmda to'lash fuqarolarning asosiy majburiyatlaridan ekanligi qayd etilgan. Har bir fuqaro o'z daromadlaridan qonunda belgilangan miqdor, tartib va muddatlarda belgilangan soliqlar va ularga tenglashtirilgan to'lovlarni to'lab borishlari kerakligi amaldagi Soliq kodeksi va soliq qonunchiligining boshqa me'yoriy hujjatlari asosida tartibga solinadi.

Iqtisodiyotni liberallashtirish va mamlakatni modernizatsiyalash sharoitida jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig'ining mohiyati, soliq munosabatlaridagi ahamiyati, soliq tizimida va davlat byudjetining daromadlaridagi salmog'ini nazariy va amaliy ma'lumotlarga tayangan holda tahlil etish va o'rganish bugungi kun talabi hisoblanadi. Bugungi kunda jismoniy shaxslarni soliqqa tortish jarayonlarini o'rganadigan bo'lsak amaldagi soliq tizimida jismoniy shaxslarning daromad solig'i ular to'laydigan soliqlar ichida eng salmoqli o'rinni egallaydi.

Mamlakatimiz va xorijiy davlatlar soliq tizimini shakllanish va rivojlanish bosqichlari tarixini ko'rib chiqadigan bo'lsak jismoniy shaxslarning daromad solig'i bir necha asrlik tarixga ega.

O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo'mitasining ma'lumotlariga qaraganda jismoniy shaxslar daromadlaridan olinadigan soliq byudjet daromadlarida qo'shilgan qiymat solig'i, aktsiz solig'i va foyda solig'idan keyingi o'rinda turadi. SHu jumladan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan (qat'iy) soliq ham tegishli o'rinni egallaydi. Foiz bilan ifodalanganda jismoniy shaxslarning daromad solig'ining byudjet daromadlaridagi ulushi 2001 yilda 12,5 %ni, 2002 yilda 12,1 %ni, 2003 yilda 17,6 %ni, 2004 yilda 17,1 %ni, 2005 yilda 9,84 %ni, 2006 yilda 10,2 %ni tashkil etdi. (9 -jadval)

Soliqlarning ob'ektiv zarurligi - davlatning bajaradigan qator funktsiyalarning mablag' bilan ta'minlashning zarurligidan kelib chiqadi. Davlatning bajaradigan funktsiyalari ko'p bo'lib, bozor iqtisodi rivojlana borishi bilan ba'zi funktsiyalar yo'qola borsa, ba'zilari paydo bo'ladi. Qanchalik qiyin bo'lmasin, aholining daromad solig'iga tortishning yangi tizimini qat'iyan hayotga joriy etish zarur. CHunki u davlat daromadini shakllantirish nuqtai nazaridan avvalgi soliq tizimiga nisbatan ijtimoiy jihatdan ancha adolatli va yanada samaralidir.

Jismoniy shaxslar daromadlaridan olinadigan soliqlar ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatga egaki, boshqa soliqlarda bu holatni sezish qiyin. CHunki bu soliq har bir soliq to'lovchi sub'ektining hayotida muhim rol o'ynaydi. Jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliqlar milliy daromadni taqsimlashda davlatning, shu

jumladan mahalliy xokimiyat va boshqaruv organlarining pul shaklidagi yangi qiymatning bir qismini o'zlashtirilishi ta'minlanadi. Milliy daromadning majburiy ravishda safarbar qilingan bu qismi davlat moliya resurslarining bir qismiga, uning hayotiy faoliyatining asosiga aylanadi.

13.2. Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishning huquqiy asoslari

O'zbekiston Respublikasida bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatish usullari jiddiy ravishda o'zgarmoqda. Ma'muriy ta'sir ko'rsatish shakllaridan bilvosita iqtisodiy ta'sir ko'rsatish shakllariga o'tish muhim bo'lib qolmoqda. Davlatning jismoniy va yuridik shaxslar bilan o'zaro iqtisodiy munosabatlarini tartibga solib turadigan eng kuchli vositalardan biri soliq tizimi bo'lib, u bozor iqtisodiyotining qulay rivojlanish talablariga javob beradigan tarzda qurilishi ta'minlangan. Bu esa, soliqlarni davlatning mavjud bo'lib turishi uchun muhim vazifalarni bajaruvchi zarur vosita bo'lishi bilan bir qatorda, ular ham xo'jalik sub'ektlarini, ham aholining manfaatlariga mos kelmoqda.

Respublikamizda yangi soliq tizimini shakllantirishda xorijiy tajribalardan, ayniqsa, Evropa hamjamiyatiga kiruvchi mamlakatlar va AQSH tajribasidan keng foydalanilmoqda. Soliq qonunchiligini muayyan iqtisodiy sharoitlarga eng ko'p darajada yaqinlashtirishga, haddan tashqari murakkablik va chalkashlikdan holi bo'lishga imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Bu esa zarurat tug'ilganda qonunchilikni umuman qarab chiqish emas, balki faqat davr talabiga mos ravishda takomillashtirish istiqbolini ochib bermoqda.

Jismoniy shaxslar daromadlaridan olinadigan soliq O'zbekiston Respublikasining 1991 yil 15 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasi fuqarolaridan, chet ellik fuqarolardan va fuqaroligi bo'lmagan shaxslardan daromad solig'i olish to'g'risida»gi qonuni bilan joriy qilindi. Keyinchalik unga ayrim tuzatishlar kiritildi. Masalan, ilk o'zgarishlar 1991 yil 20 noyabrdagi qonun bilan, keyin 1992 yil 14 yanvardagi qonun, 1992 yil 2 iyuldagi qonun, 1992 yil 9 dekabrdagi qonun, 1993 yil 28 dekabrdagi qonun, 1994 yil 23 sentyabrdagi qonun bilan kiritildi. 1997 yil 24 aprelda tasdiqlangan va 1998 yil 1 yanvardan amalga kiritilgan O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi joriy etilishi bilan O'zbekiston Respublikasining yuqorida sanab o'tilgan qonun hujjatlari to'liq yoki qisman o'z kuchini yo'qotdi. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida keltirilgan soliqlar tizimi aslida 1997 yilda qo'llanilgan soliqlar va asosan ularning amal qilish tartibi saqlanib qolindi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolaridan olinadigan daromad solig'i borasida O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi qabul qilingunga qadar o'n uch marotaba katta-kichik o'zgarishlar va qo'shimchalar kiritildi. Mana shunday katta-kichik o'zgarishlarga chek qo'yish maqsadida Soliq kodeksida aniq qilib soliq to'lovchi sub'ektlarning majburiyatlari va huquqlari ishlab chiqildi.

Ushbu Soliq kodeksida soliq to'lovchilarning majburiyatlari bilan huquqlari o'rtasidagi bog'liqlik soliq to'lovchining majburiyatlari soliq inspektsiyalarning huquqlarida, shu bilan bir qatorda, soliq inspektsiyalarning majburiyatlari esa soliq to'lovchi sub'ektlarining huquqlarida o'z aksini topgan.

Respublikamizda jismoniy shaxslar daromadlaridan olinadigan soliqni olish to'g'risidagi zamonaviy qonunlarida umumiy bir ijtimoiy belgini ajratib ko'rsatish mumkin. Jismoniy shaxslar avvalgi qonunga ko'ra, ya'ni O'zbekiston Respublikasining 1991 yil 15 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasi fuqarolaridan, chet ellik fuqarolardan va fuqaroligi bo'lmagan shaxslardan daromad solig'i olish to'g'risida»gi qonunni joriy etilishiga qadar, daromad manbalariga ko'ra bo'linar edi, ya'ni soliq to'lovchilarning olti toifasi mavjud edi. Birinchi toifaga mehnat vazifalarini bajarishdan daromad oladigan va ularga tenglashtirilgan shaxslar kiritilgan. Ikkinchi toifaga – asosiy ish joyidan tashqari joyda bir marotabalik ishlarni bajarishdan daromad va boshqa to'lovlar oladigan shaxslar, uchinchi toifaga – mualliflik qalam haqi oladigan shaxslar, to'rtinchi toifaga - yakka tartibdagi mehnat faoliyati bilan shug'ullanib daromad oladigan shaxslar kiritilgan edi. Dehqon xo'jaligi yuritishdan daromad oladigan shaxslar soliq to'lovchilarning beshinchi toifasini tashkil etgan. Boshqa daromad oladigan jismoniy shaxslar oltinchi toifaga kiritilgan.

Guruhlanishning eng muhim farqi – soliq stavkalarining darajasi edi. Eng imtiyozli soliq stavkalari yollanib ishlovchilar uchun va eng og'ir stavkalar – yakka tartibda mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar uchun mo'ljallangan edi.

Hozirgi qonunlarda sub'ektlarni chegaralash daromad manbalari bo'yicha emas, balki doimiy yashash belgisi (rezidentlar) va vaqtincha yashash belgisi (norezidentlar) bo'yicha amalga oshirilib borilishi ko'zda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 45-moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasida doimiy yashab turgan yoki moliya yilida boshlanadigan yoki tugaydigan o'n ikki oygacha bo'lgan istalgan davr mobaynida 183 kun yoki undan ko'proq muddatda O'zbekistonda turgan jismoniy shaxs, ya'ni soliq to'lovchi sub'ekt, O'zbekiston Respublikasining rezidenti deb qaraladi. O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lmish jismoniy shaxslarga ularning O'zbekiston Respublikasidagi, shuningdek, undan tashqaridagi faoliyati manbalaridan olingan daromadlari bo'yicha soliq solinadi. Norezident jismoniy shaxslarga faqatgina O'zbekiston Respublikasi hududidagi faoliyatdan olingan daromadlar bo'yicha soliq olinadi.

Mamlakat mustaqillikni qo'lga kiritgunga qadar bo'lgan davrda amal qilgan qoidaga ko'ra, daromad solig'i har oyda, qayta hisoblashsiz hisoblanar edi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida va ayniqsa, daromadlar hajmlari davrlar bo'yicha katta farq bilan taqsimlanadigan mavsumiy tusdagi ishlarni bajarishda, bunday yondashuv maqbul bo'lmay qoldi. Sababi, daromadning o'rtacha darajasi uncha baland bo'lmasa-da, aholi ayrim davrlarda ko'proq soliq solinadigan katta daromad olishlari mumkin. SHu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasida yil boshidan boshlab o'sib boruvchi yakun bo'yicha daromad solig'i hisob-kitobi qabul qilingan. Hisob-kitob qilishning bunday usuli soliqlarni har oyda alohida hisoblab chiqishdan murakkabroq bo'lsa ham, to'lanadigan soliq summasini fuqarolarning yillik o'rtacha daromadga qarab tekislash imkonini beradi hamda soliqqa tortishda gorizontal adolatni ta'minlaydi.

Hayotiy tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, ko'pgina soliq to'lovchilar daromad solig'ining o'sib boruvchi yakuniga ko'ra ushlanishini hali ham yaxshi anglab etmaganlar. Bunday qilish bilan ular yana qo'shimcha haq to'layapmiz deb o'ylashadi. Lekin bu tushuncha xato tushuncha bo'lib, bu ularning zarari uchun emas, balki foydasini ko'zlab qilinadi. Bu fikrni tahlil qilib, shuni aytish kerakki, buxgalter o'sib boruvchi yakunga ko'ra hisoblash usulini qo'llar ekan, hisob-kitobda to'lovchining bundan oldingi davr uchun jami umumiy daromadini hisobga oladi. Bunda u daromad solig'ini hisoblar ekan, to'lovchi uchun ancha qimmatga tushadigan bir oylik shkaladan emas, balki butun hisob-kitob qilinadigan davr shkalasidan foydalanadi (bir kalendar yili uchun). Bu bilan olingan jami daromad ayni shu davr doirasida hisoblab chiqiladi. Natijada, daromadning qaysi oyda eng salmoqli bo'lganidan qat'iy nazar, daromad solig'i eng yirik summadan emas, balki o'rtacha darajaga keltirilgan ish haqi minus barcha ilgari to'langan soliqlar tartibida hisoblanadi.

YAna ikkinchi afzallik ham mavjud bo'lib, u shundan iboratki, bunday usul qo'llanilganida aslida har bir oy uchun qayta hisob-kitob amalga oshiriladi. Bu ham o'ziga xos bir ehtiyotkorlik, chunki shunday qilinganida ko'pincha hisob-kitoblarda ilgari yo'l qo'yilgan xatolar ham aniqlanadi. Mabodo to'lovchidan ortiqcha summa undirilgan bo'lsa (shunaqasi ham amaliyotda uchraydi), unda yil oxirida ilgari ushlab qolingan soliq summasi, agarda shaxsning boshqa soliqlardan qarzi bo'lmagan taqdirda qaytariladi. Agar buxgalteriya qaysidir paytda bir ishchi yoki xizmatchini oylik maoshidan kamroq miqdorda ushlab qolgan bo'lsa, unda qarzdor bo'lgan o'z qarzini uzishiga to'g'ri keladi. Bu adolatli holdir, chunki na davlat, na soliq to'lovchilar rejadan tashqari xarajatlarga duch kelmasligi ham nazarda tutilgan.

Bunday tartib amal qilgan taqdirda yilning dekabr oyidagi shkalasi odatda yillik shkalaga muvofiq keladi. SHuning uchun ham yilning oxirida mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslar tomonidan taqdim etiladigan daromadlar haqidagi deklaratsiyalarga muvofiq soliqqa tortish ayni shu shkalaga binoan amalga oshiriladi. Umuman, daromadlarni deklaratsiyalash – ushbu bo'limning alohida bobi bo'lib, faqat shuni qayd qilib o'tmoqchimizki, daromadlarni deklaratsiyalash o'sib boruvchi yakunga ko'ra soliq solish shkalasining afzalligini tasdiqlaydi. Bu narsa, mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslarni bir necha joydan daromad olish hollariga tegishlidir. Tabiiyki, bunday joylarning har birida ham ish haqi to'lanish jarayonida tegishli soliq stavkalari ushlab qolinadi. SHunga qaramasdan, baribir, barcha jismoniy shaxslar o'z daromadini ko'rsatuvchi deklaratsiyani topshirishda yil davomida olingan hamma daromadni ko'rsatishi kerak bo'ladi. Bunday daromadlar, qayd qilib o'tilganidek, jamlab chiqiladi. SHundan so'ng esa xodimdan to'langan soliq chegirib tashlab, qo'shimcha daromad solig'i byudjetga o'tkaziladi.

Xozirgi kunda jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish asosan quyidagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida tartibga solinmoqda:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi;

3. O’zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to’g’risida»gi Qonuni.

4. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Fuqarolarning jamg’arib boriladigan pensiya ta’minoti to’g’risida"gi 2004 yil 21 dekabrdagi 595-sonli Qarori.

5. «Jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish va byudjetga to’lash tartibi to’g’risida»gi (O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo’mitasining 2002 yil 14 yanvardagi 10, 2002-16-son qarori bilan tasdiqlangan hamda O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 2002 yil 14 martda 1110-son bilan ro’yxatga olingan) Yo’riqnoma;

6. «YUridik shaxs tashkil etmagan holda tadbirkorlik faoliyati bilan shug’ullanayotgan jismoniy shaxslarning daromadidan qat’iy belgilangan hajmlarda olinadigan soliqni hisoblab chiqarish va to’lash tartibi to’g’risida»gi (O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo’mitasining 2003 yil 26 fevraldagi 37, 2003-33-son qarori bilan tasdiqlangan hamda O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 2003 yil 03 aprelda 1230-son bilan ro’yxatga olingan) Nizom.

13.3. Jismoniy shaxslarning daromadidan olinadigan soliqni to’lovchilar tarkibi va soliqqa tortish ob’ekti

O’zbekiston Respublikasida o’tkazilayotgan soliq islohoti doirasida qabul qilingan huquqiy hujjatlar orasida eng muhimlaridan biri O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997 yil 24 apreldagi 396-I-sonli qaroriga asosan qabul qilingan O’zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi bo’lib, u jismoniy shaxslar bilan bir qatorda bevosita barcha xo’jalik sub’ektlari manfaatlarini ham qamrab oladi. O’zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi 1998 yil 1 yanvardan boshlab kuchga kiritildi. Ushbu Soliq Kodeksi qabul qilinmasdan oldin soliq undirish to’g’risida bir qancha vaqtinchalik ko’rinishdagi qo’llanmalar mavjud edi. Ular soliqlarni hisoblashda va undirishda bir qancha chalkashliklarni keltirib chiqarar edi. Ushbu Soliq Kodeksi barcha qo’llanmalarni jamlab, soliq undirishda asosiy qo’llanmaga aylandi.

SHuni ham aytib o’tishimiz lozimki, mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar, bozor iqtisodiyotini erkinlashtirish, liberallashtirish va modernizatsiyalash sharoitida yuqoridagi Soliq Kodeksiga ham yillar o’tgan sayin o’zgartirishlar va qo’shimchalar kiritishni taqozo qildi.

Xuddi shu masala bo’yicha Prezidentimizning 2005 yil 28 yanvar kuni O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasi va Senatining qo’shma majlisidagi qilgan ma’ruzasida o’z fikr mulohazalarini bildirib, jumladan quyidagilarni ta’kidlab o’tdilar: «Printsipial muhim ustuvor vazifalardan biri - soliq siyosatini yanada takomillashtirishdir. Aytish joizki, yuqorida zikr etilgan ustuvor vazifalarning barchasi soliq siyosatimizni takomillashtirish bilan bevosita bog’liq. Busiz xech qanday masalani xal etib bo’lmaydi. 1997 yilda ishlab chiqilgan va qabul qilingan Soliq kodeksi iqtisodiy islohotlar sohasida bugungi kunning yangi va ustuvor vazifalari talablariga javob bermaydi. Faqat so’nggi ikki

yil davomida Soliq kodeksi va soliq qonunchiligiga yuzdan ortiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgani ham shundan dalolat beradi.

Soliqqa tortish masalasida amaliyotda sinalgan printsip va yondashuvlarni ishlab chiqish, bu borada boshqa mamlakatlarning ilg'or tajribasidan foydalanish o'ta muhim ahamiyatga ega. Soliq tizimi nafaqat soliqlarni undirish, balki birinchi galda, rag'batlantirish xususiyatiga ega bo'lishi lozim.

SHunga erishmog'imiz kerakki, har bir soliq to'lovchi, u xox yuridik, xox jismoniy shaxs bo'lsin, soliq to'lashdan bo'yin tovlamasdan, daromadlarini yashirishga urinmasdan, aksincha, o'z ishlab chiqarishini rivojlantirish va daromadini oshirishga intilsin».[15]

Biz jismoniy shaxslarning daromadlariga izoh berishdan oldin jismoniy shaxs degan so'zga izoh berib ketaylik. Jismoniy shaxslar deganda O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari, shuningdek fuqaroligi bo'lmagan shaxslar tushuniladi.[16]

O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining III-bo'lim, 12-bob, 44-moddasiga muvofiq, shuningdek 1110-sonli Yo'riqnomaga hamda 1230-sonli Nizomga asosan moliya yilida soliq solinadigan daromadga ega bo'lgan jismoniy shaxslar jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliqni to'lovchilar bo'lib hisoblanadi (1-chizma).

Barcha jismoniy shaxslar soliqqa tortish maqsadida ikki toifaga bo'linadi:

1. O'zbekiston Respublikasi rezidentlari;
2. O'zbekiston Respublikasi norezidentlari.

[15] Karimov I.A. «Bizning bosh maqsadimiz-jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va islox etishdir». «SBX» moliyaviy-iqtisodiy gazetasi 5(549)-son 31 yanvar 2005 yil 5-bet

[16] O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. Adolat, 1996.



1- chizma. Jismoniy shaxslar daromadlaridan olinadigan soliqning modeli

O’zbekiston Respublikasida doimiy yashab turgan yoki moliya yilida boshlanadigan yoki tugaydigan 12 oygacha bo’lgan, istalgan davr mobaynida 183 kun yoki undan ko’proq muddatda O’zbekiston Respublikasida yashagan jismoniy shaxslar O’zbekiston Respublikasining rezidenti hisoblanadi.

O’zbekiston Respublikasining rezidenti bo’lmish jismoniy shaxslar O’zbekiston Respublikasidagi, shuningdek, undan tashqaridagi faoliyati manbalaridan olingan daromadlari bo’yicha daromad solig’i to’laydilar. O’zbekiston Respublikasining rezidenti bo’lmagan jismoniy shaxslar O’zbekiston Respublikasi hududidagi faoliyatidan olingan daromadlar bo’yicha soliq to’laydilar.

O’zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksning 47-moddasiga asosan jismoniy shaxslar daromadlaridan olinadigan soliqning soliqqa tortish ob’ekti bo’lib ushbu Kodeksga muvofiq belgilanadigan jami yillik daromadi hisoblanadi. YA’ni jismoniy shaxsning jami yillik daromadi - bu moliya yoki hisobot yilida olgan, olishi lozim bo’lgan naqd pul yoki naqd pulsiz, natura shaklida hamda moddiy manfaatlar yig’indisidan iborat bo’lgan daromadlar hisoblanadi.

Soliq Kodeksining 48-moddasiga muvofiq jismoniy shaxslarning jami yillik daromadiga soliq to’lovchi olishi lozim bo’lgan (olgan) yoki tekinga olgan pul yoxud boshqa mablag’lar, shu jumladan:

- mehnatga haq to’lash shaklida olinadigan daromadlar;
- jismoniy shaxslarning mulkiy daromadi;
- jismoniy shaxslarning tadbirkorlik faoliyatidan keladigan daromadlari kiradi.

Soliq kodeksining 49-moddasiga muvofiq mehnatga haq to’lash shaklida olinadigan daromadlarga jismoniy shaxslarning mehnat shartnomasi bo’yicha qilingan ishlardan va fuqarolik-huquqiy shartnomalar bo’yicha oladigan daromadlari kiradi. Mehnatga haq to’lash shaklida olinadigan daromadlarga quyidagilar ham kiradi:

- xodimlarga sotiladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) qiymati bilan bunday tovarlarni (ishlar, xizmatlar) xarid qilish narxi yoki ularning tannarxi o’rtasidagi manfiy farq.

Masalan, korxona tomonidan 12000 so’mga tovar sotib olingan va ishchisiga ushbu tovar 8000 so’mdan sotilgan, shunda ular orasidagi farq -4000 so’m (8000-12000) ishchi uchun daromad hisoblanadi.

- ish beruvchi (yuridik shaxs) tomonidan o’z faoliyati bilan bog’liq bo’lmagan, xodimlarning chiqimlarini qoplash uchun qilingan xarajatlar.

Masalan, korxona ishchisining shaxsiy peydjeri yoki uyali telefoni uchun aloqa xarajatlarini to’lab bersa;

- xodim ish beruvchiga to’lashi kerak bo’lgan, ammo ish beruvchining qarori bilan hisobdan chiqarilgan qarz summalari.

Masalan, xodim korxona kassasiga 20000 so’m to’lashi lozim edi (ortiqcha to’langan ish haqi, xizmat safari uchun berilgan mablag’, yoki boshqa qarzlar). Korxona rahbarining buyrug’iga asosan (ma’lum sabablarga ko’ra) ushbu qarz korxonaning xarajatlari sifatida kechib yuborildi, bunday holatda 20000 so’m xodimning jami daromadiga qo’shiladi;

- ish beruvchi o'z xodimlarining hayoti yoki sog'lig'ini ixtiyoriy sug'urtalash badallarini to'lash uchun qilgan xarajatlar;

Ushbu banddagi xarajatlar korxona tomonidan amalga oshiriladi. Majburiy bo'lmagan (ixtiyoriy) sug'urtani ishchining o'zi to'lashi lozim, ammo agarda majburiy bo'lmagan sug'urtani korxona tomonidan to'lab berilsa, u holda to'langan summa ishchining daromadi hisoblanadi;

- ish beruvchining jismoniy shaxsdan ushlab qolinishi kerak bo'lgan to'lovlar yuzasidan to'lagan summasi.

Masalan, korxona ishchisi ma'muriy javobgarlikka tortilgan holatda, uning uchun ma'muriy jarima summasini korxona to'lab bersa, u holda bu to'lov jismoniy shaxs (korxona ishchisi) uchun daromad hisoblanadi;

- ish beruvchining o'z xodimlarining bevosita yoki bilvosita daromadlarini tashkil etadigan boshqa xarajatlari.

Bunday xarajatlarga yuridik shaxsning xodimini o'zi to'lashi lozim bo'lgan, ammo ushbu yuridik shaxs tomonidan to'langan mablag'lar kiradi.

Masalan, kommunal xizmatlar uchun to'lovlar, turar-joy uchun to'lovlar, davlat pensiyasiga qo'shimcha to'lovlar va shunga o'xshash boshqa xarajatlar.

Xodimlarga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan me'yorlar doirasida beriladigan xizmat safari to'lovlarining summalari jami yillik daromadga kiritilmaydi.

Bizga ma'lumki, fuqarolarning mehnat daftarchasi yuritiladigan korxona, muassasa va tashkilot uning asosiy ish joyi hisoblanadi.

Soliq kodeksining 50-moddasiga muvofiq jismoniy shaxslarning mulkiy daromadiga foizlar, dividendlar bo'yicha olingan daromad, mol-mulkni ijaraga berishdan keladigan daromadlar kiradi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida jismoniy shaxslarga mulk ob'ektlariga egalik qilish va undan foydalanishga keng yo'l ochib berilgan.

O'zbekistonda qonun yo'li bilan ruxsat etilgan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda mulkdorlarga o'z mol-mulklaridan foydalanishda, xo'jalik faoliyatini tashkil etish va uning natijalarini taqsimlashda to'la erkinlik berilgan.

Jismoniy shaxslar jami yillik daromadlarining tarkibiy qismlaridan biri mulkiy daromadlardir. Fuqarolar o'zlariga tegishli bo'lgan mol-mulklarni tasarruf etish, ijaraga berish va undan daromad olish huquqiga egadirlar.

Jismoniy shaxslarning mulkiy daromadlari tarkibiga quyidagilar kiradi:

1. Jismoniy shaxslarning mol-mulkini ijaraga berishdan olgan daromadlari;
2. Dividend va foizlari bo'yicha olgan daromadlari;

Jismoniy shaxslar oladigan dividendlari tarkibiga: aktsiyadorlik jamiyatlaridan sotib olingan aktsiyalar bo'yicha olingan dividendlar; mulk shaklidan qat'iy nazar ulushbay asosida tashkil etilgan xissadan olinadigan daromadlar kiradi.

Jismoniy shaxslar oladigan foizlari tarkibiga:

- Depozit qo'yilmalar, qarz majburiyatlari va boshqa qimmatli qog'ozlar bo'yicha olinadigan daromadlari kiradi.

Jismoniy shaxslarning xususiylashtirish jarayonida ishtirokini yanada rag'batlantirish maqsadida jismoniy shaxslarning xususiylashtirilgan korxonalar negizida barpo etilgan

xo'jalik jamiyatlari va shirkatlarning aktsiyalari (ulushlari) bo'yicha dividendlar hamda olingan daromadlari 5 yil muddatga soliqdan ozod etiladi.

Jismoniy shaxslarning aktsiyalardan dividend ko'rinishidagi daromadlari yoki xo'jalik sub'ektlarining ustav sarmoyasidagi ulushbay qatnashuvidan olingan daromadlar bevosita shu xo'jalik sub'ektlari aktsiyalarini sotib olishga yoki ustav sarmoyasidagi ulushni oshirishga yo'naltirilgan taqdirda xam soliqqa tortishdan ozod etiladi.

Soliq kodeksining 51-moddasiga muvofiq jismoniy shaxslarning tadbirkorlik faoliyatidan keladigan daromadlariga tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiyasidan, daromad olish maqsadida tavakkal qilib, o'z mulkiy javobgarligi ostida yakka tartibda amalga oshiradigan, qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa faoliyatdan keladigan barcha tushumlar kiradi. (Jismoniy shaxslarning tadbirkorlik faoliyatidan olgan daromadlarini soliqqa tortish bo'yicha o'quv qo'llanmaning keyingi bobida ko'rib chiqamiz).

13.4. Jismoniy shaxslar daromadlaridan olinadigan soliq stavkalari va soliqni hisoblash mexanizmi

Amalga oshirilayotgan bozor islohotlari va erkin tadbirkorlikning yanada rivojlanib borayotganligi munosabati bilan daromad solig'i tobora katta dolzarblik va ahamiyati kasb etmoqda. Bir vaqtlar qo'llanib kelingan, mehnatkashlar turli toifalarining daromadlari ma'muriy jihatdan jilovlab turilgan va bu daromadlar bir-biridan kam farq qilgan «tenglashtirish» tartibidan farqli o'laroq, hozirgi paytda tadbirkorlik sohasidagi mehnat daromadlariga cheklanishlar bekor qilinishi bilan daromadlar o'rtasidagi farq keskin ko'zga tashlanib qoldi. YUqori daromad oladigan kishilar soni asta-sekin ko'payib boryapti. SHuning uchun ham hozir qo'llanilayotgan soliq qonunchiligining xususiyati shundan iboratki, u kam va yuqori daromad oladigan fuqarolarni tabaqalashtirishga juda qo'l keladi, daromadlarni adolatli ravishda soliqqa tortishni hamda muhtoj fuqarolarni muhofaza qilishni ta'minlaydi. Vertikal adolatni vujudga keltiruvchi tobora oshib boruvchi soliq solish darajalari belgilandiki, bunga binoan kam daromad oladigan kishilar quyi, ya'ni past stavkalar bo'yicha soliq to'laydilar.

Fuqarolardan daromad solig'i ortib boruvchi (progressiv) stavkalar bo'yicha undiriladi. Vertikal adolat qoidasi doirasida daromadi kam fuqarolardan soliqlar serdaromad fuqarolarga nisbatan kamroq olinadi. Bunda, daromad solig'ining shu muayyan stavkasi uchun Soliq kodeksida belilangan darajadan oshadigan daromadlar yuqoriroq stavkalar bo'yicha murakkab ko'payib boruvchi stavka bo'yicha soliqqa tortiladi.

O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi kuchga kirgunga qadar bunday stavkalar 15% - 40% orasida o'zgarib turgan edi. Daromad eng kam ish haqi miqdorining o'n barobarlik miqdoridan ortiqni tashkil etganda eng yuqori stavka qo'llanilgan. Boshqalari esa daromadning o'sib borishiga qarab qo'llanilgan. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi kuchga kirishi bilan 1998 yil 1 yanvardan boshlab eng yuqori stavkaning

45% gacha ko'tarilishi ham unchalik tashvishga solmadi, chunki bunday stavka daromad eng kam ish haqi miqdorining 15 barobarlik miqdoridan ortiqni tashkil etganda qo'llanilar edi.

Respublikamizda ushbu soliq turi bo'yicha soliq stavkalari yildan-yilga takomillashtirilib borilmoqda. 2000 yil 1 yanvardan eng yuqori stavka 40% qilib, 2001 yil 1 yanvardan esa 36 % qilib, 2002 yil 1 yanvardan 33 % qilib, 2003 yil 1 yanvardan 32 % qilib, 2004 yil 1 yanvardan 30 % qilib, 2005 yil 1 yanvardan xam 30 % qilib, 2006 yil 1 yanvardan uning eng yuqori chegarasi 29 % qilib va nihoyat 2007 yil 1 yanvardan boshlab daromad solig'ining eng yuqori chegarasi 25 % qilib belgilandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 18 dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining 2007 yildagi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi 532-sonli qaroriga (*O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2007 yil 20 fevralda 1110-6-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasining 2007 yil 31 yanvardagi "Jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish va byudjetga to'lash tartibi to'g'risidagi Yo'riqnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi 16, 2007-13-sonli qaroriga*) hamda Soliq kodeksining 55-moddasiga binoan, 2007 yil 1 yanvardan boshlab jismoniy shaxslar daromadlaridan olinadigan soliq stavkalari belgilandi. (11-jadval).

11-jadval

Jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliqning 2007-2008 yil uchun stavkalari

Jami daromad miqdori		Soliq summasi
2007 y	**2008 y**	
Eng kam ish haqining besh baravari miqdorigacha	Eng kam ish haqining olti baravari miqdorigacha	Daromad summasining 13 foizi
Eng kam ish haqining besh baravari miqdoridan (+1 so'm) o'n baravari miqdorigacha	Eng kam ish haqining olti baravari miqdoridan (+1 so'm) o'n baravari miqdorigacha	Eng kam ish haqining besh baravari miqdoridan olinadigan soliq + besh baravaridan oshadigan summaning 18 foizi
Eng kam ish haqining o'n baravari miqdoridan (+1 so'm) va undan yuqori miqdoridan	Eng kam ish haqining o'n baravari miqdoridan (+1 so'm) va undan yuqori miqdoridan	Eng kam ish haqining o'n baravari miqdoridan olinadigan soliq + o'n baravaridan oshadigan summaning 25 foizi

Jismoniy shaxslarning mehnatga haq to'lash shaklida oladigan daromadlariga ish haqlari, mukofot pullari va boshqa daromadlaridan soliq belgilangan tartibda ushlanadi. Bunda ish haqidan soliq, soliq solish maqsadlari uchun eng kam ish haqining miqdori yil boshidan e'tiboran, yuqorida aytib o'tilganidek, ortib boruvchi yakun bilan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi zararli va og'ir sharoitli ishlarda band bo'lgan jismoniy shaxslarning ayrim toifalari uchun, shuningdek tabiiy iqlim sharoitlari yomon joylarda ishlash bilan bog'liq bo'lgan qo'shimcha to'lovlar bo'yicha imtiyozlari daromad solig'i stavkalarini o'rnatgan. SHuningdek, og'ir mehnat sharoitlarida ishlash uchun koeffitsientlar (tuman koeffitsientlari, yuksak tog'lik, cho'l, suvsiz xududlarda ishlaganlik uchun) ham belgilangan.

To'lov manbaida soliq solish, to'lov O'zbekiston Respublikasi ichida yoki uning tashqarisida amalda oshirilganidan qat'iy nazar, tadbiq etiladi.

Jismoniy shaxslarning ba'zi bir daromadlarini soliqqa tortishda maxsus shartlar mavjud:

• Jismoniy shaxslarga to'lanadigan dividendlar va foizlarga 10 foizlik stavka bo'yicha to'lov manbaida soliq solinadi.

Bunda soliq solish maqsadida:

dividendlarga aktsiyalar bo'yicha hamda tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'iy nazar, xo'jalik yurituvchi sub'ektning ustav sarmoyasida ulushbay ishtirokidan keladigan daromadlar kiradi;

foizlarga depozit qo'yilmalar, qarz majburiyatlari va boshqa qimmatli qog'ozlardan olinadigan daromadlar kiradi.

• O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 12 maydagi "Imtiyozli shartlarda pensiyaga chiqish huquqini beradigan ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar, lavozimlar va ko'rsatkichlarning ro'yxatlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 250-son qarori bilan tasdiqlangan ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar, lavozimlar va ko'rsatkichlarning 1, 2 va 3-son ro'yxatlariga kiritilgan o'ta zararli, o'ta og'ir, zararli va og'ir sharoitli ishlarda band bo'lgan xodimlarning daromadlarini soliqqa tortish keltirilgan.

Bunda yuqorida aytib o'tilgan fuqarolar toifalaridan daromad solig'i olish darajasi 25 foizdan oshmasligi lozim. Bunday ishchi va xizmatchilarning daromadlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 1 martdagi «Mehnat qilish sharoitlari g'oyat og'ir va zararli, o'ta og'ir ishlab chiqarishlarda ishlaydigan fuqarolarning ayrim toifalari daromadlaridan imtiyozli soliq olish to'g'risida»gi 72-sonli qaroriga muvofiq imtiyozli soliqqa tortiladi.

Ushbu toifadagi fuqarolarning daromadlarini soliqqa tortish quyidagicha amalga oshiradi:

1) soliq umumiy belgilangan tartibda hisoblanadi (yil boshidan hisobot davri uchun);
2) yil boshidan umumiy daromadga nisbatan hisoblangan daromad solig'ining qismi aniqlanadi:

$$\frac{\textit{hisoblangan daromad solig'ining summasi}}{\textit{yil boshidan umumiy daromad summasi}} * 100\%$$

3) agar hisoblangan soliq summasining qismi 25 %dan ortmasa, u holda daromad solig'i qiymati o'zgarishsiz qoladi (ya'ni 1-bandda hisoblanganligicha).

Agarda hisoblangan daromad solig'ining qismi 25 %dan oshiq bo'lsa, u holda 25 %dan ortgan qismi hisoblangan soliq summasidan chegirib tashlanadi (ya'ni imtiyozli sharoitda mehnat qilib topgan daromaddan undiriladigan soliq umumiy daromadning 25 % qismidan oshmasligi lozim). Soliq undirish vaqtida avval undirilgan soliq summasi chegirib tashlanadi (avvalgi davr uchun).

Bunday turdagi soliq to'lovchilar uchun imtiyozli soliq solish ish joyining sharoitidan kelib chiqib, attestatsiya asosida belgilanadi.

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 12 may 250-sonli qarori bilan tasdiqlangan 1-son ro'yxatning 3-qismi hamda 2-son ro'yxatining 1-qismida kayd etilgan o'ta zararli, o'ta og'ir, zararli va og'ir sharoitli ishlarda band bo'lgan ishlar, xunarlar va lavozimlarda band bo'lgan ayollarning daromadidan soliq solish. Bunday turdagi ayollarning daromadlariga soliq solish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 17 martdagi «O'ta zararli va o'ta og'ir mehnat sharoitlarida ishlayotgan ayollarning daromadiga imtiyozli soliq solish to'g'risida»gi 117-sonli qaroriga asosan 1999 yil 1 apreldan boshlab qo'llanila boshlangan. Ushbu tartibga asosan soliq solish xuddi yuqorida keltirilgani kabi amalga oshiriladi, ammo uning soliq undirish darajasi 20 %dan oshmasligi lozim.

O'ta zararli, o'ta og'ir, zararli va og'ir mehnat sharoitlariga ega bo'lgan ishlab chiqarishlarda band bo'lgan xodimlarning daromadlariga soliq solish "Jismoniy shaxslar daromadiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish va byudjetga to'lash tartibi to'g'risida"gi Yo'riqnomaga (*Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasining Adliya vazirligi tomonidan 2002 yil 14 martda 1110-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan qarori bilan tasdiqlangan*) 1a-ilovada keltirilgan tartib asosida amalga oshiriladi.

Ushbu hujjatga ko'ra, ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar, lavozimlar va ko'rsatkichlarning 1, 2 va 3-son ro'yxatlariga kiradigan o'ta zararli, o'ta og'ir, zararli va og'ir mehnat sharoitlariga ega bo'lgan ishlab chiqarishlarda band bo'lgan xodimlarning daromadlari umumbelgilangan tartibda daromad solig'i stavkalarining progressiv jadvali bo'yicha soliqqa tortiladi.

2007 yil uchun jismoniy shaxslardan daromad solig'ining eng yuqori stavkasi 25 % miqdorida belgilangan. Bunda o'ta zararli, o'ta og'ir, zararli va og'ir mehnat sharoitlariga ega bo'lgan ishlab chiqarishlarda band bo'lgan xodimlarning daromadlari umumbelgilangan tartibda daromad solig'i stavkalarining progressiv jadvali bo'yicha soliqqa tortilganda, olinadigan soliq darajasi 25 %dan oshmaydi. SHu bois yuqorida keltirilgan imtiyozli soliq stavkasi zararli va og'ir mehnat faoliyatlari 1-sonli ro'yxatning 3-qismi va 2-son ro'yxatning 1-qismida ko'rsatilgan ishlarda band bo'lgan ayollarnigina daromadiga qo'llaniladi. CHunki ulardan olinadigan soliq darajasi ana shunday mehnat sharoitlarida olingan daromadlarning 20 %dan oshmasligi lozim.

Noqulay tabiiy-iqlim sharoitlari bilan bog'liq bo'lgan qo'shimcha to'lovlar (ish stajiga ustamalar, baland tog'lik, dasht va suvsiz tumanlardagi ishlar uchun belgilangai koeffitsientlar bo'yicha to'lovlarga) uchun soliq 13 %lik stavka bo'yicha undiriladi.

Misol. Noqulay tabiiy-iqlim sharoitlarida ishlagan ishchining yil davomida daromadi 540 ming so'mni tashkil etgan. Noqulay tabiiy-iqlim sharoitlari bilan bog'liq va belgilangan koeffitsientlar bo'yicha bo'lgan ish haqiga qo'shimcha to'lov 128 ming so'mni tashkil etgan.

Ish haqiga daromad solig'i umumiy belgilangan tartibda soliq shkalasini qo'llagan holda hisoblanadi va yil uchun 142 ming so'mdan iborat bo'ladi.

Noqulay tabiiy-iqlim sharoitlari bilan bog'liq va belgilangan koeffitsientlar bo'yicha bo'lgan ish haqiga qo'shimcha to'lov 13 foizlik soliq stavkasi bo'yicha undiriladi va u quyidagini tashkil etadi; (128000 * 13%) = 16,6 ming so'm.

SHunday qilib, umumiy daromad solig'i 142+ 16,6= 158,6 ming so'm.

- Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadigan jismoniy shaxslar uchun qat'iy soliq summasini belgilash yo'li bilan aloxida soliq solish tartibi belgilangan.

Jismoniy shaxslar daromad solig'ini hisoblashning turli tizimlari, ko'pincha jamlovchi va jamlamaydigan tizimlari qo'llaniladi. Jamlamaydigan tizimda soliq to'lovchining har bir olgan to'lovi ilgari olingan daromadlarini hisobga olmasdan alohida tarzda soliqqa tortilishi mumkin. Bunday tizim 90-yillargacha fuqarolardan daromad solig'ini olishda qo'llanilgan: soliq summasi bundan oldingi oydagi berilgan to'lovlarni va ushbu to'lovlar uchun ushlab qolingan soliqni hisobga olmasdan har bir oy uchun alohida tarzda belgilanadigan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblangan.

Fuqarolarning daromad solig'ini hisoblashning bunday tizimi o'zining afzalliklari va kamchiliklariga ega. Bu tizimning soliq to'lovchilar daromadlarining, ular to'lagan manbalarning murakkab hisob-kitob qilinishi, masalan, o'z xodimlarining daromadlaridan daromad solig'ini hisoblaydigan korxonaning bunday hisob-kitoblar qilinishini talab etmasligi uning afzalliklariga kiradi. Bunday tizimning soliq to'lovchi uchun jiddiy noqulayliklar tug'dirishi esa uning kamchiliklariga kiradi. CHunki bunda yilning natijalariga ko'ra daromadning murakkab tarzda qayta hisob-kitob qilinishini talab etadigan vaziyat vujudga keladi va qo'shimcha ravishda katta summadagi soliqni to'lash zaruriyati paydo bo'lib qolishi mumkin.

Soliq undirishning jamlovchi tizimida soliqning hisoblashini o'sib boruvchi yakunga binoan amalga oshiriladi. Bunday tizim yilning aniq sanasigacha olingan daromad summasini, shuningdek, soliq to'lovchining shu muddatgacha to'lagan soliqlarning umumiy summasini belgilash imkoniyatini beradi. SHuning uchun faqat bir manbadan daromad oladigan soliq to'lovchi yilning oxiriga borib daromadining qayta hisob-kitob qilishini va qo'shimcha soliq to'lash zarurati bo'lmaydi.

Soliqni hisoblashning jamlovchi tizimi aksariyat hollarda, jismoniy shaxslardan daromad solig'ini olishda qo'llaniladi. Ilova hisob varag'i har bir daromadni to'lash paytidagi to'lovlar manbasi muayyan soliq to'lovchi uchun yil boshidan beri bunday to'lovlarning umumiy summasini belgilab beradi. Soliq daromadlarining umumiy summasidan o'sib boruvchi yakun bo'yicha hisoblab chiqilgan chegirmalarni hisobga olgan holda hisoblanadi.

Fuqarolar to'lagan soliqni hisoblashning jamlovchi tizimida xodimga to'langan to'lovlarni va ushlangan summalarni aniq hisobga olib borishini taqozo etadi. Aks holda bu soliqning ortiqcha summalarining to'liq undirilmay qolishiga olib keladi.

Jamlanmaydigan tizimdan jiddiy qiyinchiliklar uchramaydi. Bir davr uchun soliq summasini hisoblash uchun, ushbu davr uchun hisoblangan daromad miqdorini va soliq stavkasini bilish kifoya. Biroq bunda yil davomida daromadlar

notekis bo'lganida soliqlarning ortiqcha to'lanishiga doir muammo paydo bo'ladi. Bunday hol mavsumiy ishlarda ishlaydiganlar, shuningdek qalam haqi oladigan ijodiy xodimlarga taa'luqli bo'ladi. Soliqqa tortish maqsadida fuqarolarning asosiy ish joyidan hamda qo'shimcha ish joyidan yoki yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatidan olgan daromadlari farqlanadi. Asosiy ish joyidan daromad deganda, asosiy ish (xizmat, o'qish) joyi sifatida qabul qilingan, korxona, muassasa yoki tashkilot bilan mehnatga oid va unga tenglashtirilgan munosabatlar o'rnatgan fuqarolar kalendar yili davomida faqat ana shu korxona, muassasa yoki tashkilotda olgan ish haqi va ish haqiga tenglashtirilgan daromadlar tushuniladi.

Mehnat munosabatlari va unga tenglashtirilgan majburiyatlar deganda, fuqarolar korxona, muassasa, tashkilot bilan tuzgan mehnat shartnomasi (bitimi) asosida muayyan mutaxassislik, malaka, lavozim bo'yicha ishlashi yoki kooperativga, dehqon (fermer) xo'jaligiga, jamoat yoki diniy tashkilotga, advokaturaga a'zolik munosabati bilan, shuningdek, xizmat va o'qish bilan bog'liq mehnat faoliyati olib borishi tushuniladi.

YUqorida qayd etilgan sub'ektlardan olingan barcha daromadlar yig'indisi jami daromadni tashkil etadi.

Fuqaro bir yil mobaynida asosiy ish (xizmat, o'qish) joyini o'zgartirsa, u yangi ish joyidagi buxgalteriyaga dastlabki ish haqi olguniga qadar joriy yilda to'langan daromadlar hamda ushlab qolingan soliq summasi haqidagi ma'lumotnomani taqdim etishi shart. YAngi ish (xizmat, o'qish) joyi bo'yicha soliqni hisoblab chiqarish taqvim yili boshidan ilgarigi va yangi ish (xizmat, o'qish) joyida olingan jami daromaddan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Avvalgi ish joyidan ma'lumotnoma taqdim etilmagan xollarda soliq solinadigan daromaddan eng yuqori stavka, ya'ni 25 foiz bo'yicha soliq undiriladi. Ma'lumotnoma keyinroq taqdim etilsa, u holda umumbelgilangan tartibda qayta hisob-kitob qilinadi.

YAna shunday xolatlarni ko'rsatib o'tish lozimki, masalan, ishchi korxonada yil davomida ishlamasdan ma'lum bir oylarda ishlaydi, vaholanki, qolgan davrda u hech qaerda ishlamagan.

Demak shunday xolatlarda ishchiniig qaysi davr uchun daromad solig'iga tortilishidan qat'i nazar, shu davr uchun xarakatda bo'lgan soliq shkalasi bo'yicha hisob-kitob ishlari amalga oshirilishi lozim, ya'ni aprel oyida ishlagan — aprel oyining shkalasi, may oyida — may oyining shkalasi bilan hisoblanishi lozim.

Avvalgi asosiy ish joyidagi mehnat majburiyatlarining xodim tomonidan bajarilishi bilan bog'liq mukofot va boshqa to'lovlar unga ishdan bo'shatilganidan so'ng to'langan bo'lsa, mazkur mukofot va to'lovlar umumbelgilangan tartibda, imtiyozlar qo'llanmasdan (agarda qonunda belgilangan bo'lsa ham), ularni to'lash chog'ida jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliqqa tortiladi. Bunga korxonada ishlamaydigan pensionerlarga moddiy yordam ko'rsatilgan holatlar xam kiradi. Bu fuqarolarga to'langan daromadning hamda ushlab qolingan soliqning umumiy summasi haqida korxona, muassasa, tashkilot bir oy muddatda istiqomat joyidagi davlat soliq xizmati organiga ma'lum qilishi shart.

Asosiy bo'lmagan ish joyidan olingan mehnat haqi to'lovlari va boshqa to'lovlardan jismoniy shaxslar daromadiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish yil boshidan o'sib boruvchi yakun bilan soliq solinadigan jami

daromad summasidan har oyda taqvim yili boshidan, imtiyozlarni qo'llashlarsiz, umumiy belgilangan (13 %-25 %) stavkalar bo'yicha (agar bunday daromadlar to'langan bo'lsa) daromadlarning to'lov manbaida amalga oshiriladi. Misollar keltirib o'tamiz.

1. 2007 yil yanvar oyi uchun daromad solig'i progressiv shkalasi

Soliq solinadigan daromad miqdori	Soliq summasi
a) (5 x 12420) = 62100 so'mgacha	Daromad summasining 13 foizi
b) 62101 so'mdan (10 x 12420) = 124200 so'mgacha	8073 + 62100 so'mdan ortiq summaning 18 foizi
v) 124201 so'm va undan yuqori	19251 + 124200 so'mdan ortiq summaning 25 foizi

YAnvar oyi uchun eng kam ish haqi miqdori - 12420 so'm.

Misol. Korxona xodimiga yanvar oyi uchun 130000 so'm ish haqi hisoblab yozilgan.

Xodimning ish haqidan yanvar oyi uchun daromad solig'i quyidagi tartibda ushlanadi:

1. Soliq summasi aniqlanadi (130000 so'm daromaddan):

a) 130000 – 124200 = 5800 * 25 % = 1450 so'm

b) 124200 – 62100 = 62100 * 18 % = 11178 so'm

v) 62100 * 13 % = 8073 so'm

8073 + 11178 + 1450 = 20701 so'm

yoki qisqacha 19251 + (130000 - 124200) x 29% = 20701 so'm.

"Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonunning (2004 yil 2 dekabrdagi) 10-moddasiga muvofiq ish beruvchilar har oyda qonun hujjatlariga muvofiq hisoblab yozilgan jismoniy shaxslarning daromadiga soliq summasining tegishincha kamayishi hisobiga majburiy jamg'arib boriladigan pensiya badallarini hisoblab yozadilar. 2007 yilda fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga majburiy oylik badallar xodimning hisoblab yozilgan ish haqi (daromadi)dan 1 foizi miqdorida ushbu summani jismoniy shaxslarning daromadiga hisoblab yozilgan soliqdan chiqarib tashlagan holda kiritiladi.

2. Byudjetga o'tkazilishi lozim bo'lgan soliq summasini aniqlab olamiz:

daromad solig'i hisoblab yozildi -20701 so'm;

majburiy jamg'arib boriladigan pensiya badali hisoblab yozildi:

130000 x 1% = 1300 so'm.

Byudjetga o'tkazilishi lozim bo'lgan daromad solig'i summasi:

20701 - 1300 = 19401 so'mga teng.

2007 yilda xodimning majburiy sug'urta badali stavkasi 2,5 foizligicha saqlanib qoldi. Bizning misolimizda xodimning majburiy sug'urtali ijtimoiy badali summasi:

130000 x 2,5% = 3250 so'mni tashkil etadi.

Bundan tashqari, kasaba uyushmaci a'zolari tegishli bitimlar, shartnomalar, majlislar qarorlariga hamda xodimlarning arizalariga muvofiq hisoblab yozilgan ish haqining 1 foizi miqdorida ixtiyoriy kasaba uyushma badallarini to'laydilar:

130000 x 1% = 1300 so'm.

Xodimga soliqlar va majburiy ajratmalar ushlanganidan keyin berilishi lozim bo'lgan daromad summasi quyidagicha:

130000 - (19401 + 1300 + 3250 + 1300) = 104749 so'm.

2. 2007 yil fevral oyi uchun daromad solig'i progressiv shkalasi

Soliq solinadigan daromad miqdori	Soliq summasi
(5 x 24840) = 124200 so'mgacha	Daromad summasining 13 foizi
124201 so'mdan (10 x 24840) = 248400 so'mgacha	16146 + 124200 so'mdan ortiq summaning 18 foizi
248401 so'm va undan yuqori	38502 + 248400 so'mdan ortiq summaning 25 foizi

YAnvar-fevral oylari uchun eng kam ish haqining jami miqdori - 24840 so'm (12420 + 12420).

Misol. Korxona xodimiga fevral oyi uchun 130000 so'm ish haqi hisoblab yozilgan.

YAnvar-fevral oylari uchun jami daromad 260000 so'mni tashkil etadi (130000 + 130000). YAnvar oyida ushlangan soliq summasi 20701 so'mni tashkil etdi.

Xodimning ish haqidan fevral oyi uchun daromad solig'i quyidagi tartibda ushlanadi:

1. YAnvar-fevral oylari uchun soliq summasi (260000 so'm daromaddan) aniqlanadi:

a) 260000 – 248400 = 11600 * 25 % = 2900 so'm

b) 248400 – 124200 = 124200 * 18 % = 22356 so'm

v) 124200 * 13 % = 16146 so'm

16146 + 22356 + 2900 = 41402 so'm

yoki qisqacha 38502 + (260000 - 248400) x 25% = 41402 so'm (yanvar-fevral oylari uchun soliq summasi).

2. Fevral oyi uchun daromaddan ushlanadigan soliq summasi aniqlanadi:

41402 - 20701 = 20701 so'm (fevral oyi uchun soliq summasi).

3. SHaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'iga ish haqidan 1% miqdorida majburiy ushlanmalar summasi yanvar-fevral oylari uchun 2600 so'mni tashkil etadi, yanvar oyi uchun 1300 so'm ushlangan, fevral oyida 1300 so'm (2600 - 1300) ushlanishi kerak.

4. Fevral oyi uchun 19401 so'm (20701 - 1300 = 19401) miqdorida daromad solig'i summasi o'tkaziladi.

Agar asosiy bo'lmagan ish joyidagi mehnat to'lovi bo'yicha daromad oluvchi jismoniy shaxs buxgalteriyaga eng yuqori stavka 25 foizlik bo'yicha

daromadidan soliq ushlab qolinishi haqida ariza topshirsa, daromadlarni to'lovchi yuridik shaxslar soliq to'lovchining arizasiga ko'ra soliqni ushlab qoladilar.

Asosiy ish joyidan tashqarida daromad olgan jismoniy shaxslarning daromadlaridan oxirgi undirilishi (qaytarilishi) lozim soliq summalarini soliq xizmati organlari tomonidan ushbu fuqaroning olgan daromadi, qilgan xarajatlari va avval ushlangan daromad soliqlari haqidagi soliq deklaratsiyasini topshirgandan so'ng hisoblab beriladi.

Rezident — jismoniy shaxslarning O'zbekiston Respublikasidan tashqarida (shu jumladan asosiy ish joyidan) olgan daromadlaridan daromad solig'i yakuniy summasini hisoblab chiqarish xuddi shunday tartibda amalga oshiriladi.

Fuqarolarning asosiy ish (xizmat, o'qish) joyidan boshqa korxona, muassasa, tashkilotlardan yoki tadbirkor sifatida ro'yxatga olingan jismoniy shaxslardan olgan daromadlari, shu jumladan, tadbirkorlik faoliyatidan oladigan daromadlari asosiy ish joyidan tashqarida olingan daromadlari hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 62-moddasiga muvofiq asosiy bo'lmagan ish joyidan (O'zbekiston Respublikasidagi, shuningdek uning hududidan tashqaridagi manbalardan) daromad olgan rezident - jismoniy shaxs doimiy istiqomat joyidagi soliq organiga hisobot yilidan keyingi yilning 1 aprelidan kechiktirmay jami yillik daromad haqida deklaratsiya taqdim etadi. Tamom bo'lgan kalendar yilida faqat asosiy ish (xizmat, o'qish) joyida mehnat vazifalarini bajarishdan daromad olgan jismoniy shaxslar shu yil uchun olingan daromadlar haqida deklaratsiya taqdim etmaydilar. CHet ellik jismoniy shaxs O'zbekiston Respublikasiga kelgan kunidan e'tiboran bir oy maboynida mo'ljaldagi daromadlar haqida deklaratsiya topshiradi. CHet ellik jismoniy shaxsning faoliyati kalendar yili mobaynida to'xtagan va O'zbekiston Respublikasidan chiqib ketadigan bo'lsa, amalda olingan daromadlar haqida jo'nab ketishdan kamida bir oy oldin deklaratsiya taqdim etilishi kerak.

O'zbekiston Respublikasida Soliq kodeksining 63-moddasiga muvofiq jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliqni to'lov manbasidan ushlab qolishni quyidagi huquqiy shaxslar amalga oshirishni qayd etilgan:

- ishlaydigan jismoniy shaxslarga mehnat shartnomalari yoki fuqarolik-huquqiy shartnomalar bo'yicha to'lovlarni amalga oshiruvchi;
- nodavlat pensiyalarini to'lovchi;
- jismoniy shaxslarga dividendlar va foizlar to'lovchi;
- asosiy ish joyi bilan bog'liq bo'lmagan norezidentlarga to'lovlarni amalga oshiradigan huquqiy shaxslar.

Norezidentlarga Soliq kodeksining 30-moddasiga muvofiq to'lovlarni amalga oshiruvchi, ya'ni norezidentning O'zbekiston Respublikasidagi to'lov manbaidan olingan, doimiy ish joyi bilan bog'liq bo'lmagan daromadiga (foydasiga) manbada chegirmalarsiz quyidagi stavkalar bo'yicha soliq solinadi (12-jadval)

12-jadval

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga asosan norezident jismoniy shaxslarning daromadlariga solinadigan soliq stavkalari

Dividendlar va foizlar	10 %
Tavakkalchilikni sug'urta qilishga yoki qayta sug'urta qilishga to'langan sug'urta mukofotlari	10 %
O'zbekiston Respublikasi bilan boshqa davlatlar o'rtasida harakat qilishda xalqaro aloqa uchun telekommunikatsiyalar yoki transport xizmatlari (fraxtdan daromadlar)	6 %
Royalti, ijaradan olgan daromadlar, xizmatlar ko'rsatish, shu jumladan boshqaruv, maslahat xizmatlari ko'rsatishdan keladigan daromadlar va boshqa daromadlar, daromad solig'i solingan daromadlardan (foyda) bunga kirmaydi	20 %

Jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliqni ushlab qolish va byudjetga o'tkazish uchun daromad to'lovchi huquqiy shaxs javobgardir.

Soliq summasi ushlab qolinmaganda daromad to'lovchi huquqiy shaxs ushlab qolinmagan soliq summasi hamda u bilan bog'liq jarimalarni byudjetga to'lashi shart.

Jismoniy shaxslar daromadiga solinadigan soliqning yil mobaynida to'lab borilgan summalari tegishli hisobot chiqarilgan soliq hisobiga o'tkaziladi.

13.5. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha belgilangan imtiyozlar tizimi

Soliq imtiyozlari byudjet tanqisligi sezilarli bo'lgan vaqtda aholi manfaatlarini davlat manfaatlariga bo'ysunishiga xizmat qilsa, byudjet tanqisligi bartaraf etilishi bilan davlat va aholi manfaatlari teng ravishda muvofiqlashtirilgan. Bunday muvofiqlashtirish korxonalar va aholining moliyaviy holatini yoki daromad, to'lov qobiliyatini kuchaytirishga xizmat qilgan. Soliq to'lovchilar va undiruvchilar manfaatlaridan kelib chiqqan holda imtiyozlar soliq qonuniyatlari doirasida turlicha namoyon bo'lgan.

Davlat faqatgina imtiyozlar orqaligina soliqlarning rag'batlantirish funktsiyasini amalga oshirishi mumkin. Aks holda, soliqlarning rag'batlantirish funktsiyasi o'z ifodasini topa olmaydi.

Soliq kodeksi bo'yicha bir necha imtiyozlar qo'llanilganki, u orqali aholi ixtiyorida nominal daromadning salmoqli qismi bevosita va bilvosita qolishiga xizmat qilmoqda.

Jismoniy shaxslar daromadlaridan olinadigan daromad solig'i bo'yicha belgilangan imtiyozlar 3 guruhga bo'linadi:

1. Soliqqa tortilmaydigan daromadlar;
2. Daromad solig'idan to'liq ozod etilgan jismoniy shaxslar;
3. Soliqdan qisman, ya'ni har bir to'liq oy uchun eng kam ish haqining 4 barobari miqdorida to'lashdan ozod etilgan jismoniy shaxslar.

Soliq kodeksiga binoan soliqqa tortilmaydigan daromadlar tarkibiga quyidagi daromad manbalari kiradi:

a) mehnat shartnomasi bekor qilinganda to'lanadigan, eng kam ish haqining o'n ikki barobari miqdori doirasidagi ishdan bo'shatish nafaqasi, davlat

ijtimoiy sug'urtasi va davlat ijtimoiy ta'minoti bo'yicha nafaqalar, ishsizlik nafaqalari, xomiladorlik va tug'ish nafaqalari (vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqalari, shu jumladan oilaning bemor a'zosini parvarishlash nafaqalari bundan mustasno), shuningdek xayriya va ekologiya jamg'armalari mablag'laridan fuqarolarga pul va natura shaklida beriladigan nafaqalar va boshqa yordam turlari. Bu erda shuni esdan chiqarmaslik kerakki, vaqtinchalik ish qobiliyatiga ega bo'lmay kasallik varaqasiga asosan to'lanadigan to'lov jismoniy shaxsning soliq solinadigan bazasiga qo'shiladi;

b) olinadigan alimentlar.

v) oliy o'quv yurtlari va o'rta maxsus hamda hunar-texnika o'quv yurtlari hamda ular bazasida tashkil etilgan biznes maktablari, shu jumladan oliy va o'rta diniy o'quv yurtlari tomonidan o'z talabalariga va o'quvchilariga tayinlanadigan stipendiyalar, shuningdek xayriya va ekologiya jamg'armalari mablag'laridan ta'sis etiladigan stipendiyalar.

g) davlat pensiyalari, shuningdek ularga ustamalar. Ammo, korxona o'zining ishchisiga qo'shimcha ravishda o'zining mablag'laridan pensiya to'laydigan bo'lsa, u holda bunday to'langan pensiya umumiy tartibda soliqqa tortiladi;

d) shaxslar qon topshirganligi uchun, donorlikning boshqa turlari uchun, ona suti topshirganlik uchun oladigan summalar, shuningdek tibbiyot muassasalarining xodimlari qon yig'ib topshirganliklari uchun oladigan summalar;

e) mayib bo'lish yoki sog'lig'ining boshqacha tarzda shikastlanishi bilan bog'liq holda, shuningdek boquvchisining vafot etganligi munosabati bilan ko'rilgan zararni qoplash yuzasidan olinadigan summalar;

z) fuqarolarning xorijda ishlashga yuborilishi munosabati bilan davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan muassasalar va tashkilotlaridan chet el valyutasida oladigan ish haqi summalari va boshqa summalar, qonun hujjatlarida belgilangan summalar doirasida;

i) jismoniy shaxslarning xususiy mulk huquqi asosida o'zlariga qarashli bo'lgan mol-mulkni sotish natijasida oladigan summalari, tadbirkorlik faoliyati doirasida amalga oshiriladigan mol-mulkni sotish natijasida oladigan daromadlardan tashqari.

k) shaxslarning shaxsiy yordamchi xo'jalikda etishtirgan qoramol, quyon, nutriya, baliq, parrandalarni xam tirik xolatda, xam ularni so'yib mahsulotlarini xom va qayta ishlangan holda, shuningdek asalarichilik mahsulotlarini va bunday xo'jalikda etishtirilgan tabiiy yoki qayta ishlangan dehqonchilik mahsulotlarini sotishdan olgan daromadlari summasi. Fuqaroda shaxsiy yordamchi xo'jalik mavjudligi mahalliy davlat xokimiyati organlari yoki fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining malumotnomasi bilan tasdiqlanadi. Ushbu bandga gullarni etishtirish kirmaydi;

l) bir yil mobaynida yuridik shaxslardan olingan eng kam ish haqi miqdorining olti baravarigacha bo'lgan summadagi qimmatli sovg'alar qiymati, shuningdek xalqaro hamda respublika tanlov va musobaqalarida olingan sovrin buyumlar qiymatining summasi. Bu erda yana shuni esdan

chiqarmaslik kerakki, imtiyoz faqat qimmatli sovg'alar uchun beriladi, pul ko'rinishidagi berilgan kompensatsiya bunga kirmaydi;

m) meros qilib qoldirish va xadya qilish natijasida olingan summalar va mol-mulk qiymati, fan, adabiyot va san'at asarlari mualliflarining merosxo'rlari (huquqiy vorislari) oladigan mualliflik haqi summalari bundan mustasno;

n) davlat zayomlarining obligatsiyalari va lotereyalar bo'yicha yutuqlar, shuningdek O'zbekiston Respublikasining davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha foizlar;

o) fuqarolarning sug'urta bo'yicha oladigan summalari;

p) bir yil mobaynida berilgan moddiy yordam summalari:

— tabiiy ofatlar, boshqa favqulodda xolatlar munosabati bilan beriladigan moddiy yordam summalari — to'laligicha;

vafot etgan xodimning oila azolariga yoki oila azolari vafot etganligi munosabati bilan xodimga beriladigan moddiy yordam summalari — eng kam ish haqining o'n baravarigacha miqdorda;

boshqa hollarda — bir yil mobaynida eng kam ish haqining o'n ikki baravarigacha miqdorda;

r) depozit sertifikatlar bo'yicha daromadlar, banklardagi omonatlar va davlat xazina majburiyatlari bo'yicha foizlar va yutuqlar;

s) fuqarolarning ish haqi va soliq solinadigan boshqa daromadlarining davlat korxonalari mol-mulkini sotib olish, xususiylashtirilayotgan korxonalar aktsiyalarini sotib olish, «O'zuyjoyjamg'armabank»ning shaxsi ko'rsatilgan uy-joy obligatsiyalarini xarid qilishga va shu maqsadlar uchun berilgan kreditlarni uzishga yo'naltirilgan summalari, shuningdek dividendlar tariqasida olingan hamda dividend to'lagan yuridik shaxsning ustav fondiga (kapitaliga) yo'naltirilgan daromadlar.

t) patent egasi bo'lgan jismoniy shaxsning (litsenziarning) sanoat mulki ob'ektlaridan o'z ishlab chiqarishida foydalanishdan yoki foydalanish boshlangan sanadan e'tiboran amal qilish muddati doirasida ularga litsenziyalar sotishdan, shuningdek litsenziat sanoat mulki ob'ektlaridan foydalana boshlagan sanadan e'tiboran ushbu foydalanishdan olgan daromadi summasi:

ixtirolar va selektsiya yutug'idan patent bo'yicha —besh yil davomida;

ixtirolardan dastlabki patent bo'yicha foydalanishdan —uch yil davomida;

selektsiya yutug'idan guvohnoma bo'yicha _ uch yil davomida.,

Bu erda qo'shimcha qilib shuni aytish lozimki, ratsionalizatorlik takliflari uchun taqdirlashga beriladigan mukofot summalari ushbu bandga kirmaydi va umumiy tartibda soliqqa tortiladi;

u) bolalar lagerlari va boshqa sog'lomlashtirish lagerlariga, ota-onalarning bolalari bilan dam olishga maxsus mo'ljallangan sanatoriya-kurort muassasalariga borish uchun bolalar va o'smirlarga beriladigan yo'llanmalar qiymat, shuningdek o'z xodimlarini ambulatoriya yoki statsionar tibbiy xizmatdan foydalanish qiymatini to'liq yoki qisman kompensatsiyalash tartibida korxonalar, muassasalar va tashkilotlar o'z xodimlariga yoki ular uchun to'lagan summalar.

f) amaldagi qonun hujjatlarida (xizmat safari kunlik xarajatlariga o'xshash) nazarda tutilgan normalar doirasidagi tovon to'lovlari, mehnat shartnomasini bekor qilish paytida foydalanilmagan ta'til uchun beriladigan tovon pullari bundan mustasno.

x) vaqtinchalik bir martalik ishlarni bajarishdan olingan daromadlar, basharti bunday ishlar Vaqtinchalik bir martalik ish bilan ta'minlash markazlari ko'magida amalga oshirilayotgan bo'lsa.

Respublikamiz Prezidentining 2003 yil 24 yanvardagi PF- 3202-sonli Farmoniga muvofiq jismoniy shaxslarning xususiylashtirilgan korxonalar negizida barpo etilgan xo'jalik jamiyatlari va shirkatlarining aktsiyalari (ulushlari) bo'yicha dividendlar xolida olgan daromadlari besh yil muddatga soliqdan ozod qilindi.

ts) xususiy korxona tomonidan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'langanidan keyin xususiy korxona mulkdori ixtiyoriga kelib tushadigan foyda summasi;

ch) O'zbekiston Respublikasining davlat mukofotlari va davlat pul mukofotlariga sazovor bo'lgan jismoniy shaxslar olgan bir yo'la beriladigan pul mukofotlari yoki shunga teng bahodagi esdalik sovg'alarining qiymati;

sh) Olimpiya o'yinlarida va boshqa xalqaro sport musobaqalarida sovrinli o'rinlarni egallaganligi uchun sportchilar olgan bir yo'la beriladigan pul mukofotlari.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 18 maydagi "YOsh oilalarni moddiy va ma'naviy qo'llab – quvvatlashga doir qo'shimcha chora – tadbirlar to'g'risida"gi Farmonini 4 bandiga asosan jismoniy shaxslar – yosh oila a'zolarining soliqqa tortiladigan daromadlariga quyidagi daromadlari kirmaydi:

- soliqqa tortiladigan ish haqi va boshqa daromadlarning shaxsiy uy – joy yoki ko'p qavatli uyda xonadon qurish, ta'mirlash va sotib olish uchun olingan ipoteka kreditlari va ular bo'yicha hisoblangan foizlarni qoplash uchun yo'naltirilgan summasi;
- xo'jalik sub'ekti – ish beruvchidan uy – joy sotib olish uchun olingan mablag'lari.

Sotib olingan (mulk huquqi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan) kundan boshlab besh yil ichida ushbu mol – mulk sotilsa, mazkur bandga ko'rsatilgan daromadlar belgilangan tartibda jismoniy shaxslar daromadlariga solinadigan soliqqa tortiladi.

Jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliqni to'lashdan quyidagilar to'laligicha ozod qilinadilar:

a) xorijiy davlatlar diplomatiya vakolatxonalarining boshliqlari va a'zolari hamda konsullik muassasalarining mansabdor shaxslari, ularning o'zlari bilan birga yashaydigan oila a'zolari, agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasa, O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olinadigan, diplomatlik va konsullik xizmati bilan bog'liq bo'lmagan daromadlaridan tashqari barcha daromadlari bo'yicha;

b) xorijiy davlatlar diplomatiya vakolatxonalari va konsullik muassasalarining ma'muriy-texnik xodimlari va ularning o'zlari bilan birga yashaydigan oila azolari, agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasa yoki O'zbekiston Respublikasida doimiy yashamasa, O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan oladigan, diplomatlik va konsullik xizmati bilan bog'liq bo'lmagan daromadlaridan tashqari barcha daromadlari bo'yicha;

v) xorijiy davlatlar diplomatiya vakolatxonalariga, konsullik muassasalariga xizmat ko'rsatadigan xodimlar tarkibiga kirgan shaxslar, agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasa yoki O'zbekiston Respublikasida doimiy yashamasa, o'z xizmati yuzasidan oladigan barcha daromadlari bo'yicha;

g) xorijiy davlatlar diplomatiya vakolatxonalari va konsullik muassasalari xodimlarining uylarida ishlovchilar, agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasa yoki O'zbekiston Respublikasida doimiy yashamasa, o'z xizmati yuzasidan oladigan barcha daromadlari bo'yicha;

d) xukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro tashkilotlarning mansabdor shaxslari — agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasa, ushbu tashkilotlarda olgan daromadlari bo'yicha;

e) Mudofaa, Ichki ishlar, Favqulodda vaziyatlar vazirliklarining, Milliy xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchilari, ichki ishlar organlari va bojxona organlarining oddiy xizmatchilari va boshliqlari tarkibiga mansub shaxslar, shuningdek o'quv yoki sinov yig'inlariga chaqirilgan harbiy xizmatga majburlar — xizmatni o'tash (xizmat vazifasini bajarish) munosabati bilan olgan pul ta'minoti, pul mukofotlari va boshqa to'lov summalari bo'yicha;

j) gastrol'-kontsert faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyasi bo'lgan shaxslar — gastrol-kontsert faoliyatidan olingan daromadlari bo'yicha;

z) mansab darajalari mavjud bo'lgan prokuratura organlari xodimlari.

Quyidagi soliq to'lovchilarning daromadlari jismoniy shaxslar daromadiga solinadigan soliqni har bir to'liq oy uchun eng kam ish haqining to'rt baravari miqdorida to'lashdan ozod etiladi:

1) «O'zbekiston Qaxramoni», Sovet Ittifoqi Qaxramoni, Mehnat Qaxramoni unvonlariga sazovor bo'lgan shaxslar, uchala darajadagi SHuxrat ordeni bilan taqdirlangan shaxslar, urush nogironlari yoxud 1941-1945 yillardagi urush davrida harbiy xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarish chog'ida yaralanish, kontuziya bo'lish yoki shikastlanish oqibatida yoxud frontda bo'lish bilan bog'liq kasallik tufayli nogiron bo'lib qolgan harbiy xizmatchilar jumlasidan bo'lgan boshqa nogironlar, sobiq partizanlar jumlasidan bo'lgan nogironlar, shuningdek pensiya ta'minoti bo'yicha mazkur toifadagi harbiy xizmatchilarga tenglashtirilgan boshqa nogironlar.

YUqorida aytib o'tilgan imtiyozlar uchun «O'zbekiston Qahramoni», Sovet Ittifoki Qahramoni, Mehnat Qahramoni unvonlari kitobchalari, uchala darajadagi SHuxrat ordeni bilan taqdirlanganlarning orden kitobchasi, Ulug' Vatan urushi nogironlarining «Ulug' Vatan urushi nogironi guvohnomasi» yoki

harbiy komissariatdan berilgan ma'lumotnomasi, boshqa nogironlarning «Imtiyozga bo'lgan huquq to'g'risidagi nogiron guvohnomasi» asos hisoblanadi;

2) xizmatni harakatdagi armiya tarkibiga kirgan harbiy qismlar, shtablar va muassasalarda o'tagan harbiy xizmatchilar, sobiq partizanlar jumlasidan bo'lib, fuqarolar urushi va 1941-1945 yillardagi urush, sobiq SSSRni himoya qilish bo'yicha boshqa jangovar operatsiyalarning qatnashchilari, 1941-1945 yillardagi urush davri mehnat frontining faxriylari va kontsentratsion lagerlarning sobiq yosh tutqunlari.

Imtiyoz «Urush qatnashchisi guvohnomasi» asosida, Ulug' Vatan urushi davri mehnat frontining faxriylari va kontsentratsion lagerlarning sobiq yosh tutqunlari uchun «Imtiyozlarga bo'lgan huquq to'g'risida guvohnoma» yoki mehnat va ijtimoiy ta'minot organlarining ma'lumotnomasi asosida taqdim etiladi;

3) Leningrad qamali paytida 1941 yil 8 sentyabrdan 1944 yil 27 yanvargacha bo'lgan davrda Leningrad shahrida ishlagan fuqarolar.

Imtiyoz qamal paytida Leningrad shahridagi korxona, muassasa va tashkilotlarda mazkur shaxslarning ishlaganligini tasdiqlovchi hujjatlar asosida taqdim etiladi;

4) ichki ishlar organlarining boshliqlari va oddiy xizmatchilari jumlasidan bo'lib, xizmat vazifalarini bajarish chog'ida yaralanish, kontuziya bo'lish va shikastlanish oqibatida nogiron bo'lib qolganlar.

«Imtiyozga bo'lgan huquqi to'g'risida nogiron guvohnomasi» imtiyoz taqdim etish uchun asos hisoblanadi;

5) bolalikdan nogiron bo'lib qolganlar, shuningdek 1 va II guruh nogironlari.

Pensiya guvohnomasi yoki shifokorlik - mehnat ekspertiza komissiyasining ma'lumotnomasi asosida imtiyoz taqdim etiladi;

6) qaxramon onalar, o'n va undan ortiq bolasi bo'lgan ayollar.

«Qaxramon ona daftarchasi» yoxud bolalarning mavjudligini tasdiqlovchi fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organining ma'lumotnomasi imtiyoz taqdim etishda asos bo'ladi;

7) sobiq SSSRni himoya qilish yoxud harbiy xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarish chog'ida yaralanish, kontuziya bo'lish yoxud shikastlanish oqibatida yoki frontda bo'lish bilan bog'liq kasallik tufayli xalok bo'lgan harbiy xizmatchilarining ota-onalari va rafiqalari.

«Xalok bo'lgan jangchining bevasi (onasi, otasi)» shtampi bosilgan yoki pensiya guvohnomasini bergan muassasa muxri va raxbarining imzosi bilan tasdiqlangan tegishli yozuv qayd etilgan pensiya guvohnomasi asosida imtiyoz taqdim etiladi.

Agar ushbu shaxslar pensioner bo'lmasalar, ularga sobiq SSSRning Mudofaa vazirligi, DXK yoki IIV, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, MXX yoki IIVning tegishli organlari tomonidan be-rilgan harbiy xizmatchining xalok bo'lgani to'g'risidagi ma'lumotnoma asosida imtiyoz beriladi.

Sobiq SSSRni himoya qilish yoki harbiy xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarish chog'ida yoxud frontda bo'lish bilan bog'liq kasallik

tufayli halok bo'lgan harbiy xizmatchilarniig rafiqalariga faqat ular ikkinchi marta turmush qurmagan taqdirda, imtiyoz taqdim etiladi;

8) xizmatni Afg'oniston Respublikasida va jangovar xarakatlar olib borilgan boshqa mamlakatlarda vaqtincha bo'lgan qo'shinlarning cheklangan kontingenti tarkibida o'tagan harbiy xizmatchilar hamda o'quv va sinov yig'inlariga chaqirilgan harbiy xizmatga majburlar.

«Imtiyoz huquqiga egaligi to'g'risida guvohnoma» yoki sobiq SSSRning Mudofaa vazirligi, DXK yoki IIVga qarashli korxonlar, muassasalar yoki tashkilotlar, shahar (tuman) harbiy komissariati, harbiy qism, harbiy-o'quv bilim yurti, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, MXX yoki IIV tomonidan berilgan ma'lumotnoma imtiyoz taqdim etilishi uchun asos hisoblanadi;

9) CHernobil AESdagi falokat oqibatida jabr ko'rgan shaxslar.

Tibbiy-mehnat ekspertiza komissiyasi ma'lumotnomasi, nogironning maxsus guvohnomasi, CHernobil AESdagi avariya oqibatlarini tugatish ishtirokchisining guvohnomasi, shuningdek imtiyoz taqdim etilishida asos hisoblanadigan boshqa vakolatli organlar tomonidan berilgan hujjatlar asosida imtiyoz beriladi;

10) ikki va undan ortik o'n olti yoshga to'lmagan bolalari bor yolg'iz onalar.

Mehnat va ijtimoiy ta'minot organlari tomonidan beriladigan «YOlg'iz onaning shaxsiy daftarchasi asosida imtiyoz beriladi;

11) ikki va undan ortiq bolasi bor va boquvchisini yo'qotganlik uchun pensiya olmaydigan beva ayol va beva erkaklar.

Turmush o'rtog'i (ayoli) vafot etganligi to'g'risidagi guvohnoma va bolalarining mavjudligini hamda qayta nikohdan o'tmaganligini tasdiqlovchi pasport, boquvchisini yo'qotganligi tufayli pensiyasining tayinlanmaganligi to'g'risida mehnat va ijtimoiy ta'minot organlarining ma'lumotnomasi imtiyoz berilishida asos hisoblanadi;

12) bolaligidan nogiron bo'lgan va doimiy parvarishni talab qiladigan farzandi bilan birga yashab, uni tarbiyalayotgan ota-onasidan biri.

Pensiya guvohnomasi yoki doimiy parvarish talab etilishini tasdiqlovchi sog'liqni saqlash muassasasining tibbiy ma'lumotnomasi, birga yashashligi haqida — fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organining ma'lumotnomasi asosida imtiyoz taqdim etiladi;

13) korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va o'quv yurtlari tomonidan qishloq xo'jalik ishlariga yuborilgan fuqarolar — ushbu ishlarni bajarganlik uchun olgan daromadlari bo'yicha.

Qishloq xo'jalik korxonasining tegishli qarori yoki raxbar buyrug'i imtiyozni qo'llash uchun asos bo'ladi. Jismoniy shaxslarning imtiyozlarga bo'lgan huquqi ular hisobot yili uchun tegishli hujjatlarni taqdim etganida vujudga keladi. Hisobot yili uchun eng kam ish haqining to'rt baravari miqdoridagi imtiyozga ega bo'lgan huquq yuzaga kelgan oy boshidan taqdim etiladi. Eng kam ish haqining to'rt baravari miqdoridagi imtiyoz («n» kichik bandida ko'rsatilganlardan tashqari) jismoniy shaxslarning asosiy ish joyida, agar asosiy ish joyi mavjud bo'lmasa, unda yashash joyidagi davlat soliq xizmati

organlari tomonidan jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiya asosida soliq hisoblab chiqarilishi qo'llaniladi.

Ushbu imtiyozni qo'llash bo'yicha misollar.

Misol. Soliq kodeksi 59-moddasining 2-bandiga muvofiq imtiyozga ega bo'lgan (masalan, vaqtincha Afg'oniston Respublikasida bo'lgan qo'shinlarning cheklangan kontingenti tarkibida xizmat o'tagan harbiy xizmatchi) korxona xodimiga fevral oyi uchun 130000 so'm ish haqi hisoblab yozilgan.

Uning yanvar-fevral oylari uchun jami daromadi 260000 so'mni (130000 + 130000) tashkil etadi.

Imtiyoz huquqiga ega bo'lgan fuqarolarning jami daromadidan, Soliq kodeksi 59-moddasining 2-bandiga muvofiq, har oyda eng kam ish haqi miqdorining 4 baravariga teng daromad summasi chiqarib tashlanishini hisobga olganda, uning yanvar-fevral oylari uchun soliq solinmaydigan jami daromadi 4 x 24840 (12420 + 12420) = 99360 so'mni tashkil etadi. Xodimning yanvar oyi uchun daromadidan 11352,5 so'm soliq ushlangan.

Uning yanvar-fevral oylari uchun ish haqidan daromad solig'i quyidagi tartibda ushlanadi:

1. Soliq solinadigan daromad aniqlanadi:

260000 - 99360 = 160640 so'm.

2. YAnvar-fevral oylari uchun soliq summasi aniqlanadi:

16146 + (160640 - 124200) x 18% = 22705 so'm (yanvar-fevral oylari uchun soliq summasi).

3. Fevral oyi uchun daromaddan ushlanadigan soliq summasi aniqlanadi:

22705 - 11352,5 = 11352,5 so'm (fevral oyi uchun soliq summasi).

4. SHaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'iga yanvar-fevral oylari uchun ish haqidan (uning soliq solinadigan qismidan) 1% miqdorida majburiy ushlanmalar 1606 so'mni (160640 x 1%) tashkil etadi, yanvar oyi uchun 803 so'm ushlangan, fevral oyida 803 so'm (1606 - 803) ushlanishi lozim.

5. Fevral oyi uchun o'tkaziladigan daromad solig'i summasi 10549,5 so'mga (11352,5 - 803) teng.

Fuqaro imtiyozlarga bo'lgan huquqni yo'qotganligini 15 kundan kechiktirmay, undan soliq ushlab qoladigan korxona, muassasa, tashkilot, shuningdek jismoniy shaxslarni yoxud soliq organini (agar mazkur organ hisob-kitobni amalga oshirsa) malum qilishi lozim.

Jismoniy shaxslar daromadlaridan olinadigan soliqni eng kam ish haqining to'rt baravari miqdorida to'lashdan ozod etilishi bo'yicha berilgan imtiyoz foizlar va dividendlar ko'rinishida olingan jismoniy shaxslarning daromadiga, shuningdek mol-mulkni ijaraga berishdan keladigan daromadlarga nisbatan qo'llaniladi.

Bunda agar foizlar va dividendlar asosiy ish joyidan hisoblab yozilsa, u holda imtiyoz asosiy ish joyida qo'llaniladi.

Agarda foizlar va dividendlar asosiy ish joyidan hisoblab yozilsa, jismoniy shaxsning turar joyi bo'yicha davlat soliq xizmati organlari tomonidan jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiya asosida jismoniy shaxslar daromadiga soliqni hisoblab chiqarish chog'ida imtiyoz qo'llaniladi.

Qisqacha xulosalar

Iqtisodiyotni liberallashtirish va mamlakatni modernizatsiyalash sharoitida jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig'ining mohiyati, soliq munosabatlaridagi ahamiyati, soliq tizimida va davlat byudjetining daromadlaridagi salmog'ini nazariy va amaliy ma'lumotlarga tayangan holda tahlil etish va o'rganish bugungi kun talabi hisoblanadi.

Qanchalik qiyin bo'lmasin, aholining daromad solig'iga tortishning yangi tizimini qat'iyan hayotga joriy etish zarur. CHunki u davlat daromadini shakllantirish nuqtai nazaridan avvalgi soliq tizimiga nisbatan ijtimoiy jihatdan ancha adolatli va yanada samaralidir.

Jismoniy shaxslar daromadlaridan olinadigan soliqlar ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatga egaki, boshqa soliqlarda bu holatni sezish qiyin. CHunki bu soliq har bir soliq to'lovchi sub'ektining hayotida muhim rol o'ynaydi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Kimlar jismoniy shaxs hisoblanadi?
2. Jismoniy shaxslarning daromadlari tarkibini izohlang?
3. Jismoniy shaxslar daromadlaridan olinadigan soliqni to'lovchilar bo'lib kimlar hisoblanadi?
4. Soliq stavkalari kim tomonidan o'rnatiladi?
5. Jismoniy shaxslar daromadlaridan olinadigan soliqning amaldagi stavkalari qanday ?
6. Rezident va norezident jismoniy shaxslar farqini tushuntiring?

XIV bob. JISMONIY SHAXSLARNING TADBIRKORLIK FAOLIYATIDAN OLINGAN DAROMADLARINI SOLIQQA TORTISH

14.1. Tadbirkor jismoniy shaxslarni soliqqa tortish zarurati va xususiyatlari

Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanib daromad oluvchi jismoniy shaxslar soliq to'lovchi sifatida soni jixatidan respublikada eng ko'pchilikni tashkil qiluvchi xo'jalik sub'ektlari hisoblanadi. Tadbirkorlik - xo'jalik sub'ektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tgan, tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olish maqsadida amalga oshiriladigan tashabbuskor faoliyatdir.

Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadlarini tashkil qiluvchi daromadlari ichida tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlar markaziy o'rinni egallaydi. Jismoniy shaxslarning tadbirkorlik faoliyati O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi 2000 yil 25 maydagi Qonuni va boshqa qonun hujjatlari asosida tartibga solinadi. Bu qonun fuqarolarning tadbirkorlik faoliyatida erkin ishtirok etishi va manfaatdorligi uchun kafolatlar hamda sharoitlar yaratishdan, ularning ishchanlik faolligini oshirishdan,

shuningdek tadbirkorlik faoliyati sub'ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatdorligini himoya qilishdan iborat.

Jismoniy shaxslar tadbirkorlik faoliyatining erkinligi shundan iboratki, davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari tadbirkorlik faoliyati sub'ektlarining qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirayotgan faoliyatiga aralashmasligidadir.

Davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari qoidabuzarlik mavjudligi faktidan tadbirkorlik faoliyati sub'ektlarining qonuniy faoliyatiga aralashish yoki uni cheklash uchun asos sifatida foydalanishi mumkin emas.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari hamda qishloq xo'jalik kooperativlari (shirkat xo'jaliklari) dehqon va fermer xo'jaliklarining tadbirkorlik faoliyatiga, shu jumladan ularning agrotexnika usullarini, etishtiriladigan mahsulot turini tanlashiga, ana shu mahsulotning bahosini hamda realizatsiya qilish yo'nalishini belgilash ishlariga aralashish ta'qiqlangan.

Davlat boshqaruv organlari tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash maqsadida:

- tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi va tadbirkorlik faoliyatining rivojlantirilishi ustidan monitoringini, mavjud muammolarni o'rganishni hamda tadbirkorlikning huquqiy kafolatlarini mustahkamlashga qaratilgan normativ hujjatlarni takomillashtirish ishlarini amalga oshiradi;
- tadbirkorlik faoliyati sub'ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlaydi;
- tadbirkorlik faoliyati sub'ektlariga moliyaviy, moddiy-texnika va axborot resurslaridan erkin foydalanishda ko'maklashadi;
- tadbirkorlik faoliyati sub'ektlariga o'z mahsulotlarini tashqi va ichki bozorlarda realizatsiya qilishda ko'maklashadi;
- tadbirkorlik faoliyati sub'ektlari o'rtasida axborot va tushuntirish ishlarini, konsalting, lizing, cyg'ypta va boshqa xil xizmatlar tizimi rivojlantirilishini tashkil etadi;
- tadbirkorlik faoliyati sub'ektlariga kadrlarni tayyorlashda, qayta tayyorlashda va ularning malakasini oshirishda ko'maklashadi.

14.2. YUridik shaxs tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar uchun qat'iy belgilangan soliq

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasining 26.02.2003 yildagi 37, 2003-33-son qarori bilan tasdiqlangan hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2003 yil 03 aprelda 1230-son bilan ro'yxatga olingan "YUridik shaxs tashkil etmagan holda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan jismoniy shaxslarning daromadidan qat'iy belgilangan hajmlarda olinadigan soliqni hisoblab chiqarish va to'lash tartibi to'g'risida"gi Nizomga asosan yuridik shaxsni tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar qat'iy belgilangan soliq to'lovchilar hisoblanadilar.

Qat'iy belgilangan soliq tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadigan jismoniy shaxslar tomonidan umumbelgilangan tartibdagi jami soliqlar va majburiy to'lovlar o'rniga to'lanadi.

Tadbirkorlar qat'iy belgilangan soliqni to'lovchilari hisoblanishlari bilan birga ular uchun quyidagilarni to'lashning amaldagi tartibi saqlanadi:

aktsiz solig'i (aktsizlanadigan mahsulot ishlab chiqarish chog'ida);

er ostidan foydalanganlik uchun soliq;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq (suv resurslaridan tadbirkorlik faoliyati uchun foydalanilganda);

er solig'i;

mol-mulk solig'i;

bojxona to'lovlari;

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari;

davlat bojlari;

xarid qilingan va vaqtinchalik olib kiriladigan avtotransport vositalari qiymatidan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika yo'l jamg'armasiga yig'imlarni to'laydilar.

Qat'iy belgilangan soliq to'lovchilariga soliq solishning boshqa tizimini tanlash huquqi tatbiq etilmaydi.

Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanib daromad oluvchilar rezidentlik tamoyili asosida soliqqa tortiladi. Faqatgina O'zbekiston Respublikasida doimiy yashab turgan yoki moliya yilida boshlanadigan yoki tugaydigan o'n ikki oygacha bo'lgan istalgan davr mobaynida 183 kun yoki undan ko'proq muddatda O'zbekistonda turgan jismoniy shaxs soliq munosabatlari bo'yicha to'liq javobgarlikni o'z zimmasiga oladi. Ana shu rezidentlik talabiga javob bermaydigan tadbirkor jismoniy shaxslar chegaralangan doirada soliq javobgarligiga ega, ya'ni faqat O'zbekiston Respublikasi hududiga ko'rsatran faoliyati bo'yicha olgan daromadlaridan soliq to'laydilar.

O'zbekiston Respublikasida tadbirkor jismoniy shaxslarning daromadlari quyidagi tartibda soliqqa tortiladi:

- O'zbekiston Respublikasi rezidenti tadbirkorlik faoliyatini qaerda amalga oshirganligidan qat'iy nazar soliq to'lovchi hisoblanadi;
- O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromad, uning sub'ektlari qaysi millatga mansubligidan va yuridik mavqeidan qat'iy nazar soliqqa tortiladi;
- tadbirkor jismoniy shaxs o'z faoliyati natijasida pul, natura yoki moddiy manfaat shaklida olgan daromadlari, umumiy tartibda, daromad sifatida soliqqa tortiladi.

O'zbekiston Respublikasidan tashqaridagi tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromad bo'yicha to'langan daromad (qat'iy) solig'i summalari O'zbekiston Respublikasida soliqqa tortilishda O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq inobatga olinadi, lekin hisobga olinadigan summalar miqdori tadbirkorni O'zbekiston Respublikasida amal qilayotgan stavkalar bo'yicha daromad solig'iga tortilgan summasidan oshmasligi lozim.

Hozirgi paytda respublika soliq tizimida jismoniy shaxs maqomidagi tadbirkorlikning bir nechta asosiy toifalari mavjud va quyidagi soxalarda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi jismoniy shaxslarga qat'iy soliq to'lovchi huquqi berilgan:

1. CHakana savdo (oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlari, dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan).
2. Aholiga maishiy xizmat ko'rsatish (poyafzal ta'mirlash, avtotransport vositalarini ta'mirlash xizmati, kimyoviy tozalash xizmati, fotografiya xizmatlari, nusxa olish xizmati va h.k.).
3. Soliqqa tortish maqsadida yuqoridagi maishiy xizmatlar guruhiga kiritilmagan xizmatlar: sartaroshlik xizmatlari ko'rsatish, manikyur, pedikyur, kosmetika va boshqa xizmatlar ko'rsatish.
4. O'z mahsulotini ishlab chiqarish va sotish (milliy shirinliklar va non-bulka mahsulotlari tayyorlash va sotish, mebel ishlab chiqarish, eshik-rom ishlab chiqarish va h.k.).
5. Boshqa faoliyat turlari.

Ushbu tartib quyidagi sohalarda tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bilan shug'ullanadigan jismoniy shaxslarga tatbiq etilmaydi:

a) bilyardxonalar.

b) bolalar o'yin avtomatlari;

v) o'yin avtomatlari, shu jumladan tavakkalchilikka asoslangan, pul (buyum) yutuqli o'yin avtomatlari zallarini tashkil etishga doir faoliyat.

14.3. Qat'iy belgilangan soliq stavkalari, to'lash tartibi va muddatlari

Qat'iy belgilangan soliq stavkalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

YUridik shaxsni tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan qat'iy belgilangan soliq stavkalari

Tadbirkorlikning ana shu turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatish uchun xo'jalik sub'ektlariga ikki xil ko'rinishda ishni tashkil qilish huquqi berilgan:

- yakka tartibda mehnat faoliyati bilan shug'ullanib daromad topish;
- bir necha yakka tartibda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchilarning birlashgan holda faoliyat tashkil etib daromad topish.

YAkka tartibdagi tadbirkorlik yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan xodimlarni yollash huquqisiz, mulk huquqi asosida o'zga tegishli bo'lgan mol-mulk negizida, shuningdek mol-mulkka egalik qilish yoki undan foydalanishga yo'l qo'yadigan o'zga ashyoviy huquq tufayli o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulk negizida mustaqil ravishda amalga oshiriladi.

Jismoniy shaxslar yuridik shaxs tashkil etmagan holda birgalikda er-xotinning umumiy mol-mulk negizida amalga oshiriladigan oilaviy tadbirkorlik, oddiy shirkat, dehqon xo'jaligi shakllarida amalga oshirilishlari mumkin. Umumiy oilaga tegishli bo'lgan mol-mulk negizida oilaviy tadbirkorlik amalga oshirilayotganda, uy-joy mulkdorlaridan birining ish muomalalariga kirilishi oilaning voyaga etgan boshqa azolariniig notarial tasdiqlangan roziligi bo'lgan taqdirda amalga oshiriladi.

Jismoniy shaxslar faqat yakka tartibdagi tadbirkorlik tariqasida davlat ro'yxatidan o'tganlaridan keyin ular birgalikdagi tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun tuziladigan oddiy shirkat ishtirokchilari bo'lishlari mumkin.

Qat'iy belgilangan miqdorlardagi daromad solig'ini tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar har oyda, mustaqil ravishda faoliyat amalga oshiriladigan oyning 1-kunigacha to'laydilar. Masalan, jismoniy shaxslar daromadidan qat'iy belgilangan soliq:

- 2007 yil yanvari uchun 2007 yilning 1 yanvariga qadar;
- 2007 yil fevrali uchun 2007 yilning 1 fevraliga qadar to'lanishi kerak va hokazo.

Qat'iy belgilangan soliq yuridik shaxsni tashkil etmagan tadbirkor tomonidan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan joyda to'lanadi. Bunda tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazilgan joyda amalga oshirmayotgan jismoniy shaxs stavkalardagi musbat farqni hisobga olgan holda soliq to'laydi. Bunda musbat farq jismoniy shaxs ro'yxatdan o'tkazilgan joyda undiriladi.

Masalan, Tadbirkor - jismoniy shaxs Samarqand shahrida ro'yxatdan o'tkazilgan; faoliyat turi - o'z mahsulotini ishlab chiqarish va sotish, shu jumladan milliy shirinliklar va non-bulka mahsulotlarini tayyorlash va sotish; faoliyatni amalga oshirish joyi Toshkent sh.;

- qat'iy belgilangan soliq stavkasi Samarqand shahrida oyiga 3,5 (eng kam ish haqiga karrali miqdorda) yoki 43470 so'mga teng;
- qat'iy belgilangan soliq stavkasi Toshkent shahrida oyiga 4,5 (eng kam ish haqiga karrali miqdorda) yoki 55890 so'mga teng;
- Samarqand shahri byudjetiga to'lanadigan qat'iy belgilangan soliq summasi: (55890 - 43470) + 43470 = 55890 so'mga teng.

Tadbirkorlik faoliyati bilan endi shug'ullana boshlagan jismoniy shaxslar qat'iy belgilangan stavkalar bo'yicha daromad solig'ini belgilangan tartibda, ro'yxatga olish paytida mustaqil to'laydilar. Qat'iy belgilangan soliq faoliyat boshlangan kundan qat'i nazar bir oy uchun to'lanadi.

Tadbirkor o'z faoliyatini muayyan oyga (oylarga) turli sabablar (oilaviy ahvoli, kasallik, vaqtincha boshqa erga ketish va h.k.) bilan to'xtatgan hollarda, u faoliyatini to'xtatishgacha davlat soliq xizmati organlariga faoliyatni vaqtincha to'xtatishi haqida ariza taqdim etishi va davlat ro'yxatidan o'tganlik to'g'risida guvohnomasini topshirishi kerak.

Hokimiyatlar tomonidan berilgan yakka tartibdagi tadbirkorning davlat ro'yxatidan o'tganlik to'g'risida guvohnomasi topshirilgandagina faoliyat vaqtincha to'xtatilgan deb hisoblanadi. Bunda tadbirkor davlat ro'yxatidan o'tganlik to'g'risida guvohnomasini topshirgandan keyin qat'iy belgilangan soliqni o'z faoliyatini amalga oshirmaydigan oyda to'lashdan ozod etiladi.

Davlat soliq xizmati organlariga kelib tushgan ariza va davlat ro'yxatidan o'tganlik to'g'risida guvohnoma majburiy tartibda, kelib tushgan kunida kelgan xat-xabarlar daftarida ro'yxatga olinadi.

YUridik shaxsni tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadigan va daromadidan qat'iy belgilangan stavkalar bo'yicha soliq to'laydigan jismoniy shaxslarga jami daromadni belgilash va undan tegishli

chegirmalar qilish tartibi O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga muvofiq tatbiq etilmaydi.

Jismoniy shaxs faoliyatning bir necha turi bilan shug'ullansa, soliqni faoliyatning har bir turi uchun alohida to'laydi.

Jismoniy shaxs tadbirkorlik faoliyatini ijaraga olingan uskuna va xonada, shu jumladan ishonchnoma bo'yicha transportda amalga oshirsa, ijaraga beruvchilar (shu jumladan transport vositasining egasi) to'g'risida yashash joyidagi davlat soliq xizmati organiga ma'lumotnoma (axborot) taqdim etishi kerak, unda ijaraga beruvchining (shu jumladan transport vositasi egasining) familiyasi, ismi, otasining ismi, pasport ma'lumotlari, shuningdek ijara to'lovining summasi va ijara muddati ko'rsatiladi.

Mazkur ma'lumotnoma (axborot) ijaraga olingan uskuna va xonada, shu jumladan ishonchnoma bo'yicha transportda faoliyatni amalga oshirishga qadar taqdim etiladi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkni ijaraga berishdan olgan daromadlari, O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 55-moddasiga binoan jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliqqa tortiladi.

Agarda jismoniy shaxs import tovarlarini sotish uchun respublika xududiga olib kelsa, u holda ular Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 2 sentyabrdagi 413-son qarorining 1-ilovasiga asosan:

- YUridik shaxs tashkil etmagan holda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi sifatida ro'yxatdan o'tishi:
  1) tadbirkor jismoniy shaxsni o'zi shaxsan kelgan holda yashash joyidagi davlat soliq inspektsiyasida;
  2) Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligida;
  3) bojxona organlarida - tashqi iqtisodiy aloqalar qatnashchisi sifatida;

  -tijorat banklarida hisob raqamini ochish;

  -eksport-import operatsiyalarini va chakana savdo bilan shug'ullanishi uchun ruxsatnoma rasmiylashtirish;

  -soliq organidan import operatsiyalari sub'ekti sifatida hisobga olish kartasini olishligi lozim.

14.4. Alohida turdagi tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchilar uchun qat'iy soliq, uni to'lovchilari va soliqqa tortish ob'ekti

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasining 2003 yil 31 yanvardagi 24-son, 2003-19-son qarori bilan tasdiqlangan hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2003 yil 16 fevralda 1218-son bilan ro'yxatga olingan "Alohida turdagi tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan yuridik va jismoniy shaxslar uchun qat'iy belgilangan soliqni hisoblab chiqarish va to'lash tartibi to'g'risida"gi Nizomga ayrim turdagi tadbirkorlik faoliyati uchun qat'iy belgilangan soliqning to'lovchilari bo'lib, quyidagi sohalarda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar hisoblanadilar:

- avtotransportni qisqa muddatga saqlash xizmatlari ko'rsatish (yuridik shaxslar);

- bolalar o'yin avtomatlari;

- bilyard o'ynash xonalari xizmatlari;

Alohida turdagi tadbirkorlik faoliyati uchun qat'iy soliqning soliq solish ob'ekti bo'lib, daromad olish bilan bog'liq bo'lgan, faoliyatning aniq turini xarakterlovchi fizik ko'rsatkichlar: jihozlangan joylar soni (birlik), band qilingan (egallangan olingan) maydon hisoblanadi.

Masalan, bolalar o'yin avtomatlarini ekspluatatsiya qilish xizmatlarini ko'rsatuvchi tadbirkorlik faoliyati sub'ektlari uchun soliq solish ob'ekti bo'lib jihozlangan joylar (birlik) soni hisoblanadi, bilyard o'ynash xonalari uchun - stollar soni. Agar tadbirkorlik sub'ekti 4 ta bolalar o'yin avtomatiga va 1 ta jihozlangan bilyard stoliga ega bo'lsa soliq solish ob'ekti bo'lib har bir jihozlangan joy - 4 ta o'yin avtomati va 1 ta bilyard stoli hisoblanadi.

Qat'iy belgilangan soliq umumbelgilangan tartibdagi jami soliqlar va majburiy to'lovlar o'rniga to'lanadi (quyida ko'rsatilganlar bundan mustasno).

Qat'iy belgilangan soliq to'lovchilari uchun quyidagilarni to'lashning amaldagi tartibi saqlab qolinadi:

yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun:

aktsiz solig'i (aktsizlanadigan mahsulot ishlab chiqarish chog'ida);

er ostidan foydalanganlik uchun soliq;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq (suv resurslaridan tadbirkorlik faoliyati uchun foydalanilganda);

er solig'i;

mol-mulk solig'i;

bojxona to'lovlari;

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari;

davlat bojlari;

xarid qilingan va vaqtinchalik olib kiriladigan avtotransport vositalari qiymatidan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika yo'l jamg'armasiga yig'im.

14.5. Tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq stavkalari, hisoblash tartibi va to'lash muddatlari

Alohida turdagi tadbirkorlik faoliyati uchun qat'iy belgilangan soliq stavkalarining miqdorlari, shuningdek fizik ko'rsatkichlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi. (14-jadval)

YUridik va jismoniy shaxslardan tadbirkorlik faoliyati ayrim turlari bo'yicha olinadigan qat'iy belgilangan soliq stavkalari*

Manba:* O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 18 dekabrdagi PQ-532-son qarori.

Izoh:

Taqdim etilgan qat'iy belgilangan soliq hisob-kitobida hisobga olinmagan fizik ko'rsatkichlar aniqlangan holatda bu hol soliqqa tortish ob'ektini yashirish sifatida qaraladi.

Qat'iy belgilangan soliqning miqdori fizik ko'rsatkichdan (jihozlangan joylar soni (birlik), egallab olingan maydon) va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblanadi.

Qat'iy belgilangan soliq summasi quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

Bs = Fk x S,

bunda:

Bs - qat'iy belgilangan soliq summasi;

Fk - fizik ko'rsatkichlar (jihozlangan joylarning soni (birlik), band qilingan (egallab olingan) maydon);

S - qat'iy belgilangan soliqning stavkasi.

Qat'iy belgilangan soliq bo'yicha hisob-kitoblar 1218-sonli Nizomning ilovasiga muvofiq shaklda moliya yilining 15 yanvarigacha davlat soliq xizmati organlariga taqdim qilinadi. Hisob-kitobda ko'rsatilgan fizik ko'rsatkichlar (soliq solish ob'ektlari) o'zgargan taqdirda, to'lovchilar o'zgargan sharoitlarda faoliyatni amalga oshirishgacha o'zgartirilgan hisob-kitobni davlat soliq xizmati organlariga taqdim qilishlari shart. Bunda davlat soliq xizmati organlari tomonidan taqdim qilingan yangi hisob-kitoblar asosida soliq to'lovchilarga yangi to'lov xabarnomasi yozib beriladi.

YUridik shaxslar tomonidan qat'iy belgilangan soliq hisobot oyidan keyingi oyning 15-sanasidan kechikmagan holda har oyda to'lanadi.

Jismoniy shaxslar tomonidan qat'iy belgilangan soliq davlat soliq xizmati organlarining to'lov xabarnomalari asosida hisobot oyining 1-sanasigacha har oyda to'lanadi.

Qat'iy belgilangan soliq summasi O'zbekiston Respublikasi byudjetlari daromadlari va xarajatlarining amaldagi tasnifiga binoan mahalliy byudjetning bo'lim va paragraflariga kirim qilinadi.

O'z tadbirkorlik faoliyatini yangidan boshlayotgan jismoniy shaxslar, qat'iy belgilangan soliq bo'yicha hisob-kitoblarni o'z faoliyatini amalga oshirishdan oldin taqdim qiladilar va davlat soliq xizmati organlarining to'lov xabarnomalariga binoan qat'iy belgilangan soliq to'laydilar.

YUridik shaxsni tashkil qilmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi va qat'iy belgilangan soliqni to'laydigan jismoniy shaxslarga, O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi bilan belgilangan jami daromadni belgilash va undan tegishli chegirmalarni amalga oshirish tartibi tatbiq etilmaydi.

Qisqacha xulosalar

Jismoniy shaxslarning tadbirkorlik faoliyati O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi 2000 yil 25 maydagi Qonuni va boshqa qonun hujjatlari asosida tartibga solinadi. Bu qonun fuqarolarning tadbirkorlik faoliyatida erkin ishtirok etishi va manfaatdorligi uchun kafolatlar hamda sharoitlar yaratishdan, ularning ishchanlik faolligini oshirishdan,

shuningdek tadbirkorlik faoliyati sub'ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatdorligini himoya qilishdan iborat.

Jismoniy shaxslar tadbirkorlik faoliyatining erkinligi shundan iboratki, davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari tadbirkorlik faoliyati sub'ektlarining qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirayotgan faoliyatiga aralashmasligidadir.

Qat'iy belgilangan soliq tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadigan jismoniy shaxslar tomonidan umumbelgilangan tartibdagi jami soliqlar va majburiy to'lovlar o'rniga to'lanadi.

Bu tartib tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar uchun har tomonlama qulayliklarga ega bo'lib, faoliyat yuritishda ortiqcha qog'ozbozlik, murakkab buxgalteriya hisobi, tekshirishlarning ko'pligi va shunga o'xshash boshqa xolatlarni oldi olinadi hamda barcha soliqlar va to'lovlar tadbirkor tomonidan majburiy emas, balki ixtiyoriy ravishda to'lanadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Tadbirkorlik faoliyati tushunchasi nima?
2. Tadbirkorlik faoliyati qaysi qonunlar bilan tartibga solinadi?
3. Tadbirkorlik faoliyati sub'ektlari deb nimaga aytiladi?
4. Kimlarga tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish ta'qiqlangan?
5. YAkka tartibdagi mehnat faoliyati nima?
6. Jismoniy shaxslarning yuridik shaxs tashkil etmagan holdagi birgalikdagi tadbirkorlik faoliyatining qanday turlari mavjud?
7. YAkka tartibdagi tadbirkorlikni davlat ro'yxatidan o'tkazishning qanday xususiyatlari mavjud?
8. Tadbirkorlik faoliyatini ayrim turlarini litsenziyalash qanday tartibda amalga oshiriladi?
9. YAkka tartibdagi tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxs soliq idorasiga yillik deklaratsiyasini qachon topshiradi?
10. Tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar uchun qatiy soliqni hisoblab chiqarish va to'lash tartibi qanday?

Asosiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi. Respublika Axborot-Maslahat markazi. -T., 2006.
2. YUtkina G.F. Nalogi i nalogooblojeniya: Uchebnik. – 5-e izd., pererab. i dop. – M.: INFRA-M, 2006. – 509 s.
3. Zavalishina I.A. Soliqlar: nazariya va amaliyot. -T.: "Iqtisodiyot va huquq dunyosi" nashriyot uyi, 2005. 276-281 bet.

XV bob. JISMONIY SHAXSLAR DAROMADLARINI DEKLARATSIYALASH TARTIBI

15.1. Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadlarini deklaratsiyalashning mohiyati va tartibi

Deklaratsiya - jismoniy shaxs tomonidan bir yilda turli manbalardan olingan daromadlar to'g'risida hujjat bo'lib, soliq to'lovchining istiqomat joyidagi soliq inspektsiyasiga taqdim etiladi.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish davrida fuqarolarning jami yillik daromadlarini deklaratsiyalash tizimini bosqichma-bosqich joriy etish va uni xalkaro andozalar asosida takomillashtirish davr talabiga aylandi.

Bozor iqtisodiyoti va tadbirkorlik faoliyati erkinligi tamoyillari amal qilayotgan barcha iqtisodiyoti taraqqiy etgan mamlakatlarda fuqarolar tomonidan o'z daromadlarini majburiy deklaratsiyalash amaliyoti keng qo'llaniladi. Daromadlar to'g'risidagi deklaratsiyani to'ldirish fuqarolar tomonidan soliqlar to'lash chog'ida, shuningdek uy, er maydonlari va ko'chmas mulk, qimmatbaho qog'ozlar hamda boshqa qimmatli buyumlarni xarid qilish bilan bog'liq yirik moliyaviy bitimlarni amalga oshirishda qat'iy shart hisoblanadi. Xullas, fuqarolar daromadlari manbalarining oshkoraligi, qonuniyligini tasdiqlash zarur bo'lgan joyda deklaratsiya talab qilinadi.

Rivojlangan mamlakatlarning deyarli hammasida hozirgi paytda davlat bilan aholi o'rtasidagi moliyaviy munosabatlarda soliq deklaratsiyasi keng qo'llaniladi. Soliq deklaratsiyasiga ko'ra soliq to'lovchi sub'ekt ikki va undan ortiq ish joyida faoliyat ko'rsatsa, u keyingi yilning ma'lum davrigacha o'zining yil davomida olgan daromadini, uning manbalarini, soliqqa tortish ob'ekti bo'lgan mol-mulklarini o'zi yashab turgan tegishli soliq organlariga ko'rsatishlari lozim. Deklaratsiyada ko'rsatilgan har bir modda daromadining darajasi va mavjud soliqqa tortiladigan mulkning qiymatiga qarab oldindan belgilangan soliq stavkasida o'rnatiladi.

Xorijiy mamlakatlarda mavjud bo'lgan deklaratsiyalash tizimining asosiy sharti, bir tomondan, o'z daromadlari va ularning manbalari to'g'risida odamlarning o'zlari ixtiyoriy ravishda ma'lumot berishlaridir. Ikkinchi tomondan, deklaratsiya, mol-mulk xarid qilishga sarflangan pul mablag'larining manbalari to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etmaslik uchun o'z daromadlarini atayin kamaytirib ko'rsatganligi yoki ularni yashirganligi uchun iqtisodiy jazo va jarimalarning qonun yo'li bilan mustahkamlangan, hatto, jinoiy javobgarlikka tortishgacha bo'lgan kuchli tizimi mavjuddir.

Daromadlarni deklaratsiyalash tizimini yaratish bo'yicha chet el tajribasini chuqur o'rganishni, aholini tegishli tarzda tayyorlashni, zarur qonunchilik va me'yoriy negiz qabul qilinishini, butun bir tashkiliy chora - tadbirlar majmui amalga oshirilishi talab etilishini hisobga olgan holda, jismoniy shaxslar jami daromadlarini deklaratsiyalash tizimini 2002-2005 yillarda bosqichma-bosqich

joriy etish rejalashtirilgan edi. Lekin ko'rsatilgan muddatda bu tizim ba'zi sabablarga ko'ra to'liq ishga tushmadi.

SHuni qayd etib o'tish kerakki, hozirgi vaqtda amaldagi qonunchilikka muvofiq quyidagi jismoniy shaxslar deklaratsiya topshirishlari shart:

- asosiy ish joyidan tashqaridan daromad olayotganlar;
- yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tmagan holda bir marotabalik operatsiyalar (savdo, ish, xizmatlar)ni amalga oshirishdan daromad oluvchilar;
- chet ellik rezident jismoniy shaxslar.

Respublikada jismoniy shaxslarning jami daromadlarini deklaratsiyalash tizimining joriy etilishi, fuqarolarning daromadlarini oshkoralashtirish imkoniyatini belgilaydi, yashirin iqtisodiyot yo'liga g'ov bo'lib xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun yanada qulayroq sharoitlarni yaratishga ko'maklashadi.

Fuqarolar jami yillik daromadlarini deklaratsiyalash tizimining joriy etilishi tsivilizatsiyalashgan bozor munosabatlarini shakllantirishning ob'ektiv va zarur sharti hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida doimiy yashaydigan manzilga ega asosiy ish joyi bo'lmagan erdan (O'zbekiston Respublikasidagi hamda uning tashqarisidagi manbalardan) daromad oluvchi jismoniy shaxslarning jami yillik umumiy daromadlarini deklaratsiya asosida soliqqa tortish masalalari ko'rib chiqiladi.

Jami yillik umumiy daromad haqidagi deklaratsiya jismoniy shaxslar tomonidan hisobotdan keyingi yilning 1 aprelidan kechiktirmay, doimiy yashab turgan joylardagi davlat soliq xizmati opganlariga taqdim etiladi. Jami yillik umumiy daromad haqidagi deklaratsiyani acociy ish joyidagi daromaddan tashqari, hisobot yili davomida qo'shimcha daromad olgan, shuningdek, hisobot yili davomida asosiy ish joyiga ega bo'lmay turib, shu yilda biron bir daromad olgan barcha toifadagi jismoniy shaxslar taqdim etadilar.

Asosiy ish joyi bo'lib, xodimning mehnat daftarchasi yuritiladigan (saqlanadigan) korxona, muassasa yoki tashkilot va xodim hisobida turadigan mehnat va unga teng munosabatlar jamoasi hisoblanadi.

Bir yil davomida faqat asosiy ish joyidan daromad qilgan va shu davr ichida biron-bir daromadlarga ega bo'lmagan jismoniy shaxslar o'z daromadlari haqida davlat soliq xizmatiga deklaratsiya taqdim etmaydilar. Biroq yilning oxirgi oyida doimiy ish joyiga ega bo'lmagan fuqarolar to'liq yil jadvali bo'yicha hisob-kitob qilish uchun deklaratsiya taqdim etishlari mumkin.

Hisobot yilida olingan barcha manbalardan soliqqa jalb etilishi mumkin bo'lgan jami yillik umumiy daromad hajmi bir yilda uch barobar eng kam ish haqi miqdoridan oshgan jismoniy shaxslar jami yillik umumiy daromad haqida deklaratsiya taqdim etmaydilar.

Fuqaroning bir yilda asosiy ish joyidan tashqari, yiliga 3 barobar eng kam ish haqi miqdoridan kam daromad olganligi haqida soliq organlarida ma'lumot mavjud bo'lsa, soliq organi o'sha fuqarodan asosiy ish joyidan hisobot yili uchun olingan daromadlari haqida ma'lumotnoma talab etishi shart. Mabodo, agar acociy ish joyidan olingan daromadlar bilan hisoblaganda soliqqa jalb etiluvchi daromad

yig'indisining umumiy summasi hisobot yilida bir yillik eng kam ish haqini 3 barobaridan kam bo'lsa, soliq organi tomonidan bu fuqaroning jami yillik umumiy daromad haqida deklaratsiya taqdim etilmasligi haqida ma'lumotnoma tuziladi.

Fuqaroning jami yillik umumiy daromad haqidagi deklaratsiyani taqdim etmasligi to'g'risidagi ma'lumotnoma, asosiy ish joyidan olingan daromadlar haqidagi ma'lumotnoma, shuningdek asosiy ish joyi bo'lmagan erdan olingan daromadlar haqidagi ma'lumotlar soliq organida bir jildda (delo) saqlanadi.

15.2. Jismoniy shaxslarni jami yillik daromadlarini deklaratsiyalash mexanizmi

Jami daromadni deklaratsiyalashga doir majburiyatlar Soliq kodeksining 62-moddasida va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasining O'zbeksiton Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2002 yil 14 martda 1110-son bilan ro'yxatga olingan qarori bilan tasdiqlangan «Jismoniy shaxslar daromadiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish va byudjetga to'lash tartibi to'g'risida»gi yo'riqnomaning XI bo'limida nazarda tutilgan.

Ushbu Yo'riqnomaga muvofiq 2007 yil uchun jami daromad haqidagi deklaratsiyani quyidagi shaxslar topshirishi kerak:

- asosiy bo'lmagan ish joyidan (O'zbekiston Respublikasidagi, shuningdek uning hududidan tashqaridagi manbalardan) daromad olgan jismoniy shaxslar tomonidan, asosiy bo'lmagan ish joyidan daromad oluvchi jismoniy shaxs buxgalteriyaga uning daromadidan eng yuqori stavka (29 %) bo'yicha soliq ushlab qolinishi haqida ariza topshirgan va soliq uning arizasiga muvofiq ushlab qolingan holatlar bundan mustasno;
- chet ellik jismoniy shaxslar - rezidentlar;
- tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar - rezidentlar .

Jami yillik umumiy daromad haqidagi deklaratsiya va uni topshirish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 14 yanvardagi 10 va 2002 - 16 sonli qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2002 yil 14 martda 1110-son bilan ro'yxatga olingan tartibiga asosan to'ldiriladi.

Jami yillik umumiy daromad deklaratsiyasi quyidagi bo'limlardan (3 -shakl) iborat:

3- shakl

Asosiy bo'lmagan ish joyi bo'yicha daromad olgan soliq to'lovchi tomonidan 1 aprelgacha taqdim etiladi

_____ shahar (tuman)
Davlat soliq inspektsiyasiga

<u>2013</u>yilda olingan daromadlar to'g'risida
DEKLARATSIYA

Ma'lum qilamanki, men, _____

(familiyasi, ismi, otasining ismi)

700000 manzilida istiqomat qilaman.

(pochta indeksi, to'liq manzil)

STIR: | | | | | | | | | |
SHJBPI: | | | | | | | | | | | | |

Pasport ma'lumotlari: ceriyasi: _____ raqami: _____

Kim tomonidan berilgan *IIB* berilgan sana _____ _____

Tug'ilgan yil: _____ Telefonlar: uy: _____ ish: _____

Deklaratsiyaning umumiy (manzil ko'rsatiladigan) qismida deklaratsiya topshiruvchi fuqaroning familiyasi, ismi, otasining ismi, istiqomat manzili, soliq to'lovchining identifikatsion raqami (STIR), SHJBPHi hamda pasport rekvizitlari (pasport seriyasi, tartib raqami, pasportning kim tomonidan berilganligi va berilgan sanasi) aks ettiriladi.

Deklaratsiyaning I-bo'limi 1 bandida asosiy ish joyidan olingan daromadlar va daromadlardan ushlab qolingan soliqlar haqida ma'lumotlar ko'rsatiladi. To'lov joyi bo'lib, daromad to'langan korxona, muassasa yoki tashkilot hisoblanadi.

Deklaratsiyaning I-bo'lim 1 bandi quyidagicha ko'rinishga ega:

I -bo'lim

2012 *yilda quyidagi DAROMADLARNI oldim:*

1. Asosiy ish joyi bo'yicha olingan daromadlar (ish haqi, mukofotlar, pul, natura ko'rinishidagi boshqa to'lovlar va rag'batlantirishlar, o'rindoshlik bo'yicha ishlardan olingan daromadlar):

T/r	Mehnat daftarchasi yuritiladigan asosiy ish joyi	Korxonada ishlangan vaqt	Hisoblab yozilgan daromad summasi	Ushlab qolingan soliq summasi
1.				
2.				
3.				
4.				
	JAMI:			

Deklaratsiyaning I-bo'lim 1-ustunida fuqaroning mehnatidan foydalanishga mehnat shartnomasi tuzilgan korxona, muassasa, tashkilot yoki jismoniy shaxsning to'liq nomi, shuningdek ularning to'liq pochta manzili ko'rsatiladi. Agar hisobot yili davomida (bo'shatilish yoki boshqa sabablar natijasida) asosiy ish joyi bir necha erda bo'lsa, unda 1-ustunda asosiy ish joylarning har biri alohida ko'rsatiladi.

Deklaratsiyaning I-bo'limi 2-ustunida daromad olingan asosiy ish joyida ishlangan davri ko'rsatiladi, shu bilan birga, albatta kuni va oyi qo'yiladi.

Deklaratsiyaning I-bo'limi 3-ustunida xodimning ish davrida aniq korxona, muassasa, tashkilotdan to'langan ish haqining (daromad) summasi hech qanday chegirmasiz (soliqlar, kasaba uyushmasi organlariga, bandlik jamg'armalariga chegirmalar va boshqalar) to'liq holda ko'rsatiladi. Bu ustunda ko'rsatilayotgan daromad tarkibiga daromadlar pul shaklida bo'lganidek, davlat tomonidan boshqariluvchi narxlarda, agap ular bo'lmasa daromad olingan paytdagi erkin narxlarda jami yillik umumiy daromad tarkibida hisobga olinuvchi natura shaklida xam qo'shiladi. Mabodo to'lov o'zlari ishlab - chiqarayotgan mahsulotlar hisobiga natura shaklida to'lash amalga oshirilsa, bu mahsulotning narxi o'zga iste'molchilarga sotilayotgan narxda qabul qilinadi.

Jismoniy shaxslarning jami yillik umumiy daromad pul yoki boshqa soliq to'lovchi tomonidan olinishi (olingan) lozim bo'lgan yoki quyidagilarni xam qo'shgan holda u tomonidan qaytarib bermaslik sharti bilan olingan vositalar qatorida:

- ish haqi tarzida olinadigan daromadlar;
- jismoniy shaxslarning mulkiy daromadi;
- jismoniy shaxslarning tadbirkorlik faoliyatidan kelgan daromad ham qo'shiladi.

Agar fuqarolar korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning vositalaridan foydalanish natijasida ega bo'lgan naqd pul yoki pul nominali aks etgan va odatda pul to'lanadigan transportlarda yurish, tomoshalarga borish yoki boshqa xizmatlardan (tadbirkorlardan) foydalanish huquqini beradigan, shuningdek korxona, muassasa yoki tashkilot bu to'lovlarni aniq fuqaro uchun amalga oshirgan hollarda korxona, muassasa va tashkilot tomonidan yuqorida ta'kidlangan maqsadlarga qaratilsa, unda o'sha mablag' summasi fuqarolarning jami umumiy daromadi tarkibiga kiritiladi.

SHuningdek, fuqarolarni jami umumiy daromadi tarkibiga korxonalar, muassasalar va tashkilotlar tomonidan o'z xodimlariga alohida-alohida beriladigan moddiy va ijtimoiy to'lovlar summasi, jumladan:

- kommunal-maishiy xizmat (tegishli qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan tashqari), abonementlarning turli xillari, gazeta, jurnal va kitoblarga obunalar;

- amaldagi qonunlarda maxsus nazarda tutilgan hollardan tashqari ishga borib kelish yo'l kirasi;

- dam olish yo'llanmasi;

- xodimlarga bozor narxlaridan arzonga (tegishli hollarda davlat boshqaruvida) sotilgan mollar (buyumlar, oziq-ovqat) yoki o'z mahsulotlarini chiqarish narxidan past berish;

-nafaqaga chiqayotan mehnat faxriylariga birvarakay beriladigan nafaqalar va boshqalar to'lovi ham qo'shiladi.

Korxona, muassasa yoki tashkilot tugatilib, uning mulki, fuqarolar orasida bo'linayotganda (xoh pul, xoh natura shaklida) har bir fuqaro ulushiga tushadigan mulk narxining summasi uning jami yillik umumiy daromadi tarkibiga kiritiladi.

Deklaratsiyaning I-bo'limi 4-ustunida korxona, muassasa yoki tashkilotda 3-ustunda ko'rsatilgan daromaddan ushlangan soliq summasi ko'rsatiladi.

Yil davomida hisoblangan daromadlarning hisobi olib borilmagan xollarda soliq to'lovchi hisobot yili oxirida ishlagan korxona, muaccaca va tashkilot buxgalteriyaciga murojaat qilib, zarur ma'lumotlar berilishini co'rashi kerak. SHu bilan birga soliq to'lovchi hisobot yili davomida acociy ish joyini o'zgartirgan bo'lca, yangi ish joyidagi korxona, muaccaca yoki tashkilot buxgalteriyaci ushbu yil uchun olingan daromadlar va undan ushlangan soliqlar haqida ma'lumotnoma berayotganda yil boshidan buyon (avvalgi ish joyidan olingan daromadlarni xam qo'shgan holda) olingan jami umumiy daromadni ko'rcatishlari shart.

SHuningdek, hisobot yilida acociy ish joyi bo'lmagan erdan daromad oluvchi soliq to'lovchi o'zi ishlayotgan korxona buxgalteriyaciga murojaat qilishi kerak.

Deklaratsiyaning I-bo'lim 2 bandi quyidagicha ko'rinishga ega:

2. *Men tomonimdan asosiy bo'lmagan ish joyim bo'yicha (o'rindoshlik, fuqarolik-huquqiy tusdagi shartnomalar bo'yicha ishlarni bajarish uchun, shuningdek bir martalik va boshqa ishlarni bajarish uchun) olingan daromadlar*

T/r	Ish joylari	Korxonada ishlangan vaqt (*)	Hisoblab yozilgan daromad summasi	Ushlab qolingan soliq summasi
1.				
2.				
3.				
	JAMI:			

(*) Asosiy ish joyi bo'lmagan vaziyatlarda to'ldiriladi.

Deklaratsiya to'ldiruvchi fuqaro deklaratsiyaning I-bo'lim 2 bandining 1 ustunidagi bunday daromadlar olinadigan barcha joylarni ko'rsatishi kerak. Masalan, fuqaro yil davomida pudrat shartnomasi bilan o'nta tashkilotda ishlagan. Deklaratsiyadagi ta'kidlangan bo'limda o'nta tashkilotning barchasi ko'rsatilishi kerak. SHu bilan birga korxonalarning, muassasalarning yoki tashkilotlarning to'liq nomi, shuningdek, u joylashgan (shahar, aholi punkti) er ko'rsatilishi kerak.

Agar daromadlar tadbirkorlik sifatida ro'yxatdan o'tgan jismoniy shaxslardan olingan bo'lsa, bu ustunda uning ismi, familiyasi va faoliyat yuritayotgan joyi ko'rsatilishi kerak. SHuningdek, bu ustunda bajarilganligi uchun daromad olingan faoliyat turini ko'rsatishi zapyp.

I-bo'lim 2 bandning 2-ustuni**(*)** fuqaroning daromad olish davri davomida asosiy ish joyi mavjud bo'lmagan holdagina to'ldiriladi. Masalan, fuqaro butun hisobot yilida faqat pudrat shartnomasi asosida ishlagan va asosiy ish joyiga ega bo'lmagan. Bunday xolatda u deklaratsiyada aniq shartnoma bo'yicha qaysi davr uchun daromad olganini ko'rsatadi. SHartnoma tuzilgan davr masalan, 2012 yil 1 yanvardan 2013 yil 31 maygacha ko'rsatiladi.

SHu bilan birga agar daromad bir martalik ish bajarilganligi uchun olingan bo'lsa, daromad olingan vaqti ko'rsatiladi. Masalan, 2006 yil 15 may.

I-bo'lim 2 bandning 3-ustunida hisoblangan daromadning to'liq summasi ko'rsatiladi, buxgalter tomonidan bu daromad manbaidan ushlab qolingan soliq summasi esa 4-ustunda ko'rsatiladi.

I-bo’lim 2 bandning 3- va 4-ustunlarining "jami" satrida asosiy ish joyi bo’lmagan erdan olingan daromadlarning barcha manbalari bo’yicha hisoblangan daromad va ushlab qolingan soliqning mutanosib yakuniy summasi ko’rsatiladi.

Deklaratsiyaning I-bo’lim 3 bandi quyidagicha ko’rinishga ega:

3. Men tomonimdan xorijiy davlatlarda yoki xorijiy davlatlardan olingan daromadlar:

T/r	Unda yoki undan daromad olingan davlatning nomi (manzil va daromadning to’lov manbai nomi)	Daromadlar olingan sana	Olingan daromad summasi		Xorijiy davlatda to’langan (ushlab qolingan) soliq summasi	
			valyutada	so’mda	valyutada	so’mda
1.						
2.						
3.						
	JAMI:					

Ikki tomonlama soliq solishni bartaraf qilish maqsadida xorijiy davlatda soliq to’langanligini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etaman.

Soliq to’lovchi mazkur ustunni to’ldirishda qiyinchilikni boshidan kechirgan taqdirda, uni to’ldirish soliq organi tomonidan amalga oshiriladi.

Fuqaroning xorijiy davlatlarda yoki xorijiy davlatlardan olgan daromadlari va to’langan soliqlarining xorijiy valyutadagi hamda so’mlardagi miqdorlarini ko’rsatadi. SHuningdek, ikki yoqlama soliqqa tortishning oldini olish maqsadida jismoniy shaxs xorijiy davlatda olingan daromadlar va to’langan soliqlarni tasdiqlovchi hujjatlarini taqdim etishi va shu asosda tegishli ustunlarni to’ldirishi lozim.

Bu bo’limda quyidagi asosiy daromad turlari ko’rsatiladi:

a) chet el ish beruvchisi bilan yakka tartibda (shaxsiy) bitim (shartnoma) asosida har qanday ishlar bajarilishidan olingan daromadlar;

b) xorijiy ish beruvchi daromadni bevosita jismoniy shaxsga berish sharti bilan O’zbekiston Respublikasi yuridik shaxsi bilan xorijiy ish beruvchi orasida tuzilgan bitim asosida bajarilgan ishdan olingan daromadlar;

v) O’zbekiston Respublikasi fuqarolariga tegishli ko’char va ko’chmas mulkni xorijiy mamlakat xududida foydalanishdan olingan daromadlar (renta to’lovi, ijara xaqi va boshqalar);

g) xorijiy aktsiyadorlik jamiyatlarining aktsiyalari yuzasidan olingan dividendlar, shuningdek, O’zbekiston Respublikasi xududidan tashqarida joylashgan xorijiy banklarga qo’yilgan pullar bo’yicha foizlar.

Deklaratsiyaning I-bo’lim 3 bandining 1-ustunida daromad olingan davlat, shuningdek, ushbu daromadni to’lagan shahar va tashkilot ko’rsatiladi.

SHu bandning 2-ustunida daromadning olingan vaqti (kuni, oyi va yili) ko’rsatiladi. So’mning xorijiy valyutaga nisbatan muntazam o’zgarib turishi munosabati bilan daromadni olingan vaqti aniq ko’rsatilishi muhimdir. Bunga xorijiy valyutada hisoblangan daromadning miqdori va nihoyat undan olinadigan soliqning miqdori bog’liqdir.

3-ustunida esa daromadning valyutada olingan summasi ko’rsatiladi (dollar, evro va boshqalar).

Deklaratsiyaning I-bo'lim 3 bandining 4-ustunida 3 ustunda ko'rsatilgan daromad summasi so'mlarda qayta hisoblangani ko'rsatiladi. Buning uchun xorijiy valyutada olingan daromad 2 ustunda ko'rsatilgan daromadning olingan vaqtida amalda bo'lgan O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki kursi bo'yicha qayta hisoblanadi. Bu hisobni davlat soliq inspektori amalga oshiradi.

5-ustunda bu daromad olingan mamlakatda o'sha daromaddan to'langan (ushlab qolingan) soliq summasi ko'rsatiladi. To'langan (ushlab qolingan) soliq summasi daromad olingan valyutada ko'rsatiladi. 5-ustunda soliq to'lovchidan olingan daromaddan soliq to'langanligi (ushlab qolinganligi) haqida daromad qaysi davlatda yoki qaysi davlatdan olingan bo'lsa, o'sha davlatning soliq organi tasdiqlagan xulosasi bo'lgandagina to'ldiriladi.

Agap soliq to'laganligi haqida daromad qaysi davlatda yoki qaysi davlatdan olingan bo'lsa, o'sha davlatning soliq organi tasdiqlagan xulosasi bo'lmasa 5 ustun to'ldirilmaydi va o'sha joyi chizib qo'yiladi.

6-ustunda daromad olingan mamlakatda to'langan (ushlab kolingan (5 ustun) soliqning so'mdagi ekvivalenti ko'rsatiladi. Xuddi shu ustunda (6 ustun) 4 ustunda ko'rsatilgan daromadning so'mdagi ekvivalenti O'zbekiston Respublikasida amalda bo'lgan daromad solig'i stavkalari bo'yicha hisoblangan soliq summasi chiziq ostida ko'rsatiladi.

Jadvalning "jami" satrida 4- va 6-ustunlar to'ldiriladi. 6-ustun to'ldirilayotganda satrga faqat hisobga olinadigan soliq summasi yozib quyilishini inobatga olish zarur.

Xorijiy davlatda to'langan va shu davlatning soliq organi tomonidan tasdiqlangan xulosadagi daromad solig'i summasi O'zbekiston Respublikasida soliq to'layotganda hisobga olinadi. SHu bilan birga hisobga olinayotgan soliq summasining miqdori O'zbekiston Respublikasida to'lanishi kerak bo'lgan soliq summasidan oshishi mumkin emas.

Deklaratsiyaning I-bo'lim 4-bandida jismoniy shaxsning soliqqa tortiladigan tadbirkorlik faoliyatidan va boshqa faoliyatdan olgan daromadlari va shu daromadni olish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlari hamda soliq ushlanishi lozim bo'lgan daromad, to'langan soliq miqdori ko'rsatiladi.

4. Men tomonimdan tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlar va soliq solish davlat soliq organlari tomonidan amalga oshiriladigan boshqa daromadlar:

(so'm.)

T/r	Faoliyat turi yoki daromad nima uchun olingan	Tovar (ish, xizmat)larni sotishdan olingan tushum	Daromadlarni olish bilan bog'liq xarajatlar, majburiy to'lovlar, sarf va ajratmalar	Tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlar	To'langan (ushlab qolingan) soliq summasi
1.					
2.					
3.					
	JAMI:				

Amalga oshirilgan xarajatlarni tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinadi.

Deklaratsiyaning 1-bo'limi 4-bandining 1-ustunida faoliyat turi, masalan,

- chakana savdo;

- mebel ishlab chiqarish;
- kompyuter xizmatlari va boshqalar ko'rsatiladi.

2-ustunida 1-ustunda ko'rsatilgan aniq faoliyat turini amalga oshirishdan olingan tushum summasi qo'yiladi.

3-ustunda 2-ustunda ko'rsatilgan daromadlarni olish uchun ketgan sarf-xarajatlar ko'rsatiladi.

4-ustunda daromad colig'i hisoblanishi kerak bo'lgan daromad ko'rsatiladi. SHu bilan birga daromad summasi xar bir satrda 2-ustunda ko'rsatilgan. Daromad summalarining alohida va 3-ustunda ko'rsatilgan xarajatlar summasi belgilanadi.

5-ustunda yil davomida soliq to'lovchining amalda o'zicha to'lagan soliq summasi emas, hisobot yilida soliq organi tomonidan daromad solig'ining hisoblangan avans summasi ko'rsatiladi.

Agar soliq organi soliqning avans summasini hisoblamagan bo'lsa, soliq to'lovchiga qandaydir faoliyatni amalga oshirgani uchun haq to'layotgan korxona, muassasa va tashkilot soliq ushlab qolsa, unda 5-yctynda daromad to'langan manbada ushlab qolingan soliq summasi ko'rsatilishi kerak.

Daromadlar takror soliqqa tortilmasligi maqsadida fuqarolarning bu faoliyatdan oladigan daromadlari joriy yilda soliq organi tomonidan hisobga olinganligini tasdiqlovchi hujjat (tadbirkor sifatida davlat ro'yxatiga olinganligi haqidagi guvohnoma) taqdim qilinishida to'lanadigan daromad solig'i to'lov manbaidan ushlanmaydi.

"Jami" satri bo'yicha 2-5-ustunlarda jami summalar ko'rsatiladi.

Agar soliq to'lovchi deklaratsiyaning 1 bo'lim 2-4 bandlarida daromadlar va to'lov manbaida ushlab qolingan soliqlar summalari haqida ma'lumotlar ko'rsatgan bo'lsa-yu, bunday ma'lumotlar korxonalar, muassasalar, tashkilotlardan soliq organiga kelib tushmagan bo'lsa, soliq organi daromad haqidagi deklaratsiyasi asosida soliqni to'la hisob-kitob qilayotganda ularni hisobga olishi va bunday ma'lumotlarning kelib tushmaganligi sabablarini aniqlashi shart. Buning uchun ushbu masala yuzasidan nazorat qilinayotgan soliq organi tomonidan korxona, muassasa yoki tashkilotda tekshiruv olib borilishi zarur. Agar bunday korxona tashkilot yoki muassasa boshqa soliq organi tomonidan nazorat qilinayotgan bo'lsa, o'sha soliq organiga chora ko'rilishi uchun bu korxonalar, tashkilotlar va muassasalar tomonidan ma'lumotlar berilmaganligi haqida xabar qilinishi kerak.

Deklaratsiyaning 1-bo'limi 5-bandida jismoniy shaxs tomonidan hisobot yilida qimmatli qog'ozlar (ulushlar)dan olingan dividend va foizlar ko'rinishida olingan daromadlar va to'langan soliqlar ko'rsatiladi

5. 2006 yil davrida qimmatli qog'ozlar muomalasidan dividendlar va foizlar ko'rinishida olingan daromadlar (yo'q) so'mni tashkil qilib, ulardan (yo'q) so'm summada soliq to'landi.

Deklaratsiyaning 1-bo'limi 6-bandida jismoniy shaxs tomonidan hisobot yilida olingan moddiy yordamlar miqdori aks ettiriladi.

6. Men tomonimdan 2006 yil davrida olingan moddiy yordam summasi _____ so'mni tashkil qildi.

Deklaratsiyaning 1-bo'limi 7-bandida jismoniy shaxs tomonidan olingan qimmatbaxo sovg'alar miqdori (qiymati) aks ettiriladi.

7. Men tomonimdan 2006 yil davrida olingan qimmatli sovg'alar summasi (yo'q) so'mni tashkil qildi.

Deklaratsiyaning II-bo'limida jismoniy shaxslarning jami yillik daromaddan chegirib tashlanishi lozim bo'lgan quyidagi chegirmalar va imtiyozlar (O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 16 - bob, 59-moddasi 2-qismi) ko'rsatiladi:

a) eng kam oylik ish haqining to'rt barobari miqdoridagi imtiyoz (imtiyozga asos bo'luvchi hujjat to'g'risidagi ma'lumotlar keltiriladi);

b) ko'rsatilgan moddiy yordam bo'yicha; (eng kam ish haqining 12 barobari miqdorida)

v) qimmatbaho sovg'alar bo'yicha (eng kam ish haqining 6 barobari miqdorida);

g) tadbirkorlik faoliyatidan va boshqa daromadlarni olish uchun qilingan xarajatlar;

d) davlat korxonalari mol-mulkini sotib olish, xususiylashtirilayotgan korxonalar aktsiyalarini sotib olish, "Uyjoyjamg'armabank"ning obligatsiyalarini xarid qilishga yo'naltirilgan mablag'lar miqdorlari.

II bo'lim

Soliq solinadigan daromadni aniqlash maqsadida ma'lum qilamanki, Soliq kodeksiga muvofiq jami yillik daromaddan quyidagi chegirmalarga bo'lgan huquqqa egaman:

a) yo'q so'm summadagi eng kam oylik ish haqi miqdorining to'rt baravari miqdorida.

Eng kam oylik ish haqi miqdorining to'rt baravari miqdorida chegirma uchun asos:

Nomi seriyasi raqami hujjat

_____

(hujjatni bergan muassasaning nomi)

hujjat berilgan sana 200___yil "___"_____

b) moddiy yordam ko'rsatish bo'yicha _____ so'm miqdorida;

v) qimmatli sovg'alar bo'yicha _____ so'm miqdorida;

g) tadbirkorlik va boshqa daromadlarni olish uchun amalga oshirilgan xarajatlar (I bo'limning 4-bandi), _____ so'm miqdorida;

d) davlat korxonalari mol-mulkini sotib olish, xususiylashtirilayotgan korxonalar aktsiyalarini sotib olish, "O'zuyjoyjamg'armabank"ning uy-joy obligatsiyalarini xarid qilishga yo'naltirilgan mablag'lar _____ so'm.

Deklaratsiyaning III-bo'limida jismoniy shaxsning hisobot yilida olgan jami daromadlari (I-bo'lim)dan uning imtiyozlari (II-bo'lim) chegirib tashlanadi va soliqqa tortiladigan daromad aniqlanadi. SHu bilan birga bu bo'limda jismoniy shaxsning joriy yilda rejalashtirayotgan daromadining taxminiy summasi ko'rsatiladi.

III bo'lim

YUqorida keltirilgan ma'lumotlarga asosan, mening soliq solinadigan daromadim 2006 yilda _____ so'mni tashkil qildi deb hisoblayman.

SHu bilan birga ma'lum qilamanki, men 2007 yilda daromad solig'i solinadigan _____ so'm summada daromadlar olishni mo'ljallayman.

Mazkur deklaratsiyada ko'rsatilgan ma'lumotlarning to'g'riligini tasdiqlayman:

2012 yil "_____" _____ _____

(imzo)

Deklaratsiyaning IV bo'limida jismoniy shaxsning soliqqa tortiladigan daromadidan soliq hisoblab chiqariladi. Hisoblab chiqarilgan soliq summasi hisobot yili mobaynida to'langan soliq summasi bilan solishtirilib, qo'shimcha to'lanishi lozim bo'lgan yoki qaytarilishi lozim bo'lgan soliq summasi aniqlanadi.

IV bo'lim

Jismoniy shaxslarning daromadlariga solinadigan soliq summasining hisob-kitobi

Satr raqami	Ko'rsatkichlar	Soliq to'lovchi tomonidan to'ldiriladi	Soliq organi tomonidan to'ldiriladi	Izoh
1.	Jami daromadning umumiy summasi			
2.	Jami daromaddan chegirmalarning umumiy summasi			
3.	Soliq solish ob'ekti			
4.	Hisoblab chiqarilgan soliq summasi			
5.	Soliqning yil mobaynida to'langan (ushlab qolingan) summasi			
6.	Soliq summasi:			
	qo'shimcha to'lanadigan			
	qaytariladigan			

Mazkur deklaratsiyada ko'rsatilgan ma'lumotlarning to'g'riligini tasdiqlayman:
2012 yil "____" _____ _____
(soliq to'lovchining imzosi)

Deklaratsiya davlat soliq organida 2012 yil "___"_____da _____ - son bilan ro'yxatga olindi.

_____
(Soliq xodimining familiyasi, I.SH., lavozimi va imzosi)

- - - - - - - - - - - - - qirqish chizig'i - - - - - - - - - - - - -

O'zbekiston Respublikasi fuqarosi jismoniy shaxs _____ning 2006 yil uchun jami yillik daromadlari to'g'risidagi deklaratsiya va_____ varaqdan iborat ilovalar _____ tuman DSIda 2007 yildagi ____-son bilan ro'yxatga olindi (qabul qilindi).

_____
(Mas'ul shaxsning familiyasi, I.SH., lavozimi va imzosi)

2012 yil uchun daromadlar to'g'risida deklaratsiya istiqomat joyidagi soliq inspektsiyasiga quyidagi muddatlarda taqdim etiladi:

Deklaratsiyani topshirish muddatlari	
Asosiy bo'lmagan ish joyidan (O'zbekiston Respublikasidagi, shuningdek uning hududidan tashqaridagi manbalardan)	2006 yil 1 apreldan kechiktirmay

daromad olgan jismoniy shaxslar-rezidentlar tomonidan	
CHet ellik jismoniy shaxslar-rezidentlar tomonidan	Nazarda tutilayotgan daromadlar haqida – O'zbekiston Respublikasiga kelgan kundan boshlab bir oy mobaynida
	Faoliyati taqvimiy yil mobaynida to'xtagan va u O'zbekiston Respublikadan chiqib ketadigan bo'lsa, amalda olingan daromadlar haqida - jo'nab ketishdan kamida bir oy oldin
	YAkuniy daromad (yil uchun) - 2007 yilning 1 aprelidan kechiktirmay

2012 yil uchun jami daromaddan jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliqni hisoblash uchun quyidagi shkala qo'llanadi:

2012 yil dekabr uchun jismoniy shaxslarning daromadlariga solinadigan soliqni hisoblash shkalasi	
Soliq solinadigan daromad miqdori	***Soliq summasi***
(5 x 124440) = 622200 so'mgacha	daromad summasining 8 foizi
622201 so'mdan (10 x 124440) = 1244400 so'mgacha	80886 + 622200 so'mdan ortiq summaning 16 foizi
1244401 so'm va undan yuqori	205326 + 1244400 so'mdan ortiq summaning 22 foizi

2012 yilda eng kam ish haqi miqdori: 1 yanvardan 1 iyulgacha 9400 so'mni, 1 iyuldan 1 noyabrgacha 10800 so'mni, 2006 yil 1 noyabrdan 2007 yil 1 avgustgacha 12420 so'mni, ***2012 yil 1 avgustdan boshlab 15525 so'm****ni tashkil qildi.*

Jismoniy shaxslar jami yillik daromadlari to'g'risidagi deklaratsiyani joriy yilning yuqorida ko'rsatilganidek 1 aprelidan kechiktirmasdan o'zlarining yashash manzillaridagi davlat soliq xizmati organlariga topshirishlari lozim (20-ilovada deklaratsiyani to'ldrilishi bo'yicha namuna keltirilgan).

Agar soliq to'lovchi deklaratsiya topshirishga tayyor bo'lsa, 1 aprelni kutishi shart emasligi va hisobot yili tugashi bilan bu ishni amalga oshirishi lozim. Daromadlar haqidagi deklaratsiyani taqdim etmaslikda yoki o'z vaqtida taqdim etmaslikda yoxud deklaratsiyaga noto'g'ri ma'lumotlarni kiritishda, daromad va xarajatlarning kerakli hisobi yo'qligida aybdor hisoblangan fuqarolar, shuningdek xodimlarga to'langan soliq summalari va ushlab qolingan daromad solig'i summasi bilan bog'liq hujjatlarni o'z vaqtida bermaganlikda yoki belgilanmagan shaklda berganlik aybdor bo'lgan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning mansabdor shaxslari ham O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlariga binoan javobgar bo'ladilar.

Amalga oshirilgan hisob-kitob soliq to'lovchining shaxciy hisobi ochilishi va to'lov xabarnomaci ko'chirmaci uchun acoc bo'lib hisoblanadi.

Deklaratsiya asosida aniqlangan qo'shimcha to'lanishi lozim bo'lgan soliq summasi joriy yilning 1 iyuniga qadar to'lanishi kerak.

Qaytarilishi lozim bo'lgan soliq summasi deklaratsiya topshiruvchining arizasiga ko'ra 30 kun muddat ichida qaytarilishi lozim. Deklaratsiya topshiruvchi

jismoniy shaxsning roziligi bilan ortiqcha to'langan soliq summasi boshqa soliqlar bo'yicha mavjud bo'lgan boqimandalarni qoplashga yoki boshqa to'lovlarni so'ndirishga yo'naltirilishi mumkin.

Mabodo hisobot yili davomida soliq to'lovchining yashash manzili o'zgarsa, deklaratsiyada avvalgi yashagan manzili va deklaratsiya bergan fursatda yashayotgan manzili ko'rsatiladi. Soliq organida yashash joyini o'zgartirgan soliq to'lovchida hisobot yili davomida olingan daromadlar haqidagi ma'lumotlar bo'lmay qolsa, soliq to'lovchi deklaratsiya taqdim etgan soliq organi soliq to'lovchining avvalgi yashash joyidagi soliq organidan bunday ma'lumotlarni so'rab olishi shart. So'rov soliq organi tomonidan soliq to'lovchi jami umumiy daromad haqidagi deklaratsiyani taqdim etgach, besh kun ichida amalga oshiriladi. Bu muddat ichida so'rov xati olgan soliq organi soliq to'lovchining daromadlari haqidagi ma'lumotlarni to'lovchi soliq organiga yuboradi.

15.3. Jami daromadni deklaratsiyalash tartibini buzganlik uchun jazo choralari

Deklaratsiyani taqdim etish tartibini buzganlik uchun Soliq kodeksi va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda moliyaviy jazo choralari nazarda tutilgan. Bunda, uni taqdim etmaganlik, o'z vaqtida taqdim etmaganlik yoki belgilanmagan shaklda taqdim etganlik uchun:

- to'lov muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun tegishli summaning bir foizi miqdorida, biroq tegishli hisobot davri uchun ilgari hisoblab chiqarilgan to'lovlar chegirib tashlangan holda belgilangan to'lov muddatiga tegishli to'lov summasining o'n foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda (Solik kodeksining 135-moddasi 4-bandi);
- eng kam ish haqining bir baravaridan uch baravarigacha miqdorda (MJTKning 174-moddasi uchinchi qismi) jarima undiriladi.

Agar deklaratsiya uzrli sabablar (xizmat safarida bo'lish, kasallik va boshqalar)ga ko'ra o'z vaqtida taqdim etilmasa, soliq inspektsiyasiga deklaratsiya bilan birga qo'shimcha tarzda tushuntirish xati va tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etiladi. Deklaratsiyani taqdim etish tartibiga rioya qilmaganligi uchun soliq to'lovchiga jarima solinganda yoki daromad solig'i to'liq to'lanmagan taqdirda, soliq inspektsiyasi unga jarima (boqimanda, penya)ni ixtiyoriy to'lash to'g'risida talabnoma yuboradi.

Qisqacha xulosalar

Daromadlarni deklaratsiyalash tizimini yaratish bo'yicha chet el tajribasini chuqur o'rganishni, aholini tegishli tarzda bu tizimga tayyorlashni, zarur qonunchilik va me'yoriy-huquqiy negiz qabul qilinishini, butun bir tashkiliy chora - tadbirlar majmui amalga oshirib borilishi natijasida jismoniy shaxslar jami daromadlarini deklaratsiyalash tizimini bosqichma – bosqich joriy qilishni jadallashtirish zarur.

Respublikada jismoniy shaxslarning jami daromadlarini deklaratsiyalash tizimining joriy etilishi tsivilizatsiyalashgan bozor munosabatlarini

shakllantirishning ob'ektiv va zarur sharti hisoblanib, fuqarolarning daromadlarini oshkoralashtirish imkoniyatini belgilaydi, yashirin iqtisodiyot yo'liga g'ov bo'lib xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun yanada qulayroq sharoitlarni yaratishga ko'maklashadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Jami yillik daromad haqidagi deklaratsiyani kimlar taqdim etadi?
2. Jami yillik daromad tarkibiga qanday daromadlar kiritiladi?
3. Jami yillik daromad haqidagi deklaratsiya blanka shakli qanday?
4. Soliq to'lovchining yil davomida olinadigan daromadlari hisobi qaysi tartibda amalga oshiriladi?
5. Deklaratsiya bo'limlarini to'ldirish tartibi qanday?

Asosiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi. Respublika Axborot-Maslahat markazi. -T., 2006.
2. O'zbekiston Respublikasining "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi Qonuni. -T., 1997 yil 29 avgust.
3. O'zbekiston Recpublikaci Prezidentining "Jismoniy shaxslarning jami daromadini deklaratsiyalash tizimini bosqichma-bosqich joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, // "Xalq so'zi" gazetasi. 2002 yil 6 sentyabr soni.
4. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida. 2002 yil 14 martda 1110-son bilan ro'yxatga olingan, "Jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish va byudjetga to'lash tartibi to'g'risida"gi Yo'riqnoma.
5. YUtkina G.F. Nalogi i nalogooblojeniya: Uchebnik. – 5-e izd., pererab. i dop. – M.: INFRA-M, 2006. – 509 s.
6. Zavalishina I.A. "Soliqlar: nazariya va amaliyot" -T.: "Iqtisodiyot va huquq dunyosi" nashriyot uyi, 2005. 273-276 bet
7. Praktikum po nalogam i nalogooblojenie: Uchebnoe posobie / kol.avt.; pod red. prof. L.I. Goncharenko. – M.: KNORUS, 2006. – 208 s.
8. YAhyoev Q. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. -T.: "Fan va texnologiyalar markazi", 2003.
9. «Nalogi» Pod.red. D.G. CHernika -M:«Finansы i statistika», 2001. -444s

XVI bob. JISMONIY SHAXSLARDAN UNDIRILADIGAN MOL-MULK SOLIG'I

16.1. Jismoniy shaxslar mol-mulk solig'ining iqtisodiy mohiyati, me'yoriy-huquqiy asoslari va davlat byudjeti daromadlaridagi salmog'i

Ma'lumki, soliqlar davlat mavjudligining asosiy sharti sifatida har bir mamlakatda tegishli davr vazifalari va sharoitidan kelib chiqib, u yoki bu ko'rinishda xizmat qilib keladi. Soliqlarning zimmasiga yuklangan vazifalar, u doimiy ravishda bajarib keladigan funktsiyalar ko'lami ulkanligidan ular to'g'risida bir zamonda yashagan olim va arboblar fikrlari xilma — xilligi boshqa iqtisodiy kategoriyalarga qaraganda ko'proqdir. Nima bo'lganda ham, soliqlar bo'yicha barcha tan olgan, umumiy tamoyillar ham mavjud. CHunki, davlatning mavjud bo'lishi, iqtisodiyotning bir maromda ishlashi, yaratilgan ijtimoiy mahsulotni taqsimlash zarurati va shu kabilar o'tgan, hozirgi, kelgusi davrlarning hammasida barcha mamlakatlar uchun umumiy shart bo'lgan maqsadlardir.

Ayniqsa, bozor iqtisodiyoti sharoitida soliqlar oldiga faqat dastlabki va qayta taqsimlash uchun davlatning fondlariga tegishli mablag'larni yig'ish emas, balki ishlab chiqarishni rag'batlantirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash kabi vazifalar ham qo'yiladi. Bu to'g'rida o'z vaqtida O'zbekistonda yo'nalishlar aniqlab olingan edi. Xususan, mamlakatimiz Prezidenti I.A. Karimov shunday e'tirof etgan: "Soliq tizimi ham bozor infrastrukturasining tarkibiy qismi hisoblanadi. Uni hali chinakamiga tashkil etishga to'g'ri keladi. Soliq xizmati faqat soliq to'plash idorasigina bo'lib qolmasdan, balki tadbirkorlarga ularning moliyaviy faoliyatini tashkil etishda hamda moliya intizomiga rioya qilinishida ko'maklashishi kerak". [17]

Ko'p bora ta'kidlanganidek, bozor iqtisodiyotiga samarali o'tgan, barqaror rivojlanish yo'liga ega bo'lgan davlatlar tajribasi isbot qilganidek, bozor sharoitida soliqlar yuki xo'jalik yurituvchi sub'ekt va jismoniy shaxslar moliyaviy ahvoliga, faoliyatini kengaytirish ishtiyoqiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiluvchi daromad (foyda)ga soliqlardan resurs, mol —mulk soliqlariga ko'chirib borilishi kerak. Jismoniy shaxslardan undiriladigan mol-mulk solig'i - bu bevosita soliq bo'lib, u o'zining ushbu sifati bilan moddiy boyliklarni olish va jamg'arish jarayonida undiriladi. Bu real soliqdir, («real» atamasi (inglizcha real - mulk) ayni ushbu soliq birinchi galda fuqaro egalik qilinadigan mol - mulk solinishi bilan bog'liq). Bu muntazam soliq hisoblanadi, ya'ni u yarim yilda bir marta muntazam ravishda undiriladi. Nihoyat bu hududiy soliq bo'lib, u O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lgan va unda ro'yxatga olingan ko'chmas mulk va transport vositalari (2002 yil 1 yanvardan transport vositalari dvigatel quvvatidan olinadigan soliq bekor qilingan) uchun to'lanadi.

Umumiy holda yuridik va jismoniy shaxslar mol-mulk solig'i bo'yicha tushumlarning, ya'ni davlat byudjeti daromadlari bir ko'rinishining YAIMga nisbatan ulushi dinamikasini jami byudjet daromadlariga, to'g'ri

[17] Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. –T.:, O'zbekiston, 1992. 47 —bet.

soliqlarga qiyosiy tarzda ko'rib chiqish yuqoridagi vazifaning qay tarzda amalga oshirilayotganligini namoyon qiladi.(15-jadval)

15-jadval

Mol-mulk solig'i (jismoniy shaxslar mol-mulk solig'ini ham o'z ichiga olgan holda) va resurs to'lovlari bo'yicha byudjet daromadlarining bajarilishi (YAIMga nisbatan % da)

Ko'rsatkichlar	I-II chorak 2000 y.	I-II chorak 2001 y.	I-II chorak 2002 y.	I-II chorak 2003 y.	I-II chorak 2004 y.	I-II chorak 2005 y.	I-II chorak 2006 y.
Daromadlar — Jami	40,9	32,8	28,9	31,0	28,2	28,2	27,6
To'g'ri soliqlar	10,6	9,5	7,5	7,9	7,0	7,6	7,8
Resurs to'lovlari va mol — mulk Solig'i	4,1	3,3	2,3	2,6	3,0	5,5	5,3

Manba: O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan mustaqil tayyorlandi.

E'tibor beriladigan bo'lsa, biz ko'rib chiqayotgan mos davrlardan 2001 yil va 2002 yil I-II choraklarida resurs to'lovlari va mol-mulk solig'iga qo'yilgan tegishli vazifalar bajarilmagan, ya'ni ularning YAIMga nisbatan ulushi oshib kelishi kerak edi, haqiqatda esa soliq yuki-byudjet soliq daromadlarining YAIMga nisbatan ulushi kamayishiga mutanosib ravishda kamayib borgan.

2003 yil tegishli davrida ham ahvol maqtanarli bo'lmagan-ulushning oshirilishi jami soliq daromadlarining YAIMga nisbatan salmog'i (soliq yuki)ning oshirilishi evaziga sodir bo'lgan. Ammo 2004 yildan boshlab ijobiy holat yaqqol yuzaga chiqqan, ya'ni soliq yuki pasayib kelgan sari, aksincha biz ahamiyat berayotgan soliqlarning YAIMga nisbatan ulushi oshib kelmoqda.

Albatta, jismoniy shaxslar mol —mulk solig'i ham barcha soliqlar uchun umumiy funktsiya va vazifalarni bajaradi. Hozirgi kunda ayrim mualliflar "funktsiya" va "vazifa" tushunchalarini bir xil maqsadda ishlatishmoqda. Bu holatni noto'g'ri deb hisoblaymiz. CHunki, "Soliqlarning funktsiyalari ularning mohiyatining amaliyotda harakat qilayotganligini ko'rsatadi. SHunday ekan, funktsiya doimo yashab, soliq mohiyatini ko'rsatib turishi zarur. Bugun paydo bo'lib, ertaga yo'q bo'lib ketadigan holatlar soliq funktsiyasi bo'la olmaydi. Demak, kategoriya funktsiyasi doimiy, qat'iy takrorlanib turadigan voqe'likni ifodalaydi. SHunday ekan, uslubiy yondashishidan kelib chiqib, soliqlar funktsiyasini aniqlash kerak. Funktsiya va vazifaning farqiga borish zarur. Funktsiya — doimiydir, vazifa esa o'tkinchidir".[18]

Barcha soliqlar kabi, jismoniy shaxslar mol —mulk solig'i ham avvalo fiskal funktsiyani bajaradi. "Tarixiy jihatdan soliqlarning birinchi

[18] YAhyoev Q.A. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti: Darslik. –T.: Fan va texnologiyalar markazi, 2003. 14-bet.

bo'lib fiskal funktsiyasi ko'riladi, chunki soliqlar yordamida davlat byudjetiga mablag' tushishish ta'minlanadi. Bu funktsiya asosiy funktsiyalardan biri bo'lib, uning hisobiga davlat byudjetining daromad qismi shakllantiriladi. Ushbu funktsiya tovar—pul muomalalari va ishlab chiqarishning rivojlanishi natijasida davlat daromadlarining oshishini aniqlab beradi. Soliqning boshqa funktsiyalarini fiskal funktsiyasining hosilasi deb atash mumkin".[19]

Soliqlarning qayta taqsimlash funktsiyasi har xil daromadga ega bo'lgan aholini soliqqa tortish natijasida hosil bo'lgan jamiyat daromadlarini har xil toifadagi aholi o'rtasida qayta taqsimlashni o'z ichiga oladi. Ushbu funktsiya yordamida jamiyatning boy qatlamiga soliq yukini o'tkazish hisobiga aholining iqtisodiy zaif va himoyalanmagan qatlamlari mablag' bilan ta'minlanadi.

Soliqlarning ushbu ijimoiy funktsiyasiga jismoniy shaxslarning daromadlarini progressiv shkalada soliqqa tortish, jamiyatning ijtimoiy zaif qatlamlariga daromad solig'idan berilgan imtiyoz, qimmatbaho buyumlarga aktsiz solig'ini qo'llash va boshqalar misol bo'ladi. Masalan, pensionerlar mulkini soliqqa tortishda ular mol-mulkining soliqqa tortilmaydigan imtiyozli qismini belgilash ham shunga misol bo'ladi. Jismoniy shaxslar mol-mulkini soliqqa tortish masalasida bu funktsiya unchalik keng amal qilmaydi.

Soliqlarning izga solib turuvchi funktsiyasi maqsadli ravishda hukumatning dasturlari asosida xalq xo'jaligining rivojlanishiga ta'sir etadi. Bunda davlat soliqlarning shakli, soliq stavkalarining o'zgarishi, undirish usullari, imtiyozlar va chegirmalardan foydalanib, tadbirkorlikni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini ajratib oladi. Izga solib turuvchi funktsiyaning asosiy ma'nosi bu iste'mol uchun yo'naltirilgan resurslarni soliqqa tortib, ishlab chiqarishni rivojlantirish yo'naltiriladigan resurslarni soliqdan ozod qilishdir.

Ushbu funktsiya uchta yo'nalishiga egadir:

Rag'batlantiruvchi — korxonalar va ba'zi faoliyat turlariga imtiyoz berish orqali davlat uchun ustuvor, jamiyat uchun kerakli va muxim yo'nalishlarni (masalan, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi yoki erkin konvertatsiyadagi valyutaga sotish) aniqlash. Zero, "..Soliq siyosati ustuvor strategiyasining mazmuni esa soliqlarning rag'batlantiruvchilik rolini oshirish, soliq to'lovchilar zimmasidagi soliq yukini bosqichma-bosqich kamaytirib borish va shu orqali byudjet tizimiga tushumlarning barqaror tushishini ta'minlashdan iboratdir. Ushbu belgilangan strategik maqsadga o'z navbatida soliq stavkalarini pasaytirish, eng kerakli sohalarga yoki mahsulot turlariga soliq imtiyozlarini kengaytirish, bir xil soliq ob'ektiga qaratilgan soliq turlarini qisqartirish, soliq to'lashning muqobil variantlari

[19] Zavalishina I.A. Soliqlar: nazariya va amaliyot. –T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2005. 26 —bet.

(soddalashtirilgan) xillarining joriy etilishi kabi soliq siyosatining taktikalari real voqe'lik sifatida qo'llanilmoqda."[20]

CHegaralovchi (rag'batlantirmaslik) — davlat tomonidan soliq stavkalarini ko'tarish bilan jamiyat uchun foydasiz deb topilgan ishlab chiqarishni, jarayonlarni va ba'zi bir faoliyat turlarini chegaralash (masalan, qimor o'yinlar, ba'zi bir tovarlarni import qilish).

Qayta ishlab chitsarish — ishlatib yuborilgan mablag'larni o'rnini qoplash (mablag'larni ishlab chiqarishni kengaytirishda va yangilashda ishlatilgan holatlar uchun imtiyozlar berish).

Nazorat qilish funktsiyasi bo'lib, u byudjetga undirilayotgan soliq to'lovlarini o'z vaqtida va to'liq tushishini nazorat qilish bilan birga, ularni moliyaviy resurslarga bo'lgan talablar bilan taqqoslaydi. Ushbu funktsiya orqali soliq siyosatini byudjet siyosatiga moslab olib borish zaruriyati aniqlanadi.

Demak, resurs to'lovlari va mol-mulk solig'i guruhiga kiruvchi jismoniy shaxslar mol-mulk solig'i ham umumiy soliq yukining og'irligini daromad (foyda)ga tushadigan soliqlardan ko'chirish jarayonida ishtirok etar ekan, davlat uchun byudjet ahamiyati tarkibida uning muximligi ham yotadi hamda shuning uchun u bo'yicha soliq tushumlarini optimal ravishda oshirib borish O'zbekiston soliq xizmati oldidagi dolzarb masalalardan hisoblanadi.

SHubhasiz, har bir mamlakatda muayyan jarayon zaruriy darajada barqaror va sifatli amalga oshirilishining asosiy shartlaridan biri — tegishli me'yoriy — huquqiy asoslarning ishlab chiqilishi hamda tatbiq etilishidir. Jismoniy shaxslar mol— mulkini soliqqa tortishni me'yoriy — huquqiy jihatdan tartibga solish tizimi bosib o'tgan yo'l aholining xususiyatlari hamda tegishli islohot bosqichlari talablari hisobga olib kelinganligini ko'rsatadi. YUqoridagi xulosalarimizni umumiy holda mamlakatimiz Prezidenti I.A. Karimov fikri ham isbotlaydi: "Jahon xo'jalik aloqalariga qo'shilishning asosiy sharti sifatida umum qabul qilingan norma va qoidalarga ko'proq yaqinlashishga intilgan holda, respublikaning o'z huquqiy asoslarini ishlab chiqishda uning ijtimoiy — iqtisodiy va milliy o'ziga xos xususiyatlari iloji boricha to'la hisobga olinishi kerak. SHu bilan yangi qabul qilinayotgan qonun hujjatlarida aholining kundalik turmushiga singib ketgan xalq an'analari, urf — odatlari, shaxslararo va millatlararo muomala hamda diniy e'tiqodlarning asriy tarixidan meros qilib olingan, umuminsoniy qadriyatlarga, odamlarning huquq va erkinliklariga zid bo'lmagan axloqiy normalar aks ettirilishi kerak.

Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotining qonunchilik asosini yaratish — bu faqat o'tish davrining majburiy shartigina bo'lib qolmay, balki huquqiy davlatni barpo etishning o'ziga xos xususiyati hamdir".[21]

---

[20] Tuxliev B.K., Azizov O.M. Soliq yukini kamaytirish — iqtisodiyotni yuksaltirish omili. –T. TDIU, 2007. 7-bet.

[21] Karimov I.A. O'zbekiston — bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li. –T.: O'zbekiston, 1993. 60-b.

Albatta, jismoniy shaxslar faoliyatiga oid boshqa barcha masalalar kabi ular mol — mulkining soliqqa tortilish jarayonining ham eng dastlabki, poydevor me'yoriy asosi — O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hisoblanadi. Jumladan, asosiy qonunning 51 — moddasida e'tirof etilgan: "Fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig'imlarni to'lashga majburdirlar." SHuningdek, uning 123 — moddasida mustahkamlangan qoida barchamizga ma'lum: "O'zbekiston Respublikasi hududida yagona soliq tizimi amal qiladi. Soliqlar joriy qilishga faqat O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi haqli".[22]

Keyingi me'yoriy — huquqiy asoslardan biri sifatida Oliy Majlis tomonidan 1996 yil 29 avgustdagi 257-I-sonli O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksini yodga olishimiz lozim. U 1997 yil 1 martdan kuchga kiritildi va islohotlar bosqichlari talablaridan kelib chiqib, unga ko'pgina o'zgartirishlar kiritildi.

Jismoniy shaxslar mol — mulkini soliqqa tortish uchun zarur asossiy kontseptual tushunchalar unda mujassamlashgan. Xususan, uning 84 — moddasiga ko'ra quyidagilar mustahkamlangan.

Mulk huquqi va ko'chmas mulkka bo'lgan boshqa mulkiy huquqlar, bunday huquqlarning vujudga kelishi, ko'chishi, cheklanishi va tugatilishi davlat tomonidan qayd etilishi lozim.

Ko'chmas mulk va u bilan bo'ladigan bitimlarga bo'lgan huquqlarni davlat tomonidan qayd qilinishini amalga oshiruvchi organ huquq egasining rasmiy iltimosi bo'yicha qayd qilingan huquqni yoki bitim haqida hujjat berish yoxud qayd uchun taqdim qilingan hujjatga yozuvlarni amalga oshirish yo'li bilan amalga oshirilgan qaydni tasdiqlashga majbur.

Ko'chmas mulk va u bilan bo'ladigan bitimlarga bo'lgan huquqlarni davlat tomonidan qayd qilinishini amalga oshiruvchi organ amalga oshirilgan qayd va ixtiyoriy shaxsga qayd qilingan huquqlar haqida axborot taqdim qilishga majbur.

Axborot ko'chmas mulk qaydini amalga oshiruvchi ixtiyoriy organda, qayd amalga oshirilish joyidan qat'iy nazar, taqdim qilinadi.

Ko'chmas mulk va u bilan bo'ladigan bitimlarga bo'lgan huquqlarni davlat tomonidan qayd qilinishini rad qilish yoki qayd muddatlarini buzish ustidan sudga shikoyat qilish mumkin.

Davlat tomonidan qayd qilish va qayd qilishga nisbatan rad qilishni asoslash tartibi qonunchilik tomonidan o'rnatiladi.

YOki, olaylik, kodeksning 1199-moddasida quyidagi tartib o'rnatilgan:

Ko'chmas mulkni meros qoldirilishi ushbu mulk joylashgan mamalakat huquqi bo'yicha, O'zbekiston Respublikasida davlat ro'yxatiga kiritilgan mulk bo'yicha esa — O'zbekiston Respublikasi huquqi bo'yicha belgilanadi.[23]

---

[22] O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.:, O'zbekiston, 2003.
[23] O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. 1996 yil 29 avgust.

Albatta, jismoniy shaxslar mol —mulkini soliqqa tortishning bosh dasturlaridan biri — Oliy Majlis tomonidan 1997 yil 24 aprelda tasdiqlangan, 1998 yil 1 yanvardan kuchga kiritilgan, tegishli me'yoriy hujjatlar bilan bir talay o'zgartirishlar amalga oshirilgan O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksidir.

Masalan, O'zbekiston Respublikasi 12.12.2003 yil 568-II-sonli Qonunining XIII — bo'limi 11 — bandiga asosan Soliq kodeksi tahririda quyidagi band bekor qilingan:

"Transport vositalariga solinadigan mol —mulk solig'i davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi tegishli organlarning ma'lumotlari asosida hisoblab chiqariladi".

O'zbekiston Respublikasi 12.12.2003 yil 568-II- sonli Qonunining XIII-bo'limi 11-bandiga asosan esa Soliq kodeksi tahririda quyidagi ham bekor qilingan:

"YAngi olingan transport vositalari uchun mol—mulk solig'i ular olingan oydan keyingi oydan e'tiboran to'lanadi"[24].

O'zbekiston Respublikasi Uy—joy kodeksi ham ko'pgina masalaga oydinlik kiritadi. Masalan:

"Uy —joy fondi —turar joy uylari, kvartiralar, xizmat turar joy imoratlari, ixtisoslashtirilgan uylar (yotoqxonalar, nogironlar, faxriylar, yolg'iz keksalar uchun internat —uylar va b.) ni o'z ichiga oluvchi, inson yashashi uchun yaroqli turar joy imoratlaridan tashkil topgan fonddir. Uy—joy fondiga turar joy uylarida joylashgan savdo, maishiy va boshqa sanoat xarakteridagi ehtiyojlarga mo'ljallagan noturar joy imoratlari kirmaydi."[25]

Jismoniy shaxslar mol—mulkini soliqqa tortish jarayonining barcha batafsil qirralarini, shubhasiz, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasining 2002 yil 16 yanvardagi 16, 2002—19—son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2002 yil 5 martda 1103—son bilan ro'yxatga olingan "Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish va byudjetga to'lash tartibi to'g'risida"gi Yo'riqnoma yoritadi.

9 bo'limdan iborat mazkur Yo'riqnoma O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga, O'zbekiston Respublikasining "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi qonuning 7—moddasiga muvofiq ishlab chiqilgan. Demak, aytish mumkinki, jismoniy shaxslar mol—mulkini soliqqa tortish jarayonini etarlicha tahlil qilish uchun ko'pgina me'yoriy-huquqiy hujjatlar tadqiq qilinishi zarur.

16.2. Jismoniy shaxslar mol-mulk solig'ining to'lovchilari, soliqqa tortish ob'ekti va soliq stavkalari

[24] O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. Toshkent, 1997 yil 24 aprelь.
[25] O'zbekiston Respublikasi Uy — joy kodeksi. Toshkent, 1997.

Soliq solinadigan mol—mulkka ega bo'lgan jismoniy shaxslar mol-mulk solig'ini to'lovchilar hisoblanadi (2-chizma).

Boshqacha aytganda, O'zbekiston Respublikasi fuqarosimi, boshqa davlat fuqarosimi yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxsmi, O'zbekistonning rezidentimi yoxud norezidentimi — bundan qat'iy nazar, mol— mulkning egasi mazkur soliqning to'lovchisi hisoblanadi.

Jismoniy shaxslar uchun ularning mulki bo'lgan uy—joylar, kvartiralar, chorbog' va bog' uylari, garajlar va boshqa imoratlar, binolar va inshootlar qiymati soliq solish ob'ekti hisoblanadi.(2 -chizma)



2-chizma. Jismoniy shaxslardan undiriladigan mol-mulk solig'i modeli.

Rossiya Federatsiyasi amaliyotida bu masala qanday e'tirof etilishini bilish uchun soliq sohasidagi etuk olimlardan biri Lыkova fikriga e'tibor qaratishimiz mumkin: "... jismoniy shaxslar mol — mulk solig'i to'lovchilari bo'lib, soliqqa tortish ob'ekti sifatida tan olinadigan mol—mulk mulkdorlari bo'lgan jismoniy shaxslar hisoblanadi." Olima fikrini davom ettirib, 1992—2001 yillar davomida Rossiyada soliqqa tortish predmeti bo'lib, ikki guruh— imoratlar hamda avtomobillardan tashqari transport vositalari hisoblanganligini, Rossiya Federatsiyasi Soliq kodeksining "Transport solig'i" nomli 25—bobi qabul qilinishi munosabati bilan barcha transport vositalari jismoniy shaxslar mol—mulki solig'iga emas, transport solig'iga tortilayotganligini ma'lum qiladi. Muallif qayd etadiki, "Bugungi kunda jismoniy shaxslar mulkdorligida bo'lgan qurilishlarning quyidagi ko'rinishlari soliqqa tortish ob'ektiga tegishlidir: turar joy uylari; kvartiralar; dachalar; garajlar; boshqa qurilishlar, inshootlar va imoratlar.

...Jismoniy shaxslar mol—mulkiga soliq bazasi har yilning 1 yanvariga bo'lgan holat bo'yicha inventarizatsiya qiymatidan kelib chiqib hisoblanadi".[26]

YUqorida ko'rib o'tilgan transport solig'i bo'yicha quyidagi ma'lumotlarni soliq sohasidagi taniqli olim A.I. Kosolapov yozadi: "Soliq to'lovchilar bo'lib, soliqqa tortish ob'ekti sifatida e'tirof etiladigan transport vositalari Rossiya qonunchiligiga muvofiq qayd qilingan jismoniy shaxslar tan olinadi.

...Soliqqa tortish ob'ekti sifatida Rossiya Federatsiyasi qonunchiligiga muvofiq o'rnatilgan tartibda qayd qilingan avtomobillar, mototsikllar, motorollerlar, avtobuslar va boshqa pnevmatik va gusenitsali holda yuruvchi mashina va mexanizmlar, samolyotlar, vertolyotlar, teploxodlar, yaxtalar, parusli kemalar, katerlar, motochanalar, motorli kemalar, gidrotsikllar, o'zi yurmaydigan (shatakka olinadigan kemalar) va boshqa suv hamda havo transport vositalari e'tirof etiladi".[27]

Rossiya Federatsiyasining "Jismoniy shaxslar mol—mulk solig'i to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, soliqqa tortilishga jismoniy shaxslar mulkdorligida turgan qurilishlar, inshootlar va imoratlar tegishlidir. "Biroq Qonun qurilish, inshoot yoki imoratlar turlariga aynan nimalar qaysi predmetlar kirishini aniqlamagan. Bu turlicha talqin etishlarga hamda oxir—oqibat soliq to'lovchi huquqlarini poymol qilishlarni yuzaga keltiradi".[28]

Soliq sohasidagi etuk olimlardan biri V.G. Panskov jismoniy shaxslar mol—mulk solig'i to'lovchilari kimlar bo'lishi mumkinligini batafsilroq yoritgan: "Jismoniy shaxslar mol—mulk solig'i to'lovchilari bo'lib, federal qonunchilikka muvofiq Rossiya Federatsiyasi hududida mulkida turar joy uylari, kvartiralar, dala hovlilar, garajlar va qurilish, inshoot, imoratlarga ega

---

[26] Lьjova N.L. Nalogi i nalogooblojenie v Rossii. Uchebnik. –M.:, Delo, 2006. 281—282 —str.
[27] Kosolapov A.I. Nalogi i nalogooblojenie. Uchebnoe posobie. –M.:, Dashkov i K°, 2005. 597 —598 —str.
[28] Milyakov N.V. Nalogi i nalogooblojenie. –M.:, "Infra —M", 2006. 185 — str.

bo'lgan jismoniy shaxslar, ya'ni Rossiya Federatsiyasi fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar hisoblanadi".[29]

Jismoniy shaxslar mol—mulk solig'ining yuqorida keltirilgan ro'yxatdagi soliq solish ob'ektlari ro'yxati yillar davomida takomillashtirilib kelindi. Bu tadrijiy jarayonni ko'z oldimizga keltirish uchun o'tgan davr ma'lumotlariga e'tibor qaratish etarli.

Avvalgi O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 89-moddasiga muvofiq, soliq solinadigan mulkka, jumladan: 1) uy-joylar; 2) kvartiralar; 3) bog'dorchilik va uzumchilik shirkatlari a'zolarining chorbog' va bog' uylari; 4) garajlar va boshqa imoratlar, binolar va inshootlar, shuningdek, avtomobillar, motorli qayiqlar, vertolyotlar, satovaretlar va boshqa transport vositalariga (pnevmatik yurishga asoslangan avtomobillar, mototsikllar hamda boshqa o'zi yurar mashinalar va mexanizmlar bundan mustasno) ega bo'lgan jismoniy shaxslar mol—mulk solig'i to'lovchilari hisoblanar edi. Ko'rinib turibdiki, tsivilistika nuqtai nazaridan sanab o'tilgan mol—mulk "fuqarolik huquqlarining ob'ekti" sifatida ko'rib chiqilar edi, bunda, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 83- moddasi bo'yicha yondashadigan bo'lsak, dastlabki to'rtta bandda ko'rsatilgan mol —mulk ko'chmas mulkka, boshqalari esa —ko'char mulkka kirishi aniq. Ushbu barcha "fuqarolik huquqlarining ob'ektlari" O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 89—moddasiga muvofiq, iste'mol qilinmaydigan ashyolar hisoblanadi. Mazkur moddada aytiladiki: "Qayta—qayta foydalanishga mo'ljallangan, bunda o'zining dastlabki holatini uzoq vaqt davomida saqlab qoladigan hamda asta —sekin emirilib boradigan ashyolar (binolar, uskunalar, transport vositalari va hk.) iste'mol qilinmaydigan ashyolar hisoblanadi".[30] Buni bilish muhim, qonun chiqaruvchi belgilaganidek, (O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 83-84- moddalari), ko'chmas mulk davlat ro'yxatidan o'tkazilishi lozim; ko'char mulkka nisbatan huquqni ro'yxatga olish esa, bu qonunda bevosita ko'rsatilgan vaqtda talab etiladi. Hozir ham amalda bo'lgan bu kabi qoidalar barobarida kuchini yo'qotgan moddalarni ham eslatishimiz kerak. Masalan, ilgari O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 90—moddasida sanab o'tilgan transport vositalari ro'yxatdan o'tkazilishi lozim edi.

SHu bilan birga ta'kidlash kerakki, avvalgi me'yoriy hujjatlarda hozirgilariga qaraganda mukammalroq ifodalangan ta'riflar ham uchraydi. Xususan, avvalgi 1994 yil 20 aprelda tasdiqlangan 42/32—sonli "Jismoniy shaxslar mol—mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish va to'lash tartibi to'g'risida"gi Yo'riqnomada bunday soliq solinadigan mol—mulk ro'yxatini batafsil bergan edi. Jumladan, "imoratlar" tushunchasi "saroylar, yordamchi binolar, ayvonlar" sifatida ta'riflangan edi.

---

[29] Panskov V.G. Nalogi i nalogovaya sistema Rossiyskoy Federatsii. –M.:,Finansn i statistika, 2006. 394-s.
[30] O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, 1996 yil 29 avgust.

“Soliq huquqi nuqtai nazaridan “soliq solish ob’ekti” va “soliq solish predmeti” tushunchalarini farqlash zarur. Bu farq ayni jismoniy shaxslarning mol—mulkiga solinadigan soliqqa nisbatan yanada yaqqol namoyon bo’ladi, u soliqning ob’ektini aniqlaydi va u bilan ma’lum huquqiy aloqada, jumladan mulk huquqiy munosabatlarida bo’ladi”.[31] Bu masalada shunga e’tibor qaratishimiz kerakki, 1998 yil 13 yanvardagi 392—sonli Yo’riqnoma 2—bandida O’zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi (89— moddasi)dan farqli ravishda shunday belgilangan ediki, soliq “o’z ixtiyorida ... ...ga ega bo’lgan jismoniy shaxslar tomonidan to’lanadi” (nuqtalar o’rnida soliq solish predmetlari sanab o’tiladi). Bu undan ham ilgariroq, 1993 yildagi Qonunda mustahkamlangan edi. YUqoridagi Yo’riqnomaning 5.3—bandi shuni belgilagan ediki, soliq bo’yicha imtiyozlar faqat tovar — mulk imtiyoz oluvchining o’z mulki bo’lgan hollardagina beriladi. Ushbu qoida hozirda ham o’z kuchini saqlab qolgan.

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 29 dekabrdagi 478—sonli qarori bilan tasdiqlangan “Jismoniy shaxslarga mulk huquqida tegishli bo’lgan bino va inshootlarni qayta baholash to’g’risida”gi Nizomning 4—bandida shunday deyilgan: “Foydalanish uchun qabul qilingan va mahalliy texnik ro’yxatdan o’tkazish idorasida ro’yxatga olingan, jismoniy shaxslarga mulk huquqida tegishli bo’lgan uy—joylar, kvartiralar, bog’dorchilik va uzumchilik shirkatlari a’zolarining chorbog’ va bog’ uylari, garajlar va boshqa imoratlar, binolar va inshootlar soliq solish uchun baholash ob’ekti hisoblanadi”.

Soliq solish ob’ekti va predmeti tushunchalarini soliq huquqi nuqtai nazaridan L.B. Xvan shunday ta’riflaydi:

“Soliq solish ob’ekti — bu sub’ektning soliq to’lash majburiyatini shart qilib qo’yuvchi yuridik dalillardir (mazkur holatda mulkchilik huquqida mol—mulkka egalik qilish bunday yuridik dalil xisoblanadi).

Soliq solish predmeti (atama mazmuniga ko’ra soliq solish ob’ektiga yaqin) — bu tegishli soliqning undirilishini asoslab beruvchi daliliy xususiyatdagi belgilardir. Masalan, uy, kvartira kabi mol—mulk uchun mulkchilik huquqi ob’ekt bo’ladi, uy yoki kvartiraning o’zi esa soliq solish predmeti hisoblanadi”.[32]

Qo’shni mamlakat bo’lmish Qozog’iston Respublikasining 1995 yil 24 apreldagi 2235—sonli “Soliqlar va byudjetga to’lanadigan boshqa majburiy to’lovlar to’g’risida”gi Qonunining 131—moddasida mol-mulk solig’ini to’lovchilarga mulkchilik, mulkni ishonchli boshqarish, xo’jalik yuritish yoki tezkor boshqarish huquqidagi soliq solish ob’ektiga ega bo’lgan yuridik va jismoniy shaxslar kiritilgan.

“O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 31 dekabrdagi 490—sonli qaroriga muvofiq “Jismoniy shaxslarning mol — mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish va byudjetga to’lash tartibi

---

[31] Xvan L.B. Soliq huquqi. –T.: "Konsauditinform", 2001. 222 —bet.
[32] Xvan L.B. Soliq huquqi. –T.: "Konsauditinform", 2001. 223 —bet

to'g'risida"gi Yo'riqnomaning avvalgi nashriga quyidagi o'zgartirishlar kiritildi: jismoniy shaxslardan undiriladigan mol-mulk solig'ining transport vositalari qismi bo'yicha to'lanadigan soliqning o'rniga transport vositalari uchun ishlatiladigan benzin, dizel yoqilg'isi va gazdan undiriladigan soliq kiritildi".[33]

Ko'rinib turibdiki, bugungi kunga kelib, O'zbekiston Respublikasida jismoniy shaxslar mol— mulkini soliqqa tortish ob'ekti bo'lib, faqat ko'chmas mulklargina hisobga olinadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 29 dekabrdagi 478—sonli qaroriga muvofiq jismoniy shaxslarga mulk huquqida tegishli bo'lgan uy—joylar, kvartiralar (jumladan, xususiylashtirilgan kvartiralar), garajlar, boshqa imoratlar, binolarni baholash va qayta baholash uchun yagona funktsional ko'rsatkich — imorat, bino umumiy maydonining kvadrat metri belgilanadi. "Soliq solish birligi deganda, soliq solish bazasini miqdoriy jihatdan baholash uchun foydalaniladigan soliq solish ko'lamining birligi tushuniladi".[34]

Jismoniy shaxslarning mol — mulkiga soliq stavkalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi, ularni soliq to'lovchilarga O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasi umumbelgilangan tartibda etkazadi.

Ma'lumki, bozor iqtisodiyoti sharoitida soliq yukining ham, byudjetga soliq tushumlarining ham asosiy qismi asta— sekinlik bilan daromad (foyda)ga solinadigan soliqlaridan resurs va mol—mulk soliqlariga o'tkazib borilishi kerak. SHu maqsadda resurslardan foydalanganlik uchun soliqlar hamda er solig'ining stavkalari yilma —yil aniq oshirib borilishi tushunarli xoldir. Sirtdan qaraganda, stavkalari o'z o'rnida saqlanayotgan mol—mulk solig'i ham, soliq bazasi bo'lmish mol—mulk qiymatining qayta baholanishi (asosan, oshirilishi) evaziga yuqoridagi vazifani bajarishda qatnashadi.

2007 yil uchun jismoniy shaxslar mol—mulk solig'i stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 18 dekabrdagi PQ-532-sonli "O'zbekiston Respublikasining 2007 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va Davlat byudjetining parametrlari to'g'risida"gi Qarorini 14-ilovasiga muvofiq belgilab qo'yildi (17-jadval). O'tgan 2006 yildagi mol-mulk solig'i stavkalaridagi asosiy o'zgarish – Uy joylar, kvartiralar, dala xovlilar, garajlar va boshqa imoratlar, binolar va inshoatlarning qayta baholanmagan qiymatidan 7 foizlik mol-mulk solig'i stavkasi 2007 yil 1 yanvardan olib tashlandi.

*) Jismoniy shaxslar mol—mulkini baholash bo'yicha organlar belgilagan inventarizatsiya qiymati bo'lmasa soliq undirish uchun Toshkent shahri va viloyat markazlarida 2100,0 ming so'm, boshqa shaharlar va qishloq joylarda

[33] Zavalishina I.A. Soliqlar: nazariya va amaliyot. –T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2005. 306 —bet.
[34] Pepelyaev S.G. i dr. Osnovi nalogovogo prava. –M.: Finansi i statistika, 2000.

— 920,0 ming so’m miqdoridagi mol— mulkning shartli qiymati qabul qilinadi.

Mulkida soliq solinadigan mol —mulk bo’lgan pensionerlar uchun mol—mulk solig’i bo’yicha soliq solinmaydigan eng kam miqdor umumiy maydonning 60 kv. metri hajmida belgilanadi.

Demak, ko’rinib turibdiki, har bir narsaning mustahkamligi va samarali ishlashi uning poydevoriga, unga qo’yilgan tamal toshiga bog’liq ekan, o’ziga xos xususiyatlariga ega jismoniy shaxslar mol — mulk solig’ini hisoblashda, uni takomillashtirilib borishda, shu jumladan soliq to’lovchilar manfaatlarini inobatga olishda avvalo ushbu soliq to’lovchilari, ob’ekti, bazasi, stavkalari masalalariga doimiy oydinlik kiritib borish zarur.

16.3. Jismoniy shaxslardan undiriladigan mol-mulk solig’i bo’yicha belgilangan imtiyozlar

Jismoniy shaxslar mol—mulk solig’i bo’yicha imtiyozlar tarkibi O’zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 93 —moddasi bilan tartibga solinadi.

Quyidagilarning mulkida bo’lgan imoratlari, binolari va inshootlariga soliq solinmaydi:

- "O’zbekiston Qahramoni", Sovet Ittifoqi Qahramoni unvonlariga sazovor bo’lgan, uchala darajali SHuxrat ordeni bilan taqdirlangan fuqarolarning;
- 1941—1945 yillardagi urush qatnashchilari va partizanlari, ularga tenglashtirilgan shaxslar, ichki ishlar va davlat xavfsizligi organlari tarkibida xizmat qilgan shaxslarning, harakatdagi armiya tarkibiga kirgan harbiy qismlar, shtablar va muassasalarda shtatdagi lavozimlarni egallagan shaxslar, Leningrad shahri qamalida bo’lganlarning va kontsentratsion lagerlarning sobiq yosh tutqunlari, xizmatni Afg’oniston Respublikasida va jangovar harakatlar olib borilgan boshqa mamlakatlarda vaqtincha bo’lgan qo’shinlarning cheklangan kontingenti tarkibida o’tagan harbiy xizmatchilar hamda o’quv va sinov yig’inlariga chaqirilgan harbiy xizmatga majburlarning;
- qahramon onalar, shuningdek o’n nafar va undan ortiq farzandi bor ayollarning;
- CHernobil AESdagi avariya oqibatlarini tugatishda ishtirok etganlik uchun imtiyozlar olayotgan fuqarolarning (shu jumladan, u erga vaqtincha yoki xizmat safariga yuborilgan fuqarolarning);
- I va II guruh nogironlarining;
- muddatli xizmat harbiy xizmatchilari va ularning oila a’zolarining — xizmatni o’tash davrida;
- harbiy xizmat majburiyatlarini bajarishda yarador, kontuziya bo’lganlik yoki shikastlanganlik oqibatida yoki frontda bo’lish tufayli orttirilgan

kasallik oqibatida halok bo'lgan harbiy xizmatchilarning ota-onalari va boshqa turmush qurmagan rafiqalarining (erlarining);

- O'zbekiston Respublikasi Mudofaa, Ichki ishlar, Favqulodda vaziyatlar vazirliklari, Milliy xavfsizlik xizmati harbiy xizmatchilari jumlasidan bo'lgan nogironlarning, ichki ishlar organlarining xizmat vazifalarini ado etayotganda yarador, kontuziya bo'lganlik yoki shikastlanganlik oqibatida nogiron bo'lib qolgan boshliqlar va oddiy xizmatchilar jumlasidan bo'lgan shaxslarning.

YUqorida nazarda tutilgan imtiyozlar mol—mulk egasining tanlashiga binoan, imtiyoz olish huquqini beruvchi zaruriy hujjatlar taqdim etilganda mol—mulkning faqat bir ob'ektiga taalluqli bo'ladi. Bunda imgiyozlar mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyoz oluvchining mulki bo'lgan hollardagina taqdim etiladi.

Mulkida soliq solinadigan mol-mulk bo'lgan pensionerlar uchun mol—mulk solig'i bo'yicha soliq solinmaydigan eng kam miqdor umumiy maydonning 60 kv. metri hajmida belgilanadi.

Yil davomida to'lovchilarda mol—mulk solig'i bo'yicha imtiyozga ega bo'lish huquqi paydo bo'lgan taqdirda ular ko'rsatilgan to'lovlardan ana shu huquq paydo bo'lgan oydan boshlab ozod etiladilar.

Yil o'rtasida mol—mulk solig'i bo'yicha imtiyoz huquqini yo'qotganda soliq solish ushbu huquq yo'qolgan oydan keyingi oydan boshlab amalga oshiriladi.

16.4. Jismoniy shaxslar mol-mulk solig'ini hisoblab chiqarish hamda to'lash tartibi

Jismoniy shaxslarning mol—mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish va to'lash tartibi O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 95 — moddasida aks ettirilgan.

Jismoniy shaxslarning mol—mulkiga solinadigan soliq davlat soliq xizmati organlari tomonidan hisoblab chiqariladi.

Mol—mulk solig'i bo'yicha imtiyozlar huquqiga ega bo'lgan shaxslar zarur hujjatlarni davlat soliq xizmati organlariga taqdim etadilar.

Imoratlar, binolar va inshootlar uchun mol-mulk solig'i ularning har yil 1 yanvardagi holati yuzasidan texnik inventarizatsiyalashning hududiy kadastr byurolari taqdim etadigan inventarizatsiya qiymatiga doir ma'lumotlar asosida hisoblab chiqariladi, bunday ma'lumotlar bo'lmagan taqdirda esa O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan, qayta baholanganidan keyin qayta hisob—kitob qilingan mol—mulkning shartli qiymati qabul qilinadi.

Bir necha mulkdorning ulushbay asosidagi umumiy mulki bo'lgan imoratlar, binolar va inshootlar uchun mol—mulk solig'i har bir mulkdor tomonidan ushbu imoratlar, binolar va inshootlardagi ulushiga mutanosib ravishda to'lanadi. YAngi imoratlar, binolar va inshootlar bo'yicha soliq ular

barpo etilgan yoki olingan yildan keyingi yilning boshidan e'tiboran to'lanadi.

Meros bo'yicha o'tgan mol—mulkdan soliq merosxo'rlardan meros ochilgan paytdan boshlab undiriladi. Mol—mulk yo'q qilingan, butunlay vayron bo'lgan hollarda mol—mulk solig'i undirish ular yo'q qilingan yoki butunlay vayron bo'lgan oydan e'tiboran to'xtatiladi.

Mol—mulkka mulk huquqi taqvimiy yil davomida bir mulkdordan boshqasiga o'tganda soliqni birinchi mulkdor o'sha yilning 1 yanvaridan bu mol—mulkka mulk huquqini yo'qotgan oyning boshigacha to'laydi, yangi mulkdor esa – mulk huquqini qo'lga kiritgan oydan e'tiboran to'laydi.

Taqvimiy yil davomida imtiyozga ega bo'lish huquqi paydo bo'lgan taqdirda mol—mulk solig'i ana shunday huquq vujudga kelgan oydan e'tiboran qayta hisoblab chiqiladi.

Mol — mulk solig'ini to'lash haqidagi to'lov xabarnomalari to'lovchilarga davlat soliq xizmati organlari tomonidan har yili 1 maydan kechiktirmay topshiriladi. Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to'lash usuli – kadastrli usul hisoblanib, soliqni bunday usul bilan to'lashning o'ziga xos hususiyati shundan iboratki, mol-mulkka uning tashqi belgilari, mo'ljallanayotgan daromad asosida soliq solinishi bois, soliqni to'lash vaqti daromadni olish vaqti bilan hech qanaqa bog'liq emas va shu munosabat bilan mol-mulk solig'ini to'lash uchun qatiy muddat belgilanadi. Jumladan, mol-mulk solig'i teng ulushlarda ikki muddatda – 15 iyun va 15 dekabrdan kechiktirmay to'lanadi (O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 95-moddasi).

Agar soliq to'lovchi tomonidan ortiqcha summalar to'langan bo'lsa, soliq va yig'imlar bo'yicha qarzlar mavjud bo'lmasa, ushbu summalar uning yozma arizasiga ko'ra o'ttiz kun ichida soliq to'lovchiga qaytariladi yoki kelgusi to'lovlar hisobiga qayd etiladi.

Jismoniy shaxslarning mol — mulkiga solinadigan soliq to'lovchilari hisobi davlat soliq xizmati organlari tomonidan har bir yilning 1 yanvaridagi holat bo'yicha shahar va tumanlar bo'yicha, texnik inventarizatsiyalash hududiy kadastr byurosida mavjud bo'lgan imoratlar egalari to'g'risidagi ma'lumotlarga binoan o'tkaziladi.

Jismoniy shaxslarning mol — mulkiga solinadigan soliqni to'g'ri hisoblab chiqarish va byudjetga to'lash ustidan nazoratni davlat soliq xizmati organlari, xususan "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi Qonunning 9-moddasiga asosan uchastka davlat soliq inspektorlari amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiradilar.

Uchastka inspektori ishining boshqalardan farq qiladigan xususiyati uning soliq to'lovchilarga juda ham yaqinligidadir. Soliq organlarining yuridik shaxslar bilan ishlaydigan xodimlari asosan buxgalterlar bilan muloqotda bo'ladilar, ular esa ozmi — ko'pmi savodli mutaxassislar, katta jamoalarning vakillaridir. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish va nazorat qilish xodimlarining esa shaxsan har bir kishi bilan ishlashiga to'g'ri keladi. Bo'lim xodimlari amalda tez —tez oddiy haqiqatni tushuntirishlariga

to'g'ri keladi, holbuki ularni hamma bilishi kerak. Ishning xususiyati ayni shunday. Uchastka inspektorlari faoliyatining samarasini, birinchidan, unga biriktirilgan uchastkadagi soliq to'lovchilarning soliq qonunlarini buzish hollari kamayishiga, ikkinchidan, ularning qonunlarni qanchalik bilishlariga va aholining soliq madaniyatiga qarab baholash mumkin.

Qisqacha xulosalar

Ko'p bora ta'kidlanganidek, bozor iqtisodiyotiga samarali o'tgan, barqaror rivojlanish yo'liga ega bo'lgan davlatlar tajribasi isbot qilganidek, bozor sharoitida soliqlar yuki xo'jalik yurituvchi sub'ekt va jismoniy shaxslar moliyaviy ahvoliga, faoliyatini kengaytirish ishtiyoqiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiluvchi daromad (foyda)ga soliqlardan resurs, mol —mulk soliqlariga ko'chirib borilishi kerak. Jismoniy shaxslardan undiriladigan mol-mulk solig'i - bu bevosita soliq bo'lib, u o'zining ushbu sifati bilan moddiy boyliklarni olish va jamg'arish jarayonida undiriladi. Bu real soliqdir, («real» atamasi (inglizcha real - mulk) ayni ushbu soliq birinchi galda fuqaro egalik qilinadigan mol - mulk solinishi bilan bog'liq). Bu muntazam soliq hisoblanadi, ya'ni u yarim yilda bir marta muntazam ravishda undiriladi. Nihoyat bu hududiy soliq bo'lib, u O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lgan va unda ro'yxatga olingan ko'chmas mulk uchun to'lanadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Jismoniy shaxslar mol-mulk solig'ining iqtisodiy mohiyati va qanday me'yoriy-huquqiy asoslarga ega?
2. Mol-mulk solig'i to'lovchi jismoniy shaxslarga kimlar kiradi?
3. Jismoniy shaxslar mol-mulk solig'ining soliq solish ob'ekti necha guruhga bo'linadi?
4. Jismoniy shaxslar mol-mulk solig'i stavkasini kim belgilaydi?
5. Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'idan qanday imtiyozlar belgilangan?
6. Jismoniy shaxslardan undiriladigan mol-mulk solig'ining davlat byudjeti daromadlaridagi salmog'i qanday?

Asosiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: O'zbekiston, 1992.
2. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi. Respublika Axborot-Maslahat markazi. -T.: 2006.
3. O'zbekiston Respublikasining "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi Qonuni. - T., 1997 yil 29 avgust.
4. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida. 2002 yil 05 martda 1103-son bilan ro'yxatga olingan, "Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish va byudjetga to'lash tartibi to'g'risida"gi Yo'riqnoma.
5. YUtkina G.F. Nalogi i nalogooblojeniya: Uchebnik. – 5-e izd., pererab. i dop. – M.: INFRA-M, 2006. – 509 s.

6. Aleksandrov I.M. Nalogi i nalogooblojenie: Uchebnik. – 3-e izd., prerab. i dop. – M.:“Dashkov i K”, 2005. – 314s.
7. Zavalishina I.A. Soliqlar: nazariya va amaliyot. -T.: “Iqtisodiyot va huquq dunyosi” nashriyot uyi, 2005. 306-310 bet
8. Praktikum po nalogam i nalogooblojenie: Uchebnoe posobie / kol.avt.; pod red. Prof. L.I. Goncharenko. – M.: KNORUS, 2006. – 208 s.
9. YAhyoev Q. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. -T.: “Fan va texnologiyalar markazi”, 2003.

XVII bob. JISMONIY SHAXSLARDAN UNDIRILADIGAN ER SOLIG’I

17.1. Jismoniy shaxslardan undiriladigan er solig’ining iqtisodiy mohiyati, ahamiyati, soliq solish ob’ekti va to’lovchilari

Ma’lumki, jamiyatdagi har bir kategoriyaning ahamiyati u bajarayotgan vazifa, qolaversa, bu vazifaning nechog’li talab darajasida amalga oshirilayotganligi bilan belgilanadi. O’zbekistonda er solig’ini tartibga solishga, takomillashtirishga, sobiq Ittifoq davridagidan farqli o’laroq, mustaqillik yillarining dastlabki paytlaridanoq e’tibor berilishi shunchaki islohot uchun emas, balki avvalo ijtimoiy — iqtisodiy zaruratdan kelib chiqqan edi. Bu zaruratning juda ko’p taraflari bor.

Birinchidan, erga nisbatan turli huquqlar paydo bo’ladigan bozor iqtisodiyotiga o’tish sharoitida aholi va korxonalar soni oshib borishidan er tanqisligi bilan bog’liq muammolar kuchayib ketar edi.

Ikkinchidan, mamlakatimizda erdan foydalanilishi hamda er bilan bog’liq sifat va ekologik vaziyat masalalari og’ir ahvolda edi.

Uchinchidan, bozor iqtisodiyotiga o’tishni, aholi moddiy farovonligiga erishishni o’z oldiga maqsad qilib qo’ygan har bir davlat aholi va korxonalarni resurslardan tejamkorona foydalanishga yo’naltirmasligi mumkin emas.

To’rtinchidan, sub’ektlar moliyaviy ahvoliga bilan to’g’ridan—to’g’ri ta’sir qiluvchi daromad (foyda)ga soliqlarning davlat byudjeti daromadlaridagi ulushini kamaytirish, avvalo er, boshqa resurslar hamda mol — mulk solig’i bo’yicha tushumlar ulushini oshirib borishni taqozo etadi va hokazo.

SHubhasiz, yuqoridagi masalalarni ijobiy hal qilishning eng asosiy dastaklaridan biri – soliq atalmish insoniyat ixtirosi orqali tartibga solish edi. SHuni alohida ta’kidlash kerakki, er bilan bog’liq masalalar o’ta muhim, ko’pincha o’rinbosar yo’nalishiga ega bo’lmagan, kerak bo’lsa, aytish mumkinki, o’z o’rnida xavfli masalalardan biri bo’lganligi uchun ham bu boradagi soliq siyosati ham imkoni boricha mukammal ko’rinishda olib borilishi lozim.

"Er — o’lkamizning eng asosiy boyligi. U ediradi, ichiradi, yashash uchun asosiy shart—sharoitlarni yaratib beradi. SHu sababli respublikaning kelajagi, O’zbekiston xalqining kelajagi ko’p jihatdan erdan foydalanish

munosabatlari qanday tashkil etilishiga bog'liq bo'ladi",[35] deya e'tirof etgan respublikamiz Prezidenti I.A. Karimov. O'z o'rnida er kabi resurslarni soliqqa tortish, soliq siyosati masalalarda ham doimo qat'iy e'tibor berib kelmoqda: "Soliq tizimining eng muhim vazifasi — ishlab chiqarishni rivojlantirishga, moddiy—xom-ashyo, tabiiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan, to'plangan mol—mulkdan samarali foydalanishga rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatishdir.

...YAngi soliq siyosati doirasida soliq tushumlari tarkibini tubdan o'zgartirish, resurslar, mol — mulk solig'ining rolini oshirish, jismoniy shaxslardan soliq undirishning progressiv tizimini joriy etish vazifasi qo'yildi".[36]

YUqoridagilarni inobatga olib, amaliyotimizda davlat byudjeti daromadlarida er solig'ining nisbiy va miqdoriy salmog'i oshib kelishiga erishilmoqda.

2007 yilda O'zbekistonda davlat byudjetiga 180300,0 mln.so'm hajmida er solig'i undirish rejalashtirilmoqda.[37] Bu konsolidatsiyalashgan (yig'ma) byudjet daromadlarining 2,3 %idan, maqsadli fondlarsiz daromadlarning (davlat byudjetining) esa 3,5 %idan oshiqrog'ini tashkil etadi. Bu ko'rsatkichlar ham miqdoran, ham nisbiy ulushda o'tgan yilgisidan ziyoddir.

Fikrimiz dalili sifatida birgina er solig'ining 2002—2005 yillardagi haqiqiy tushumining hamda YAIMdagi ulushining dinamikasini quyidagi jadvalda ko'rib chiqamiz (18-jadval).

Ma'lumki, "mamlakat yalpi ichki mahsuloti (YAIM) tarkibidagi soliqlar miqdorining yalpi ichki mahsulot miqdori (hajmi)ga nisbati soliq yuki deyiladi".[38]

Ko'rinib turibdiki, soliq yuki 25,0 %, 23,8 %, 22,5 %, 22,5 %, 21,9 % ketma-ketligida soliq yuki kamayib kelishligi teskari mutanosiblikda er solig'ining salmog'i oshib kelganligi fikrimiz isbotidir.

---

[35] Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. –T.: O'zbekiston, 1995. — bet.

[36] Karimov I.A.O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. –T.: O'zbekiston, 1995.

[37] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 18 dekabrdagi 532 —sonli " O'zbekiston Respublikasining 2007 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'grisida"gi Qarori, "SBX" gazetasi, № 52 (77), 2006 yil 26 dekabrь.

[38] Malikov T.S. Soliq yukining og'irligini keskin kamaytirish kerakmi? –T.:, A.Navoiy nomli O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2006. 3 — bet



3-chizma. Jismoniy shaxslardan undiriladigan er solig’ining modeli

Jismoniy shaxslardan undiriladigan er solig'ining chizmadagi modelida keltirilgan bo'lib, unga ko'ra o'z mulkida, egaligida yoki foydalanishida er uchastkalariga ega bo'lgan jismoniy shaxslar er solig'i to'lovchilari hisoblanadi.(3-chizma)

Qonun hujjatlariga muvofiq er uchastkalarini ijaraga olgan yuridik va jismoniy shaxslar (savdo korxonalari bundan mustasno) er solig'i o'rniga byudjetga ijara haqi to'laydilar. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat Soliq Qo'mitasining 2002 yil 21 yanvardagi 19 va 2002-20-son qarori bilan tasdiqlangan hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2002 yil 27 martda 1118-son bilan ro'yxatga olingan "Er solig'ini hisoblab chiqarish va to'lash tartibi to'g'risida"gi Yo'riqnoma 6 bandiga muvofiq er uchastkalarini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va davlat hokimiyati mahalliy organlarining qarorlariga ko'ra ijaraga olgan jismoniy shaxslar (yuridik shaxslar ham) ijara xaqi to'laydilar.

Ijara haqi taraflarning kelishuviga binoan belgilanadi, lekin bu haq qonun hujjatlarida belgilangan er solig'ining bir stavkasidan kam va uch stavkasidan ko'p bo'lmasligi, erlardan qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun foydalanilgan taqdirda esa – bir stavkasi miqdorida bo'lishi lozim. Er ijarachilarining hisobi, ijaraga olingan er uchun ijara haqi hisob-kitoblarini taqdim etish, ijara haqini hisoblab chiqarish va to'lash er solig'i uchun belgilangan tartibga muvofiq amalga oshiriladi.

Mamlakatimizda jismoniy shaxslar uchun quyidagi er uchastkalari soliq solinadigan ob'ekt hisoblanadi:

- turar joylar etagida va jamoat erlarida shaxsiy yordamchi xo'jalik yuritish uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga berilgan er uchastkalari;
- yakka tartibda uy—joy qurilishi uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga berilgan er uchastkalari;
- jamoa bog'dorchiligi, uzumchiligi va polizchiligini yuritish uchun berilgan er uchastkalari;
- xizmat yuzasidan qonun hujjatlariga muvofiq berilgan chek erlar;
- meros bo'yicha, hadya qilinishi yoki sotib olinishi natijasida uy-joy, dala hovli bilan birgalikda egalik qilish huquqi ham o'tgan er uchastkalari;
- qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mulk qilib olingan er uchastkalari;
- tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun doimiy foydalanishga yoki ijaraga berilgan er uchastkalari.

17.2. O'zbekistonda er solig'ining rivojlanish bosqichlari va me'yoriy-huquqiy asoslari

Albatga, jamiyatimizdagi barcha jarayonlar kabi erni soliqqa tortish tizimini ham eng avvalo, boshlang'ich va asosiy huquqiy poydevor sifatida O'zbekiston Respublikasi Konstituttsiyasi tartibga soladi.

Bosh Qomusimizning 55—moddasida quyidagicha mustahkamlangan: "Er, er osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zahiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir."

Aytish mumkinki, er solig'i stavkalari oshirib kelinishidan birinchi maqsad daromadga soliqlarning soliq yukidagi ulushini er va boshqa resurs soliqlariga o'tkazib borish bo'lsa, ikkinchisi o'zimizda qoniqarsiz ahvolda bo'lgan resurslardan foydalanishda sub'ektlarni tejamkorlikka o'rgatishdir. Aynan shu masala, ko'rinib turibdiki, dastlab Konstitutsiyada qat'iy inobatga olingan ekan.

Qolaversa, bosh qomusimizning 51-moddasida e'tirof etilganidek: "Fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig'imlarni to'lashga majburdirlar." SHuningdek, Konstitutsiyaning 123-moddasida mustahkamlangan qoida barchamizga ma'lum: "O'zbekiston Respublikasi hududida yagona soliq tizimi amal qiladi. Soliqlar joriy qilishga faqat O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi haqli"[39].

1991 yil "Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar to'g'risida"gi Qonun qabul qilingan. Unda foyda solig'i, aylanmadan olinadigan soliq, mahsulot sotish solig'i va boshqa soliqlarni to'lash tartibi belgilangan bo'lsada, er solig'i to'lash nazarda tutilmagan edi. Holbuki, 1990 yilda qabul qilingan "Er solig'i to'g'risida"gi Qonunda erdan foydalanish uchun haq to'lanishi asosiy tamoyil sifatida mujassamlangan edi.

Mazkur Qonunning 16-moddasida yozilganidek, er uchun haq har yili er solig'i shaklida olinadi, uning miqdori er uchastkasining sifatiga, joylashishiga va suv bilan ta'minlanish darajasiga qarab belgilanadi. Xalq deputatlari kengashlari erni ijaraga bergan taqdirda, er uchun to'lov miqdori taraflarning kelishuviga muvofiq belgilanadigan ijara haqi shaklida olinadi.

Biroq erdan foydalanganlik uchun haq to'lash keyinroq, 1993 yil qabul qilingan "Er solig'i to'g'risida"gi Qonunga binoan joriy etildi. Oliy Kengashning "Er solig'i to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga kiritish tartibi haqida"gi 1993 yil 6 mayda qabul qilingan qarori bilan er solig'ini 1994 yil 1 yanvardan e'tiboran joriy etish belgilandi. Jamoa xo'jaliklari, davlat xo'jaliklari, boshqa qishloq xo'jalik korxonalari hamda dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari etishtirishga aloqador tashkilotlardan esa bunday soliq 1995 yil 1 yanvardan boshlab undiriladigan bo'ldi.

Bu kechiktirish zamirida qishloq xo'jalik mahsulotlari etishtiruvchilarining moliyaviy ahvolini engillashtirish muddaosi yotar edi. O'sha kezlari qishloq xo'jalik erlaridan soliqning asoslantirilgan stavkalari yo'qligi ham bir jihatdan shunday ish tutilishiga sababchi bo'ldi.

---

[39] O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: O'zbekiston, 2003.

Mazkur Qonunda "Er to'g'risida"gi Qonunda mujassam etilgan asosiy tamoyillar saqlab qolindi, binobarin er solig'i to'lovchilari, bunday soliq stavkalarini tamoyillari, er solig'ini hisoblab chiqarish va to'lash tartibi, ushbu soliq bo'yicha imtiyozlar belgilab qo'yildi. Davlat Soliq Qo'mitasi Moliya vazirligi bilan birgalikda er solig'i stavkalarini er uchastkalari tuman, shahar va qo'rg'on hududida joylashganligini inobatga olgan holda belgilash tamoyillarini ishlab chiqdi. Qishloq xo'jaligi ixtiyorida bo'lmagan erlar hamda fuqarolarning tomorqa erlari muhandislik kommunikatsiyalari bilan ta'minlanganlik darajasiga, joylashuviga, tumanlarning va shaharchalarning hududida infratuzilma mavjudligiga qarab iqtisodiy zonalarga bo'lindi. CHunonchi, Toshkent shahri hududi 14 ta, viloyat markazlari va yirik shaharlar hududi 4 ta, o'rta shaharlar hududi 3 ta, kichik shaharlar va qo'rg'onlar hududlari ikkita iqtisodiy zonaga bo'lindi. Qishloq joylardagi erlar ikkita yirik zonaga, ya'ni sug'oriladigan hamda lalmi-yaylov erlar zonasiga bo'lindi.[40]

Er qishloq xo'jaligida asosiy ishlab chiqarish negizidir. SHu bois uning sifati qishloq xo'jaligi mahsuloti ishlab chiqaruvchi uchun asosiy omil hisoblanadi. Ana shundan kelib chiqib, sug'oriladigan er uchastkalari uchun soliq stavkalari zaminning tabiiy unumdorligini ifoda etuvchi tuproq boniteti ballarini ham inobatga olgan holda erlarning toifalari bo'yicha belgilangan. Lalmi va yaylov erlar uchun soliq stavkalari balandlik mintaqalari bo'yicha, ko'p jihatdan ularning unumdorligini belgilovchi yog'ingarchilik va namgarchilik bilan ta'minlanganlik darajasini ham inobatga olgan holda belgilab qo'yildi. Jamoat imoratlari va hovlilar, yo'llar va suv ob'ektlari egallab turgan er uchastkalariga, shuningdek qishloq xo'jaligida foydalanilmayotgan boshqa erlarga ham er solig'ining uncha katta bo'lmagan miqdordagi stavkalari belgilandi. Er solig'i stavkalarini belgilashning ana shu tamoyillari amaliyotda o'zini oqladi va hozirgi kunga qadar saqlanib turibdi.

Er solig'i joriy etilgach, davlat soliq xizmati organlari shaharlar va qo'rg'onlarda erlarni hisobga olish ishi olib borilmaganligi sababli, erdan foydalanuvchilarni hamda ular egallab turgan er maydonlarini aniqlashda muayyan qiyinchiliklarga duch keldilar. Bu muammoni hal etish uchun Davlat soliq qo'mitasi tashabbusi bilan Vazirlar Mahkamasi 1994 yil 31 dekabrda "O'zbekiston Respublikasida erlardan foydalanishni yalpi inventarizatsiyadan o'tkazish to'g'risida"gi 636—sonli Qarorini qabul qildi. Bu ish ko'p jihatdan erdan foydalanuvchilarning to'liq hisobi yuritilishini va ayniqsa, ularning shahar va qo'rg'onlarda er solig'i to'lashga jalb etilishini ta'minladi.

Xalq xo'jaligida iqtisodiy islohotlar olib borilishi munosabati bilan "Er solig'i to'g'risida"gi Qonun takomillasha bordi, unga bir qancha o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Xususan, 1995 yildagi belgilanganiga ko'ra, soliq bo'yicha imtiyozlar mo'ljallangan maqsadda foydalanilmagan er

[40] O'zbekiston Respublikasi "Er solig'i to'grisida"gi Qonuni.

uchastkalariga nisbatan tatbiq etilmaydigan bo'ldi. Bu me'yor "Er to'g'risida"gi Qonunga asoslangan bo'lib, Qonunga ko'ra erlar qaysi maqsadda foydalanish uchun berilgan bo'lsa, ulardan aynan shu maqsadda foydalanilishi shart.[41]

Bundan tashqari ijara haqi stavkalarini belgilash masalalari ham tartibga solindi. Qonunning amal qilib kelgan tahririda bunday stavkalarning yuqori chegaralari belgilab qo'yilmagan edi. Ba'zi hokimliklar bundan foydalanib, ijara haqini haddan ziyod oshirib yuborish yo'liga o'tdilar. Bunday nomatlub hollarni bartaraf etish uchun kiritilgan me'yorga binoan ijara haqining miqdori er solig'ining bitta stavkasi mikdoridan kam va uchta stavkasi miqdoridan ko'p bo'lishi mumkin emas, er uchastkalari qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun foydalanilganda esa er solig'ining bitta stavkasi miqdoriga teng bo'lmog'i lozim. Bunday aniqlik kiritilganligi sababli erlarni ijaraga oluvchilar haddan ziyod oshirib yuborilgan to'lov to'lashdan himoya etildi.

Imtiyozlar yuzaga kelgan yoki tugatilgan taqdirda, er uchastkasi miqdori ko'payganda yoxud kamayganda soliq to'lash muddatlarini belgilash ham ayni shu davrda amalga oshirildi, shuningdek, ayrim imtiyozlar tartibga solindi, shu bilan birga aniqlashtirildi. Bundan tashqari, er uchastkalaridan belgilangan maqsadda bevosita, oqilona foydalanilishini ta'minlash uchun alohida me'yor kiritildi, unga soliq undirilmaydigan er uchastkalaridan bevosita mo'ljallangan maqsadda foydalanilmagan taqdirda, bunday erlarga nisbatan soliq imtiyozlari tatbiq etilmaydi.

1995—1997 yillarda O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksini ishlab chiqish ishlari olib borildi. Soliqlarning ayrim turlari bo'yicha amal qilib kelgan barcha qonunlar Kodeksda jamlanmog'i tabiiy. Er solig'ini to'lash tartibi, masalan, Kodeksga alohida bo'lim bo'lib kirdi. Bo'lim me'yorlarini ishlab chiqishda "Er solig'i to'g'risida"gi Qonun asos qilib olindi. Xususan, er solig'i bo'yicha hisob— kitoblarni taqdim etish hamda mazkur soliqni to'lash tartibi saqlanib qoldi.

Ayni bir vaqtda Soliq kodeksida yuridik va jismoniy shaxslar uchun er solig'ini soliq solish ob'ekti yanada aniqroq belgilab berildi, soliq solinmaydigan er uchastkalari esa aniq ravshan ko'rsatildi. Er solig'i to'lashdan ozod qilingan yuridik shaxslar ro'yxatiga kiritilganlar orasida notijorat tashkilotlari ham bor.[42]

Er solig'i bo'yicha imtiyozlar yuzaga kelish yo'nalishlaridan yana biri haqidagi fikrini O'zbekistonda er solig'i bo'yicha etuk mutaxassislardan biri, soliq xizmatining I darajali maslahatchisi Arzet Latipov shunday bayon qiladi: "Turli toifadagi soliq to'lovchilardan soliq solishning soddalashtirilgan tizimi joriy etilishi munosabati bilan mazkur kodeksga ko'pgina o'zgartirishlar kiritildi. Natijada mikrofirmalar va kichik korxonalar, savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari er solig'i

---

[41] O'zbekiston Respublikasi "Er to'g'risida"gi Qonuni.
[42] O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi.

to’lamaydigan bo’ldi. Bu taxlit yangiliklar erlardan oqilona foydalanilishiga yordam beryapti, deb aytib bo’lmaydi."[43]

Er solig’ini butun tafsilotlari bilan tartibga soluvchi me’yoriy hujjat — yuqorida keltirilganidek, O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2002 yil 27 martdagi 1118—son bilan ro’yxatga olingan, O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat Soliq Qo’mitasining 2002 yil 21 yanvardagi 19 va 2002 —20 —son qarori bilan tasdiqlangan "Er solig’ini hisoblab chiqarish va to’lash tartibi to’g’risida"gi Yo’riqnomadir. Ushbu Yo’riqnomaga quyidagilarga muvofiq o’zgartirishlar kiritilgan:

- O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2003 yil 19 fevralda 1118—1— son bilan ro’yxatga olingan O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat Soliq Qo’mitasi Qarori;
- O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2005 yil 08 fevralda 1118—2 — son bilan ro’yxatga olingan O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat Soliq Qo’mitasi Qarori;
- O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2006 yil 10 aprelda 1118-3 -son bilan ro’yxatga olingan O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat Soliq Qo’mitasi Qarori.
- mazkur Yo’riqnoma O’zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga, O’zbekiston Respublikasining "Davlat soliq xizmati to’g’risida"gi qonunining 7 —moddasiga muvofiq ishlab chiqilgan.[44]

Mazkur Yo’riqnoma (yuridik va) jismoniy shaxslar tomonidan er solig’ini hisoblab chiqarish va to’lash tartibini belgilaydi.

YUqoridagi me’yoriy-huquqiy hujjatlardagi o’zgarishlar qatorida yana bir muhim bir o’zgarish shuki, yangi tahrirdagi Soliq kodeksi loyihasida nazarda tutilishicha, belgilangan imtiyozlar bevosita mo’ljallangan maqsadda foydalanilmayotgan er uchastkalarigagina emas, balki erdan foydalanish huquqini tasdiqlovchi hujjatlari bo’lmagan er uchastkalariga ham tatbiq etilmaydi. SHu munosabat bilan er solig’i bo’yicha imtiyozlarga ega bo’lgan barcha yuridik va jismoniy shaxslar hozirning o’zidayoq tayyorgarlikka kirishib, er uchastkasiga bo’lgan o’z huquqlarini belgilangan tartibda ro’yxatdan o’tkazishlari zarur.

Ko’rinib turibdiki, er solig’i bo’yicha soliq solish tizimi "Er solig’i to’g’risida"gi Qonun bilan mazkur soliq joriy etilgan paytdan to bugunga qadar katta yo’l bosib o’tdi. Bu tizim yangi tahrirdagi Soliq kodeksi qabul qilinib, amaliyotga joriy etilgach, o’zining asosiy maqsadi - erlardan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadi yo’lida yanada samaraliroq tarzda xizmat etadi, deb umid qilamiz. Binobarin, yil sayin takomillasha borib, hozirgi vaqtda soliq solishning O’zbekiston Respublikasidagi umumiy tizimida

---

[43] Latipov A. Har qarichi ardoqlanur zaminning. // "Soliqlar va bojxona xabarlari" gazetasi, № 40 (636), 2006 yil 3 oktyabrь.

[44] O’zbekiston Respublikasi "Davlat Soliq xizmati to’g’risida"gi Qonuni.

muqim hamda barqaror mavqeni egallab turganligining o'zi ham shundan dalolat bermoqda.

17.3. Jismoniy shaxslardan undiriladigan er solig'ining stavkalari

Er solig'i stavkalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan er uchastkasining foydalanish maqsadlari va joylashgan joyiga qarab belgilanadi va soliq to'lovchilarga O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hamda Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan tartibda etkaziladi.

YUqorida aytib o'tilganidek, shahar hududlarida joylashgan er uchastkalari uchun er solig'i stavkalari xuddi yuridik shaxslarga belgilangan tamoyillarga asoslangan holda zonalarga bo'linadi.

Jismoniy shaxslardan undiriladigan er solig'ini hisoblab chiqarish chog'ida er solig'i stavkalariga, er sifatiga bog'liq holda, quyidagi koeffitsientlar qo'llaniladi:

- tuproq boniteti 40 ballgacha bo'lsa — 0,75;
- tuproq boniteti 41 dan 70 ballgacha bo'lsa — 1,0;
- tuproq boniteti 70 balldan ortiq bo'lsa — 1,25.

Jismoniy shaxslarga asosiy fondlarni sotib olish va egalik huquqini berish bilan ajratilgan jamoa bog'dorchiligi va uzumchiligini yuritishga berilgan er uchastkalaridan er solig'i qishloq xo'jalik yuritish uchun belgilangan soliq stavkalarida undiriladi.

Jismoniy shaxslarga tadbirkorlik faoliyati uchun berilgan er uchastkalaridan soliq korxonalar, muassasalar va tashkilotlar uchun tasdiqlangan stavkalar bo'yicha undiriladi. Ushbu stavkaga muvofiq jismoniy shaxslar uchun er solig'ini hisoblab chiqarish do'konlar, oshxonalar, ustaxonalar va tadbirkorlik faoliyatida foydalaniladigan boshqa ob'ektlar uchun foydalaniladigan er uchastkalari uchun amalga oshiriladi.

Berilgan erlardan ikki yil davomida foydalanmagan (masalan, agarda er uchastkasi tomorqa qishloq xo'jaligi uchun berilsada va shu erda qishloq xo'jalik mahsulotlari etishtirilmasa; yoki, agarda yakka tartibda uy-joy qurish uchun er uchastkasi berilsada, ammo u erda uyni qurish bo'yicha ishlari boshlanmagan bo'lsa va h.k.) jismoniy shaxslardan er solig'i uch baravar miqdorida undiriladi.

Jismoniy shaxslar foydalanadigan (shu jumladan, er solig'ini to'lashdan ozod etilgan), davlat hokimiyati organlari tomonidan ajratilgan maydonlardan ortiqcha er uchastkalari uchun er solig'i jismoniy shaxslar uchun 1,5 koeffitsientini qo'llagan holda to'lanadi. Masalan, jismoniy shaxs uchun shaxsiy tomorqa yuritish uchun er 0,25 ga uchastkasi ajratilgan, ammo uning haqiqatda foydalanayotgan eri 0,40 gani tashkil etadi, u holda fuqaro 0,15 ga (hukumat organlari tomonidan ajratgan er uchastkasiga nisbatan oshiqcha qismi) uchun er solig'i 1,5 koeffitsient qo'llagan holda to'lashi shart. [45]

---

[45] Zavalishina I.A. Soliqlar: nazariya va amaliyot. –T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2005. 339 —b.

Davlat hokimiyati organlari tomonidan ajratilgan maydonlardan ortiqcha foydalaniladigan erlar uchun yuqorida ko'rsatilgan koeffitsientni qo'llagan holda er solig'i to'lanmagan taqdirda soliq to'lovchilarga nisbatan qonun hujjatlariga muvofiq moliyaviy jazo choralari qo'llanadi.

Jamoa va shaxsiy garajlar band etgan er uchastkalari uchun jismoniy shaxslardan soliq yakka tartibdagi uy—joy qurilishi erlari uchun tasdiqlangan stavkalar bo'yicha undiriladi.

Garajlar deganda quyidagilar tushuniladi:

- jamoa garajlari — fuqarolar transport vositalarining doimiy saqlanish joylari, ular joylardagi davlat hokimiyati organlarining qarori yoki farmoyishi bilan ajratilgan erlarda tashkil etilib, ularda avtotransportni saqlash joylari aniq jismoniy shaxslarga biriktirib qo'yiladi, ular o'z faoliyatini shirkatlar, kooperativlar va boshqa tashkiliy— huquqiy shakllarda amalga oshiradilar;
- shaxsiy garajlar — joylardagi davlat hokimiyati organlarining qarori yoki farmoyishiga ko'ra ajratilgan erlarda, yashash joylari yaqinida avtotransport egalari mablag'lari hisobiga qurilgan fuqarolarning avtotransport vositalarini saqlash uchun inshootlar.

Jismoniy shaxslardan undiriladigan er solig'ining 2007 yil uchun stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 18 dekabrdagi 532 — sonli "O'zbekiston Respublikasining 2007 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi Qarorining 15—ilovasi, 5, 6 va 8- jadvallariga muvofiq belgilangan.[46] (19-jadval)

2012 yilda "YUridik va jismoniy shaxslar uchun er solig'ini hisoblab chiqarish va to'lash mexanizmi saqlandi. Bunda 2006 yilda amal qilgan stavkalar 1,5 baravarga indeksatsiyalanadi".[47]

Demak, bozor iqtisodiyotiga o'tish va iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida o'z zimmasida umumiy soliq yuki ulushini oshirib borishi kerak bo'lgan er solig'ining stavkalarini doimiy ravishda tuzatib hamda takomillashtirib borish muhim ahamiyatga ega ekanligi shubhasizdir.

17.4. Jismoniy shaxslardan undiriladigan er solig'i bo'yicha belgilangan imtiyozlar

Ma'lumki, soliqlarning rag'batlantirish funktsiyasidan kelib chiqqan holda, soliq imtiyozlarini taqdim etishdan maqsad asosan quyidagilardan iborat bo'ladi: mamlakat iqtisodiyoti, umuman aholi (jismoniy shaxslar) va korxonalar ehtiyojlari uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan yoki hududda taraqqiy etmagan sub'ektlar yoxud ularning soliq solinadigan ob'ektlari bo'yicha taqdim etiladi.

---

[46] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 18 dekabrdagi 532—sonli "O'zbekiston Respublikasining 2007 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi Qarori, "SBX" №52 (77), 2006 yil 26 dekabrь.

[47] Bekenov S., Gadoev E. "2007 yil 1 yanvardan boshlab yuridik va jismoniy shaxslarga soliq solish tartibidagi o'zgartirishlar haqida". // "Soliqlar va bojxona xabarlari" gazetasi, 2007 yil 9 yanvarь, №1-2 (649-650).

YUqoridagi boblarda ta’kidlanganidek, mustaqillik yillarida Soliq kodeksining er solig’i bo’yicha qismi boshqa soliqlarga nisbatan kam o’zgarishlarga duchor bo’ldi. Amalga oshirilgan o’zgarishlar esa asosan, islohotlar bosqichlaridan kelib chiqqan holda, soliq imtiyozlari sohasida kechgan. SHu sababli er solig’i bo’yicha imtiyozlarning tarkibi haqida alohida band kiritish va uni ko’rib chiqish muhim vazifadir.

Soliq kodeksining 101—moddasi (yuridik va) jismoniy shaxslarning soliq solinmaydigan er uchastkalarini, 102—moddasi esa er solig’i to’lashdan ozod qilingan to’lovchilar masalalarini tartibga soladi.

YUqoridagi me’yoriy-huquqiy hujjat, ya’ni Soliq kodeksining 102-moddasiga asosan quyidagi jismoniy shaxslar er solig’idan ozod qilinadilar:

1. yaylov chorvachiligining cho’ponlari, yilqiboqarlari, mexanizatorlari, veterinar vrachlari va texniklari, boshqa mutaxassislari va ishchilari;
2. "O’zbekiston Qahramoni", Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni unvonlariga sazovor bo’lgan shaxslar, uchala darajali SHuxrat ordeni bilan taqdirlanganlar, 1941 — 1945 yillardagi urush nogironlari va qatnashchilari. Mazkur imtiyoz "O’zbekiston Qaxramoni" unvoni berilishi to’g’risida guvohnoma; Sovet Ittifoqi Qahramoni va Mehnat Qahramoni daftarchalari, orden daftarchasi yoki mudofaa ishlari bo’limining ma’lumotnomasi, urush qatnashchisi guvohnomasi, imtiyozlarga huquq to’g’risida guvohnoma asosida taqdim etiladi;
3. xizmatni Afg’oniston Respublikasida va jangovar harakatlar olib borilgan boshqa mamlakatlarda vaqtincha bo’lgan qo’shinlarning cheklangan kontingenti tarkibida o’tagan harbiy xizmatchilar hamda o’quv va sinov yig’inlariga chaqirilgan harbiy xizmatga majburlar. Mazkur imtiyoz imtiyozlarga huquq to’g’risida guvohnoma asosida taqdim etiladi;
4. I va II guruh nogironlari. Mazkur imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki tuman (shahar) ijtimoiy ta’minot bo’limining ma’lumotnomasi asosida taqdim etiladi;
5. yolg’iz pensionerlar. Soliq solish maqsadlari uchun yolg’iz pensionerlar deganda bir o’zlari yoki voyaga etmagan bolalari yoki nogiron bolasi bilan birgalikda alohida uyda, kvartira yoki yotoqxonada yashaydigan pensionerlar tushuniladi. Mazkur imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki tuman (shahar) ijtimoiy ta’minot bo’limining ma’lumotnomasi asosida taqdim etiladi;
6. boquvchisini yo’qotgan ko’p bolali oilalar Soliq solish maqsadlarida boquvchisini yo’qotgan ko’p bolali oilalar deganda ota—onadan biri yoki ikkalasi vafot etgan hamda oilada 16 yoshga etmagan 5 va undan ortiq bola bo’lgan oilalar tushuniladi. Mazkur imtiyoz tuman (shahar) ijtimoiy ta’minot bo’limining ma’lumotnomasi asosida taqdim etiladi;
7. kontsentratsion lagerlarning sobiq yosh tutqunlari, CHernobil AESdagi falokat oqibatlarini tugatishda ishtirok etgan shaxslar. Mazkur imtiyoz imtiyozlarga huquqlar to’g’risida guvohnoma yoki tuman (shahar) ijtimoiy ta’minot bo’limining ma’lumotnomasi asosida taqdim etiladi;
8. ko’chirib keltirilgan fuqarolar kelib joylashgan er uchastkalari bo’yicha – er uchastkalari berilgan vaqtdan e’tiboran besh yilga;
9. ilgari shaxsiy pensiya tayinlangan shaxslar;

YUqorida ko’rsatilgan imtiyozlar er uchastkalari yakka tartibda uy — joy qurilishi va shaxsiy yordamchi xo’jalik (dehqon xo’jaligi) yuritish uchun qonun hujjatlarida nazarda tutilgan me’yorlar doirasida taqdim etilgan jismoniy shaxslargagina tatbiq etiladi.

Ushbu me’yorlar shahar va posyolkalarda bir oila uchun quyidagilarni tashkil etadi:

- yakka tartibda uy-joy qurish uchun — 0,06 ga;
- shaxsiy tomorqa xo’jaligini yuritish uchun — 0,25 ga (sug’oriladigan erdan) va 0,50 ga (lalmikor erdan).

Agarda jismoniy shaxs er solig’i to’lashdan ozod bo’lib, me’yoridan oshiqcha er uchastkasiga ega bo’lsa, u holda bu me’yoridan oshiqcha er uchastkasi uchun bir stavka miqdorida er solig’ini to’laydi.

YUqorida keltirilgan imtiyozlar tomorqa uchastkalari va xizmat uchun ajratilgan erlarga taalluqli bo’lmaydi.

SHuni ta’kidlash lozimki, mol-mulk solig’idan farqli, imtiyoz huquqi er solig’ini to’lashdan ozod etilgan shaxslar yashaydigan va birgalikda xo’jalik yuritadigan butun oilaga tatbiq etiladi. (Jismoniy shaxslardan undiriladigan mol-mulk solig’idan farqli o’laroq, imtiyozga ega bo’lgan jismoniy shaxs yashaydigan xonadoni uning nomidami yoki bo’lmasa oiladagi boshqa shaxsning nomidaligidan qat’iy nazar bu soliq bo’yicha berilgan imtiyoz belgilangan me’yor doirasida butun oilaga tegishli bo’ladi).

Jismoniy shaxslarga qonunchilikda belgilangan me’yor chegarasida yakka tartibda uy-joy qurish va dehqon xo’jaligi yuritish uchun ajratilgan er uchastkalariga er uchastkalarining berilgan muddatidan boshlab ikki yil muddatiga er solig’i to’lashdan ozod etiladi. Er solig’i to’lanmaydigan er uchastkalarining maydonlari er uchastkasiga huquqni tasdiqlaydigan hujjatlarga binoan qabul qilinadi. SHuningdek, 2007 yilda bekor qilingan imtiyoz "Er solig’i to’g’risida"gi Yo’riqnomada quyidagi mazmunda aks etgan mana bu imtiyoz bo’ldi:

" - haqiqiy muddatli harbiy xizmatga chaqirilgan harbiy xizmatchilarning oilalari - xizmat muddatiga. Muddatli harbiy xizmatga chaqirilgan fuqarolar uchun ularni chaqirish sanasi tuman va shahar hokimiyatlarining mudofaa ishlari bo’limlari ma’lumotlariga ko’ra qabul qilinadi. Xizmatdan qayttan fuqaroning mudofaa ishlari bo’limi tomonidan hisobga qo’yilgan kuni harbiy xizmatning tugash sanasi deb qabul qilinadi. Muqobil xizmatni o’tayotgan harbiy xizmatchilarga mazkur kichik band tomonidan belgilangan imtiyozlar tatbiq etilmaydi."

Mazkur imtiyozning amal qilishini to’xtatishi haqida O’zbekiston Respublikasi DSQ soliq solish uslubini takomillashtirish boshqarmasi boshlig’i Fayzullo Mirzaev axborot beradi: "... yangiliklar zamirida yurtboshimizning 2005 yil 28 yanvarda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senati qo’shma majlisidagi ma’ruzasida belgilab berilgan eng asosiy ustuvor vazifa — soliq siyosatini takomillashtirish yotadi...

... Jismoniy shaxslardan undiriladigan er solig'i bo'yicha 2007 yilda muddatli harbiy xizmatga chaqirilgan harbiy xizmatchilarning oilalarini xizmat muddati davomida er solig'idan ozod etishga doir imtiyozlar bekor qilindi".[48]

Buning sababi, bizningcha, mamlakatimizda aholi daromadlarining o'tgan yilda oldingi yillarga nisbatan ancha oshganligi hamda harbiy xizmat safida xizmat qiluvchilar soni oshib ketgani bilan belgilanadi. Umuman olganda, er solig'i bo'yicha imtiyozlarning tarkibi, ularni joriy qilish va bekor qilish mexanizmi bo'yicha o'zgarishlar aholi daromadlarining o'zgarishidan, mamlakatimizda yangi iqtisodiy ustuvorliklar belgilanishidan, davlat va soliq to'lovchilar uchun samarasiz bo'lgani holda ro'yxatidan joy egallab turgan imtiyozlarni bekor qilish zaruriyatidan va boshqalardan kelib chiqadi.

17.5. Jismoniy shaxslardan undiriladigan er solig'ini hisoblash va to'lash tartibi

Soliq sohasini tartibga soluvchi bosh me'yoriy — hujjatlardan asosiysi — O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining "Jismoniy shaxslardan undiriladigan er solig'ini hisoblab chiqarish va to'lash tartibi" deb nomlangan 104 — moddasida er solig'ini hisoblab chiqarilishi va to'lanish tartibining asosiy tomonlari o'rnatib qo'yilgan.

Ma'lumki, yuridik shaxsning jismoniy shaxsdan asosiy farqlari — ustav kapitaliga, mustaqil balansiga (va boshqalar)ga ega ekanligidir. Tabiiyki, hayotda jismoniy shaxslarning aksar qismi ulardagi kabi o'z yoki yollanma buxgalteriyasiga ega emasligi, sonining ko'pligiga teskari ravishda byudjetga tushumlar yuqori ulushda emasligi va bu tushumlarni nazorat qilishning ortiqcha byudjet xarajatlaridan chekinish, mantiqiy ravishda, jismoniy shaxslar o'z er soliqlarini mustaqil hisoblamasliklarini keltirib chiqaradi.

Jismoniy shaxslar uchun er solig'ini davlat soliq organlari hisoblab chiqaradi.

Davlat soliq xizmati organlari er uchastkalari mulkdorlari, er egalari yoki erdan foydalanuvchilar yoki ijarachilar bo'lgan jismoniy shaxslarning muntazam hisobini yuritadilar.

Dehqon xo'jaliklari (yuridik shaxsni tashkil etmaganlari) hisoblab yozilgan er solig'i umumiy summasining 95%ini byudjetga va 5%ini Dehqon va fermer xo'jaliklarini qo'llab — quvvatlash jamg'armasiga to'laydilar. SHu munosabat bilan davlat soliq organlari dehqon xo'jaliklariga yoziladigan to'lov xabarnomalarida byudjetga to'lanadigan er solig'i summasi va Jamg'armaga to'lanadigan er solig'i summasini alohida ko'rsatadilar.

Soliq to'lanishi to'g'risidagi to'lov xabarnomalari jismoniy shaxslarga davlat soliq organlari, xususan uchastka soliq inspektorlari (O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq xizmati to'g'risidagi Qonunning 9-moddasiga asosan) tomonidan har yili, joriy yilning 1 mayidan kechiktirmay topshiriladi.

---

[48] Mirzaev F. "Ustuvorlik. 2007 yilda soliq qonunchiligiga kiritilgan o'zgartirishlar haqida." // "Soliq to'lovchining jurnali", 2007 yil, yanvarь, № 1.

Er uchastkalarining maydoni o'zgarganda va yil davomida imtiyoz huquqi paydo bo'lganda (bekor qilinganda) davlat soliq organlari bir oy davomida soliqni qayta hisob —kitob qilishlari va soliq to'lovchiga to'lash muddatlari o'zgarganini hisobga olgan holda yangi yoki qo'shimcha to'lov xabarnomasini taqdim etishlari shart.

Er uchastkalarining mulqdorlari, er egalari yoki erdan foydalanuvchilar yoki ijarachilar bo'lgan jismoniy shaxslar davlat soliq organlari (uchastka soliq inspektorlari) tomonidan har yili 1 yanvardagi holat bo'yicha hisobga olinadilar.

Jismoniy shaxslarga shahar va qo'rg'onlarda yakka tartibda uy — joy qurish uchun berilgan er uchastkalarining maydonlari yakka tartibdagi uy — joylarni hisobga olish va nazorat qilish shahar yoki tuman boshqarmasi yoxud ishlab chiqarish uy —joy inspektsiyasining mavjud materiallari bo'yicha hisobga olinib, har yili naturada aniqlashtiriladi.

Jismoniy shaxslarga qishloq joylarda shaxsiy yordamchi xo'jalik (dehqon xo'jaligi) yuritish uchun berilgan er uchastkalari tomorqa erlardan va jamoat erlarida qo'shimcha ajratilgan er uchastkalaridan iborat bo'lishi mumkin. Bunday hodda tomorqa erlar maydoni er kadastri ma'lumotlari bo'yicha qabul qilinib, yuz bergan o'zgarishlar har yili naturada aniqlashtiriladi. Jamoat erlarida qo'shimcha ajratilgan er uchastkalari maydoni xo'jaliklarning ma'lumotlari bo'yicha hisobga olinib, har yili aniqlashtiriladi.

Fuqarolar ro'yxati va ularga jamoa bog'dorchiligi va uzumchiligini yuritish uchun berilgan er uchastkalari maydoni, shuningdek shaxsiy garajlar egallagan maydonlar ushbu tashkilotlar boshqaruvlarining ma'lumotlari bo'yicha qabul qilinadi.

Xizmat chek erlarining maydoni o'z xodimlariga er uchastkalarini bergan korxonalar, muassasalar va tashkilotlar ma'lumotlari bo'yicha qabul qilinib, ular joyning o'zida aniqlashtiriladi.

Agar jismoniy shaxs yakka tartibda uy-joy qurilish yoki shaxsiy yordamchi xo'jalik (dehqon xo'jaligi) yuritish uchun berilgan er uchastkasida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullansa yoki erdan maqsadli foydalanishni o'zgartirmasdan o'z uyini ofis sifatida rasmiylashtirsa, bunda undan er solig'i yakka tartibda uy —joy qurilishi yoki dehqon xo'jaligini yuritish uchun berilgan erlar uchun belgilangan stavkalar bo'yicha undiriladi.

Ko'p xonadonli turar joylarda yashaydigan jismoniy shaxslardan er solig'i undirilmaydi. Xonadondan yoki ko'p xonadonli turar joylarning bir qismidan odamlarning yashashi bilan bog'liq bo'lmagan maqsadlarda foydalanilganda, belgilangan tartibda xonadonning umumiy maydonidan kelib chiqib, er solig'ining tegishli hissasi undiriladi.

Egalik qilish huquqi meros bo'yicha turar joy, noturar imorat va inshootlar, bog' uychasiga o'tishi bilan birga o'tgan er uchastkalari uchun er solig'i merosxo'rlardan, meros qoldiruvchining soliq majburiyatlarini hisobga olgan holda undiriladi.

Jismoniy shaxslar er solig'ini teng ulushlarda ikki muddatda — 15 iyundan va 15 dekabrdan kechiktirmay to'laydilar.

Yil davomida ajratilgan er uchastkalari uchun soliq er uchastkasi ajratilgan oydan keyingi oydan boshlab to'lanadi.

Yil davomida ajratilgan er uchastkalari uchun soliq er uchastkasi ajratilgan oydan keyingi oydan boshlab to'lanadi.

Soliq to'lovchi tomonidan ortiqcha soliq summalari to'langan taqdirda, agar boshqa soliqlar va yig'imlar bo'yicha qarz mavjud bo'lmasa, ushbu summalar soliq to'lovchiga o'ttiz kun ichida uning yozma arizasi bo'yicha qaytariladi yoki bo'lg'usi to'lovlar hisobiga qayd etiladi.

Qisqacha xulosalar

Albatta, jamiyatimizdagi barcha jarayonlar kabi erni soliqqa tortish tizimini ham eng avvalo, boshlang'ich va asosiy huquqiy poydevor sifatida O'zbekiston Respublikasi Konstituttsiyasi tartibga soladi.

Aytish mumkinki, er solig'i stavkalari oshirib kelinishidan birinchi maqsad daromadga soliqlarning soliq yukidagi ulushini er va boshqa resurs soliqlariga o'tkazib borish bo'lsa, ikkinchisi o'zimizda qoniqarsiz ahvolda bo'lgan resurslardan foydalanishda sub'ektlarni tejamkorlikka o'rgatishdir. Aynan shu masala, ko'rinib turibdiki, dastlab Konstitutsiyada qat'iy inobatga olingan ekan.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Jismoniy shaxslardan undiriladigan er solig'ining davlat byudjeti daromadlaridagi salmog'i qanday?
2. Er solig'ini to'lovchilari bo'lib kimlar hisoblanadi?
3. Jismoniy shaxslarning er solig'i ob'ektiga nimalar kiradi?
4. Yer solig'i stavkalari qanday va kim tomonidan belgilanadi?
5. Jismoniy shaxslarning er solig'idan qanday imtiyozlar belgilangan?
6. Er solig'i bo'yicha jismoniy shaxslar qanday javobgarliklari bor?
7. Er solig'ini xisoblash tartibi qanday?
8. Er solig'ini to'lash muddati qanday?
9. Davlat hokimiyati organlari tomonidan ajratilgan maydonlardan ortiqcha er uchastkalariga ega jismoniy shaxslar uchun er solig'i qanday tartibda undiriladi?
10. Yer solig'i bo'yicha imtiyozga ega bo'lgan jismoniy shaxslarga er solig'idan qanday me'yorlar doirasida imtiyoz beriladi?

Asosiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: O'zbekiston, 1992.
2. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi. Respublika Axborot-Maslahat markazi. -T.: 2006.
3. O'zbekiston Respublikasining "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi Qonuni. -T., 1997 yil 29 avgust.
4. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2002 yil 27 martda 1118-son bilan ro'yxatga olingan, "Er solig'ini hisoblab chiqarish va to'lash tartibi to'g'risida"gi Yo'riqnoma.
5. YUtkina G.F. Nalogi i nalogooblojeniya. Uchebnik. – 5-e izd., pererab. i dop. – M.: INFRA-M, 2006. – 509 s.

6. Nalogi i nalogovaya sistema Rossiyskoy Federatsii: Uchebnik. – M.: Finansы i statistika, 2006. – 464 s.
7. Aleksandrov I.M. Nalogi i nalogooblojenie: Uchebnik. – 3-e izd., prerab. i dop. – M.: “Dashkov i K”, 2005. – 314s.
8. Zavalishina I.A. Soliqlar: nazariya va amaliyot. -T.: “Iqtisodiyot va huquq dunyosi” nashriyot uyi, 2005. 335-342 bet
9. Sbornik zadach po nalogam i nalogooblojenie: Uchebnoe posobie. / M.V. Vladыka, V.F. Tarasova, T.V. Sapгыkina; Pod obщ. red. V.F. Tarasovoy. – M.: KNORUS, 2006. – 360 s.
10. YAhyoev Q. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. -T.: “Fan va texnologiyalar markazi”, 2003.